

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

MAVLYUDA AXMEDSHAEVA

**HOZIRGI ZAMON DAVLATI
VA HUQUQI NAZARIYASI
MUAMMOLARI**

O`QUV QO`LLANMA

TOSHKENT –2008

Toshkent davlat yuridik instituti o`quv-uslubiy Kengashi qaroriga ko`ra nashrga tavsiya etilgan. (2006 yil 29 iyun, 12-sonli bayonnoma)

Axmedshaeva Mavlyuda Axatovna. Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari. O`quv qo`llanma. Mas`ul muharrir: yu.f.d. prof. Z.M.Islomov. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. - 312 bet.

Sarlavhada: O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYuI.

Taqrizchilar: **G.M.Tansiqboeva** yuridik fanlar
nomzodi, dotsent
L.F.Kashinskaya yuridik fanlar
nomzodi, dotsent

Mas`ul muharrir: **Z.M.Islomov**
yuridik fanlar doktori, professor

Mazkur o`quv qo`llanma «Magistratura» bosqichi tinglovchilariga hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari maxsus kursi mavzulari bo`yicha yo`nalish berish maqsadida O`zbekiston va MDH davlatlarida chop etilgan yangi ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda tayyorlangan. Qo`llanmada maxsus kurs dasturiga mos holda hozirgi zamon davlati va huquqining umumnazariy masalalari hamda bu ikki murakkab ijtimoiy hodisani bugungi kun nuqtai-nazari va realliklari asosida tushunishga oid masalalar yoritilgan.

Ushbu o`quv qo`llanma maxsus kurs bo`yicha dastur mavzularini qamrab olganligi bois magistrantlarga hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolarini tahlil etishda yordam berishi mumkin.

© **M.A.Axmedshaeva.**

© **Toshkent Davlat yuridik instituti, 2008-yil**

KIRISH

Davlat va huquq rivoji uzoq davom etib kelayotgan, murakkab, ba'zan ziddiyatli kechgan jarayon sifatida ko'z oldimizdan o'tadi, biroq bu rivojlanishning bosh yo'nalishi shunda ko'rinadiki, uning natijasida davlat va huquq tobora jamiyat hayotida, insonlar turmushida muhim o'rin egallaydigan ijtimoiy - siyosiy hodisalar sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Shu munosabat bilan davlat va huquqqa oid ilmiy izlanishlar doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, davlat va huquqning ilg'or, progressiv, demokratik shakllarini tahlil etish ham ilmiy, ham amaliy nuqtai-nazardan o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Hozirgi zamon sharoitida, yer kurrasining barcha hududlarida yashaydigan xalqlarning orzusi va intilishi bir maqsadga – demokratik adolatli huquqiy davlat sharoitida yashashga qaratilgan.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida paydo bo'lgan mustaqil davlatlar, ya'ni Sharqiy Yevropa, Boltiq bo'yi davlatlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar xalqlari barcha erksevar xalqlar qatori huquqiy demokratik davlat qurish yo'lini tanlab, shu maqsadga erishish yo'lida sa'yi harakat qilishmoqda.

Jahon hamjamiyatiga shu holat ma'lumki, huquqiy demokratik davlat qurish vazifasi juda murakkab, ko'p qirrali va keng qamrovli vazifa bo'lib, uning ro'yobga chiqishi muayyan vaqt va taraqqiyot darajasini taqozo etadi. Bu jarayon qator muammo va qiyinchiliklardan istisno bo'lmagan davrdir.

Huquqiy demokratik davlat g'oyasi - halqimizning asrlar davomida adolatli jamiyat, adolatli qonunlar, adolatli sud to'g'risidagi orzularining ifodasidir. Turon zaminda adolatga, adolatli qonun-larga asoslanib faoliyat yuritadigan davlat haqidagi fikrlar asrlar davomida shakllanib, sayqallanib kelganligi Ma'lum. Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz qonunga asoslangan adolatli jamiyat haqida teran fikrlarni ilgari surganlar.

Davlat va huquq g'oyasi va nazariyasi doimo rivojlanishda, harakatda bo'lgan davlat-huquqiy, siyosiy qarashlarkim, uning yangi-yangi qirralari jamiyat taraqqiyot etgan sari tobora ochila boradi, demakki yanada yangi tadqiqotlarga ehtiyoj shakllana boradi.

Qo'llanma hozirgi zamon davlati va huquqini va ularning mohiyatini tushunish masalasini hozirgi kun, xususan, hozirgi O'zbekiston jamiyati ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy realliklari hamda hozirgi zamon,

ayniqsa, postsotsialistik davlatlar davlatchilik va huquqiy tartibga solish amaliyoti realliklari asosida tahlil etishga qaratilgan.

Davlat va huquqni tushunish bugungi kunda davlat va huquq nazariyasi fanining muhim masalasi hisoblanadi. Professor Z.M.Islomov ta'kidlaganlaridek, «...davlat fenomeniga bir mazmunda ta'rif berish - qiyin va bajarilishi gumon bo'lgan vazifa, chunki qamrab olib bo'lmaydigan narsani qamrab olib bo'lmaydi»¹.

Chunki, hozirgi kunda hozirgi zamon davlati, jumladan, huquqiy davlat tushunchasi va uning amaliy ifodasi haqida olimlar o'rtasida unchalik birlik yo'q. Ba'zi olimlarning fikricha, hozirgi kunda “falon davlatda to'la huquqiy davlat qurilgan” deb bironta davlatni to'la ishonch bilan ko'rsatish qiyin. Bir qancha rivojlangan, demokratik davlatlarning mohiyat va mazmuni huquqiy davlat g'oyalariga mos va monand keladi, shu ma'noda bu jamiyatlarda huquqiy davlat shakllangan deyish mumkin, biroq, bu mamlakatlarning davlat tuzumi ham muayyan o'ziga xoslikka ega.

Hozirgi kunda, O'zbekiston erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik huquqiy insonparvar davlat qurishdek murakkab va mas'ul vazifani amalga oshirish yo'lidan qat'iy odimlamoqda. Bu yo'l oson kechmasligi davlatimiz rahbariyati va xalqimizga juda yaxshi ma'lum. Chunki, tarixda biron-bir mamlakatda yangi jamiyat osonlikcha shakllanib qolmagan. Shu bois ham, oldimizda turgan qiyinchiliklarga qaramay, xalqimiz bu yo'ldan og'ishmay, harakatda davom etmoqda. Qo'llanma maxsus kurs yuzasidan dastlabki urinishlardan biri sifatida muayyan kamchiliklardan xoli bo'lmashligi mumkin, keyingi nashrlarda ularni bartaraf etishga harakat qilamiz. Biz mazkur qo'llanmadagi ma'ruza matnlari davlat va huquq nazariyasiga doir ilmiy adabiyotlar, darsliklar asosida *tayyorlanganligini* alohida ta'kidlaymiz.

«Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari» maxsus kursining maqsadi va vazifalari

«Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari» maxsus kursining maqsadi ijtimoiy bashorat qilishning vositasi sifatidagi huquq to'g'risida magistrantlar tasavvurini qayta ko'rib chiqish, qayta baholash asosida ularda huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish; huquqning magistrantlar tomonidan madaniy-ma'rifiy hodisa qabul qilinishiga erishish; huquqning ijtimoiy munosabatlarga insonparvarlik g'oyalarini

¹ Қаранг: Исламов З.М. Общество.Государство. Право. –Т.: Адолат. 2001. С. 138.

singdirishdagi, shaxs erkinligini tan olish va mustahkamlashdagi o`rmini va ahamiyatini ko`rsatish; hozirgi zamon, jumladan O`zbekiston davlati va huquqi oldida turgan jamiyat hayotini yanada liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida turgan davlat-huquqiy muammolar va ularning yechimlari haqida magistrantlarda aniq tasavvur va ko`nikmalar shakllantirishdan iboratdir.

«Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari» maxsus kursining vazifalari bo`lib, davlat va huquq umumiy nazariyasining eng muhim jihatlari bo`yicha magistrlar bilimini rivojlantirish va mustahkamlash; maxsus kursning munozarali muammolariga nisbatan mustaqil yondashuvni shakllantirish: tahliliy tadqiqotga malakali yondashuvni taqozo etadigan masalalar ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Ta`kidlash o`rinliki, davlat va huquq haqidagi ilk fikrlar qadimgi dunyo, o`rta asrlar va Yangi davr allomalarining asarlarida, fikrlarida, qarashlarida, xususan, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim siyosiy-huquqiy fikri sohiblari bo`lgan Arastu, Polibiy, Suqrot, Platon, Sitseron, o`rta asrlar va Yangi davr mutafakkirlari bo`lmish Grotsiy, Dj.Lokk, Sh.Montesk'e, I.Kant, Gegel va boshqalarning qarashlari, g`oyalarida ifodalangan va ular hozirgi zamon davlat-huquqiy fikri uchun zamin hisoblanadi.

Hozirgi kunda huquqiy davlat masalasida o`z fikrlarini ilgari surib kelgan va kelayotgan rossiyalik tadqiqotchi olimlardan V.S.Nersesyans, S.S.Alekseev, M.N. Marchenko, N.I.Matuzov, A.V.Mal'ko, V.D.Perevalov va boshqalarning davlat nazariyasining postsotsialistik makonda hayotga tadbiq etilishi hamda ularning MDH davlatlarida hozirgi zamon davlat qurish masala va muammolariga bag`ishlangan fikr va qarashlari e`tiborga olingan.

O`zbekiston ilmiy yuridik adabiyotida qator olimlar, xususan, A.A.Azizxo`jaev, H.B.Boboev, Z.M.Islomov, X.T.Odilqoriev, A.X.Saidov, U.T.Tojixonov, J.O`.Toshqulov, A.T.To`laganov, O.T.Xusanov, F. Xaydarov va boshqa olimlar davlat va huquq nazariyasi masalalari bo`yicha samarali ijod qilib kelishmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning davlat va huquqning mohiyati va ahamiyati, jamiyatni yangilashdagi o`rni, jumladan erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdagi pozitiv o`rni haqidagi qimmatli fikrlari, qarashlari «Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari» maxsus kursi qamrab olgan murakkab nazariy masalalarni

bugungi kun realliklari asosida tushuntirishga imkon yaratib beradi, uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Zotan I.A.Karimov asarlarida O`zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonining hozirgi murakkab bosqichida davlat va huquq oldida turgan vazifalar batafsil tahlil etilgan, rivojlanish istiqbollari va yo`llari ko`rsatilgan.

O`zbekistonda qurilajak huquqiy davlat, o`zida ushbu masalada jahon xalqlari erishgan eng yaxshi yutuq va tajribalarni ifodalagani holda, O`zbekistonning o`z taraqqiyot xususiyatlaridan kelib chiqadigan muayyan o`ziga xoslikka ega bo`lishi ham tabiiydir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, «O`zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e`tiqodlaridan qat`iy – nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta`minlab beradigan davlatdir»¹.

Davlatimiz va xalqimizning ushbu maqsadga erishish yo`lidagi sa'y-harakatlari qat'iyy va orqaga qaytmas jarayon ekanligi hozirgi kunda barchaga ma'lum. Shu bois ham, 2005-yil 28-yanvar kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo`shma majlisida davlatimizning ichki va tashqi siyosatidagi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish sohasidagi asosiy vazifalar to`g`risidagi ma`ruzalarida ta`kidlanganidek, «Bizning asosiy va uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo`lidan og`ishmay, izchil va qat'iyyat bilan borishdir»².

Shunga muvofiq, mazkur maxsus kursning ahamiyati shundaki, uni o`rganish magistr'larga ijtimoiy hayotning ziddiyatlilikini, bir xilda emasligini, murakkabligini chuqur anglab olishga va jamiyatning xavfsizligini ta`minlashdagi huquq va davlatning rolini ko`rsatishga yordam beradi. Bu kurs, shuningdek, magistr'larda O`zbekistonda davlatchilikni shakllantirish muammolarini, jumladan liberallashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarining nazariy masalalari to`g`risida aniq

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон. 1992. 16-б.

² Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир». Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2005 йил 28 январ куни бўлган қўшма мажлисида маъруза. // Халқ сўзи. 2005 йил 29 январь.

tasavvurga ega bo`lib, ularning mos yechimi haqida mushohada qilishga yordam beradi.

Maxsus kursning yuridik va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi

Ushbu kurs o`quv rejasidagi davlat va huquq nazariyasi, siyosiy – huquqiy ta`limotlar tarixi, konstitutsiyaviy huquq, xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi hamda falsafa, huquq falsafasi, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog`liqdir.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning paydo bo`lishi, rivojlanishi va bugungi kunda mavjud bo`lishining eng muhim va umumiy qonuniyatlarini o`rganadi. Mazkur maxsus kurs esa hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolarini o`rganadi. Maxsus kursni, ta`bir joiz bo`lsa, davlat va huquq nazariyasining sifat jihatdan yangi bir bosqichi deyish mumkin. U davlat va huquq nazariyasining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda hozirgi zamon davlati va huquqi muammolarini tahlil etadi.

Maxsus kurs siyosiy-huquqiy ta`limotlar tarixi bilan bog`liq. Chunki hozirgi zamon davlati va huquqi haqidagi qarashlar siyosiy-huquqiy ta`limotlar, masalan, davlatning huquq bilan bog`liqligi, adolatli, huquqiy qonunlar haqidagi, hozirgi zamon davlati o`zida ham huquqiy, ham ijtimoiy davlatchilikning murakkab uyg`unlashuvi ifodasi bo`lishi haqidagi fikrlar doirasida shakllanib kelgan.

Kurs falsafa, huquq falsafasi, siyosatshunoslik fanlari bilan ham chambarchas bog`liq. Chunki bu ijtimoiy fanlar ham hozirgi zamon davlati va huquqini o`z nuqtai nazaridan tadqiq etadi, shu bois ular o`zaro «fikir almashadilar», bir-birlarini to`ldiradilar.

Davlat va huquq nazariyasi muammolari barcha ijtimoiy fanlarga yuridik fanlar «falsafasi» sifatida o`zining ijobiy ta`sirini o`tkazadi, ularni tegishli xulosalar, tushunchalar, umumlashmalar bilan boyitadi.

1-MAVZU: “HOZIRGI ZAMON DAVLATI VA HUQUQI NAZARIYASI MUAMMOLARI” MAXSUS KURSINING PREDMETI VA METODLARI¹

REJA:

1. “Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursini o`rganishning zarurligi
2. “Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursi predmeti va metodining umumiyliigi va o`zaro aloqadorligi
3. Yuridik metodning xususiyatlari, funksiyalari
4. Davlat va huquq umumiy nazariyasi rivojlanishda vorisiylik va yangilik
5. Davlat va huquq umumiy nazariyasi yurisprudensiya tizimida
6. Davlat va huquq umumiy nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ. 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. –Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. муҳ. Академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.
7. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат. 2001. 695 с.

¹ Маъруза матнлари қатор манбалар асосида, жумладан, 1, 2, 5, мавзулар В.С.Нерсесянц умумий таҳрири асосида chop этилган «Проблемы общей теории права и государства» номли дарслик материаллари асосида тайёрланган. Қаранг: Проблемы общей теории права и государства. –М.: Изд. групп. Норма-Инфра М. 2004. 832 с.

8. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик таракқиёт сари. –Т.: Ўзбекистон. 2005. 264 б.

9. Ҳалимбой Бобоев. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-китоб. –Т.: Фан нашриёти. 2004. 295 б.

10. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. – М.: Изд. НОРМА. 2004.-832 с.

11. Проблемы теории государства и права: Учебное пособие. / Под ред. М.Н.Марченко. –М.: Юрист, 2004. 656 с.

12. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. – М.: НОРМА. 2000.-233 с.

13. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория, философия. –М.: Статут. 1999. - 810 с.

14. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. –М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.

14. М.Ҳ.Рустамбоев, С.О.Абдухолиқов. Ҳуқуқ методологияси: Ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. 1-китоб. – Т.: 2005. 316 бет.

15. М.Ҳ.Рустамбоев, С.О.Абдухолиқов. Тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. –Т.: 2005. 404 бет.

1.“Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursini o`rganishning zarurligi

Ta’kidlash joizki, magistraturaning 1-kursi tinglovchilariga “Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursini o`qitishni boshlaganda bu muammoviy maxsus kursning “Bakalavriat” bosqichi 1-kursida o`tilgan “Davlat va huquq nazariyasi” fanidan farqi nima, o`sha o`quv predmetidagi masalalarni yana qayta o`tishga to`g`ri kelmaydimi? –degan savollar tug`ilishi tabiiy.

Fikrimizcha, “Davlat va huquq nazariyasi»ning muammoviy kurs sifatida qayta o`tilishi zarurligini belgilovchi bir necha holatlar mavjud:

-“Bakalavriat” bosqichining 1-kursida talabalar davlat-huquqiy hodisalarni, ular to`g`risidagi tushunchalarni hamda davlat-huquqiy hodisalar rivojidadagi o`zaro aloqadorlik qonuniyatlarini kompleks tarzda, o`zaro ziddiyatli bog`liqlikda tushunib, tahlil etishga dunyoqarashi, ayniqsa huquqiy tafakkur va huquqiy dunyoqarashi, hayotiy tajribasi hamda yuridik borliq, jumladan yuridik fanlar va ularning o`zaro aloqadorligi haqida, yuridik amaliyot bo`yicha tasavvurlari hozirgi darajadan ancha tor bo`lganligi aniq. Holbuki, davlat-huquqiy hodisalar,

ularning rivojlanish qonuniyatlari, o'zaro aloqadorligi juda murakkab hodisalar va voqeliklar bo'lib, ularni tushunish talabdan yuqori darajada huquqiy tafakkur va tahliliy aql sohibi bo'lishni talab etadi. Bu obyektiv mazmunga ega bo'lgan holatdir. Magistrantlar esa oliy yuridik ta'limning tayanch bosqichini tugatgan huquqshunoslardir. Shu bois ular davlat-huquqiy hodisalarning mazmunini, tushunchasini bilish bilan cheklanmay, balki ular o'rtasidagi murakkab, ba'zan ziddiyatli aloqadorlikning mohiyatini, muammolarini teran tushuna olishadi, chunki ularda yuridik fanlar tizimida davlat va huquq nazariyasining tutgan o'rnini haqida faqat nazariy bilimlar majmuasi bo'libgina qolmay, balki o'tgan vaqt davomida boshqa yuridik fanlarni o'rganish hamda ta'til davomida o'tagan amaliyotlari jarayonida bu haqda real tasavvurga ega bo'lishgan. Bundan tashqari, magistrantlar turli yuridik institutlar faoliyati, umuman yuridik amaliyot haqida muayyan empirik bilimlarga ham ega. Shu munosabat bilan ular davlat-huquqiy hodisalarning o'zaro aloqadorligi, rivojlanish qonuniyatlarini bugungi kun realliklari asosida butunlay yangi sifat darajasida tahlil etish va bu sohalardagi muammolarning yechimini topishga harakat qilishga qodir.

-Ijtimoiy fanlar mafkuralashgan va siyosiylashgan paytlar bizdan tobora uzoqlashib, u fan bilan siyosatning qo'shiluvi noo'rin, zararli ekanligi haqida keyingi avlodlarga guvohlik beruvchi va ogohlantiruvchi tarix sahifalariga aylanmoqda. Ayni paytda, fanda mumtoz mazmunga ega bo'lgan, vaqt, makon tanlamaydigan haqiqat durdonalari hisoblanmish umume'tirof etilgan bilimlar va materiallarni hozirgi zamon davlat-huquqiy ilmi yutuqlari bilan oqilona uyg'unlashtirish muammosi ham bugungi kunda dolzarbdir. Masalan, inson huquqlarining birlamchiligi, davlat va fuqaroning o'zaro mas'ulligi, davlatning huquq bilan bog'liqligi, huquq nafaqat ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida harakat qilmay, balki u kishilik jamiyati ma'rifiy-madaniy rivojlanishining ham munosib mahsuli ekanligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlar doimo muhim va dolzarbdir.

-XX asrning oxiri XXI asr boshlari butun kishilik jamiyati rivojida burilish yillari bo'lganligi ma'lum. Kommunistik mafkuraga asoslangan sotsialistik tuzumning deyarli barham topishi ijtimoiy fikr rivojida katta o'zgarishlarni taqozo etdi. Shunga bog'liq holda postsotsialistik makonda tashkil topgan davlatlarda davlat-huquqiy qarashlar tubdan qayta shakllana boshladi.

Ta'kidlash joizki, eski qarashlardan voz kyechish va yangilarini qabul qilish hamda o'z qimmatini yo'qotmaydigan, umume'tirof etilgan

qarashlar va qoidalarni mohiyatini bugungi kun nazari orqali qayta mushohada etish jarayoni osonlikcha kechmoqda, deyish qiyin. Davlat va huquq to'g'risidagi qarashlar va qoidalarning ayrimlarini inkor etish, ayrimlarini qayta qarab chiqish, ayrimlarini esa yangidan qabul qilish har bir tadqiqotchidan ilmiylik va obyektivlik tamoyillariga asoslanib ish yuritishni talab etadi. Masalan, qator ijtimoiy fanlarda davlat, huquqga faqat sinfiy yondashuv asosida qaralganligi, aslida esa ular o'zida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarning hamda jamiyat taraqqiyotining muayyan darajasida davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni ifodalashi bilan tavsiflanadi;

Yoinki, huquqiy davlat, hokimiyatlar bo'linishi, xususiy mulk, ko'ppartiyaviylik, mafkuralar xilma-xilligi, huquqning ommaviy va xususiya bo'linishi kabi institutlar va hodisalarga bir paytlar salbiy qaralgan bo'lsa, bugungi kunda ularga munosabat tubdan o'zgargan. Bunday pozitiv jarayonlar O'zbekiston huquqiy tizimida ham kechmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Biz yaqin o'tmishimizda sinfiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi»¹.

-Davlat va huquqga munosabat, bu ikki hodisaga nisbatan qarashlar har bir davrda o'ziga xos ekanligini e'tirof etish zarur. Shunga muvofiq, «har bir davrning davlat va huquq haqida o'z qarashlari bor» deb aytish mumkin. Ayni paytda har bir huquqshunos olim va tadqiqotchi davlat va huquq haqida o'z tasavvuriga egaligini ham nazarda tutish kerak. Shu munosabat bilan davlat va huquqga berilgan har qanday ta'rifda ma'lum ma'noda subyektiv element mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shu o'rinda L. Gumplovichning «Dunyoda qancha davlatshunos va faylasuflar mavjud bo'lgan bo'lsa, shuncha davlatning ta'rifi ham mavjud bo'lgan», degan fikrini eslash o'rinli². Darhaqiqat, har bir olim davlatga ta'rif berishda o'z dunyoqarashi, yuridik borliqni tushinishi darajasi va sifatiga asoslangan va o'zi yashagan davr xususiyatlarini o'zida ifodalagan holda bu ishni amalga oshiradi. A.Navoiyning davlat va odil hukmdor haqidagi fikrlari

¹Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мухаддасдир.3-том.—Т.:«Ўзбекистон»,1996,19-20 бетлар.

² Гумплович Л. Общее учение о государстве.СПб.,1910.С.36. / Ҳавола олинди: Проблемы теории государства и права. / Под.ред. д.ю.н.проф. М.Н.Марченко. М.: Юрист. 2004. С.74.

qanday bo'lishidan qat'iy-nazar o'sha davr va o'sha makon uchun ilg'or qarash bo'lganligi aniq.

-Davlat-huquqiy hodisalarning murakkabligi, ko'pqirraligi, ba'zan ziddiyatli ekanligi bu masalalarni chuqur mushohada etishni taqozo etadi. Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan va boshqa shu kabi omillar mazkur muammoviy kursni o'rganish zarurligini belgilab beradi. Hozirgi zamon huquqshunosi davlat va huquq haqidagi eng yangi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi qatorida, bu sohadagi muammolarning yechimi haqida ham o'z yondashuviga ega bo'la olishi kerak. Hozirgi jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida huquqshunos kadrlardan yuksak huquqiy tafakkur, amaliy yo'naltirilgan chuqur bilimlarga ega bo'lishlik talab etiladi.

2. “Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursining predmeti va metodining umumiyligi va o'zaro aloqadorligi

“Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursining predmeti haqida gapirishdan oldin, umuman “Davlat va huquq nazariyasi” fani haqida gapirish zarur. “Davlat va huquq nazariyasi” fani yuridik fanlar ichida o'zining umumnazariy, umum-uslubiy xarakteri bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda yuridik fanlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shuningdek, g'arb universitetlari dasturlarida shu nomdagi fanga asoslanadigan o'quv predmetini uchratish qiyin. Bu fan ko'pincha “Yurisprudensiya” deb nomlanadigan fanga yaqin turadi. Shu bois, avvalo davlat va huquq nazariyasining “Yurisprudensiya” deb nomlangan fan bilan o'zaro munosabati va nisbatini aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Dastavval, fan va o'quv predmeti sifatidagi davlat va huquq nazariyasining nomlanishiga e'tibor qarataylik.

-Fanning nomidan ko'rinib turibdiki, bu fan nazariy xarakterga ega. Ma'lumki, nazariya bu umumlashgan bilimlar tizimi, tadqiq etilayotgan hodisaning turli qirralarini tushuntirib berish demakdir. Bu fan davlat-huquqiy borliq va uning rivojlanish qonuniyatlari, muhim o'zaro aloqalari haqida yaxlit tasavvur beradi;

-garchi bu fan nazariy xarakterda bo'lsada, shu bilan bir qatorda u abstrakt, mavhum nazariya bo'lmay, balki aniq davlat-huquqiy hodisalar haqidagi umumlashgan, yig'ilgan va tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir;

-davlat huquqiy hodisalar va muassasalar bir-biridan ajralgan, uzilgan holda o`rganilmay, balki o`zaro bog`liqlikda, o`zaro aloqadorlikda, bir-birini to`ldirgan holda o`rganiladi;

-davlat va huquq o`zaro bog`liq ijtimoiy-siyosiy hodisalar bo`lib, ularning ikkisi ham butun jamiyatga mansub, daxldor hodisalardir;

Ta`kidlash o`rinliki, davlatni ijtimoiy-siyosiy hodisa deb e`tirof etish keng tarqalgan, ayni paytda huquq esa yuridik hodisa hisoblanadi, bundan xulosa qilish mumkinki, davlat va huquqning umumiy nazariyasi – siyosiy-huquqiy xarakterdagi fandir;

Ma`lumki, fanning turlicha nomlari mavjud:

“Davlat va huquq nazariyasi”, ”Davlat va huquq umumiy nazariyasi”, “Davlat va huquq nazariyasi muammolari”, “Huquq va davlat umumiy nazariyasi muammolari” va shu kabi boshqa nomlanishlari mavjud. M.N.Marchenkoning yozishicha, bu fan Rossiyada dastlab “Huquq ensiklopediyasi” sifatida shakllanib, vaqt o`tishi bilan mazmunan “Huquq nazariyasi” faniga o`ta boshlagan. “Huquq nazariyasi” fani bilan bir qatorda g`arbda asta-sekin ushbu fan ta`siri ostida hozirgi zamon yurisprudensiyasi predmeti shakllana borgan¹. Yurisprudensiya bu inson erkinligining umumiy va zaruriy shakllari sifatidagi huquq va davlat haqidagi ilmiy bilimlarning maxsus tushunchaviy-huquqiy tizimidir².

Ta`kidlash joizki, ilmiy adabiyotda yurisprudensiyaning predmeti va metodi haqida turli fikrlar mavjud. Ayni paytda yurisprudensiya bilan davlat va huquq nazariyasi predmeti o`rtasida jiddiy o`xshashlik mavjudligini e`tirof etish zarur. Shu bois, fanning nomidan ko`ra, uning predmeti va mazmuniga, ya`ni bu fan nima bilan shug`ullanadi, uning predmeti va mazmunini nimalar tashkil etishiga asoslanish maqsadga muvofiq. Ta`kidlash joizki, ba`zi olimlar, jumladan V.S.Nersesyan yurisprudensiya bilan davlat va huquq umumiy nazariyasini bir-biriga yaqinligini ta`kidlashgan. Davlat va huquq umumnazariyasi yuridik fanlar tizimida fundamental o`rin egallaydi, qisqaroq qilib, bu fanni «Davlat va huquq nazariyasi» deb ataydilar.

Ushbu fan o`z vazifalari, funksiyalari, predmeti va metodiga ko`ra butun yurisprudensiya uchun umumiy ahamiyat kasb etadi. Unda davlat va huquq haqidagi ilmiy nazariy fikrning eng muhim yutuqlari, davlat va

¹ Бу ҳақда қаранг: Проблемы теории государства и права. / Под.ред. М.Н.Марченко. - М.: Юристъ. 2004. С.14.

² Қаранг: Нерсесянц В.С. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. – М.: Норма. 2000. С.2.

huquq haqidagi bilimlar majmuining eng muhim va ahamiyatli barcha nazariy jihatlarini jamlanadi.

Alohida olingan yuridik fanlarning ilmiy va nazariy ahamiyati ularning yuridik fan umumiy tizimida, bir butun yaxlit yuridik-nazariy bilimlar tizimida tutgan o`rni va funksiyalari bilan belgilanadi. Bunda aynan yaxlit butunning ilmiy jihatlarini, ularning predmeti va metodini, ilmiy bilish maqomi belgilab beriladi. Yuridik nazariy bilim sohasida tizimli-strukturaviy munosabatlar mantiq`i bo`yicha yaxlit butunning xususiyatlari prinsip jihatidagi ularning tashkil etuvchi yuridik fanlar xususiyatlari yig`indisidangina iborat emas.

Jamlangan ko`rinishda ilmiy-nazariy yaxlit butunning bu xususiyatlari yuridik bilishning predmet va metodini belgilab beruvchi huquq tushunchasida ifodalanadi.

Bundan, butun yuridik fanning yagona predmeti va metodi bir vaqtning o`zida har bir yuridik fanning ham predmeti va metodi ekanligi kelib chiqadi. Chunki, bir butun yaxlit olingan yuridik fan barcha tizimning tarkibiy elementlari sifatida alohida olingan yuridik fanlar faqat yagona bo`lgan huquq tushunchasining turli shakliy ko`rinishlari, ya`ni o`sha birgina yuridik predmet va yuridik metodning turli aspektlari bo`lib hisoblanadilar.

Davlat va huquq umumnazariyasi predmetining o`ziga xosligi mazkur fanning ilmiy bilish imkoniyatlari va maqsadlari, ularning yuridik fan tizimidagi umum ilmiy vazifalari va funksiyalari, yuridik fanning butun ijtimoiy va boshqa fanlar tizimida tutgan o`rni va ahamiyati bilan belgilanadi¹.

Demak, davlat va huquq umumnazariyasining predmeti bu yagona mustaqil, tizimli yaxlit fan sifatida butun yurisprudensiyaning umumiy nazariyasi hisoblanadi. Davlat va huquq umumnazariyasining predmeti bu butun yurisprudensiyaning umumilmiy asoslari, uning predmeti va metodologiyasi, tizimi va strukturasi, uning ontologiyasi, gnoseologiyasi va aksiologiyasidir.

Davlat va huquq umumnazariyasining bunday umumilmiy maqomi va rolini e`tiborga olgan holda aytish mumkinki, davlat va huquq umumnazariyasining predmeti va metodi - bu butunicha barcha yuridik fanining predmeti va metodologiyasini ilmiy-nazariy asoslash hisoblanadi. Shu sababli bundan keyin yurisprudensiyaning umumilmiy asoslarini yoritib borish (uning predmeti, metodologiyasi, tizimi va h.z.) bir vaqtning

¹ Қаранг: Проблемы общей теории права и государства. /Под. ред. Нерсисянца В.С. М.: Норма-Инфра М.2004. С.2.

o`zida davlat va huquq umumnazariyasining predmeti va metodi muammolarini mazmunan tadqiq qilish va bayon qilish bilan aynan teng bo`ladi.

Yurisprudensiya obyektlarining dualizmi va predmetining birligi. Har qaysi fan o`zining o`rganadigan obyektlari haqidagi bilimlarni ishlab chiqishi va tashkil qilishning muayyan usulidir. Bu ma`noda yuridik fan yuridik bilimlarni, ya`ni davlat va huquq kabi obyektlar haqidagi ilmiy bilimlarni ishlab chiqishning muayyan usuli hisoblanadi.

Ilmiy o`rganish obyekti fan predmetidan farqlanadi. Aynan bir obyekt turli fanlar tomonidan o`rganilish mumkin, biroq bunda har bir fan mazkur obyektни o`zining maxsus predmeti va metodi pozitsiyasidan o`rganadi.

Obyekt - bu tegishli fanning bilish usullari va vositalari yordamida ilmiy tadqiq qilinishi lozim bo`lgan narsa, hodisa. Ilmiy o`rganish jarayonida obyekt haqidagi boshlang`ich empirik bilimlar nazariy bilimlar, ya`ni o`rganilayotgan obyektning asosiy mohiyatıy xususiyatlari, belgilari va xarakterlari haqidagi tushunchalar tizimi, uning genezisi, amal qilish, rivojlanish qonuniyatlari bilan to`ldiriladi. Obyektning talab qilingan mohiyatıy xususiyatlari tegishli fanning predmeti bo`lib hisoblanadi.

Sodda qilib aytganda, fan obyekti - bu biron bir hodisa, jarayon, narsaning uni ilmiy o`rganguncha qadar bo`lgan holati, predmet esa – bu o`rganilgan obyekt, ya`ni ilmiy bilishdan so`ng hodisa haqida shakllangan bilimlar. Gap bu erda o`rganilmoqchi bo`lgan obyektlar bilan o`rganib bo`lingan obyekt haqidagi g`oyalarni farqi haqida boradi. Fan obyekti va predmeti haqida keltirilgan qoidalar yuridik fanga ham taalluqli. Shu sababli umumiy ko`rinishda aytish mumkin-ki, yuridik fan obyektlari bo`lib, davlat va huquq, uning predmeti bo`lib, davlat va huquqning asosiy mohiyatıy xususiyatlari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, yuridik fanning predmeti huquq tushunchasi va davlat tushunchasi hisoblanadi, chunki obyektning mohiyatıy xususiyatlari ilmiy bilish talablariga muvofiq faqat oliy bilish shakli bo`lgan tushuncha orqaligina adekvat tarzda ifodalanishi mumkin.

Biroq, yuridik fan predmetining bunday dastlabki tavsifi keyin ham aniqlashtirilishga ehtiyoj sezadi. Garchi yuridik fan ikki obyekt (davlat va huquq)ni o`rgansada, biroq, u har qanday fan singari faqat bir predmetga ega bo`ladi. Bu aslida turlicha bo`lgan ikki obyekt (davlat va huquq)ning yuridik fan doirasida va pozitsiyasida mazkur fan yagona bir predmetining ikkita zaruriy komponentlari (tarkibiy qismlari) sifatida o`rganilish va tadqiq qilinishini anglatadi. Yuridik fanni davlat va huquq haqidagi yagona

fan sifatida tan olish uning obyektlari dualizmini uning predmeti darajasida bartaraf etishni (taqozo etadi), ya'ni nazariy-tushuncha darajasida –bu ikki obyekt haqida uning asosiy mohiyatliy xususiyatlarini ifoda qiluvchi bitta tushuncha shaklida ifoda etishni taqozo qiladi.

Tushunchalar dualizmi (davlat tushunchasi va huquq tushunchasi) ilmiy predmetlar dualizmini anglatib, davlat va huquq haqidagi bitta yuridik fanning inkor etishini anglatadi. Bu ikki turli fanlarning har biri o'zining qator ilmiy fanlar tizimiga ega bo'lishi mumkin: huquq haqidagi fan doirasida o'zining huquq nazariyasi, huquq tarixi, tarmoq va maxsus huquq fanlari, davlat haqidagi fanda esa tegishlicha o'zining davlat nazariyasi, davlat tarixi, davlat muammolari kabi maxsus fanlar.

Tushunchalarning ushbu dualizmini olib tashlash va fan predmetining zarur birligiga erishish uchun huquq tushunchasidan yoki davlat tushunchasidan kelib chiqish kerak. Demak, bu tushunchalardan biri mantiqan birlamchi, belgilovchi, predmet tashkil qiluvchi, ikkinchisi ikkilamchi bo'lishi kerak.

Davlat va huquq haqidagi yagona fanning predmeti davlatning huquqiy tushunchasi (ya'ni davlat haqidagi huquqiy ta'limot, davlatning yuridik nazariyasi) yoki huquq tushunchasini o'z ichiga olgan davlat tushunchasi (ya'ni huquq haqida davlat ta'limoti, huquqning davlat nazariyasi) bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda bu ikki tushunchalardan birining mantiqiy birlamchiligisiz yagona fan haqida fikr yuritishimiz o'rinsizdir. Yuridik fan predmeti –huquq tushunchasi va tegishlicha davlatning huquqiy tushunchasi bo'lgan yurisprudensiya sifatida vujudga kelgan, rivojlangan va rivojlanmoqda.

Huquq va davlat haqida yagona yuridik fan bo'lgan yurisprudensiya nazariyasi va tarixi mazkur fan doirasida huquq tushunchasi bilan davlat tushunchasining dualizmini aynan davlatning huquqiy tushunchasini, ya'ni davlatning mohiyatliy huquqiy jihatlarini o'z ichiga olgan huquqning muayyan tushunchasi asosida va pozitsiyasidagina barham topishi va zarur bo'lgan tushuncha predmet birligiga erishilishini ko'rsatadi. Bunda huquqni tushunishning ikki asosiy tipiga (yuridik va legistik) yurisprudensiyaning tipologik jihatdan farqlanuvchi ikki konsepsiyasi mos keladi.

Huquq bilan qonunning (pozitiv huquq) farqlanishidan kelib chiquvchi va yuridik (antilegistik, antipozivistik) tushunishga hamda huquqning yuridik tushunchasiga (o'z ichiga davlatning tegishli yuridik tushunchasini oluvchi) asoslanuvchi yurisprudensiya huquq va davlat haqidagi ta'limotning yuridik tipiga kiradi.

O`z navbatida huquq bilan qonun (pozitiv huquq)ni tenglashtiruvchi va legistik (pozitiv va etatik) huquq tushunish hamda huquqning legistik tushunchasiga (o`z ichiga davlatning muayyan legistik tushunchasini qamrab oluvchi) tayanuvchi yurisprudensiya huquq va davlat haqidagi ta`limotning legistik tipiga kiradi.

Huquqni tushunish va yurisprudensiyaning yuridik tipi (doirasida) huquqning libertar-yuridik tushunchasiga asoslanadi va huquq erkin individlarning formal tengligi, ya`ni insonlar erkinligining umumiy va zaruriy shakli sifatida izohlanadi. Huquqning bu umumiy tushunchasi bilan yurisprudensiya yuridik-libertar konsepsiyasining yagona paradigmasida uning ikkala obykti-erkinlikning normativ shakli sifatida pozitiv huquq (huquqiy qonun sharoitida) va aynan shu erkinlikning institusional shakli sifatida davlat qamrab olinadi.

Shunday qilib libertar-yuridik konsepsiyaga ko`ra, yurisprudensiya - bu erkinlik haqidagi fandir. Yurisprudensiya predmeti birligining muammosi legist (pozitivist)lar tomonidan boshqacha hal etiladi. Bir tomondan Kel`zen uchun va barcha legistlar uchun huquq - bu hokimiyat buyrug`i, majburiy qoida va davlat mahsuli - bir so`z bilan aytganda «majburiy tartib». Boshqa tomondan, ular formal-normalogik metod yordamida huquqni bajarilishi lozim bo`lgan normalar tizimi sifatida tushuntiradi va shu pozitsiyadan har qanday davlatni «huquqiy tartibiyat», «huquqiy davlat» sifatida tushuntiradi. Bunda Kel`zen «huquqiy davlat deganda» pozitiv-huquqiy (legistik) davlatni nazarda tutadi va umumiy ma`nodagi «hu-quqiy davlatni» inkor etadi, uningcha bunday davlat soxta tabiiy-huquqiy tasavvurlardan kelib chiqadi.

Davlatni bunday pozitiv-huquqiy tushunish Kel`zenning fikricha, «davlat va huquqning an`anaviy dualizmini» barham toptirishga va yurisprudensiya predmetining birligiga (nopozivistik versiyada) erishishga imkon beradi: «Bilish predmeti – bu faqat huquqdir». Bunda huquq deganda aynan pozitiv huquq, ya`ni davlatning har qanday (ixtiyoriy va) majburiy qoidasini tushunish kerak.

Davlat va huquq haqidagi ikki radikal ta`limoti sifatida yurisprudensiyaning yuridik konsepsiyasi va kel`zencha legistik konsepsiyani qiyoslab shuni aytish mumkinki, ikkala holatda garchi prinsipial turli yo`llar va turli asoslarda yurisprudensiya tegishli konsepsiyasining tushunchaviy – huquqiy birligiga erishilgan bo`lsada, huquqning yagona tushunchasi (libertar-yuridik va normativ-legistik) ilmiy bilishning ikki obykti (huquq va davlat)ni qamrab oladi va ular uchun umumiy va yagona hisoblanadi. Tafovut shundaki, birinchi yondoshuvda

gap huquq, davlat va yurisprudensiyaning sof yuridik konsesiyasi haqida, kel'zencha yondoshuvda esa, huquq, davlat va yurisprudensiyaning sof legistik konsepsiyasi haqida boradi.

Huquq, davlat va yurisprudensiyaning bu ikki konsepsiyasi butun yurisprudensiyaning u yoki bu davrda u yoki bu mamlakatda real mavjudligidan ko'ra ideal (kam-ko'stsiz) konsepsiyalar hisoblanadi. Huquqiy fikrlar va yurisprudensiyaning umuman real rivojlanishi uchun aksincha, huquqiy tushunishning bu ikki chekka qutblari o'rtasida kurashi va plyuralizmi xos.

Bularning barchasi fan sifatida yurisprudensiya va huquqni tushunish tipologiyasining nazariy ahamiyatini kamaytiradi.

Chunki oxir oqibatda aynan huquqni tushunishning muayyan tipi huquq va davlat haqidagi yagona va yaxlit fan sifatida yurisprudensiya metodi sifatida ham, predmet birligining ham nazariy ma'nosi va mazmunini belgilab beradi. Huquq va davlat haqidagi yuridik bilim va yuridik bilish jihatdan huquq tushunchasi boshlang'ich va predmet hosil qiluvchi asos sifatida, shuningdek, bu tushunchaga muvofiq keluvchi davlatning huquqiy tushunchasini ham belgilab beradi, aytilganni hisobga olib, yuridik fan predmeti bo'lib huquq tushunchasi deb hisoblash mumkin. Bunda albatta huquqning bunday tushunchasi nazariy-konseptual shaklda huquq va davlatning mohiyatiy xususiyatlari to'g'risidagi majmuaviy yuridik bilimlar mazmunini qamrab olishi va ifodalanishini esdan chiqarmaslik kerak.

Yuqorida aytilganlar yuridik fan predmetining o'z nazariy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lgan ta'riflarini shakllantirishga imkon beradi.

Eng qisqa ta'rif: «Yuridik fan predmeti – bu huquq tushunchasi». Predmetni bunday tushunishni yana boshqacha qilib shunday ta'riflash mumkin: «Yuridik fan predmeti – bu huquq tushunchasi va davlatning huquqiy tushunchasidir».

Aynan ma'noni boshqacha qilib ham berish mumkin: «Yuridik fan predmeti – bu o'z ichiga davlatning ham huquqiy tushunchasini olgan va huquq bilan davlatning mohiyatiy xususiyatlarini ifodalagan huquqning tushunchasidir». Xulosa qilib aytganda, «Yuridik fan predmeti – bu muayyan tushunchalarda ifodalangan huquq va davlatning mohiyatiy xususiyatlaridir».

Libertar-yuridik konsepsiyaga ko'ra, davlat va huquq individlar, ular birlashmalari, ittifoqlari, tashkilotlari erkinligi mavjudligining va amalga oshirilishining umumiy va zaruriy shakllaridir. Bu libertar – yuridik ta'rifga ko'ra yurisprudensiya predmeti erkinlik hisoblanishini anglatadi.

Shu sababli yurisprudensiyani erkinlik haqidagi fan – erkinlikning umumiy va zaruriy huquqiy (davlat – huquqiy) shakli haqidagi fan deb hisoblash kerak.

3. Yuridik metodning xususiyatlari, funksiyalari

Yuridik bilish predmeti va metodining o'zaro bog'liqligi va birligi yuridik fan predmetini libertar tushunish davlat va huquq umum nazariyasining xususiyatini, vazifalari va maqsadlarini aks ettiradi. Yuridik fan predmeti xususiyatida uning metodining xususiyatlari ifodalangan. Bu holat bilimlar ilmiy tizimining predmeti va metodi mantiqiy, nazariy birligi umumilmiy talabiga mos keladi. Yuridik metod (yuridik fan metodi) – bu yuridik bilish yo'lidir. Yuridik bilim obyekti – bu obyektiv borliqning tarkibiy qismi sifatida davlat va huquqdir. Har qanday metod kabi yuridik metod – bu obyektidan predmetga, davlat va huquq haqidagi dastlabki (hissiy, empirik) bilimlardan bu obyektlar haqidagi nazariy, ilmiy yuridik bilimlarga tomon bo'lgan yuridik bilish yo'lidir. Bilish yo'li sifatida yuridik metod bu davlat va huquq haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va rivojlantirishning cheksiz yo'li, bu obyektlar haqidagi jamlangan bilimlardan ularni boyitish va rivojlantirish, bilimlarning empirik darajasidan nazariy darajasiga, quyi darajadagi nazariyadan yuqori darajadagi nazariyaga, nazariy jihatdan mazmunli va boy tushunchasiga qarab bo'ladigan to'xtovsiz harakatdir. Har qanday metod kabi yuridik metodni bilish yo'li deb sanalishiga asos shundaki, u ham harakatdagi, shakllanishdagi, o'zgarishdagi, rivojlanishidagi yuridik bilimdir.

O'z navbatida har qanday nazariya davlat va huquqni bilish yuridik metodining tizimli va tuzilmaviy ifodasi hisoblanadi, shu bois har qanday yuridik nazariya metod funksiyasiga ham ega.

Yuridik fan metodi – bu yuridik bilimlarni hosil qilish, yuridik bilish usulidan iborat yuridik metoddir. Yuridik metod huquq tushunchasidan kelib chiqib borliqni aks ettirish va yuridik bilish usuli hisoblanadi. Yuridik metodning o'ziga xosligi shundaki, u o'z ma'nosi va tabiatiga ko'ra –o'rganilayotgan borliqni huquqiy modellashtirish, huquq tushunchasi doirasida va pozitsiyasida borliqni anglash usulidir. Yuridik metod uchun dunyoga huquqiy qarash, borliqni huquqiy ko'rish xosdir. Yuridik jihatdan o'rganilgan borliq yuridik borliq sifatida namoyon bo'ladi.

Yuridik fan va yuridik metod uchun yuridik borliq –bu yuridik bilish dunyosining aniqlangan mohiyati va axtarilayotgan haqiqatidir. Agar pifagorchilar matematika pozitsiyasida turib dunyoning mohiyati –

sonlarda deb bilsalar, yuristlar shunday asosda dunyoning mohiyati – bu huquqdir deb hisoblaydilar. Ularning har biri o'zi o'rganadigan va biladigan dunyoni nazarda tutadi: matematik –sonlar dunyosini, yurist – huquq dunyosini.

Xuddi shu tarzda fiziklar, ximiklar, biologlar o'zlari o'rganadigan dunyoning tegishli formulasini qidiradilar.

Yuridik dunyo formulasi – bu huquq tushunchasi hisoblanadi.

Bu turli dunyolarning turli formulalari mohiyati bo'yicha – bu obyektiv dunyoning umumiy qonunlaridan boshqa narsa emas. Shu ma'noda yuridik fanni qiziqtiradigan haqiqat va predmet bo'lib, huquqiy borliq normasi, qoida, prinsipi sifatidagi huquq hisoblanadi. Yuridik formula sifatida huquq tushunchasi borliq huquqiy tartibotining prinsipi bo'lib, uning asosida yuridik metod harakat qiladi va unga ko'ra o'rganilayotgan obyektiv borliqning yuridiklashuvi (yuridik logarifmlash) amalga oshiriladi.

Yuridik metodning o'ziga xosligi va asosiy funksiyalari

Yuridik metod yordamida yuridik fan predmeti (huquq tushunchasi) konkretlashtiriladi va yuridik nazariya sifatiga ega bo'ladi.

Yuridik metod vositasida yangi yuridik nazariyaning shakllanishi o'z ichiga o'zaro bog'liq 2 bosqichni oladi:

1) butun avvalgi yuridik bilimlarni huquqning yangi tushunchasi asosida sifat jihatidan qayta o'zgartirish

2) yangi yuridik nazariya yo'nalishida kesib qo'yilgan yuridik bilimlar o'sishini davom ettirish.

Yuridik metod –bu yuridik fanning o'ziga xos umum ilmiy metodidir.

Borliqni yuridik bilishning maxsus metodi sifatida u ikki asosiy funksiyani bajaradi: 1) yuridik bilimlarni hosil qilish; 2)yuridik bilimlarning nazariy (ilmiy) tizimini shakllantirish.

Birinchi funksiyani amalga oshirishda yuridik metod borliqni maxsus yuridik tadbiq qilishning metodi sifatida chiqib, bunda yuridik bilim hosil qilinadi, ko'payadi, rivojlanadi. Bu bilimning yuridik xarakteri borliqni tushunish, o'zlashtirish, tushuntirish huquq tushunchasi chegarasida, pozitsiyasida va huquq nuqtai nazaridan amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Yuridik metodning bu ikki funksiyasi (yuridik bilimlarni ishlab chiqarish usuli va yuridik bilimlarni ilmiy tashkil qilish usuli sifatida)ning ichki birligi shunga asoslanadiki, ular yagona huquq tushunchasining turli o'zaro bog'liq jihatlarini ifoda qiladi.

4. Davlat va huquq umumnazariyasi rivojlanishida yangilik va vorislik

Davlat va huquq umumnazariyasining va butun yuridik bilimning rivojlanish jarayoniga miqdoriy va sifat o'zgarishlar xos. Yuridik bilimning miqdoriy o'zgarishlari (uning ko'payishi, aniqlashtirilishi, konkretlashtirilishi, uning hajmini ortishi) yurisprudensiya muayyan konsepsiyasining asosida yotuvchi huquqni u yoki bu tushunishi doirasida yuz beradi. Yuridik bilimning sifat o'zgarishlari yangi metod va yangi predmetga ega yangi yuridik nazariyaning shakllanishi, huquqning avvalgi tushunchasidan huquqni yangi tushunchasiga o'tish bilan bog'liq. Huquqning yangi tushunchasi yuridik fan obyektlari haqidagi empirik Ma'lumotlar va to'plangan nazariy bilimlarni (nisbatan) o'rganishga, tushunishga va izohlashga nisbatan tegishli yangicha yondashuvni anglatadi. Huquqning yangicha tushunchasi yuridik bilishda sifat o'zgarishi hisoblanadi.

Davlat va huquq nazariyasi rivojida yangilik vorislik bilan uzviy bog'liq. Yangilik (huquqni yangicha tushunish, yangi nazariya va huquq) davlat va huquqni tushunishning yanada chuqur, mazmunli va adekvat shakli sifatida eski, avvalgi yuridik bilimlarning butun majmui negizida vujudga keladi. Huquqning yangi tushunchasi huquqni avvalgi tushunchasini va unga mos nazariyasini o'chirib tashlamaydi, balki, ularni dialektik tarzda olib tashlaydi, ya'ni avvalgi tushunchani cheklangan bilish imkoniyatlari va chegaralarini barham toptiradi va shu bilan birga ularning nazariy-bilish ma'nosini va natijasini saqlab qoladi. Bu bilish huquqning yangi tushunchasi avvalgi yuridik fikrning ilmiy ahamiyatli natijalarini saqlab qoladi va yuridik bilishning yangi, yuqori darajasida yanada chuqur nazariy pozitsiyada rivojlantiradi.

5. Davlat va huquq umumnazariyasi fani yurisprudensiya tizimida

Yuridik fan alohida yuridik fanlar majmuidan iborat bo'lib, ularning har biri davlat va huquqning muayyan jihatlarini o'rganadi. Odatda yuridik fan tizimida fanlarni quyidagicha guruhlarga bo'lish qabul qilingan:

1. Tarixiy – nazariy yuridik fanlar
2. Tarmoq yuridik fanlar
3. Maxsus amaliy yuridik fanlar

4. Xalqaro yuridik fanlar.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlarning birinchi guruigga mansub bo`lib, u guruhdosh fanlar hamda boshqa guruhga kiruvchi fanlar bilan tegishlicha bog`liqlik va ular bilan amaliy hamkorlikda harakat qiladi.

6. Davlat va huquq nazariyasining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi

Yuridik fanning boshqa fanlar bilan bo`lgan munosabati va aloqalarini anglash va rivojlantirish mazkur fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat va huquqni boshqa yuridik fanlar ham o`rganishi yurisprudensiya uchun alohida qiziqish tug`diradi. Yuridik fanlar obyektlarni o`z predmeti va metodining o`ziga xos pozitsiyasidan, nuqtai nazaridan o`rganadi. Masalan, falsafa davlat va huquqni borliq umumiy qonuniyatlarini o`rganish jihatidan tadqiq qiladi. Davlat va huquqni o`rganish falsafa ta`limoti va falsafiy tafakkur pozitsiyasidan turib uning ma`nosini anglashga yo`naltirilgan. Davlat va huquqni tarix, sotsiologiya, politologiya, iqtisod fani ham o`rganadi. Biroq yuridik fan har qanday fan kabi boshqa fanlarning bilimlarini to`g`ridan-to`g`ri va bevosita qo`llay olmaydi, balki bilvosita shaklda yuridik bilim va yuridik metod tarkibiy elementlarida o`zgartirib, o`z predmeti va metodining o`ziga xos nuqtai nazaridan ulardan foydalanadi. Boshqa fanlar metodlarini va natijalarini o`zlashtirish davlat va huquq nazariyasi va butun yuridik fan rivojlanishining muhim yo`nalishi va asosiy manbai hisoblanadi. Yurisprudensiya uchun ahamiyatli biron boshqa fanlar yutuqlarini bunday nazariy yuridik o`zlashtirish ikki asosiy shaklda bo`lishi mumkin:

1. Boshqa fanlar metodlarini yuridiklashtirish;
2. Yurisprudensiyaning boshqa qo`shni fanlar bilan kesishuvida yangi fanlarning shakllanishi.

Yuridik fanda boshqa fanlar metodlari faqat aynan yuridik bilish usullari va yo`llari sifatida foydalanishi mumkin va lozim. Boshqa fanlar metodlarining bunday yuridiklashuvi yuridik fanning sofliigi va metodologik, predmet birligining zarur sharti hisoblanadi.

Yuridik fanda falsafiy va umumilmiy metodlar (dialektika, tizimli va funksional metodlar, analiz va sintez, modellashirish va boshqalar) muvaffaqiyatli qo`llanib kelinmoqda. Yurisprudensiyada tadqiqotning bunday metodlari, usullari, yo`llaridan samarali foydalanish ularning nazariy bilim potensiali va imkoniyatlarining lozim darajadagi

yuridiklashuviga bogʻliq bu esa oʻz navbatida yuridik bilish maqsad va vazifalari, yuridik metod mazmuni va talablaridan kelib chiqadi.

Yangi yuridik fanlarning paydo boʻlishi yurisprudensiyaning qoʻshni fanlar bilan avvalgi fanlararo aloqasi (ulardagi tadqiqot usullari va yoʻllari, baʼzi nazariy qoidalaridan foydalanish, oʻzlashtirish) yuridik fanning nazariy bilish ehtiyojlarini qoniqtirmayotganligini va yangi mustaqil yuridik fan doirasiga tegishli muammolarni sistematik ishlab chiqishga ehtiyoj sezayotganini koʻrsatadi. Yurisprudensiya doirasida mazkur yangi fanlar umumilmiy xarakterdagi yuridik fanlar hisoblanadi. Bu yuridik bilim va yuridik bilimlar tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan umumilmiy nazariy-bilish funksiyalari bilan belgilanadi.

Yangi yuridik fanlar va yangi yoʻnalishlarning shakllanish jarayonining oʻzi yurisprudensiyaning zamonaviylashtirish (modernizatsiya) ning tabiiy va samarali yoʻnalishi, uning umumilmiy yutuqlarini hozirgi zamon darajasiga mos kelish koʻrsatkichi uning yanada rivojlanish qobiliyatiga egaligini anglatadi. Bu yoʻnalishda yuridik fan koʻp ishlarni amalga oshirishi kerak. Bunda albatta, yurisprudensiyaning hozirgi bosqichdagi oʻziga xos ilmiy vazifalari va xususiyatlarini hamda xorijiy mamlakatlardagi yuridik fan rivojlanish tajribasi va tendensiyalarini hisobga olish kerak.

Yurisprudensiyaning boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqasining rivojlanishi bu qoʻshni fanlardan tayyor bilimlarni oddiy oʻzlashtirish va yuridik xarakterda ulardan bevosita foydalanishni anglatmaydi, balki ularning tajribasi va yutuqlarini eʼtiborga olgan holda maxsus yuridik bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirishning ijodiy jarayoni hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari» maxsus kursini Magistratura bosqichida oʻtilishining zarurligini belgilovchi holatlarni koʻrsating
2. Maxsus kursning predmeti va metodlari xususiyatlarini tavsiflang
3. Davlat va huquq umumnazariyasi obyekti va predmeti oʻrtasidagi nisbatni aniqlang
4. Yuridik metod mazmunini tavsiflang
5. Yuridik metodning xususiyatlari va funksiyalarini tavsiflang.
6. Davlat va huquq umumnazariyasi muammolari rivojidagi vorisiylik va yangilik

7. Maxsus kursning boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o`rnini aniqlang

8. Maxsus kursning boshqa yuridik fanlar bilan aloqasini tavsiflang

2-MAVZU: DAVLATNING MOHIYATI VA UNI TUSHUNISH MUAMMOLARI¹

REJA:

1. Davlat fenomeni va uni tushunish muammolari
2. Ommaviy-siyosiy hokimiyat
3. Davlatning sotsiologik konsepsiyasi
4. Davlatning legistik konsepsiyasi
5. Davlatning libertar konsepsiyasi
6. Davlatning substansiyaviy, hududiy va institusiyaviy elementlari.

ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т.: «Ўзбекистон».1995.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.:Ўзбекистон. 1992./ Ўзбекистон:миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.—Т.: 1996.
3. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-том. —Т.: «Ўзбекистон», 1996, 53-бетлар.
4. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: Ўзбекистон. 2005.
5. Каримов И.А.Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. — Т.: Ўзбекистон. 2005. 70-бет.
6. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ва манфаатлари —энг олий қадриятдир. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
7. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил, 17 феврал.
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. Академик, ю.ф.н. проф. Ҳ. Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ. Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.
9. Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: ТДЮИ. 2003. - 244 б.
10. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари.Т.:Ўзбекистон.2005.264 б.
11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. —М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.

¹ Ушбу мавзу В.С.Нерсисянц таҳрири остида нашр этилган «Проблемы общей теории права и государства». — М.: Норма. 2004. дарслик матеиаллари асосида тайёрланди.

12. Проблемы теории государств и права Учебное пособие. / Под ред. М.Н. Марченко.—М:Юрист,2004. 656 с.

13. Нерсисянц В.С. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М: НОРМА. 2000.-233 с.

14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия.М: Статут. 1999.-810 с.

15. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. -640 с.

16. Кольев А.Н.Нация и государство. Теория консервативной реконструкции.М.:Логос.2005.-800 с.

1. Davlat fenomeni

Kishilik jamiyati tarixida davlat paydo bo`lishi bilan uning haqida munozaralar ham boshlanib, olimu-allomalar «davlatning o`zi nima?», «uning mohiyati nimada?» kabi savollarga javob berishga hanuzgacha urinib kelishmoqda. Biroq, mutloq murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo`lgan davlatga ta`rif berish, uning mohiyatini chuqur anglash oson kechmagan.

Darhaqiqat, davlatga ta`rif berish murakkab vazifa bo`lib, bir necha yuz yilliklar davomida insonlar davlat nima, u nima uchun kerak, nega mavjud, kabi savollarga javob topishga harakat qilib kelishmoqda. Bundan tashqari davlat qay tariqa vujudga keladi, uning mohiyati, jamiyat va odamlar hayotiga aralashish chegarasi qanday degan masalalar yuzasidan munozaralar har yangi avlod tadqiqotchilari, ya`ni davlatshunos olimlar oldida muqarrar ravishda turadi.

Davlatni tushunishda, unga bo`lgan katta qiziqishga qaramasdan, hamon yakdillik yo`q. Xo`sh, bunday holatning sababi nima?

- Avvalo, davlatni tushunishdagi hilma-xillik, davlatga oid qarashlarni shakllantirgan davr bilan bog`liqdir, boshqacha qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti, uning onggi va tafakkuri darajasi bilan bog`liq.

- Ayni paytda, davlatning tushunchasini aniqlashdagi plyuralizm, bir jihatdan odamlarning davlatni o`zicha – har xil tushunishi bilan, ikkinchi tomondan esa, davlatning o`zi ijtimoiy hodisa sifatida murakkabligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, davlat atamasi turli ma`nolarda ham ishlatiladi va bu holat uni tushunishdagi turlichalikni keltirib chiqaradi.

Avstriyalik huquqshunos Gans Kel`zen (legistik yondashuv vakili) o`rinli ta`kidlaganidek, davlat so`zi ko`pincha jamiyatni ifodalab, ba`zan millat yoki hududni belgilab ham aytiladi. Davlat to`g`risidagi nazariyaning yetarli emasligiga sabab, ko`pincha tadqiqotchilar turli

atamalarni bir ma'noda va aksincha bir xil ma'nodagi atamalarni turli mazmunda qo'llashlari hamdir.

Kel'zenning fikricha davlat tushunchasi quyidagi ma'nolarda qo'llanishi mumkin:

1. Davlat avvalo sof yuridik yondashuv, nuqtai-nazar orqali qarab chiqilmog'i lozim. Bu holda yuridik shaxs, «huquqiy fenomen», o'ziga hos korporasiya sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Davlat millat miqyosidagi huquqiy tartibdir. Yuridik fenomen sifatidagi davlat bilan huquq o'rtasidagi munosabat huddi huquq bilan individuum o'rtasidagi munosabat tarzida qaralmog'i kerak. Kel'zenning fikricha, davlat huquqni o'rnatishi yoki sanksiyalashdan qat'iy-nazar, huddi individdek bo'lishi, ya'ni o'z xatti harakatida huquq bilan bog'liq bo'lishi kerak.

2. Davlat tushunchasi sotsiologik ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Bu tarzda qaraganda davlat qandaydir «sotsiologik birlik», huquqiy tartib va huquqiy reallikdan mustaqil mavjud bo'lgan «sotsial reallik» sifatida ham qaralishi mumkin.

Sotsiologik nuqtai-nazardan qaralgan davlat uchun xos bo'lgan jihat – uning jamiyatni boshqarish yuzasidan vakolatlarning bir qancha organlarga berilganligi, bir qator organlar qo'lida to'planganligidir. Shu bois jamiyatda bir necha hokimiy vakolatga ega bo'lgan tuzilmalar mavjud bo'ladi.

3. Davlat tushunchasi jonli, tabiiy organizm sifatida ham belgilanishi mumkin. Bu yondoshuvga asoslangan holda, davlat «sotsial biologiya shakli» sifatida namoyon bo'ladi. Kel'zenning bu qarashlari davlatning paydo bo'lish to'g'risidagi organik nazariya tarafdorlari tomonidan qo'llanilgan.

4. Kel'zen va uning tarafdorlari davlatni «normalar tizimi», «normativ tartib», «siyosiy tashkillangan jamiyat» «davlat-hokimiyat» deb belgilashgan, ta'riflashgan.

Kel'zenning fikricha, davlat siyosiy xarakterga ega, va u avvalo siyosiy tashkilot sifatida namoyon bo'ladi, chunki u «kuch, majburlov ishlatish tartibini» belgilaydi, zero u «kuch ishlatishga bo'lgan monopol huquqga ega»¹. Shunday qilib, davlatning hodisa sifatida murakkabligi, uni turfa talqini uning tushunchasi turlichaligini belgilaydi. Shu bois turli davrlarda davlatni turlicha tushunish mavjud.

Davlatni ta'riflashda sovet davri yuridik fikri sinfiylik nuqtai-nazari bilan xarakterlanadi. U «sinfiy jamiyatning siyosiy tashkiloti» sifatida

¹ Каранг: Проблемы теории государства и права. Под.ред. проф.М.Н.Марченко. М.:Юристъ. 2004.С.74.

talqin etilgan. 1980-yilning o`rtalaridan boshlab, davlatni ta`riflashda umumijtimoiy jihatni ko`rsatish tomon siljish boshlandi va sinfiylikka berilgan urg`u asta-sekin umumijtimoiy jihat tomonga surila bordi.

Keyingi paytlarda davlatga quyidagi ta`rifga yaqin ta`rif berish ancha keng tarqalgan: «davlat bu – o`z hokimiyatini mamlakatning butun hududiga va aholisiga tarqatadigan, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo`lgan, hamma uchun majburiy amrlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo`lgan jamiyatning yagona siyosiy tashkilotidir». Ta`kidlash lozimki, davlatga ta`rif berishda yo sinfiy, yoki umumijtimoiy jihatiga keskin urg`u berish maqsadga muvofiq kelmaydi. Zero real hayotda sof sinfiy, yoki sof umuminsoniy davlat institutlari yo`q.

Davlatga ma`muriy huquq nuqtai-nazarida qarash ham mavjud, unga ko`ra davlat – «ma`muriy davlat» sifatida qaraladi. Ba`zi mualliflarning fikricha, globallashuv jarayoni asta-sekin davlatning tabiati va xarakterining o`zgarishiga olib keladi, uning funksiyalari ham globallashadi va asta-sekin uning suvereniteti kamayadi. G`arb nashrlarida ta`kidlanishicha, kapitalizmning kuchayishi natijasida, transnatsional kompaniyalar shunday qudratli iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy institutlarni shakllantirmoqdaki, ular o`z imkoniyatiga ko`ra ba`zi davlatlardan oshib tushadi va aslida «turli millat va davlatlar ustida turadi».

Ta`kidlash joizki, davlat ham institut, ham tashkilot sifatida boshqa tuzilmalar ichida so`zsiz ajralib turadi.

Davlatning bosh jihatlari bo`lib, qo`yidagilar hisoblanadi:

- 1) davlat-ijtimoiy hodisa;
- 2) davlat-siyosiy hodisa;
- 3) davlat - muayyan vazifalarni hal etishga qaratilgan o`z tarkibi va tuzilmasiga ega.

Davlatni tushunish uchun avvalo uning ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy hokimiyatdan va boshqa siyosiy tashkilotlardan farqini tushunib olishimiz kerak bo`ladi.

Davlatning ibtidoiy tuzumdagi ijtimoiy hokimiyatdan farq qiluvchi belgilari:

1. Ommaviy hokimiyat belgisi. Aslida har qanday hokimiyat ham ommaviy, ya`ni ijtimoiydir, biroq, bu joyda ushbu atamaga maxsus ma`no berilmoqda, zero davlat, subyekt, ya`ni hokimiyat sohibi sifatida o`z obyektidan, ya`ni jamiyatdan ajratilgan. Bu holat o`zining ifodasini alohida davlat apparati mavjudligida topadi. Ibtidoiy jamiyat organlari esa o`zini-o`zi boshqarish prinsipi asosida qurilgan va jamiyatning ichida bo`lgan, ya`ni obyekt va subyekt o`zaro mos kelgan. Shunday qilib,

davlatning eng muhim belgisi shuki, u ommaviy hokimiyatning apparati hisoblanadi. Shu belgiga bogʻliq holda, davlat ommaviy-siyosiy hokimiyatning tashkilotchisi sifatida tavsiflanadi.

2. Hududiy prinsip. Urugʻ jamoasida odamlar qon-qarindoshlik asosida birlashgan va boshqarilgan; davlat hokimiyati esa hududiy prinsipga qarab belgilanadi.

3. Davlat xazinasining mavjudligi, soliqlarning joriy etilishi – davlatning muhim belgilaridan hisoblanadi. Soliq-davlat xazinasini toʻldirish usulidir.

Davlat boshqa siyosiy tashkilotlardan, eng asosan, suverenligi bilan farqlanadi.

Suverenitet quyidagilarni anglatadi:

A) davlatning tashqarida mustaqilligi;

B) davlatning mamlakat ichkarisida oliyligi.

Davlat suverenitetidan uni boshqa siyosiy tashkilotlardan ajratib turadigan boshqa belgilari kelib chiqadi: - davlat oʻz hokimiyatini davlat chegarasi bilan belgilangan mamlakatning butun hududiga tarqatadi; - davlat aholi bilan barqaror yuridik bogʻliqlik, aloqaga ega; - faqat davlat umummajburiy xarakterdagi qoidalarni chiqaradi; - faqat davlat aholiga nisbatan kuch ishlatish huquqiga ega; - faqat davlatda boshqa hech bir siyosiy tashkilotda boʻlmagan taʼsir vositalari mavjud (armiya, politsiya, havfsizlik organlari, qamoqxona va b). Baʼzan davlatning belgisi sifatida huquqni koʻrsatishadi. Huquq davlatning belgisi boʻla olmaydi, huddi shuningdek davlat ham huquqning belgisi boʻla olmaydi. Huquq davlatning mavjudligi belgisi boʻlishi mumkin (V.N.Protasov).

Davlatning mohiyati toʻgʻrisida ham turli fikrlar aytilgan, bunda kimdir davlatning sinfiy mohiyatiga, boshqalari esa umumijtimoiy mohiyatiga urgʻu berishgan. Shuni aniq aytish mumkinki, davlat jamiyat taraqqiyotining maʼlum bosqichida – jamiyat hayotini tashkil etishning zarur shakli, vositasi sifatida, jamiyat mavjudligining ajralmas sharti sifatida vujudga kelgan. Hozirgi zamon nuqtai-nazaridan davlat «inson manfaatlari yoʻlida jamiyat hayotini tashkil etuvchi hokimiy tizim» sifatida namoyon boʻlishi kerak.

Davlat har qanday tizim sifatida hokimiy-tashkiliy jihatdan va huquq jihatidan ham yaxlit boʻlmogʻi lozim;

Davlatni tushunishda turli yondashuvlar mavjudligini taʼkidlagan edik. Shu oʻrinda davlat fenomeni oʻzi nima? – degan savolga javob berishimiz lozim.

Umuman davlat hodisasiga turlicha «yaqinlashish» mumkin.

Agar, biz davlat hodisasiga «tashqaridan» xalqaro huquq nuqtai-nazaridan yaqinlashsak, davlat bizga muayyan hududda yashaydigan, ommaviy-siyosiy hokimiyat ostida birlashgan aholi tarzida namoyon bo`ladi. Bunda biz davlatning aholisi, hududi va davlat hokimiyati tashkiloti kabi yirik elementlarini ko`ramiz.

Ikkinchi «yaqinlashuvimizni» biz «ichkaridan» olib boramiz va bunda davlat bizga «ommaviy – hokimiy uyushma» sifatida namoyon bo`ladi. Davlatni bu tarzda qarab chiqish vositasida biz davlatning ijtimoiy ahamiyatini, uning jamiyatdagi vazifasini, jamiyat siyosiy tiziminig boshqa elementlari bilan munosabatini anglab olishimiz mumkin. Davlat hodisasiga uchinchi bor «yaqinlashuvda» biz davlat hokimiyati apparatini, ya`ni uning tizimini-tuzilmasini, davlat organlari o`rtasidagi munosabatni ko`rib chiqish imkoniyatiga ega bo`lamiz.

Shunday qilib, «davlat» atamasi uch xil ma`noda:

- 1) davlatli – tashkillashgan hamjamiyat ma`nosida;
- 2) davlat hokimiyati ma`nosida;
- 3) davlat organlari tizimi ma`nosida namoyon bo`ladi.

Bu uch holatda ham, davlat hokimiyati sifatidagi ommaviy-siyosiy hokimiyatni tashkil etish va amal qilishi haqida, biroq uning turli jabhalari haqidagi gap ketmoqda. Davlat tushunchasi mana shu uch jihatni o`z ichiga oladi. Davlat tushunchasi doimo ommaviy-siyosiy hokimiyat tushunchasi orqali tushuntiriladi. Shunday qilib, davlat – bu muayyan hududda yashaydigan aholiga o`z hokimiy ta`sirini o`tkazadigan ommaviy-siyosiy hokimiyatning alohida organi bo`lib, u o`z oldiga qo`ygan vazifalarni bajarish uchun maxsus apparatga tayanadi. Davlat – bu alohida siyosiy tuzilma bo`lib, u butun jamiyat nomidan ish yuritadi, jamiyatni birlashtirib, uni boshqaradi hamda turli guruhlar manfaati muvozanatini saqlab turadi.

Demak, davlat-bu jamiyatning birligini, yaxlitligini ta`minlaydigan, davlat mexanizmi orqali jamiyat ishlarini boshqaradigan, suveren ommaviy-siyosiy hokimiyatni amalga oshiradigan, huquqqa insonlarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlovchi umummajburiylik maqomini beradigan siyosiy tashkilotdir.

Bundan tashqari davlat tushunchasini turli ma`nolarda tushunish hollari mavjudligini ta`kidlab o`tgan edik. Jumladan, davlat tushunchasi ikki xil ma`noda ishlatilishi mumkin:

1) tor ma`noda, ya`ni maxsus siyosiy tashkilot sifatida, ommaviy hokimiyat apparati sifatida;

2) keng ma'noda –muayyan hududda joylashgan, davlatli-tashkillashgan ijtimoiy birlik, bu tushuncha mamlakat tushunchasiga yaqin.

Yana davlatning tarkibi va tuzilmasi mavjud; odamlar – bu davlat apparati tarkibini tashkil etadi; yana davlatning tuzilmasi mavjud, u davlatni tashkilotga aylantiradi. Davlat tuzilmasi nisbatan mustaqil, odamlar tarkibi o'zgarib turish mumkin.

2. Ommaviy-siyosiy hokimiyat tushunchasi

Ma'lumki, jamiyatda hokimiyatning turlari ko'p, xususan, oiladagi oila boshlig'ining hokimiyati, ho'jayinning xizmatkori ustidan hokimiyati, mulkdorning iqtisodiy hokimiyati, guruhdagi sardor hokimiyati, diniy hokimiyat va boshqalar. Biroq bu hokimiyat ko'rinishlarining birontasi ham butun jamiyatga tarqalmaydi, xalq nomidan ish yuritmaydi, ya'ni ommaviy xarakterga ega emas. Ommaviy hokimiyat hududiy prinsipga binoan tarqaladi, unga taaluqli hududdagi barcha aholi bo'ysunadi.

Siyosiy hokimiyat – jamiyatning farovonligini ta'minlash maqsadida xalqni boshqarishni amalga oshiradigan hokimiyat. Ommaviy hokimiyat maxsus odamlar tabaqasi – mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi va u soliqlar hisobiga faoliyat yurgizadi.

Ommaviy-siyosiy hokimiyatning belgilari:

- o'z hokimiyati ta'siridagi aholini birlashtiradi;
- maxsus apparat tomonidan amalga oshiriladi;
- suverenitet va qonun ijod etish huquqiga ega;

Ommaviy-siyosiy hokimiyat o'z mazmuniga ko'ra turlicha bo'lish mumkin; - ommaviy-siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning huquqiy tipi (bunda hokimiyat fuqarolarning erkinligi bilan cheklangan bo'ladi); - kuchga asoslangan tip (eski despotiyadan to hozirgi totalitarizmgaacha). Aytish joizki, hozirgi zamon fanida davlat va huquqning o'zaro bog'liqligi umum e'tirof etiladi, davlat hokimiyati huquqiy asoslarda faoliyat yurgizish zarurati ta'kidlanadi.

3.Davlatning sotsiologik konsepsiyasi

Davlat va huquqni tushunishning tiplariga muvofiq holda turlicha konsepsiyalar shakllangan, xususan, pozitivistik tip doirasida sotsiologik

va legistik, huquqni tushunishning neopozitivistik yuridik tipi doirasida esa libertar konsepsiya shakllangan.

Davlatning ushbu konsepsiyasida shaklidan va mazmunidan qat'iy nazar har qanday ommaviy-siyosiy hokimiyat tashkiloti davlat deb ataladi. Sotsiologik konsepsiyaning barcha ko'rinishlari uchun umumiy jihat bo'lib, davlatning yuridik tabiatini inkor etish, uning kuchga tayanish jihatini esa mutloqlashtirish hisoblanadi. Bu kuchga urg'u beradigan konsepsiyadir. Davlatning mohiyati bunda tashkiliy kuch, siyosiy kuch sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, bu siyosiy-tashkiliy kuch huquq bilan cheklanmaydi va erkinlik o'lchovini (mera) o'z xohishicha belgilaydi. Davlatni bunday tushunishda siyosiy erksizlikka yo'l qo'yilishi, siyosiy hokimiyatning cheklanmasligiga olib kelishi mumkin. Bu nazariyaning davlatga ta'rifi quyidagicha: davlat bu muayyan hududda yashaydigan aholiga nisbatan eng ma'qul (eng kuchli, oliy, suveren) hokimiyat tashkiloti. Davlatning bu konsepsiyasi klassik legistik pozitivizm D.N.Ostin, G.F.Shershenevich, L.Gumplovichlar tomonidan foydalanilgan. Ularning talqinicha «huquq – bu davlatning, oliy hokimiyatning, suverenning buyrug'i».

Huquqni bunday tushunishda, davlat kuch sifatida birlamchi, «huquq» esa – ikkilamchi, davlat – bu qonun chiqaradigan kuchga monopoliyasi bo'lgan tashkilot. Shu bois hokimiyatning qonuniy shakli, uning bor yoki yo'qligi, bu konsepsiya uchun potensial ahamiyatga ega emas. Oliy hokimiyat qonunga binoan, yoki qonunga zid holda amalga oshirilishi mumkin, chunki bu hokimiyat oliy hokimiyat!? Konun (huquq) bu shu narsaki, oliy hokimiyat nimani xohlasa, suveren hokimiyatning amri-irodasi qanday bo'lsa-huquq shunday bo'ladi. Shu bois sotsiologik konsepsiyada davlat hokimiyatining vakolati qonun bilan tartibga solinishi mumkinligi aytiladi, biroq qonun davlat hokimiyati uchun majburiy emas deb ta'kidlaydi.

Bu konsepsiyaning qarashicha, davlat bu hokimiyat to'g'risidagi qonunlarda bitilgan rasmiy qoidalar emas, balki hokimiyatdagi faktik, amaldagi buysundirish, bo'ysunish munosabatlari, hokimiyatning amalda tashkil etilishi va faoliyati deb tushuniladi. Davlat ijtimoiy kuch sifatida hokimiyatni amalga oshirishning qonuniy shakliga rioya etishi yoki etmasligi ham mumkin.

Sotsiologik konsepsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, davlatning markscha-lenincha konsepsiyasi hisoblanadi. Bunda davlatning mohiyati sinfiy hukmronlik va sinfiy majburlov orqali tushuntiriladi. Bol'sheviklar partiyasining rahbari Leninning ta'rificha, davlatning mohiyati-bu

diktaturadir, hukmron sinfnig boshqa sinflarni bostirish uchun majburlovidir.

I.V.Stalinning talqinida-davlat hukmron sinf qo`lida o`zining sinfiy dushmanlarini bostirish mashinasi. Muayyan bir sinf diktaturasi hokimiyatning hech qanday qonunlar bilan cheklanmaganligi, bog`liq emasligini anglatadi. Lenin aytganidek, diktatura-bu biron bir qonunlar bilan bog`liq bo`lmagan, bevosita kuchga asoslangan hokimiyatdir. Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, marksizm-leninizm davlatni «hatto qonun bilan ham cheklanmaydigan tabiatli ommaviy-siyosiy hokimiyatning g`ayri-huquqiy tashkiloti» sifatida talqin etgan.

Ma`lumki, qadimdanoq siyosiy fikr siyosiy hokimiyatning eng muhim jihatlarini ko`rsatgan:

- maqsadga erishish vositasi sifatida tashkiliy zo`rlilik (tashkillashgan majburlov);

- umumiy vazifalarni bajarish, hokimiyatning maqsadi sifatida ijtimoiy farovonlikka erishish.

Tarixiy taraqqiyot natijasida muayyan guruh, muayyan sinf manfaati yo`lidan tashkiliy majburlov siyosiy hayotda borgan sari keyingi o`rinlarga o`tib bormoqda, davlatning umumijtimoiy faoliyati esa birinchi o`rinlarni egallamoqda.

Hozirgi kunda, iqtisodiy, siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlarda ijtimoiy ziddiyatlar borgan sari bartaraf etilmoqda va ular o`zining tangligini yo`qotmoqda, natijada katta ijtimoiy guruhlarga nisbatan siyosiy majburlov o`tkazish ehtiyoji ham yo`qolmoqda. Marksizmning «farzandi» bo`lgan sinflar ham yo`q. Hozirgi zamon demokratik davlatlarida siyosiy hokimiyat ijtimoiy guruhlar o`rtasidagi bo`lishi mumkin bo`lgan nizolarni hal etishning sivilizatsiyaviy tartibotini, samarali mexanizmini ishlab chiqqan va undan o`rinli foydalanadi. Ayni paytda jamiyat a`zolarining fuqaolik inoqlikka bo`lgan umumiy intilishlarini yo`llab, nafaqat ijtimoiy jihatdan kuchlilarninggina emas, balki ijtimoiy kuchsizlarning ham manfaatlarini himoya qiladi va kafolatlaydi, milliy daromadni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy kuchli va kuchsizlar o`rtasida muvozanatni ta`minlaydi.

Shunday qilib, zo`ravonlik nazariyasi hozirgi zamon rivojlangan davlatlariga mos kelmaydi. Shuni anglagan sotsiololgik konsepsiya vakillari hokimiyatning sinfiy, diktatorlik, despotik xarakteri davlatning ayrim tarixiy shakllariga xos, ayniqsa, aholi uchun umumiy bo`lgan ishlarni asosan majburlov vositasida hal etish tarixiy rivojlanmagan davlatlarga xos, hozirgi zamon davlati uchun esa - hokimiyatning ijtimoiy

kelishuvga, kompromissga intilishi xos, degan fikrlarni ham ilgari surishmoqda.

Sotsiologik konsepsiyaning yana bir nozik jihati - davlat bilan despotiyani farqlamasligidir. Bu nazariyaning talqinida davlatga oid hodisalarning mohiyati, hatto zo`rlovgacha borib etadigan tashkiliy majburlovda tushuniladi va (bunga bog`liq holda) shu bois, fuqarolarning erkinligi bilan cheklanmagan «davlat» hokimiyati bo`lishi nazarda tutiladi. Shu bilan «davlat» atamasi bilan belgilanadigan siyosiy hodisa va munosabatlarning doirasi asossiz kengaytiriladi - demak davlat liberal, demokratik, diktatorlik, despotik, totalitar va shunga o`xshash bo`lishi mumkin, barcha holda ham u davlat bo`laveradi. Hokimiyat yaxshi yoki yomon, adolatli yoki adolatsiz va sh.o`. bo`lishi mumkin, biroq bu baholash sotsiologik konsepsiyadagi davlat tushunchasiga aloqasi yo`q. Qisqasi, bu nazariyaning mohiyatidan shu narsa kelib chiqadiki, har qanday o`z-o`zicha majburlovni amalga oshiruvchi istalgan tashkilot, agarda u muayyan hududdagi muayyan xalqda eng kuchli tashkilot bo`lsa davlat bo`lishi mumkin. Shu munosabat bilan, V asrda yashab o`tgan «cherkov otalari» dan biri bo`lmish Avgustining ushbu masaladagi ritorik savolini eslash o`rinli, u davlatli-tashkillashgan hamjamiyat - (civitas) adolatga asoslanadi, despotik podshohliklarni esa (regnu) davlat deb bo`lmaydi-qabilida isbotlashga urinib, «Adolatga asoslanmaydigan podshohlikning mohiyati-talonchilar to`dasidan nimasi bilan farqlanadi?» degan edi. Ushbu xristian mutafakkirining tasavvurida qoloq xalqlardagi (yazichnikov) podsholikda davlat-huquqiy muloqot va munosabatlar yo`q, ularda bitta yo`lboshchining hokimiyatigina mavjud va uning bu hokimiyatiga hech kim tajovuz qila olmaydi, bor «huquq» esa topilgan o`ljani belgilangan odatga ko`ra bo`lishdan iboratdir. Mana shu «hokimiyat» ularda «davlat» hisoblanadi. Bu muhim savolga bir yarim ming yildan so`ng, G.Kel`zen sotsiologik konsepsiya nuqtai-nazaridan javob bergan: «Talonchilar to`dasini shuning uchun ham davlat deb bo`lmaydi-ki, ushbu to`da harakat qiladigan hududda talonchilar to`dasidan kuchli va qudratli bo`lgan ijtimoiy kuch, hokimiyat mavjud. Ana shu hokimiyat-aynan davlatdir».

Shu bois, ko`chadagi bosqinchilarning buyrug`ini davlatning qonun-qoidalari bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Biroq, bosqinchilar bandasi tomonidan muayyan hududda o`rnatilgan tartibot eng kuchli va samarali bo`lsa, uni huquqiy tartibot deb, va bu huquqiy tartibot doirasida shakllangan sosiumni esa davlat deb hisoblash kerak. O`z fikrini isbotlash uchun Kelzen XVI-XIX asrlarda Afrikaning shimoliy qirg`oqlarida

shakllangan qaroqchi davlatlarni, ya'ni Jazoir, Tunis, Trispoli va bol'sheviklarning totalitar rejimini misol qilib keltiradi. Kel'zenning ta'kidlashicha AQSh sudlari bol'sheviklar rejimining aktlarini davlat-huquqiy aktlar sifatida dastavval tan olmagan, chunki bu rejimni gansterlar to'dasi deb hisoblashgan, keyinchalik esa, bu rejimning tugamaganligini, balki barqaror, SSSR hududidagi istalgan hokimiyatga ko'ra samarali ekanligini ko'rib, bu rejimni davlat-huquqiy rejim sifatida tan olgan.

Sotsiologik konsepsiya insonning tabiiy huquqlarini va huquqiy davlat tushunchasini inkor etadi. Barcha subyektiv huquqlarni davlat tomonidan berilgan, taqdirlangan (in'om etilgan), qonun chiqaruvchining irodasidan kelib chiqqan deb, hisoblaydi.

Bu konsepsiyada «huquq» oliy hokimiyatning buyrug'i deb, shaxsning huquq va erkinliklari esa-hokimiy qonun ijodkorlikning mahsuli sifatida qaraladi. Bu holatda davlat huquq bilan emas, balki, aksincha, huquq-bu davlatning ixtiyorida to'laligicha bo'ladigan hodisa. Shu bois, bu konsepsiya «huquqiy davlat» g'oyasiga salbiy munosabatda bo'ladi. Davlat despotik bo'lishi mumkin, biroq u huquqiy bo'la olmaydi. Huquqiy davlatda fuqarolarning erkinligi bilan hokimiyat cheklangan bo'ladi; hech bir kuch davlatni cheklay olmaydi chunki davlat o'sha hududdagi eng kuchli hokimiyat tashkiloti, mabodo boshqa ijtimoiy siyosiy kuch davlatni cheklay olsa - qandaydir «huquq» bilan, bunday vaziyatda davlat deb, faoliyatini cheklash mumkin bo'lgan siyosiy hokimiyatni emas, balki boshqalarni cheklaydigan, biroq o'zi cheklanmagan holda, to'la hokimiyatli qoladigan kuchni davlat deyish kerak. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mazkur konsepsiya doirasida konstitutsiyaviy va xalqaro huquqni tushuntirish amrimahol. Umuman, agar davlatning mohiyatini, tabiatini kuchga asoslangan hokimiyat tashkiloti deb talqin etiladigan bo'lsa, bu holda huquqiy davlat tushunchasini na gnoseologik, yo na mantiqan anglash qiyin.

Sotsiologik konsepsiya vakillari zamonga moslashishga harakat qilib, o'z qarashlari va huquqiy davlat tushunchasini hozirgi kun talablariga moslab uyg'unlashtirishga intilmoqdalar. Biroq davlatni kuchga asoslanadi deb tushunish zamirida hokimiyatning huquqga bo'ysunishini, yoki huquq hukmronligini qanday tushuntirish mumkin?! Bunday tushunishda huquq bilan qonun tenglashtiriladi va huquq hukmronligi tushunchasi qonunning ustuvorligi tushunchasi bilan almashtiriladi.

Bu konsepsiya uchun huquqiy davlat tushunchasi tushunarsiz bo'lib qolmoqda. U «qonuniylik (yoki qonunchilik) davlati» degan tushunchani qabul qilib, unga ko'ra, davlat o'zini o'z qonunlari bilan cheklovchi, ya'ni

hokimiyat qonun bilan bogʻlangan, biroq, ayni paytda u bu qonunlarni oʻz hohishicha oʻzgartirishi mumkin. Demak, bunda davlat bevosita oʻzining istagi (proizvol) bilangina bogʻlangan. Bu holda u diktaturaga aylanib qolishi hech gap emas. Kelʼzencha davlatni tushunishning mohiyati mana shularda ifodalanadi.

4. Davlatning legistik konsepsiyasi

Ushbu konsepsiya XIX-asrning ikkinchi yarmida Germaniyada vujudga kelgan va XX-asrda G.Kelʼzen tomonidan nazariya sifatida mantiqan yakunlangan. Bu konsepsiyaning mazmunida davlat fenomeni ommaviy-siyosiy hokimiyat toʻgʻrisidagi qonunlar mazmuni bilan tenglashtiriladi. Davlatning legistik konsepsiyasi davlat deganda siyosiy hokimiyatning qonunlar bilan rasmiylashtirilgan apparatini, uning qonunga muvofiq tashkil etilishini va amal qilishini, hokimiyat organlarining qonuniy kompetensiyasini tushunadi. Bu nazariya davlatni aslida amalda konstitutsiyaviy va maʼmuriy qonunchilik qoidalariga, sud tuzilishiga va boshqa davlat organlariga oid qonunchilik qoidalariga tenglashtiradi. Demak, bu nazariya yondoshuvicha – monarx, prezident, hukumat, sud, prokuratura, politsiya va hokimiyatning boshqa institutlari hamda mansabdor shaxslar toʻgʻrisida qonunlarda nima deyilgan boʻlsa, oʻsha davlat, bunda qonunlarda yuqoridagi organlar toʻgʻrisida nima deyilganligi eʼtiborga olinmaydi, garchi bu qonunlarning mazmuni turlicha boʻlishi mumkin. Davlat hokimiyatning qonuniy shakli orqali belgilanadi, biroq qonunlarning mazmuni orqali emas.

Yuqorida koʻrib chiqqanimizdek, davlatning sotsiologik konsepsiyasi davlatning elementlari sifatida hokimiyat ostidagi hududni, hokimiyat ostidagi aholini va suveren hokimiyatni koʻrsatadi. Legistik konsepsiyada esa davlatning bu elementlari oʻzining qonunchilik talqinini topadi, yaʼni davlat hududi – bu «qonunlarning makonda harakat qilish sohasi» deb, davlat aholisini esa «mamlakat qonunlarining shaxslarga nisbatan harakat sohasi» deb, davlat hokimiyatini esa – muayyan makonda va muayyan doiradagi shaxslarga nisbatan harakat qiladigan qonunlardagi qoidalar deb talqin etadi.

Pozitivizm yoʻnalishidagi fanda davlatga sof «yuridik» nuqtai-nazaridan qarashga intilishi legistik konsepsiyaning keng tarqalishiga zamin yaratgan: zero sotsiologlar va politologlar real hokimiyat munosabatlarini oʻrganadilar, faylasuflar ideal, fozil davlat toʻgʻrisida oʻy suradilar, yurist-qonunshunoslar esa harakatdagi qonunlarni oʻrganishlari

kerak, demak, davlat qonunshunoslar uchun hokimiyat to'g'risidagi qonunlar mazmuni sifatida kasbiy qiziqish uyg'otadi.

Umuman olganda davlat hokimiyatining ajralmas xususiyati – bu uning qonuniy shaklidir, chunki qonunlar davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi va faoliyati asoslarini, ularning kompetensiyalari doiralarini belgilab beradi. Shu bois, agar faktik, real hokimiy munosabatlar davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunlar mazmuniga mos kelsa, bu holda qonunlarni o'rganish bilan kifoyalanish mumkin. Biroq qonunda mustahkamlangan munosabatlar ham davlatni ifodalay olmaydi, qonunlarni qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rnatadi, shu bois ommaviy-siyosiy hokimiyat, aslida doimo qonunda mustahkamlangandek bo'lavermaydi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, qonunlarni davlat vujudga keltirmay, balki qonunlar davlat hokimiyatini vujudga keltiradi. Shu o'rinda sotsiologik va legistik konsepsiyalarning farqi yaqqol ko'zga tashlanadi: sotsiologik konsepsiya hokimiyatning (hokimiy munosabatlarning) faqat faktik munosabatlari uchun urg'u bersa va hokimiyatning qonuniy shaklini e'tibordan chetda qoldirsa, legistik konsepsiya, aksincha, faktik siyosiy munosabatlardan uzoqlashib, davlatni u haqdagi qonun hujjatlari qoidalari bilan tenglashtirishadi, hokimiyat qonunda belgilangandan boshqacha tarzda faoliyat yurgizishi mumkinligi bu nazariya tomonidan hisobga olinmaydi.

Legistik nazariya hokimiyat to'g'risidagi qonunlar, faktik hokimiy munosabatlar bilan mos keladigan davlatlarda ancha ildiz otgan, chunki bu davlatlarda hokimiyat to'g'risida qonunlarda ko'rsatilgan qoidalar hayotga mos keladi, lekin bu hol barcha davlatlarga xos emas. Soxta konstitutsiyali davlatlarga legistik davlat nazariyasi mos kelmaydi, garchi legistlar uchun hokimiyatning qonuniy shaklidan tashqari real shakli huddi yo'qdek ko'rinsa-da. Legizm uchun qonun xujjatlari birlamchi, faktik hokimiy munosabatlar ikkilamchi hisoblanadi, ya'ni «qonunda nima deyilgan bo'lsa, real hayotda ham shunday» degan yondoshuvga asoslaniladi. Qonun bilan ijtimoiy hayot o'rtasidagi munosabatni bunday tasavvur etish, «yuridik idiotizm» yoki «yuridik kretinizm» ga yaqinlashib qolishdir.

Sotsiologik konsepsiya ham, legistik konsepsiya ham davlat bilan despotiyani farqlamaydi. Agar legistik yondoshuvga asoslanib, davlat bu qonun xujjatlarida mustahkamlangan qoidalar deb tushunilsa, unda despotik, majburlovga asoslangan tartibotni ham davlatiy tartibot deyish mumkin, chunki u ham qonunlarda mustahkamlangan axir?!

Legistik konsepsiya nuqtai nazaridan turib, huquqiy davlat tushunchasini anglash ham qiyin. Qonunlarda hokimiyat qanday

mustahkamlanganligiga qarab bu davlatlar demokratik, respublikaviy, totalitar, fashistik deb atalishi mumkin. Bu holda «huquqiy davlat» atamasi bema'no tushunchaga aylanib qoladi, huquqiy davlat atamasi esa pleonizm (ortiqcha, keraksiz so'z)ga aylanadi. Zero, legistlar uchun har qanday mazmundagi qonunlar – «huquq» hisoblanadi, davlat esa – qonunda nimalar mustahkamlangan bo'lsa, o'sha, demak barcha davlatlar avvaldanoq huquqiy hisoblanadi, chunki ular qonunda mustahkamlangan. Hokimiyatni tashkil etishning har qanday kuchga asoslangan, o'zboshimcha shakllari ham huquqiy deb tushunish mumkin, zero u qonunda mustahkamlangan.

Gnoseologik jihatdan ham legistik nazariya to'g'ri emas. Chunki, bir tomondan hozirgi zamon rivojlangan davlat-huquqiy madaniyati sharoitida ommaviy-siyosiy hokimiyat, albatta, qonuniy shaklda amal qiladi. Huddi shuningdek, yana bir talab, ya'ni normativ-qonunchilik talabi ham o'rinli, chunki davlat hokimiyati qat'iy ravishda qonunga muvofiq tashkil etilishi amal qilishi lozim. Biroq, shunisi aniqqi, barcha davlatlarning mazmun va mohiyatini qonun hujjatlari mazmunini bilish orqali anglab bo'lmaydi, shu bois davlat tushunchasini qonunlardagi normalar mazmuni bilan chegaralab bo'lmaydi.

Ikkinchi tomondan esa hozirgi zamon yuridik fanida davlat nazariyasi davlatni ommaviy-siyosiy hokimiyatning huquqiy tashkiloti sifatida, huquqiy qonunlar bilan cheklangan hokimiyat sifatida talqin etadi va davlatga siyosiy hokimiyatning g'ayri huquqiy kuchga asoslangan tashkilotini qarama-qarshi qo'yadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, davlat kuchini huquq bilan cheklashdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Bu holatda legistik konsepsiyaning «davlat – bu pozitiv huquqqa asoslanadigan hokimiyat» degan qoidasi qonunlarning, hamda davlatning huquqiyligini belgilovchi mezonlarini ko'rsatmaydi. Legistik konsepsiyaga ko'ra, pozitiv huquq – bu hokimiyat qonunlarida o'rnatgan qoidalar, ehtimol hokimiyat – bu qonunlarni o'zboshimchalik bilan ham o'rnatgan bo'lishi mumkin, bu jihat legizm uchun ahamiyatsiz hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning yangi konstruksiyasi «qonunchilik (zakonnicheskiy)davlati» kelib chiqayapti.

Sotsiologik konsepsiyada, hokimiyat o'z hoxishicha qonunda davlat hokimiyatini amalga oshirishning doirasini, chegarasini belgilash yoki belgilamasligi ham mumkin, mabodo belgilangan bo'lmasa ham davlat hokimiyati o'zining davlat ekanligi yo'qotmaydi. Legistik konsepsiyada esa hokimiyat qonun bilan bog'langan bo'lmasa u davlat hokimiyati deb hisoblanmaydi, biroq, bunda qonunlarning xarakteri to'g'risida aniq fikr

aytilmaydi, qonunlar o`zboshimchalik xarakteriga ega bo`lishi mumkin, degan fikrga kelishi mumkin. Boshqacha aytganda, legistik konsepsiyada davlat hokimiyati o`zini qanday tarzda qonunlarda ko`rsatsa, shunday shakli nazarda tutiladi.

Shunday qilib, legistik konsepsiyada davlatning xarakteri, mazmuni, qonun xujjatlaridagi hokimiyat to`g`risidagi qoidalarga tenglashtiriladi, biroq, oddiy talab ham qonun boshqa, hayot boshqa bo`lishi mumkinligini biladi, shu bois faqat huquqiy qonunlarda ifodalangan hokimiyat real hokimiyatga mos kelsagina, shunda tom ma`nodagi davlat haqida hulosa qilish mumkin. Biroq bu konsepsiya qonunlarni huquqiy, yoki noqonuniyga ajratmaydi, ya`ni qonun bilan huquqni tenglashtiradi. Konsepsiyaning nomaqbul jihati shundaki, unda g`ayri demokratik rejimli davlatlar ham haqiqiy davlat deb tushuniladi, zero ular ham qonuniy shaklda amal qiladi. Konsepsiya qonunlarni xarakterini aniqlash, aniq mezonlar oldinga surish kabi vazifalardan o`zini olib qochadi.

Hozirgi kunda faqat huquqiy qonunlarda o`zining ifodasini topgan, qonuniy shaklda amal qilayotgan va real faktik hokimiy munosabatlar qonun qoidalarga mos kelgan siyosiy hokimiyat tashkilotini tom ma`noda davlat deyish mumkin.

5. Davlatning libetar konsepsiyasi

Davlat – hokimiyatning huquqiy shakli sifatida. Davlatni yuridik jihatdan tushunish, davlatni kuch bilan huquqning birlashuvi yoki hokimiyatni huquqiy qonunlar bilan cheklash, davlatga despotiyani qarshi qo`yish kabi fikrlar qadimdan ma`lum – ular qadimgi Yunon siyosiy fikridanoq boshlangan. Fanda pozitivizm hukmronlik qilgan davrlarda sotsiololgik va legistik konsepsiyalar keng tarqalgan, biroq, XX-asrning ikkinchi yarmida davlatni yuridik tushunish fanda o`zining yo`qotilgan nufuzini ancha tiklab oldi.

Davlatni yuridik tushunish, ilmiy adabiyotda, xususan, Vladik Sumbatovich Nersesyans tomonidan qo`yidagicha belgilanadi: davlat – bu ommaviy-siyosiy hokimiyatni tashkil etish va uning amal qilishining huquqiy shakli (huquq tipi)dir. Ko`rinib turibdiki, bu o`rinda huquqiy degan ibora qonun bilan huquqni bir-biridan farqlashga asoslangan, aks holda, qonun bilan huquq tenglashtirilsa, bu holda «davlat – bu hokimiyatning huquqiy tashkiloti, hokimiyatni huquqiy tashkil etishdir» degan ibora bema`nilik – tautologiyaga yaqinlashib qoladi, ya`ni davlat

hokimiyati-qonun tushunchasi orqali, ya'ni hokimiy faoliyatning o'zining bevosita natijasi bo'lgan-qonun orqali talqin etiladi.

Biroq, bu hozirgi zamon davlatiga huquqiy qonunchilik ko'zgusi orqali, davlat hokimiyatiga oid qonunlar normalari orqali qarash kerak emas, degan ma'noni anglatmaydi. Hozirgi zamon libertar nazariyasi davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunlarni fuqarolarning erkinligini ta'minlashning zaruriy shakli sifatida tushuntiradi va qonunlarni o'zining asl vazifasi bo'lgan fuqarolarning erkinligi, xavfsizligi, mulkini ta'minlashni qanday amalga oshirayotganligiga bog'liq holda baholaydi. Agar hokimiyat haqidagi qonunlar fuqarolarning erkinligini inkor etsa, bu holda bunday qonunlar, yuridik jihatdan davlatga emas, despotiyaga mos keladi. Davlat - bu insonlarning ijtimoiy hayotlarida erkinliklarini amalga oshirishning va ta'minlashning institutsiyaviy mavjudligi (borlig'i) shaklidir.

Shunday qilib, davlat tushunchasi ommaviy-siyosiy hokimiyatning tashkilotini nazarda tutadi, biroq, albatta, faqatgina huquqiy tipda tashkil etilgan hokimiyatni taqozo qiladi. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan, davlat hokimiyatining tashqi belgilari bo'lib, hokimiyatga bo'ysunuvchi aholi, hokimiyat tarqaladigan hudud va suveren hokimiyat hisoblanadi. Biroq, boshqa tomondan esa, davlatning bu belgilariga, elementlariga yuridik talqin beriladi, xususan, libertar nazariyaga ko'ra, davlat hokimiyati oliy hokimiyat hisoblanadi, biroq, har tomonlama kuchaygan hokimiyat emas. Davlat hokimiyati bu shunday ommaviy-siyosiy hokimiyatki, u huquqiy ramkaga solingan, fuqarolarning erkinligi bilan hech bo'lmasa, mi-nimal darajada cheklangan bo'lishi shart. Bu siyosiy hukmronlikning shunday mexanizmiki, u albatta, u yoki bu tarzda huquq bilan bog'liq, o'z-o'zicha emas, balki vakolatlar doirasida amal qiladi. «Hech bo'lma-ganda», «minimal darajada», «u yoki bu tarzda» degan iboralarning ishlatilishi boisi shundaki, har bir davlat huquq bilan o'zining sivilizatsiyaviylik darajasi, har bir xalqda huquqning va huquqiy madaniyatning rivojlanganligiga qarab bog'liq bo'ladi. Davlatning huquq bilan bog'langanlik darajasi davlatlar taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo'lganligi tabiiydir. Hozirgi kunda huquqiy davlat andozalariga hamma davlat ham mos kelavermaydi. Biroq, maboda hokimiyat hech bo'lmasa, muayyan qism fuqarolarning muayyan huquqlari bilan ma'lum darajada cheklangan bo'lsa, bu holda har qanday davlatni davlat deyish mumkin,

Shu o'rinda «davlat» «stato» atamasi etimologiyasiga ozroq to'xtalish zarur. Umuman, bu atamani ilmiy muomalaga XVI-asrda buyuk

ital'yan siyosiy mutafakkiri N.Makiavelli kiritgan. Albatta ruscha «gosudarstvo» soʻzlarida libertar davlatni tushunish unchalik ifodalalmagan. Davlat soʻzi mulk maʼnosini ham anglatishi maʼlum darajada ramziy maʼnoga ega, eslab koʻraylik osiyocha paydo boʻlgan davlatlarda hokimiyatga egalik, oʻz navbatida, tegishli mulkka egalikka olib kelgan, xususan, monarx eng katta mulk egasi ham hisoblangan, shu bois boʻlsa kerak, davlat soʻzi ikki maʼnoda – ommaviy-siyosiy hokimiyat tashkiloti boʻlgan davlat maʼnosida va yana mol-mulk boylik maʼnosida ham ishlatiladi. Ruscha «gosudarstvo» soʻzi gosudarʼ, yaʼni sud soʻziga yaqin, biroq, hozirgi kun tushunchasiga binoan davlat ham «gosudarstvo» mohiyatan yunoncha polis, politeia, lotincha civitas, respublica soʻzining maʼnosini anglatadi. Keyinchalik lotin tili asosida roman va german tillarida status (stato, state, staat, etat va boshqalar) kabi terminlar shakllanib, ularning bari – jamiyat ommaviy-hokimiy va ommaviy-huquqiy holatini ifodalagan. Makiavelli stato atamasini XVI-asrda ilmiy adabiyotga kiritunga qadar, siyosiy tilda «respublika», «boshqaruv», «imperiya», «knyazlik» kabi atamalar ishlatilib, evropalik allomalar umumeʼtirof etilgan davlat atamasini bilishmagan ham va har bir davlatning konkret shaklidan foydalanishgan: respublika, podsholik va boshqalar. Stato soʻzi italiya tilida «holat», «tabaqa», «maqom» maʼnolarini anglatgan, na inglizcha state, na nemischa staat etimologik jihatdan podsho, hukmdor maʼnolarini anglatmagan, bu maʼnoni ular yangi davrda kasb etgan.

Hozirgi zamon libertar nazariyasi davlat bilan despotiyani bir-biridan ajratib farqlaydi. Shu munosabat bilan sivilizatsiyaning ikki shakli olgʻa suriladi: -personasentrik, -sistemasentrik.

Personasentrik sivilizatsiyada shaxs sistemadan nisbatan mustaqil boʻladi, uning aksi esa – sistemasentrik sivilizatsiya boʻlib, unda individning manfaatiga sovuqqonlik bilan qaraladi.

Hozirgi zamon Yevropa sivilizatsiyasi personasentrik hisoblanadi, biroq, hozirda ham sistemasentrik rejimlar mavjud, totalitar tuzumda sistemasentrizm hukmronlik qiladi.

Libertar nazariyaga koʻra istalgan, nisbatan rivojlangan sivilizatsiyalarda ommaviy-siyosiy hokimiyat mavjud, biroq, bu hokimiyat personasentrik va sistemasentrik sivilizatsiyalarda har xildir, tipan bir-biriga qarama-qarshidir. Personasetrik sivilizatsiyadagi siyosiy hokimiyatni davlat deb atasak, sistemasentrik sivilizatsiyadagi siyosiy hokimiyatni gʻayri davlat deb ataymiz.

Aynan, personasentrik sivilizatsiyada hokimiyat jamiyatga nisbatan ikkilamchi, sistemasentrik sivilizatsiyada esa – hokimiyat birlamchi, birinchi o`rinda turadi. Insonni butunlay ijtimoiy tuzulma ixtiyoriga beradigan uning mehnat taqsimotida tutadigan o`rnini, qaysi tabaqa va qatlamga mansubligini belgilaydigan ommaviy-siyosiy hokimiyat sistemasentrik sivilizatsiyani shakllantiradi, uning ijtimoiy, iqtisodiy tizimini, ma`naviy olamini vujudga keltiradi. Bu sivilizatsiyada butun ijtimoiy borliq siyosiy lashgan, inson doimo hokimiy amr – bo`ysunish munosabatlari doirasida mavjud bo`ladi. Bu despotiyadir. Personasentrik sivilizatsiyada –muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma`naviy olamda amal qiladigan insonlar, umumiy vazifalarni bajarish uchun ommaviy – siyosiy hokimiyatning tegishli institutlarini vujudga keltiradi va bu institutlar, o`z navbatida, shakllanib bo`lgan jamiyatga nisbatan xizmat vazifasini o`taydi.

6. Davlatning substansiyaviy, hududiy va institusiyaviy elementlari

Ta`kidlash joizki, hozirgi zamon davlati ko`p qirrali ijtimoiy-siyosiy hodisa bo`lib, uni tavsiflashda turfa qarashlar va yondashuvlar, nazariya va konsepsiyalar mavjud. Bunday holatning sabablaridan biri – dunyodagi barcha davlatlar rivojida va amal qilishida umumiy jihatlar bo`lishi bilan birga, ayni paytda har bir davlat o`ziga xos va mosdir. Aytish mumkinki har bir davlat o`ziga xos unikumdur. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, «Dunyoda bir-biriga aynan o`xshagan ikkita inson bo`lmaganidek, bir-biriga aynan o`xshagan ikkita davlat ham yo`q. Har bir davlat - betakror ijtimoiy hodisa»¹.

Jahonda kechayotgan globallashuv va integrasiyalashuv jarayonlari davlat haqidagi klassik qarashlarga o`zining ayrim tuzatishlarini kiritmoqda. Har bir davlat borgan sari xalqaro hamjamiyatga bog`liq bo`lib bormoqda. Bu obyektiv jarayon. Shu bilan bir qatorda, davlatni davlat ekanligini ta`minlab turadigan shunday elementlar borki, ularsiz davlat to`la qonli bo`laolmaydi. Bu davlatning aholisi, hududi va davlat organlaridir.

Darhaqiqat, davlat o`z qo`lida to`plangan davlat hokimiyatini aniq belgilangan hududda istiqomat qiladigan aholiga qaratadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т.: Ўзбекистон. 1995. 8-бет.

Shunga bog`liq holda davlatning: - davlat aholisi, - davlat hududi, - davlat hokimiyatini amalga oshiradigan davlat organlari tizimi – mavjud bo`ladi².

Davlatning substansiyaviy elementi

Kishilik jamiyati tarixiga nazar tashlab, davlatlarning paydo bo`lishi jarayoniga e`tibor qaratadigan bo`lsak, har qanday davlatning muayyan xalq (etnos) tomonidan shakllanganligini ko`ramiz. Muayyan xalqning o`z taqdirini o`zi belgilashi jarayonida va uning natijasida millat shakllanadi. Shunga ko`ra millat – davlatning substansiyaviy elementini tashkil etadi.

Ayni paytda davlatning paydo bo`lishi va shakllanishi tabiiy –tarixiy jarayon bo`lmay, balki ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Shu bois, muayyan xalqda davlatchilikning paydo bo`lishi bevosita millatning shakllanishi natijasi bo`lmay, balki bu jarayon kechgan ijtimoiy muhit hisoblanadi¹.

Bundan har qanday davlat bir millatni yoki xalqni o`z ichiga oladi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, albatta. Ko`p millatli davlat umumiy hokimiyat ostida birlashgan ko`p etnoslar tomonidan tashkil etilmaydi. Masalan, imperiyalar (asosiy) titul millat sifatidagi bir xalq yoki millat tomonidan tashkil etilib, boshqa millat va elatlar uning tarkibida «davlatni tashkil etuvchi» sifatida mavjud bo`ladi².

Etnos bu – siyosiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o`z taqdirini o`zi belgilash tabiiy huquqlariga ega bo`lgan insonlar hamjamiyatidir<sup>3</sup>. Etnosni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydigan bo`lsak, u - muayyan hududda tarixan vujudga kelgan, tili, madaniyati, dini va boshqa ijtimoiy belgi va xususiyatlarining umumiylikiga asoslangan insonlarning uyushmasidir. Boshqa ijtimoiy belgilar sirasiga, agarda muayyan etnos davlatlitashkillashgan jamiyatda istiqomat qilayotgan bo`lsa, davlat hokimiyatining umumiylik ham kiradi. Etnogenez nazariyasiga ko`ra etnos insonlarning tabiiy tarzda shakllangan hamjamiyati sifatida qaralsada, ayni paytda antropologik belgini juda mutloqlashtirish to`g`ri bo`lmaydi. Xolbuki, etnoslar turli xil aholi tarkibi asosida vujudga keladi, bir necha irqnlarni ham o`z ichiga olishi mumkin⁴.

² Ушбу параграф В.А.Четвернининг «Элементы государства» номли параграфи асосида тайёрланган. Қаранг: Проблемы общей теории права и государства. - М.: Инфра Норма М. 2004. С.541.

¹ Қаранг: Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра Норма М. 2004. С.541. Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра Норма М. 2004. С.543.

² Давлат ва миллат ўртасидаги муносабат ҳақда батафсил қаранг: А.Н.Кольев. Нация и государство. Теория консервативной реконструкции. М. Логос. 2005. с. 359-983

³ Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра Норма М.2004. С.544.

⁴ Батафсил қаранг: Гумилев Л.Н. Этносфера: история людей и история природы. - М.: 1993. С,54-55, 538-539.

Demak, etnos bu - uni tashkil etgan tarkibiy qismlarning antropologik turlichaligiga yo'l qo'yadigan insonlar hamjamiyati. Shu o'rinda etnos bu ijtimoiy va biologik hodisadir deyish mumkin. Etnos nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-madaniy umumlashma bo'lib, bu uni tashkil etuvchi aholining tili, dini, moddiy madaniyati va boshqa jihatlari umumiylikiga asoslanadi. Bu belgilarning etnosni belgilashdagi ahamiyati salmoqli ekanligini e'tirof etgan holda, ayni paytda ular etnosni to'la tavsiflashga yetarli bo'lmay qo'lishi mumkinligini ta'kidlashga to'g'ri keladi. Masalan, til belgisini oladigan bo'lsak, bitta til bir necha etnosga mansub bo'lishi mumkin. Muhimi bunday isbotlarni etnosni tavsiflovchi boshqa ijtimoiy-madaniy belgilarga nisbatan ham ko'rsatish mumkin. Yuqoridagilar asosida ijtimoiy-madaniy belgilarning birlamchi xarakterga ega emasliklarini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

L.N.Gumilevning fikricha, muayyan etnosga mansub ekanligini his etish insonlar o'rtasidagi tizimli aloqaning bir ko'rinishi bo'lib, u mavjud obyektiv birlikni o'zida ifoda etadi. Etnoslar o'ziga xos xulq-atvor, yurish-turish stereotiplari bilan bir-biridan farqlanadi¹. Shu tariqa ijtimoiy tuzilmalarning tarixiy rivojlanishi sari etnoslarning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'z taqdirini o'zi belgilashi, boshqa etnoslardan siyosiy-huquqiy alohidalashuvi sodir bo'la boradi, undan keyin etnos siyosiy hokimiy tashkilotga ega bo'lishga intiladi.

Bu holat hozirgi xalqaro huquqda xalqlarning siyosiy jihatdan o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan tabiiy huquqi deb e'tirof etiladi. Etnos har doim muayyan bir hududda shakllanadi, shu bois uning mazkur hudud bilan uzviy bog'liqligi vujudga keladi. Bunday jo'g'rofiy hudud mazkur etnosga Vatan hisoblanadi, va ushbu hudud bilan bog'liqlik etnosning shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, har bir etnos hududiy o'z taqdirini o'zi belgilashga, yoki Vatanga ega bo'lishga, ya'ni o'zi shakllangan hududda ommaviy-siyosiy tashkilot tuzishga haqli.

Shunday qilib, aytish mumkinki, etnos bu muayyan hududda shakllangan, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan va boshqa xuddi shunday birliklarga nisbatan siyosiy jihatdan alohida bo'lishga intiladigan, umumiy etnik mansublik hissi bilan birlashgan insonlar uyushmasidir². Etnos tushunchasidan keyin bevosita millat tushunchasini tushunishga harakat qilamiz. Hozirgi zamon xalqaro huquqida millat tushunchasi ikki

¹ Гумилев Л.Н. Этносфера: история людей и история природы. - М.: 1993.С, 23-25, 39-77, 540-541.

² Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра Норма М. 2004. С.546.

xil ma'noda ishlatilishini ta'kidlash zarur, u avvalo «etnos» atamasining sinonimi sifatida, so'ngra xalqaro huquqda davlat atamasining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Ayni paytda «millat» muayyan davlatga mansublik, fuqarolik sifatida anglaniladi. Bunday yondashuv davlatni insonlar hamjamiyati sifatida tushunish bilan bog'liq holda shakllangan bo'lsa kerak.

Darvoqe xalqaro huquq nuqtai nazaricha «millat» bu – «davlat tashkil etuvchi» xalqdir, bu xalqning tarkibiga etnik jihatidan qat'i nazar barcha aholi kiradi. Bu holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti birlashgan etnoslar tashkiloti bo'lmay, balki Birlashgan Davlatlar Tashkilotidir, xuddi shuningdek, xalqaro huquq, etnoslararo huquq bo'lmay, davlatlararo huquqdir. Qisqasi xalqaro huquqdagi Millat atamasi orqali mavjud bir davlat anglashiladi. Xalqning tashqi siyosiy jihatdan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining subyektlari bo'lib, butun dunyo bo'yicha tarqalib kyetmagan holda muayyan hududda zich joylashib, istiqomat qilayotgan har qanday xalq bo'lishi mumkin. Millat esa shunday huquqini amalga oshirgan xalq hisoblanadi.

Xalqning tashqi siyosiy jihatdan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ikki yo'l bilan amalga oshishi mumkin: -o'zining mustaqil alohida suveren davlatini tashkil etish yo'li bilan; -yoki alohida davlat tashkil etmay, biron-bir mavjud davlat tarkibiga kirish.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga ko'ra har bir xalq o'z davlatchiligiga ega bo'lishi mumkin, biroq bu huquqni amalga oshirish boshqa xalqlarning huquqlarini, manfaatlarini, tinchligini buzish hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Shu o'rinda «titul millat» va «etnik(milliy) kamchilik» tushunchalarini ajratish zarur. «Titul millat» bu – o'zining mustaqil davlatini tuzgan, tashkil topgan davlatga o'z nomini, tilini beradigan xalqdir. Biroq davlat tarkibiga «titul millat»dan boshqa ham millat va elatlar kiradi. Ular ham o'z navbatida ikki tipga ajraladi:

Birinchi tipga o'zining asl vatanida yashaydigan, biroq mazkur davlat hududidan tashqarida o'z davlatiga ega bo'lmagan etnoslar yoki etnosning bir qismi kiradi. Mazkur etnik kamchiliklar boshqa etnoslar kabi tashqi siyosiy o'z taqdirini o'zi belgilashga haqli. Etnik kamchilikka nisbatan bu huquq uning davlatdan ajralib chiqib, o'z milliy davlatini tuzish yoki boshqa bir davlatga, uning roziligi bilan qo'shilish huquqini anglatadi.

Ikkinchi tipga esa muayyan davlat hududida yashaydigan va ushbu davlat hududidan tashqarida o'z siyosiy davlatchiligiga ega bo'lgan, hamda o'sha davlatda mazkur etnos kamchilikni tashkil etadigan etnoslar

kiradi. Basharti bunday etnik kamchilikning yashab turgan hududi uning asl tarixiy vatani bo'lsa, bu holda u tashqi siyosiy o'z huquqini o'zi belgilash huquqiga ega. Basharti yashab turgan hudud mazkur etnos uchun tarixiy vatan hisoblanmay, balki «titul millat» uchun vatan hisoblansa, bu holda u bunday huquqga da'vo qila olmaydi. Ayni paytda barcha etnik kamchilik ichki o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega.

Etnik kamchilikning o'z milliy davlatini tuzishga bo'lgan huquqi mazkur etnik kamchilik istiqomat qiladigan davlat suvereniteti bilan cheklanadi. Oqibatda muayyan kolliziya holati yuzaga keladi. Etnik kamchilik tomonidan tashqi siyosiy o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ma'lum bir davlatdan uning muayyan bir qismining chiqib ketishi – **sesessiyani** anglatadi.

Aslida sesessiya umumiy qoidaga ko'ra, mazkur suveren davlatning rozilgisiz mumkin emas. Jumladan, federasiya subyekti federasiya rozilgisiz undan chiqib ketishi mumkin emas.

Shu bois, davlat ichida etnik kamchilikning o'z taqdirini o'zi belgilashi varianti hozirgi zamonda ko'proq maqsadga muvofiq.

Etnik kamchilikning davlat ichida sesessiyasiz o'z siyosiy taqdirini o'zi belgilashining maqsadi – mavjud davlat hududi doira-sida o'zini-o'zi boshqarishga ega bo'lishidir. Bu holda etnik kamchilik zich yashaydigan hududda markaziy organlar bilan munosabatlarda mustaqil bo'lgan davlat hokimiyati organlarini tashkil etishni anglatadi. Bunday mustaqillikka markaziy va o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarni konstitutsiyaviy chegaralash orqali erishiladi. Unitar davlatda milliy kamchilikning o'zini o'zi boshqarishi shakli bu etnohududiy avtonomiya, ya'ni muayyan ma'muriy-hududiy birliklarga etnik prinsipga ko'ra mustaqillik berishdir.

Muammoning boshqa yechimi – federativ davlat tuzilishi bo'lib, uning doirasida etnik kamchilik tomonidan federasiya subyektlari tuziladi. Ayni paytda federasiyaning boshqa subyektlari hududiy prinsip bo'yicha tuziladi. RF mana shunday aralashgan, ya'ni hududiy-etnik prinsipga asoslangan holda tuzilgan.

Shu tariqa etnik kamchilikning ichki o'z taqdirini belgilashi unitar davlatda avtonomiya, federativ davlatda federasiya subyekti tashkil etish orqali amalga oshiriladi. V.A.Chetverninning ta'kidlashicha, davlat sesessiyaga qarshi turishi mumkin, biroq ichki o'z taqdirini o'zi belgilashni rad eta olmaydi, zero bunda mazkur davlatning suverenitetiga daxl qilinmaydi. Faqat bu holda suveren davlatning roziligi talab etiladi.

Etnik kamchilikning davlat ichida o'z taqdirini o'zi belgilashini amalga oshirishda ikki shartga rioya etish kerak bo'ladi:

- insonning individual huquqlarining buzilishiga olib kelmasligi kerak;

- boshqa etnik guruhlarining huquqlari buzilmasligi kerak.

Maboda etnik kamchilik aholining oz qismini tashkil etadigan bo'lsa, bu holda suveren davlat ichki siyosiy o'z taqdirini belgilash huquqiga e'tiroz bildirishi mumkin. Bu holda etnik kamchilik nohududiy etnomadaniy avtonomiya shaklida o'z taqdirini o'zi belgilashi mumkin. Bu shaklda davlat hokimiyatining markaziy, mintaqa-viy organlarida vakillik kafolatlanadi.

Shunday qilib, davlatning substansiyaviy elementi – millat, ya'ni siyosiy-huquqiy umumlashma-birlik bo'lib, u tashqi siyosiy o'z taqdirini belgilash natijasida vujudga keladi va uning doirasida etnik guruhlarining ichki o'z taqdirini belgilash huquqi amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning hududiy elementi

Davlat hokimiyati muayyan hududga emas, balki ushbu hududda joylashgan aholiga o'z hokimiy ta'sirini o'tkazadi. Davlatning hududiy elementi bu muayyan makon bo'lib, uning doirasida ma'lum bir davlatning hokimiyati harakatda bo'ladi, bu makonni ushbu hokimiyat fuqarolarning hayotiy makoni sifatida himoya qiladi.

Davlatning hududiy elementi uning substansiyaviy elementi bilan uzviy bog'liqdir. Davlatning hududiy elementi bu muayyan hudud bo'lib, unga nisbatan davlatni tashkil etgan tegishli etnos vatanga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat hududini o'zgartirish hozirgi zamon xalqaro huquqi shakllanganiga qadar faqat kuch yo'li bilan sodir bo'lgan. Shu munosabat bilan okkupatsiya, anneksiya, sessiya va ad'yudikasiya kabi tushunchalarni qarab chiqishga zarurat bor.

Okkupatsiya (lot. occupatio- egallab olish, egallash)- biron-bir boshqa davlatga tegishli bo'lmagan (go'yoki egasiz hisoblanuvchi) hududni egallab olishdir. Kolonistlar evropa millatiga mansub bo'lmagan aborijenlar joylashgan hududlarni «hech kimniki emas, egasiz» deb hisoblab, uzoq vaqt davomida amalda egallab turganligi bois, evropa davlatiga «okkupatsiya» yo'li bilan qo'shib olinishini to'g'ri yo'l hisoblashgan.

Ta'kidlash joizki, bunday yo'l bugungi kunda xalqaro huquqda mavjud bo'lgan tushunchalar occupatio bellica va occupatio pacifica bilan hech qanaqa aloqasi yo'q. Occupatio pacifica bu muayyan bir davlat

tomonidan boshqa davlat hududini o'z hududi tarkibiga rasman kiritmagan holda bosib olishini anglatadi.

Anneksiya (lot.annexio -qo'shib olish) – bu shartnomaga asoslanmagan holda bir davlat tomonidan boshqa davlat hududini o'ziga qo'shib olishdir. Hozirgi zamonda okkupatsiya va anneksiya holatlari haqida gap ketganda, biron-bir davlat hududining amalda de facto kengayishi nazarda tutiladi, chunki bu ikki holatda boshqa davlat hududini o'ziga qo'shib olish uchun yuridik asos yetarli emas, zero bu masala so'zsiz tegishli hududda yashayotgan aholining siyosiy o'z taqdi-rini o'zi belgilash huquqi orqali amalga oshiriladi.

Bir davlat hududining ikkinchisiga shartnoma asosida o'tishi sessiya (lot. Cessio-rasmiy yon bosish, boshqa shaxsga o'z huquqini o'tkazish) hisoblanadi. Ko'pincha sessiya ikki davlat o'rtasidagi urush tinchlik shartnomasi bilan tugashi natijasida yuz berishi mumkin. Ma'lumki, bu holda aholining davlatga mansubligi o'zgarishi mumkin, shu bois aholiga fuqarolik tanlash huquqi – optatsiya imkoni beriladi.

Ad'yudikasiya (lot.adjudicatio - berish, taqdirlash) bunda nizoli hudud vakolatli xalqaro sud qaroriga muvofiq tegishli davlatga o'tkaziladi. Bunday yondashuv bugungi xalqaro huquq normalariga mos kelmaydi. Demak, davlat hududi o'zgarishining ikki yo'li - kuch orqali va huquq asosidagi yo'llar bo'lib, ularni ajratish mezonini munozarali hudud aholisining siyosiy irodasi hisoblanadi.

Shunday qilib, davlatning hududiy elementi davlatni belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatning institusiyaviy elementi

Davlat bu erkinlikning institusiyalashgan shakli yoki davlat bu siyosiy institusiyadir. Jamiyat rivojlangan sari davlatning institusiyaviy-huquqiy tabiati yanada namoyon bo'la boradi.

Davlat suverenitetining hozirgi zamon tushunchasi bu huquqga bo'ysungan davlat hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi, davlat vakolatlari doirasida kuch ishlatishga bo'lgan monopol huquqi hamda xalqaro huquqiy tartibot doirasida uning mustaqilligidir.

Ichki davlat suvereniteti bu-davlatning boshqa huquq subyektlariga nisbatan ularning huquq va erkinliklarini tan olish va rioya etish majburiyati bilan cheklangan majburlov qo'llash huquqi hisoblanadi. Insonning tabiiy va ajralmas huquqlari doktrinasiga ko'ra hozirgi zamon jamiyatida individlar erkinligi davlat hokimiyatiga nisbatan birlamchi bo'lib hisoblanadi va inson erkinligidan davlat hokimiyatining vakolatlari kelib chiqadi. Inson huquqlari borasida xalqaro umume'tirof etilgan

tamoyillarga sodiq O`zbekistonning Asosiy qonunida «birinchi navbatda shaxs manfaatlarining davlat manfaatidan ustun etib belgilanganligi, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo`yilganligi»ni ko`rsatish zarur¹.

Shunday qilib, davlatning institusiyaviy elementi muayyan davlatda oliy hokimiyatning tashkil etilishini anglatadi va u faqat davlat suverenitetini e`tirof etadi(V.Chetvernin).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ijtimoiy siyosiy hodisa sifatidagi davlat (fenomeni)
2. Ommaviy-siyosiy hokimiyat va davlat
3. Davlatning sotsiologik konsepsiyasini tavsiflang
4. Davlatning legistik konsepsiyasini tavsiflang
5. Davlatning libertar konsepsiyasi mohiyatini yoriting
6. Personasentrik sivilizatsiyaning mohiyati
7. Sistemacentrik sivilizatsiyada davlat va shaxs
8. Davlatning substansiyaviy, hududiy va institusiyaviy elementlari.

¹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият.
// Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабрь.

3-MAVZU: DAVLAT HOKIMIYATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI MUAMMOLARI

R E J A:

1. Davlat mexanizmini tushunish muammolari
2. Davlat va uning tarkibiy tuzilishi
3. Hokimiyatlar bo`linishi prinsipi – davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy shakli sifatida
4. Davlat mexanizmida qonun chiqaruvchi, ijro nazorat, hamda sud hokimiyati organlari
5. O`zbekiston Respublikasi davlat mexanizmini isloh etish muammolari

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.–Т.: Шарқ. 1998. 31 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. –Т.: Ўзбекистон.2002.76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
4. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.
9. Исламов З.М.Общество. Государство. Право. Т.: Адолат 2001. 696 с.
10. Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: ТГЮИ. 2003. –245 с.
11. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. Т.: Ўзбекистон. 2005.264 б.
12. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
13. Проблемы теории государств и права Учебное пособие. Под ред. М.Н.Марченко. - М:Юрист, 2004. 656 с.

14. Нерсисянц В.С. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. -М: НОРМА. 2000.-233 с.
15. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. -М.: Юрайт.1999. С. 240
16. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. -М.:ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. 640 с.

1. Davlat mexanizmini tushunish muammolari

Davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini tushunish masalasi davlat va huquq nazariyasi fanida o'ziga xos o'rin egallaydi, ayni paytda bu masalada mutaxassislar o'rtasida unchalik yakdillik yo'q. Ilmiy adabiyotda davlatga bir tashkilot sifatida qarash ham bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Keng ma'noda, davlat bu - muayyan davlatning butun aholisini qamrab oladigan ierarxik- pog'onaviy tashkilot, va bunda aholi davlatning substansional unsurini tashkil etadi. Bu aholidan iborat bo'lgan tashkilotda boshqaruvchi maxsus apparat ham mavjud.

Shu joyda faqat bir holatni, bu ham bo'lsa yuqorida aytilgan apparatning o'zi ham bir tashkilot, tashkiliy shakl sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlash lozim, Bundan xulosa shuki, davlatning institusiyaviy unsuri, bu - davlat hokimiyatini amalga oshiradigan pog'onaviy tashkilot yoki tor ma'nodagi hokimiyat tashkilotidir. Mana shu tor ma'noda tushuniladigan, ya'ni davlat hokimiyatini amalga oshiradigan tashkilot "davlat hokimiyati apparati", "davlat apparati" yoki davlat hokimiyati mexanizmi", "davlat mexanizmi" kabi tushunchalar orqali ifodalanadi¹.

Biroq, ayrim olimlarning fikricha "Davlat mexanizmi" tushunchasi "davlat apparati" tushunchasidan kengroq, aniqrog'i, davlat apparati asosan, o'z ichiga faqat davlat organlari tizimini olsa, davlat mexanizmi esa o'z ichiga davlat organlaridan tashqari, yana kuch ishlatishga vakolatli maxsus tuzilmalarni, majburlov apparatini, davlat hokimiyatining moddiy vositalarini ham oladi.

V.Lazarev tahriri ostida nashr qilingan «Davlat va huquq nazariyasi» (rus tilida) kitobida xuddi shunday yondoshuv bayon etilgan, ya'ni "Davlat mexanizmi - bu jamiyatni boshqarishni va davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradigan organlar tizimidir. Davlat mexanizmiga qonun chiqaruvchi organlar, ijro organlari, sud va boshqa

¹ Проблемы общей теории права и государства. -М.: Инфра. 2004. 565 с.; Исламов З. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат. 2001. 248 б.

organlar, hamda zarur hollarda majburlov qo'llashga vakolatli tuzilmalar (armiya, ichki qo'shinlar, turmalar va shunga o'xshash) kiradi"¹.

Bizning fikrimizcha, mana shunday yondoshuv samarali, zero davlat mexanizmi, har holda strukturaviy jihatdan davlat apparatidan keng, shu bois bu tushuncha davlat apparati tushunchasidan ham kengroqdir. Ta'kidlash kerakki, ilmiy adabiyotda davlat mexanizmiga odatda quyidagicha tipik ta'rif berishadi: Davlat mexanizmi bu - davlat hokimiyatini amalga oshiradigan, davlatning funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydigan davlat organlari tizimidir. Boshqa ta'riflar ham shaklan farq qilsa-da mazmunan ushbu ta'rifga yaqin turadi.

Davlat mexanizmi - bu davlat hokimiyatini, uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik (pog'onaviy) tizimidir.

Davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmi yaxlit bir tizim bo'lib, u qator xarakterli belgilarga egadir:

1. Davlat mexanizmi bu davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik (pog'onaviy) tizimidir. Davlat mexanizmining yaxlitligi uni tashkil etish va faoliyatining prinsiplari, faoliyatining maqsad va vazifalari mushtarakligi, umumiyligi orqali ta'minlanadi;

2. Davlat mexanizmining birlamchi tarkibiy elementlari bo'lib, davlat organlari va davlat muassasalari hisoblanadi va ularda maxsus ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar - davlat xizmatchilari ishlashadi. Davlat organlari o'zaro bo'ysunish munosabatlari bilan bog'langandir;

3. Davlat mexanizmi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun kerakli bo'lgan vositalar - qurolli otryadlar, turma va boshqa kuch ishlatuvchi tuzilmalar bilan ta'minlangan, chunki ularsiz hech bir davlat normal faoliyat yurgiza olmaydi;

4. Davlat mexanizmi orqali bevosita davlat hokimiyati amalga oshiriladi, davlatning vazifa va funksiyalarining bajarilishi ta'minlanadi².

V.A.Chetvernin va Z.Islomovlarning umumiy fikrlariga ko'ra, davlat mexanizmi deganda ham, yoki davlat apparati deganda, ko'rinib turganidek, bir narsa haqida, ya'ni davlatning institusiyaviy elementi haqida gap ketmoqda. Apparat yoki mexanizm deganda, baribir, gap asosan davlat hokimiyati organi haqida ketadi. Shu bois bu ikki olimning fikricha, "davlat apparati" va "davlat mexanizmi" sinonimlar sifatida e'tirof etiladi.

¹ Қаранг: Теория государства и права. В.Лазарев таҳрири остида. М.:Юристъ. 1994. 37 с.

² Теория государства и права. М.Норма. 2002. 157 с.

Yuqorida nomlari qayd etilgan ikki olimning fikriga ko'ra, bu tushunchalar o'z ichiga kuch ishlatuvchi tuzilmalarni ham olgani holda, davlat organlari tizimini anglatadi. Ayni paytda, davlat apparati bilan davlat muassasalarini bir-biridan farqlash zarur. Davlat muassasalari, jumladan, xo'jalik birliklari, kommunikatsiyalar tizimi, ommaviy axborot vositalari, transport, ilmiy, ma'rifiy, tibbiy va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalar bevosita davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etishmaydi, biroq, davlatning vazifalari bajarilishiga har tomonlama yordam ko'rsatadi.

“Mexanizm” atamasi davlat hokimiyatini amalga oshirishga nisbatan alohida bir mazmun kashf etadi.”Mexanizm” - bu doimo biror subyektga funksional jihatdan, ya'ni uning vazifalaridan kelib chiqqan holda baho berishdir. Shu bois ham “mexanizm” atamasi davlat organlarining tuzilmaviy tizimini ifodalash uchun emas, balki davlat apparati va uning tarkibiy elementlarining funksional xususiyatlarini tavsiflash uchun asqotishi mumkin¹. Shu ma'noda, demak, davlat hokimiyatini amalga oshirish yoki davlatning amal qilishi haqida so'z yuritish mumkin.

M.I.Baytinning fikricha, davlat mexanizmi barcha davlat organlarini qamrab olgani holda, bevosita davlatni namoyon etadi, uning real ifodasi sifatida maydonga chiqadi. Mazkur olimning ta'kidlashicha, davlat mexanizmining tushunchasi uning xarakterli xususiyatlari va belgilari orqali ifodalanadi, va shu tariqa u jamiyatdagi boshqa nodavlat tuzilmalardan farqlanadi.

Aytish kerakki, davlatning funksiyalari bilan uning mexanizmi, ya'ni davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Davlat funksiyalariga, albatta, bunda hal qiluvchi rol ajratiladi. Chunki yangi davlat funksiyasining shakllanishi, uni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan tashkiliy shaklning, ya'ni tegishli davlat tuzilmasining vujudga kelishiga, yoki mavjud davlat organlarining vakolat doiralari o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Davlat organlari va davlat muassasalarining yangi paydo bo'lgan funksiyalarga moslashishi taqozo etiladi. Masalan, O'zbekiston mustaqil bo'lgach, avval unda bo'lmagan qator funksiyalarning vujudga kelishi, tegishli davlat organlari tashkil etishni talab etdi: soliq, bojxona, chegara, xususiylashtirishga mas'ul davlat organlar tizimi tashkil etildi va hokazo. Davlat mexanizmi murakkab tuzilma bo'lib, u qator tarkibiy

¹ Проблемы общей теории права и государства. М.: Инфра. 2004. 567 с.; Исламов З. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат. 2001. 249 б.

qismlardan iborat. Davlat mexanizmining tarkibiy elementlari o`rtasida o`zaro ierarxik bo`ysunish mavjud, masalan, davlat organlari tizimidagi bo`g`inlarning o`rinlari har xil, ular bir-biri bilan subordinasiya (bo`ysunish) va koordinasiya munosabatlariga kirishadi.

Davlat mexanizmi tarkibiga kiruvchi tuzilmalar tarkibi turli vaqtlarda, turli davrlarda turlicha bo`ladi. Davlat mexanizmi davlat paydo bo`libdikim, mavjuddir. Biroq ular qadimgi davrdan to hozirga qadar juda uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot davrini boshdan kechirganlar. Dastlab davlat mexanizmi, sodda, primitiv, tuzilmaviy jihatdan uncha murakkab bo`lmagan bo`lsa, jamiyat rivojlanishi bilan davlat apparati ham mazmunan, ham shaklan o`zgarib, takomillashib, hozirgi kunda u keng shaxobchali va sertuzilma bir tizimni tashkil etadi.

Borgan sari, davlat mexanizmi takomillashib, uning tarkibida ixtisoslashgan organlar ko`paya borgan. Hozirgi zamon davlatlaridagi davlat mexanizmi juda murakkab tuzilmali, turli va xilma-xil organ va idoralardan iborat bo`lib, ularda millionlab davlat xizmatchilari faoliyat ko`rsatishadi.

Agar bir davlatning mexanizmini, yirik bir tizim deb oladi-gan bo`lsak, bu tizim, o`z navbatida, o`z ichiga bir necha kichik tizimlarni oladi. Masalan O`zbekistonning davlat mexanizmi yirik bir tizim bo`lsa, uning tarkibiga kiruvchi kichik tizim sifatida davlatning yuqori organlarini ko`rsatish mumkin. O`zbekiston davlatining yuqori organlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kabi organlarni kiritish mumkin. Huquq tartibot, sud, prokuratura va kuch ishlatishga vakolatli boshqa tuzilmalar birlashib yana bir tizimni tashkil etishadi. Davlatning yuqori organlari faoliyati butun jamoatchilik, katta xalqaro hamjamiyat diqqati markazida turadi. Kuch ishlatishga vakolatli tuzilmalar, massalan, armiya, ichki qo`shinlar, turmalar va boshqa tegishli tuzilmalar davlat organining qaroriga asosan harakat qilishadi, ya`ni muayyan majburlov choralarini amalga oshirishadi, masalan qo`shin va polisiya (militsiya) zarur hollarda, eng qattiq choralarni, qonunda belgilangan tartibda qo`llashga haqli¹. Professor Z.M.Islamovning fikricha, davlat apparati bilan davlat muassasalarini bir-biridan farqlagan ma`qul. Davlat muassasalari davlat apparatiga bo`ysunadi, ular garchi davlat

¹ Корельский В.М. Механизм государства. // Теория государства и права. -М.: Норма- Инфра. 2002. 158 с.

hokimiyatini amalga oshirishmasa-da, biroq bu vazifaning amalga oshirilishiga yordam beradi¹.

Yana bir huquqshunos V.N.Protasovning fikricha, keng ma'nodagi davlat apparati tushunchasi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda davlat apparati ilmiy adabiyotda keng tarqalgan davlat mexanizmi tushunchasiga mos keladi. Bu olimning fikriga ko'ra, har holda davlatning butun organlari va barcha mansabdor shaxslarini belgilash uchun davlat mexanizmi atamasi, ancha keng tarqalganligiga qaramasdan, unchalik mos kelmaydi, chunki, mexanizm bu - u yoki bu hodisaning amal qilishi yoki rivojlanishini belgilab beruvchi dinamik qonuniyatlar majmuidir. Shu bois bu atama ko'proq davlatning rivojlanish dinamikasini tavsiflash uchun ko'proq mos keladi. V.N.Protasov tor ma'nodagi davlat apparati deganda esa davlat boshqaruvi organlari tizimiga kiruvchi tizimlarni tushunadi, ya'ni ijro-etuvchi farmoyish beruvchi (kasbiy-boshqarish, "amaldorlar") apparat tushuniladi²

Yuqorida nomi qayd etilgan olimning ta'kidlashicha, ilmiy adabiyotda davlat boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, ya'ni ijroiya davlat hokimiyati organlari bilan birga yana davlat organlari tizimida qonun chiqaruvchi, sud organlari, prokuratura organlari ajratiladi. Ba'zan esa kuch ishlatishga haqli bo'lgan organlar, jumladan, armiya, politsiya, xavfsizlik organlari va shunga o'xshash organlarni ko'rsatishadi. Ularni davlat boshqaruv organlari tarkibiga kiritish to'g'riroq. Biroq, davlat bu faqat davlat organlari tizimi bilan cheklanib qolmaydi.

Umuman olganda davlat turli davlat tashkilotlaridan iborat bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) davlat organlari;
- 2) davlat muassasalari;
- 3) davlat korxonalari.

Davlat korxonalari va davlat muassasalari davlatning mustaqil bo'linmalari sifatida amal qiladi. Biroq, bu holda ushbu korxona va muassasalarning ma'muriyati davlat organlari umumiy tizimiga kiradi³. Shu o'rinda bir holatni ta'kidlab o'tish kerak, bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida ko'pgina korxonalarda mulkka egalikning xususiy, ko'pincha aralash shakllari joriy etilmoqda, shu bois davlat korxonalarining soni kamayishi tabiiy, xuddi shuningdek, mulkning

¹ Исламов З. Общество. Государство. Право. -Т.: Адолат. 2001. 249 б.

² Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. -М.: Юрайт. 77 с.

³ Протасов В.Н. Указ. кн. 77 с.

nodavlat shakliga asoslangan korxona va muassasalarning soni esa tegishlicha ko`payib bormoqda.

Davlat organlari bilan bir qatorda, davlatning mexanizmiga kiradigan mansabdor shaxs tushunchasini ham ko`rsatib o`tish kerak. Mansabdor shaxs, bu qandaydir bir jismoniy shaxs bo`lmasdan, balki u davlatning amaldori, davlatning individual elementi, o`ziga xos davlat organi bo`lib, u davlat organlari tizimida o`zining muayyan o`rniga, o`zining huquq va majburiyatlar doirasiga ega. Demak, davlatning mansabdor shaxsi, muayyan sifat jihatlariga javob beradigan va davlatning ma`lum bir lavozimini egallagan, xatti-harakatlari yuridik oqibat vujudga keltiradigan shaxsdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti - O`zbekiston davlatining eng oliy mansabdor shaxsi hisoblanadi, Toshkent shahar hokimi esa poytaxt shahrining eng yuqori lavozimli shaxsi hisoblanadi va shunga o`xshash. Shunday qilib, biz ushbu savolda davlat mexanizmi tushunchasi, bu tushunchaning davlat apparati tushunchasi bilan o`zaro nisbati, davlat mexanizmining tarkibiy elementlari, ularning o`ziga xos jihatlarini ko`rib chiqdik.

2. Davlat apparati va uning tarkibiy tuzilishi

Biz yuqorida davlat mexanizmi tushunchasi, uning tarkibini tahlil qilgan edik. Endi esa davlat mexanizmining tarkibini tashkil etadigan davlat organi, uning tushunchasi, belgilari, turlari haqida fikr yuritamiz. Har bir mamlakatdagi mavjud davlat mexanizmi faoliyatining qanchalik samaradorligi, uning davlatning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishni qanchalik uddalashi, ko`p jihatdan davlat organlariga, ularning samarali faoliyatiga bog`liq ekanligi aniqdir.

Har bir davlat organi, bevosita davlatning ma`lum bir funksiyasini amalga oshiradi, masalan, Sog`liqni saqlash Vazirligi va uning tizimi O`zbekistonda aholining sog`lig`ini saqlash funksiyasini, Ta`lim sohasidagi vazirliklar esa mamlakatda aholining ta`lim olish huquqini amalga oshiradi va hokazo. Demak, har bir davlat organining samarali ishlash yoki ishlamasligidan, umuman davlat mexanizmining faoliyati bog`liq bo`ladi, demakki, davlatning jamiyatni boshqarish, uning bir maromda faoliyat olib borishini ta`minlash vazifasi ham shunga bog`liq bo`lib qoladi.

Shunday qilib, davlatning vazifa va funksiyalari uning mexanizmi faoliyati orqali amalga oshadi, ya`ni davlat o`zini o`z organlari faoliyati

orqali ko'rsatadi. Davlat organi bu davlat mexanizmining bir bo'g'ini bo'lib, u muayyan xususiyatlarga ega.

Davlat organi bu - davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradigan davlat apparatining tarkibiy bo'g'inidir. Davlat organi quyidagi xarakterli belgilarga ega:

1. Davlat apparatining tarkibiy bo'g'ini bo'lgan davlat organi davlat - hokimiy vakolatlarga egadir, ya'ni amaldagi qonunchilikda mustahkamlangan davlat hokimiyatini amalga oshirish, davlat nomidan yuridik ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish va bu qarorlarning bajarilishini ta'minlash imkoniyatiga ega.

Davlat organini jamiyatdagi boshqa tashkilot va tuzilmalardan asosiy farq qiluvchi jihati bo'lib, uning davlat-hokimiy xarakterdagi vakolatlarga ega ekanligi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotda davlat - hokimiy vakolatning mazmuni yoritilgan.

Masalan, M.I. Baytinning fikricha, davlat - hokimiy vakolat o'z ichiga quyidagilarni oladi: - davlat organining tashkil etilishi va faoliyati tartibi, uning ichki tuzilmasi, huquq va majburiyatlar yig'indisi, ya'ni kompetensiyasi huquq normalari orqali mustahkamlangan; - davlat organi umumiy va individual qoidalarini ifodalaydigan yuridik aktlar chiqarish huquqiga ega; - yuridik aktlar orqali o'rnatilgan qoidalar asosan, ishon tirish, tarbiyalash, rag'batlantirish choralari orqali ta'minlanadi, va ular ayni paytda davlatning majburlov kuchini qo'llash imkoniyatini buzishdan qo'riqlanadi; - davlat organi o'zi chiqargan qarorlarning bajarilishini ta'minlash uchun davlat byudjetidan ma'lum hajmdagi mablag'larni olib ishlatish huquqiga ega bo'ladi¹.

Demak, davlat organining eng muhim belgisi - bu uning davlat-hokimiy vakolatga ega ekanligidir.

2. Davlat organi muayyan iqtisodiy, tashkiliy alohidalik va mustaqillik bilan tavsiflanadi. Demak, har bir organ uchun uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan hajmda davlatning mablag'i ajratiladi va u bu mablag'ni qonunda belgilangan tartib va doirada ishlatadi.

3. Har bir davlat organi o'z kompetensiyasiga muvofiq tarzda yuklatilgan funksiya va vazifalarni ado etadi, shu tariqa bevosita davlatning ham vazifa va funksiyalari amalga oshiriladi, chunki davlat o'z organlari orqali vazifalarini amalga oshiradi. Masalan, Mudofaa Vazirligi o'zining oldida turgan vazifalarini to'la ado eta borsa, demakki davlatning mudofaa funksiyasi ham samarali amalga oshayapdi, deyish mumkin.

¹ Байтин М.И. Механизм государства. // Теория государства и права. М.:Юристъ. 1997. 95 с.

4. Davlat organlari o`zlarining oldiga qo`ygan maqsadlariga erishish uchun tegishli moddiy vositalarga, ya'ni "ashyoviy qo`shimchalarga" ega bo`ladi, bular sirasiga turli xarakterdagi moddiy qiymatliklarni, turli tashkilot, korxona va muassasalarni kiritish mumkin, ular joriy davlat ishlarini amalga oshirishadi, biroq o`zlari davlat organi hisoblanmaydi.

5. Davlat organining jismoniy ifodasi bo`lib, unda ishlaydigan insonlar hisoblanadi. Davlat organi alohida shaxsdan, bir guruh odamlardan yoki jamoadan iborat bo`lishi mumkin. Biroq davlat organida ishlaydigan odamlar oddiy odamlar bo`lmay, balki davlat xizmatchilaridir. Davlat xizmatchilari - bu ushbu davlatning fuqarolari bo`lgan, tegishli qonunda belgilangan tartibga muvofiq, belgilangan haq evaziga davlat xizmati majburiyatini bajarayotgan shaxslardir.

Shunday qilib, **davlat organi bu - davlat mexanizmining yuridik jihatdan rasmiylashgan, davlat-huquqiy vakolatlarga ega bo`lgan va davlat xizmatchilaridan tashkil topgan, davlatning muayyan vazifa va funksiyalarini o`z kompetensiyasi doirasida amalga oshirish uchun moddiy vositalarga ega bo`lgan hamda tashkiliy va xo`jalik jihatidan alohida bo`lgan qismidir**¹.

Davlat organlari, davlat faoliyatining ko`p qirraligiga bog`liq holda turlicha va ko`p sonli bo`lib shakllangan. Shu bois ham, davlat organlari turlicha asos va mezonlar bo`yicha guruhlariga ajraladi.

Ilmiy va o`quv adabiyotda davlat organlari quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

- 1) tashkil etilish usuliga qarab;
- 2) hokimiy vakolatlarining hajmiga qarab;
- 3) kompetensiyalarning kengligiga qarab;
- 4) hokimiyatlar bo`linishi prinsipiga qarab;
- 5) Qarorlarni qabul qilish tartibiga qarab va boshqalar.

Davlat organlari tashkil etilish tartibiga qarab, - birlamchi, -hosila, ya'ni ikkilamchi organlarga ajraladi.

Birlamchi davlat organlari deb shunday davlat organlariga aytiladiki, ular boshqa bironta organ tomonidan tashkil etilmaydi, ular yo meros qoldirish tartibi bo`yicha, masalan merosiy monarxiya, yoki belgilangan tartibga ko`ra saylab qo`yiladi va o`z vakolatlarini bevosita saylovchilardan olishadi. Davlat organlarining hosila, ya'ni ikkilamchi turiga shunday organlar kiradiki, ular birlamchi organlar tomonidan tashkil etiladi va davlat-hokimiy vakolatlar beriladi. Ular sirasiga ijro etuvchi-farmoyish beruvchi organlarni, prokuratura organlarini kiritish mumkin.

¹ Байтин М.И. Указ. кн. 97 с.

Davlat organlari o'zlariga tegishli bo'lgan hokimiy vakolatlar hajmiga qarab va ushbu vakolatlar amal qiladigan hududga qarab, yuqori va mahalliy organlarga bo'linadi. Davlatning yuqori organlari faoliyati bevosita davlat hokimiyatini o'zlarida ifoda etishadi va o'z hokimiyatini butun mamlakat miqyosida amalga oshiradi, mahalliy organlar esa, odatda ma'muriy hududiy bo'linmalarda tashkil etilib, o'z faoliyatlarini aniq bir mahalliy hududga tarqatadi, xolos.

Davlat organlari kompetensiyalarinng kengligiga qarab,

- umumiy kompetensiyali davlat organlari,
- maxsus kompetensiyali davlat organlariga bo'linadilar.

Umumiy kompetensiyaga ega bo'lgan davlat organlari keng masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishadi, masalan O'zbekiston Respublikasi Parlamenti davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalari bo'yicha qonun hujjatlari qabul qilish vakolatiga ega bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi - Hukumat esa qonunlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida barcha sohalarga oid normativ-huquqiy aktlar qabul qiladi.

Davlat organlarinng maxsus kompetensiyaga ega bo'lgan qismi esa muayyan bir tarmoq, yoki muayyan bir masala yuzasidan, aniqrog'i davlatning ma'lum bir funksiyasini amalga oshirishga ixtisoslashadi: masalan, Ta'lim, madaniyat, mehnat va ijtimoiy ta'minot, mudofaa vazirliklari davlatning tegishlicha, ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy himoya, mudofaa funksiyalarini amalga oshirishga o'z faoliyatini qaratgan.

Bundan tashqari davlat organlarini yana saylab qo'yiladigan va tayinlanadigan davlat organlariga ajratsa bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining saylab qo'yiladigan davlat organlari jumlasiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - Parlamenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarini kiritish mumkin.

Davlat organlarini hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq:

- qonun chiqaruvchi davlat organlari;
- ijro etuvchi davlat organlari;
- sud hokimiyati organlariga ham ajratiladi¹.

Davlat organlarini harakati davomiyligiga qarab, doimiy va muvaqqat organlarga bo'lish mumkin. O'zbekiston davlatining asosiy davlat organlari doimiy asosda amal qiladi, biroq ma'lum bir favqulodda

¹ Ҳокимиятлар бўлиниши ва ҳокимиятнинг уч тармоғи тўғрисида кейинги параграфда сўз юритилиши боис, бу жойда улар ҳақида таҳлил олиб борилмайди.

holatlar ta'siri ostida muayyan muvaqqat organlar ham tashkil etilishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat organlari jamoaviy va yakkabosh davlat organlariga ham ajratiladi. Ko'pincha, davlat organlari jamoaviy tarkibda bo'lishadi, masalan Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Sud va boshqalar. Biroq bir shaxs orqaligina ifodalangan davlat organlari ham mavjud, masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, O'zbekiston Respublikasi Bosh Sanitariya vrachi va hokazo.

Shunday qilib, davlat organi bu davlat mexanizmining tarkibiy bir mustaqil bo'g'ini bo'lib, uning faoliyati orqali davlatning ma'lum bir funksiyasi amalga oshiriladi.

Har bir davlat organi qonunda belgilangan tartib va asoslarda, tegishli vakolatlar majmuasiga, ya'ni kompetensiyasiga ega, va shu kompetensiya doirasida u faoliyat olib boradi va davlat nomidan ish yurgizadi, o'ziga yuklatilgan funksiyalarni ado etadi.

3.Hokimiyatlar bo`linishi – davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy shakli sifatida

O`zbekiston, yosh mustaqil davlatning hokimiyat organlarini yangitdan tashkil etishda, jahonda davlat hokimiyatini tashkil etishning samarali vositasi bo`lgan hokimiyatlar bo`linishi prinsipini asos qilib oldi. Hokimiyat bo`linishi prinsipining dastlabki huquqiy asosi O`zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida»gi qonunining 5-moddasida mustahkamlangan bo`lib, unda «O`zbekiston Respublikasi Davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi» deyilgan. Bu qoida o`zining keyingi ifodasini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida topgan bo`lib, unda «O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo`linishi prinsipiga asoslanadi», deb mustahkamlab qo`yilgan.

Hozirgi kunda jahondagi barcha demokratik davlatlar hokimiyatlar bo`linishi nazariyasini e`tirof etishib, uni davlat hokimiyatini tashkil etishning asosi sifatida qabul qilishgan. Hokimiyatlar bo`linishi o`z manbasiga ko`ra yaxlit va yagona bo`lgan davlat hokimiyatining uch tarmoqqa - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga – bo`linishini, har bir hokimiyat tarmog`i boshqalarga nisbatan mustaqil holda faoliyat yurgizishini taqozo etadi. Ayni paytda, hokimiyatlar bo`linishi, har bir hokimiyat tarmog`i boshqasining o`z vakolat doirasidan chiqmasligini, boshqa tarmoq vakolati doirasiga o`tib ketmasligini nazorat ham qilib turadi, shu tariqa hokimiyatning suiiste`mol qilinishini oldi olinadi.

Hokimiyatlar bo`linishi chinakam bo`lishi uchun, unda «bir-birini tiyib turish va o`zaro muvozanatda ushlab turish» tizimi amal qilishi kerak. Bu tizim nafaqat hokimiyatlar bo`linishini, balki, ularning bir-birini o`zaro tiyib turishini va bir birining faoliyat doirasiga daxl qilmasligini ta`minlaydi.

Hokimiyatlar bo`linishi nazariyasining mazmun mohiyatini to`la tushunish uchun albatta, uning shakllanishi tarixiga bir nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Hokimiyatlar bo`linishi nazariyasi uzoq davom etgan taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan. Mutaxassislarning ta`kidlashicha, hokimiyatlar bo`linishi haqidagi dastlabki fikrlar qadimga borib taqaladi. Davlat va davlat hokimiyati sharoitida yashagan odamlar asta - sekin davlat, saltanatning kuchi, uning jamiyatda, insonlar hayotida

tutadigan o`rni haqida tahliliy fikr yuritib, davlat hokimiyatining bir hukmdor, yoki bironta organ qo`lida butunlay to`planib qolishi - jamiyat taraqqiyoti, xalq uchun xavfli ekanligini, bu holat muqarrar ravishda hokimiyatni suiiste'mol qilinishiga olib kelishini chuqur anglab yetganlar. O`sha davrning ilg`or kishilari bunday holatning oldini olishga qaratilgan mexanizm ishlab chiqish zarurligini tushunib, bu borada muhim qarashlarni ilgari surganlar.

An'anaviy tarzda hokimiyatlar bo`linishi g`oyasining ilk zamini sifatida qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim qayd etiladi. Platon, Arastu va boshqa antik olam mutafakkirlari o`zlari yashab turgan davlat tuzilmalari siyosiy tuzilishi va boshqaruv shakllarini har tomonlama tahlil etish asosida muayyan nazariy, amaliy xulosalarni shakllantirganlar. Hokimiyatlar bo`linishi haqidagi qarashlar keyinchalik ingliz faylasufi Djon Lokk tomonidan nazariy jihatdan rivojlantirilgan. Lokk hokimiyatlar tizimida qonun chiqaruvchi hokimiyatning o`rnini garchi, mutloqlashtirmagan bo`lsa-da, biroq boshqalaridan ustun qo`ygan.

Lokkning qarashlarini Sharl' Lui Montesk'e har tomonlama rivojlantirib, uni tugal, klassik bir nazariya darajasiga ko`targan. Hokimiyatlar bo`linishi nazariyasining rivojiga, ayniqsa uning «bir-birini tiyib, muvozanatda ushlab turish» tizimining boyitilishiga, bu nazariyaning hozirgi zamon qo`rinishidagi shaklining ishlab chiqilishiga T.Peyn, T.Djefferson, A.Gamil'ton, D.Medison, D. Djeeylar hal qiluvchi hissa qo`shishgan.

Hokimiyat tarmoqlarining "bir -birini tiyib turish va muvozanatda ushlash" prinsipini nazariy jihatdan yanada rivojlantirgan va uni amaliyotga tadbiq etishga katta hissa qo`shgan davlat arbobi, ikki marta AQSh Prezidenti bo`lgan Djeyms Medison (1751-1836) hisoblanadi. Medisonning xizmati shundaki, u bir-birini tiyib va muvozanatda ushlab turish tizimining shunday bir mexanizmini ishlab chiqqanki, unga ko`ra hokimiyatning har bir tarmog`i nisbatan teng hisoblanadi. Medisoncha bir-birini tiyish va muvozanatda bo`lish prinsipi hokimiyat uch tarmog`i vakolatlarning qisman bir-biriga mos kelishini taqozo etadi. Hozirgi kunda hokimiyatlar bo`linishi prinsipi demokratik huquqiy rivojlanish yo`lidan ketayotgan davlatlarda ham nazariy, ham amaliy jihatdan e'tirof etilgan hamda davlatchilik tizimida amalga oshirilib kelinmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, hokimiyatlar bo`linishi prinsipining haqiqiy amalga oshishi uchun unda «bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlash» tizimining mavjudligi va real ishlashi muhim. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlash»

tizimining huquqiy asoslari mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi shunda ko'rinadiki, mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi. (76-modda); Ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi; Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi xo'jalik Sudi boshchilik qiladigan tegishli sudlar tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

Hokimiyat tarmoqlarining o'zaro bir-birini tiyib turishi mexanizmi haqida gapiriladigan bo'lsa, dastavval, qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan qanday tiyib turish chora-vositalari borligini ko'rsatish lozim, albatta. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni «tiyib turuvchi va muvozanatda ushlab turuvchi» huquqiy choralar sirasiga, avvalo Konstitutsiyaviy Sud tomonidan qonun chiqaruvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga mosligini tekshirish vakolatini ko'rsatish joiz (konstitutsiyaviy nazorat). (108-modda). Sud hokimiyatining tizimiga kiradigan ushbu sud qonun chiqaruvchi hokimiyat hujjatlarining konstitutsiya asosida, uning doirasidan chiqmagan holda hujjatlar qabul qilinishini tekshiradi, va shu tariqa bu hokimiyatni «tiyib» turadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis qonunlariga nisbatan nisbiy «veto» huquqini ta'kidlash zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonun chiqaruvchi hokimiyatning qonunlariga o'z e'tirozlarini bildirib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. (93-moddaning 17 bandi). Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'i va u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Shu ma'noda uning yuqoridagi vakolati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning bir huquqiy shakli sifatida e'tirof etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni paytda, viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi. Prezidentning ushbu vakolati ham mazmunan hokimiyat tarmoqlarining bir birini tiyib, muvozanatda ushlash mexanizmi majmuiga kiradi.

«Bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlash» mexanizmidagi muhim vositalardan biri, Konstitutsiyaning 95-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, «Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o`rtasida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo`lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin». Bu tashkiliy chora, qonun chiqaruvchi hokimiyatning nokonstitutsiyaviy va yuqori vakillik organi sha`niga mos kelmaydigan faoliyatining oldini olishga qaratilgan. 83-moddada mustahkamlangan qonunchilik tashabbusi subyektlari qonun loyihalarini O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish huquqiga ega. Bu qoida ham qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatini ijro va sud hokimiyati tomonidan muvozanatda ushlab turishning bir vositasini o`zida jamlagan, deyish mumkin, ya`ni qonun chiqaruvchi hokimiyat qaysi masalaga doir qonunni qabul qilish masalasini hal etishning yakka sohibi bo`lmay, balki Konstitutsiyada qat`iy belgilab qo`yilgan subyektlar tomonidan ham taqdim etiladigan qonun loyiholari ustida ish olib boradi.

Ijro hokimiyati tomonidan Konstitutsiya, qonunlar va Prezident Farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini ijro etish yuzasidan, O`zbekiston Respublikasining butun hududidaga barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo`lgan qarorlar va farmoyishlar chiqarilishi (98-moddaning 4-bandi), ma`lum darajada, hokimiyat tarmoqlari o`rtasidagi muvozanatga ta`sir etadi, deb e`tirof etish mumkin. Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlar o`zida ham vakillik, ham ijroiya hokimiyatini mujassam etganligi bois, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan viloyat hokimlarining tayinlash vakolati, viloyatlarda vakillik, ijro hamda sud organlari o`rtasidagi muvozanatni ta`minlashning bir vositasi sifatida namoyon bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ijro hokimiyati tarkibini shakllantirishga doir vakolatlarini mohiyatan, hokimiyat tarmoqlari o`rtasida «bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlab turish» mexanizmi elementlari sirasiga kiritish mumkin. Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, O`zbekiston davlat hokimiyati tizimida hokimiyatlar bo`linishi prinsipining huquqiy, tashkiliy asoslari mavjud, endigi muhim vazifa – hokimiyatlar bo`linishi prinsipini real, to`liq ma`noda amalga oshirishni ta`minlashdir. Sud hokimiyatining isloh etish borasidagi sa`y harakatlar davlatimizning bu maqsadga erishish yo`lidan qat`iy ketayotganligidan dalolat berib turibdi, zero mustaqil sud hokimiyati

– huquqiy taraqqiyot belgisi, huquqiy davlat qurishning muhim shartlaridan biridir.

Aytish joizki, umuman, hokimiyatlar bo`linishi prinsipi, va uning haqiqiyligini ta'minlovchi «bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlash» mexanizmining real amal qilishi, olimlar ta'kidlaganidek, juda ko`p siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tashkiliy omillarga bog`liq, biroq bir holat aniqqi, hokimiyatlar bo`linishi prinsipi demokratiyaning ajralmas bir jihati, uning huquqiy shaklidir, zero qayerda haqiqiy demokratiya mavjud bo`lsa, o`sha joyda haqiqiy hokimiyatlar bo`linishi mavjud bo`ladi.

4. Davlat mexanizmida qonun chiqaruvchi, ijro va nazorat hamda sud hokimiyati organlar

Har qanday davlat mexanizmida qonun chiqaruvchi organlar o`ziga xos o`rin egallaydi. Qonun chiqarish faoliyati, odatda, har bir davlatda, vakillik organlariga taalluqli bo`ladi. Qonun chiqaruvchi organlar umumiy nom “parlament” atamasi orqali nomlanadi. Angliya, Kanada va Hindistonda qonun chiqaruvchi organlar, aynan shu nom bilan ataladi, boshqa davlatlarda esa boshqacha nomlanadi, masalan - O`zbekistonda - Oliy Majlis, Amerika Qo`shma Shtatlarida - Kongress, Pol'sha va Litvada - Seym, Rossiyada - Federal Sobranie (Majlis), Ukrainada - Rada, Isroilda - Knesset, Turkmanistonda - Mejlis va shu kabi.

Parlamentning tarixan tarkib topgan funksiyalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Konstitutsiya va qonunlarni qabul qilish;
- byudjetni tasdiqlash;
- hukumat ustidan nazorat;
- ishonch va ishonchsizlik votumini e`lon qilish va boshqalar¹.

Ta'kidlash lozimki, dunyodagi mavjud parlamentlarning ko`pchiligi ikki palatali hisoblanadi, yuqori palata, ancha demokratik xarakterga ega bo`lgan quyi palataga nisbatan o`ziga xos bastma-bas turuvchi tuzilma rolini o`taydi. O`zbekistonda o`tkazilgan parlament islohotlari ham qonunlarning sifatini yaxshilash va mintaqalarning manfaatini to`la hisobga olish manfaatlarini nazarda tutadi.

Garchi jahon davlatlari parlamentlarida vazifalari, tuzilishi, ish yuritish tartibi bo`yicha umumiylik mavjud bo`lsa-da, biroq shunga

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг фаолият йўналишлари ҳақида қаранг: Э.Х.Халилов. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. Т.: Ўзбекистон. 197- 289 б.

qaramasdan, har bir davlat parlamenti muayyan xususiyatlarga ega. Masalan, Buyuk Britaniya Parlamenti o'z ichiga davlat boshlig'i - monarxni, Lordlar palatasi va Umumiy palatani oladi.

Buyuk Britaniya parlamenti yuqori palatasi quyi palata qonun loyihalariga nisbatan kamdan-kam veto huquqini qo'llaydi, qo'llagan taqdirda ham, bunday vetoni quyi palataning oddiy ko'pchilik ovozi bilan bartaraf etish mumkin. Murakkab jihati shundaki, parlament sessiyasining yiliga bir marta chaqirilishini nazarda tutsak, veto qo'llanilgan qonun loyihaaning kuchga kirishi bir yilga cho'zilishi mumkin. Monarx Buyuk Britaniya Parlamenti qabul qilgan barcha qonunlarni amal qiladigan konstitutsiyaviy odatga ko'ra, o'z imzosi bilan tasdiqlaydi, biroq sal kam uch yuz yil davomida biron marta veto huquqini qo'llamagan. Qizig'i shundaki, konstitutsiyaviy doktrinaga ko'ra, davlat boshlig'i Parlamentning bir tarkibiy qismi hisoblansada, biroq hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasiga ko'ra, u ijro hokimiyati tarkibiga kiradi.

Buyuk Britaniya Parlamenti qonun qabul qilish funksiyasidan tashqari, moliyaviy funksiyalarga ham ega. Aniqrog'i, dastavval, Umumiy palata byudjet haqidagi qonunni qabul qiladi, uni hukumat kiritadi va deputatlar ayrim o'zgartirishlar kiritmoqchi bo'lishsa, tegishli vazir bilan kelishib ish tutishlari kerak. Ta'kidlash zarurki, byudjet masalasida quyi palataning vakolatlari judayam keng emas, ular hukumat foydasiga cheklangan. Buyuk Britaniya Parlamentining yana nazorat funksiyasi ham mavjud bo'lib, u hukumat faoliyati ustidan, boshqaruv ustidan olib boriladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organi bo'lib, ikki palatadan - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata) dan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata)dan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Deputatlar saylovi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan qonunga muvofiq umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senatning besh yil muddatga saylanadigan a'zolaridan

¹ Бу ҳақда кенгрок қаранг: В.Е.Чиркин. Конституционное право зарубежных стран. -М.: Юристь. 2000. 387-388 с.

tashkil topgan. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadilar. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq, O'zbekistonda ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va boshlig'i hisoblanadi va u yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentning vakolat muddati tugab, iste'foga chiqqach, u umrbod Senat a'zosi bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyatiga doir vakolatlari jumlasiga, uning ijro etuvchi hokimiyatni tuzish va unga rahbarlik qilish, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda boshqa davlat boshqaruvi organlarini tuzish va tugatish, ushbu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritish, O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlash va lavozimidan ozod etish, viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlash va lavozimidan ozod etish, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari kengashi tasdig'iga kiritish, qonunda belgilangan hollarda tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etish, respublika davlat boshqaruv organlari, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatish, bekor qilish kabi vakolatlarini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtadi, bekor qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro hokimiyatini amalga oshiradigan organ hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi – O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, Vazirlar, Davlat qo'mitalarining raislaridan hamda o'z lavozimi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh vaziridan iborat.

Mamlakatimizda sud hokimiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг қонуни.// Халқ сўзи. 2003 йил 21 май; Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни. // Халқ сўзи. 2003 йил

Respublikasi Oliy xo`jalik Sudi, Harbiy sudlar tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqiy davlat qurishda va huquqiy davlatning faoliyatida qonun ustivorligi, qonunlarning to`la ijro etilishi muhim ahamiyatga egadir. Ushbu vazifani bajarishda prokuratura organlarining faoliyati muhim o`rin tutadi. Prokuratura organlari barcha huquq subyektlari, ya`ni davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, xo`jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan qonunlarning to`liq va aniq, bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiladi. Shu munosabat bilan prokuratura organlarining davlat organlari tizimida tutgan o`rni haqida fikr yurgizish ahamiyatga molikdir. Boisi, MDH davlatlarida, jumladan, O`zbekistonda davlat hokimiyati tizimi hokimiyatlar bo`linishiga asoslanib, faoliyat yurgiza boshlaganligi munosabati bilan, prokuratura organlari hokimiyatning qaysi tarmog`iga kiradi? – degan masala ahamiyatga molik. Bundan tashqari, ilmiy va o`quv adabiyotida, olim va mutaxassislar o`rtasida ham bu masalada umumiy fikr kuzatilmaydi. Bu masalaning munozaraga sabab bo`lishining yana bir sababi, Konstitutsiyada, Prokuratura haqidagi qonunda ham prokuratura organlarining qaysi hokimiyat tarmog`iga kirishi haqida qoida mustahkamlanmagan. Ayni paytda, bunday holat nafaqat bizning qonunchiligimiz, balki ko`pchilik MDH davlatlari qonunchiligi uchun ham xos ekanligini ta`kidlash zarur¹.

Shu munosabat bilan, Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida prokuratura organlari va ularning davlat mexanizmida tutgan o`rni masalasiga biroz to`xtash joiz, chunki bu davlatlar rivojlanishida muayyan yaqinlik va o`xshashliklar mavjud. Jumladan, Tojikiston Konstitutsiyasida sud hokimiyatiga bag`ishlangan 8-bobdan so`ng «Prokuratura» deb nomlangan 9-bobda prokuratura organlariga doir qoidalar garchi alohida mustahkamlangan bo`lsa-da, biroq bu organlarning biron-bir hokimiyat tarmog`iga kirish-kirmasligi haqida qoidalar yo`q; Turkmaniston Konstitutsiyasida ham 7-bo`lim prokuratura organlariga maxsus bag`ishlangan bo`lib, biroq, unda bu organning hokimiyat tizimida tutgan o`rni masalasi ochiq qolganligini kuzatish mumkin; Qozog`iston Konstitutsiyasida prokuratura haqidagi qoidalar sud hokimiyatiga bag`ishlangan bobda berilgan bo`lsa-da, biroq prokuratura organining mustaqil davlat organi tizimi ekanligi qat`iy belgilab qo`yilgan, unda,

¹ Кенгрок бу ҳақда қаранг: Б.А. Миренский «Место органов прокуратуры в системе государственной власти». // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – давлат ва жамият ислохотининг ҳуқуқий асоси. Тўплам. ТДЮИ. 2002. 107- 115 бетлар: З.Исламов. К какой власти отнести прокуратуру // Народное слово, 2003 йил, 23 июнь.

hatto, prokuratura an'anaviy funksiyalaridan tashqari yana, davlat nomidan, mamlakat hududida qonun va qonunosti aktlarining *aniq qo'llanishi ustidan ham nazorat olib borishi* mustahkamlangan. Demak, Qozog'istonda prokuratura organlariga huquq qo'llash faoliyati ustidan ham nazorat funksiyasi berilgan. Faqat Kirg'iziston qonunchiligida, aniqrog'i Qirg'izistonning Prokuratura to'g'risidagi qonunining 1-moddasida bu masalada aniqlikni ko'rish mumkin: unda «Qirg'iziston Respublikasi Prokuraturasi – ijro hokimiyati tizimidagi davlat organidir», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, prokuraturaning qaysi davlat hokimiyati tarmog'iga mansubligi masalasida qardosh respublikalarda ham aniqlik kuzatilmaydi. Prokuraturada qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib borishi funksiyasi bor yoki yo'qligi, bu joyda, bizningcha ahamiyatli, chunki, shu funktsiya prokuratura organlarida bo'lmasa, bu holda uning biron-bir hokimiyat tarmog'iga yaqin turishini e'tirof etish mumkin bo'lar edi. Shu bois, MDH davlatlari ichida Gruziya Konstitutsiyasi bu masalada yangicha yondoshgan deyish mumkin, uning 92-moddasida «pro-kuratura – *sud hokimiyati idorasi* (ajratib ko'rsatish biz tomondan –M.A.) bo'lib, u jinoiy-huquqiy ta'qib, surishtiruvni va jazolarni ijro etish ustidan nazoratni, shuningdek, sudda davlat qoralovini amalga oshirishi» mustahkamlangan. Demak, Gruziya prokuraturasida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan prokuraturaning umumiy nazorati funksiyasi yo'q, shu bois uni sud hokimiyati tarkibiga kiritish mumkin bo'lgan, deyish mumkin. Ayni paytda, ko'pgina davlatlarda prokuratura organlari sud va ijro hokimiyatining o'rtasida turadigan tuzilma maqomiga ega. Italiya, Pol'sha va b.

Shu o'rinda bir holatni ta'kidlash zarur. Prokuratura organlarining vazifalari, vakolatlari, davlat hokimiyatida tutgan o'rni turli davlatlarda turlicha, masalan, AQShda Adliya vaziri bosh prokuror vazifasini o'taydi, Italiya, Ispaniya va Bel'giyada esa prokuratura sudlar huzurida amal qiladi, ba'zi davlatlarda, jumladan, Buyuk Britaniyada prokuratura instituti mavjud emas uning funksiyalari tegishlicha advokatlar korpusi a'zolari tomonidan, muhim ishlar yuzasidan esa ommaviy ta'qib direktori tomonidan amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi davlat mexanizmini isloh etish muammolari

Mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimini takomillashtirish va ular faoliyatini yanada demokratiyalashtirish sohasida katta ishlar amalga

oshirildi va oshirilib kelinmoqda. Bu sohadagi eng muhim yutuqlardan biri, bu - demokratik asnoda shakllantirilgan qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllantirilganligi va uning samarali amal qilib turganligidir.

Ta'kidlash joizki, parlament hozirgi darajaga yetkuncha muayyan taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirdi. Konstitutsiya qabul qilingunga qadar bo'lgan davrda parlament Oliy Kengash nomi bilan amal qila boshlagan. Biroq Konstitutsiyada qonun chiqaruvchi hokimiyat nomi Oliy Majlis deb belgilandi va uning asosiy vazifa va funksiyalari belgilab berildi. Konstitutsiyaga binoan shakllangan yangi parlament – Oliy Majlis o'zigacha bo'lgan Oliy Kengashdan ayrim muhim jihatlari, jumladan, mamlakatimiz tarixida ilk bora deputatlar ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida shakllantirilganligi hamda deputatlarning ma'lum qismi bundan buyon doimiy shaklda ishlashining belgilab qo'yilishi, shuningdek mustaqil tashqi parlamenlararo siyosat olib borish vakolatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi¹. Ayni paytda, parlament faoliyatini jamiyatimiz taraqqiyotining shiddatkor vazifalariga monand holda hamda mustaqillik yillari tajribalari asosida, yanada takomillashtirishni taraqqiyot ehtiyojlari va manfaatlari taqozo eta boshladi. Shu munosabat bilan parlamentni ikki palatali tartibda isloh etish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Halqimiz bu masalaga ijobiy yondoshganligini 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan Referendum natijalari orqali ifoda etdi. Ikki palatali parlament qonunchilik faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish va parlamentning jamiyat va davlat hayotida o'ynaydigan rolini yanada kuchaytirishga, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risidagi yangi qonunlar parlament islohotining huquqiy bazasini tashkil etadi². O'zbekiston Parlamenti yangi tarkibda, yangi mazmun va yangi vazifalar asosida o'z faoliyatini boshlaganiga ikkinchi yil bo'lmoqda. Yangi parlament mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash vazifasini va qonunchilik

¹ Бу ҳақда қаранг: Э.Х.Халилов. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. Т.: 2001. Ўзбекистон; Х.Одилқориев. Конституция ва фуқаролик жамияти. Т.: Ўзбекистон. 2002. З.Исломов. Проблема власти. Т.: ТДЮИ нашри. 2003.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий қонуни. Халқ сўзи. 2002 йил 27 декабрь. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий қонуни. Халқ сўзи. 2002 йил 28 декабрь.

jarayonini yangi sifat darajasiga ko'tarishini jamiyatimiz katta ishonch va umid bilan kutmoqda.

Davlat hokimiyati tizimidagi islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi - ijro hokimiyati tizimini va uning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgandir. Ijro hokimiyati tizimiga kiruvchi organlar, ya'ni davlat boshqaruv organlari tizimi mustaqillik yillarida tubdan o'zgartirildi. Chunki, davlat apparatini tashkil etgan boshqaruv organlari yangi davr vazifalariga xizmat qila olmas edi, zotan, bu organlarning faoliyati mafkuralashgan va siyosiylashgan hamda nodemokratik asnoda tashkil etilgan va mulkning yakka hukmron shakli bo'lgan – davlat mulkchiligiga asoslangan iqtisodiy tizim sharoitida amal qilgan, va hajman «tarvaqaylab» ketgan davlat organlari majmuidan iborat edi.

Bu organlar o'zining tashkil topish tartibi bilan ham yangi jamiyat barpo etish maqsadlariga xizmat qila olmas edi, chunki bu tizim hokimiyatlar bo'linishi prinsipini tan olmas edi. Mazkur tizimni moliyalashtirish tartibi bozor munosabatlari talablariga javob bera olmas edi, zotan bozor munosabatlari mulkning turli shakllari birdek amal qilinishi va himoyalaniishini, muhimi boshqaruv tuzilmalari hajmini va ularga sarflanadigan harajatlarni keskin qisqartirishni taqozo etadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar eski boshqaruv tizimini va uning moliyalashtirish tartibini bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda, tubdan qayta tashkil etilishini taqozo etardi.

O'tgan davr ichida vazirliklarning soni keskin qisqartirildi, bozor munosabatlari xususiyatlariga mos keladigan tashkiliy-huquqiy yangi shakllar tashkil etila boshlandi. Ko'plab vazirliklar aralash mulk shakliga asoslangan kompaniya, konsern, uyushma (assotsiatsiya), agentlik kabi tuzilmalarga aylantirildi va va bu jarayon davom etmoqda. «Ma'muriy islohot jarayonida 20ga yaqin davlat boshqaruvi organi qayta tashkil etildi va 40 mingdan ortiq shtat birligi tugatildi yoki boshqaruv xodimlari soni 22 foizga qisqartirildi»¹. Natijada boshqaruv harajatlari sezilarli darajada kama-yib, ayni paytda, boshqaruvning samaradorligi ancha oshdi.

Davlat hokimiyati tizimi islohotlarining yana bir muhim yo'nalishi – hokimiyatning muhim tarmog'i bo'lgan sud hokimiyati tizimidagi islohotlardir, bu islohotlar mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurish vazifasini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Zotan, huquqiy davlatda nufuzli va mustaqil sud hokimiyatining shakllangan bo'lishi shart. Shu bois davlatimiz bu

¹ Қаранг: Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Т.: Ўзбекистон. 2005. 74-б.

sohada katta islohiy ishlarni amalga oshirmoqda. Sud tizimidagi islohotlar qisqa bir davr ichida tezgina amalga oshiriladigan tadbir bo'lmay, balki sud tizimini takomillashtirishga qaratilgan va davr talablaridan kelib chiqqan dinamik jarayondir. Sud – huquq sohasidagi islohotlarning bosh yo'nalishi sudlar faoliyatini inson huquqlarini himoya qilishga keskin qaratilishini ta'minlashdir. Shu maqsadda sudlarning mustaqilligini yanada kengaytirish, prokuratura organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, prokuratura organlarining ba'zi huquqlarini chegaralash va qisqartirish, bu huquqlarning aksariyatini sud organlariga berish masalalariga aniqlik kiritildi. Sud-huquq sohasidagi islohotlarning muhim bir yo'nalishi - bu shaxsning o'z huquqlarini himoya etishni talab etib, sudga murojaat qilishi huquqini kafolatlashni kuchaytirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining; 44-moddasida «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri-qonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Ta'kidlash kerakki, Konstitutsiyamizning bu moddasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar ruhiga muvofiqdir. Masalan, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasida «Har bir inson unga Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega»¹ deb, mustahkamlangan. Shaxsning odil sudga bimalol o'z huquqini himoya qilishi yuzasidan murojaat qilishi va odil sudlovga erishishi jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida turgan dolzarb, ayni paytda juda mas'ul muammodir. Basharti, fuqaroga Konstitutsiya va qonunchilikda mustahkamlangan sud himoyasi funksiyasidan real foydalanish mushkul bo'lsa, bu huquq amalda kafolatlanmagan bo'lsa, unda shu mamlakatda chinakam sud hokimiyat hali shakllanmagan ekan, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Rossiyalik huquq-shunos Yu.I.Stesovskiy ta'kidlaganidek, «Fuqarolarning sudga himoya istab murojaat qilishi basharti sud buzilgan huquqni haqiqatan ham tiklashga qodir bo'lganidagina u bir ma'no va mazmunga ega bo'ladi». Fuqarolarning bu huquqlari O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Т.: Адолат. 2004. 32-б.

to`g`risida»gi qonunida¹ o`zining batafsil ifodasini topgan. Har qanday huquqi buzilgan shaxsning shaxsan o`zi, yoki advokati yoxud qonuniy vakili orqali buzilgan huquqning mazmuniga muvofiq ravishda, uni himoya qilish tegishlicha konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo`jalik, ma`muriy, jinoyat sud ishlarini yuritishga doir protsessual normalar asosida amalga oshiradi.

Inson huquqlarining har qanday buzilishi holati nomaqbul hodisa, biroq shaxsning bevosita konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining cheklanishi, shaxsga nisbatan majburlov choralarining noqonuniy qo`llanishi ko`rinishidagi inson huquqlarining buzilishi juda og`ir hisoblanadi, shu bois davlat organlari tomonidan shaxsga tegishli huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog`liq majburlov choralarning qo`llanishi alohida bir tartib, ya`ni faqat sud qarori bilangina amalga oshirilishi mutlaqo muhim. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo`yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo`yishga hech kim haqli emas» deb mustahkamlab qo`yilgan.

Ta`kidlash lozimki, garchi bunday konstitutsiyaviy qoida mavjud bo`lsada amalda surishtiruv va dastlabki tergov organlari va ularning mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga bevosita shikoyat qilishga O`zbekiston Respublikasi JPKning 358-moddasida mustahkamlangan «Tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat tergov bo`linmasi boshlig`iga va ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi. Prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat yuqori turuvchi prokurorga beriladi» deb mustahkamlangan qoidaning mavjudligi, yuqoridagi huquqdan foydalanishda muayyan noaniqliklarni keltirib chiqarar edi.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muhim bir yo`nalishi sud nazoratini, sudning inson huquqlarini himoyalashdagi roli va o`rnini, vakolatlarini kengaytirishga qaratilgandir. Ushbu masalaning muhimligi va dolzarbligiga davlatimiz rahbari katta e`tibor berib kelmoqda. I.A.Karimov o`z ma`ruzalarida «Boshqa demokratik davlatlar kabi O`zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo`llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o`tkazish

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1995. 9- сон.183- м.

kerak»¹ligini ta'kidlab o'tgandilar. Shu sohada olib borilayotgan ishlarning natijasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 7-avgustda qabul qilgan «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish haqida»gi Farmoni² hisoblanadi. Farmonga binoan 2008-yilning 1-yanvaridan qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Ushbu Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi - bu masalaning hal etilishida katta burilish bo'lishi, shubhasizdir. Sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilganligi sud organlarining mustaqilligini jiddiy mustahkamlashi, surishtiruv va tergov faoliyatida inson huquqlarining ta'minlanishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Keyinchalik, davlat rahbari I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek, sudning sanksiya berish huquqi boshqa protsessual majburiy choralarga ham joriy etilishi sud-huquq islohotlarining yaqin kelajakdagi vazifalari hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan sud islohotlaridan «asosiy maqsad shuki, biz odamlarning sudlarga faqat jazolovchi idora deb emas, balki avvalo insonning haq - huquqlarini himoya etuvchi idora deb qarashiga erishmog'imiz kerak».³

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, inson huquqlarini ta'minlash masalasi umumjahon ahamiyatga molik masala bo'lib, uning ta'minlanishi faqat davlatga, uning organlari va mansabdor shaxslariga bog'liq desak, to'g'ri fikr yuritgan bo'lmaymiz. Inson huquqlarining ta'minlanishi jamiyatning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatiga, aholining o'z haq-huquqlarini qonunda belgilangan asos va tartiblarda himoyalalanishini talab qilishga qodirligi va shunga bo'lgan intilishi bilan ham belgilanadi. Ta'kidlash lozimki mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan davlat-huquqiy islohotlar o'zining rivojlanish bosqichiga o'tmoqda.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat-huquqiy islohotlarning mazmun va mohiyati, sur'atlari va natijalari haqida ayrim xulosalarni qayd etishni lozim hisoblaymiz: -Istiqlolning dastlabki davrida tanlangan, xalqimizning tarixiy-ma'naviy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan taraqqiyot modeli, hozirgi kunda o'zining

¹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатимизни модернизация ва ислоқ этишидир. Т.:Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005. 49-50 б.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Қамоққа олишга санкция бериш ҳуқуқини судларга олиб бериш тўғрисида»ги 2005 йил 7 август Фармони. // Халқ сўзи. 2005 йил 8 август.

³ Каримов И.А. Ўша асар. 13 б.

har tomondan ijobiy xarakterga ega ekanligini jahonga namoyish etmoqda; - Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat-huquqiy islohotlar, muqarrar va muntazamlik tusini olib, u O'zbekiston jamiyati taraqqiyotining strategik maqsadlariga butunlay monanddir; - Amalga oshirilayotgan davlat-huquqiy islohotlar ma'lum bir davrga mo'ljallangan, spontan chora-tadbirlar majmuasi bo'lmay, balki yangi jamiyat qurish manfaatlaridan kelib chiqqan va muayyan vaqt davomida amalga oshiriladigan, jamiyat va davlatimiz oldida paydo bo'ladigan muammolarni hal etishning murakkab dinamik jarayonidir; - Erkin fuqarolik jamiyatni shakllantirish va huquqiy davlat qurish vazifasi o'ta murakkab va mashaqqatli vazifa bo'lib, uni amalga oshirish mutlaqo oson emasligini rivojlangan davlatlar va MDH davlatlarining eng yangi tarixlari yaqqol turibdi; Davlatimiz oldida turgan murakkab islohiy vazifalarni amalga oshirishning kafolati – mamlakatimizdagi barqarorlik, ijtimoiy inoqlik, bag'ri kenglik, davlatimizning ijtimoiy siyosati va xalqimizning yangi hayot qurishga bo'lgan shijoatidir.

Davlat mexanizmi, uning tushunchasi, tarkibiy elementlari, davlat organi, davlat organining xususiyatlari, davlat apparati ishini tashkil etishning tashkiliy prinsipi sifatida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi va uning amaliyoti hamda davlat mexanizmining amal qilish amaliyotiga tayangan holda ta'kidlash lozimki, davlat mexanizmi jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarning in'ikosi sifatida jamiyat taraqqiyotiga monand holda, ham shaklan, ham funksional o'zgarib boradi. Davlatning mohiyati, maqsadi, vazifalari va funksiyalarining o'zgarishi adekvat tarzda davlat mexanizmida ham tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. Davlat mexanizmi rivojida ikki tendensiya: davlat apparatining borgan sari hajman ko'payishi va boshqaruvni ixchamlashtirish zarurati o'rtasidagi kurash o'zaro ziddiyatli birlikda amal qiladi. Ijtimoiy munosabatlarning rivoji bu munosabatlarni boshqaradigan tuzilmalarning ixtisoslashuvini, demakki davlat organlari, davlat xizmati va davlat xizmatchiligining ham ixtisoslashuvining kuchayishi tendensiyasini taqozo etadi.

Davlat xizmati va davlat xizmatchisi huquqiy maqomining noaniqligi hamda davlat xizmatining samaradorligini oshirish, davlat xizmatida suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida Davlat xizmati to'g'risida maxsus qonun qabul qilish zarur. Davlat organlari tizimi va tuzilmasi, alohida boshqaruv organlarining tushunchasi (masalan, konsern, kompaniya, uyushma va boshqalar) ilmiy adabiyotda noaniqligi munosabati bilan Vazirliklar, Konsern, Kompaniya, Assotsiatsiya,

Agentlik va boshqa organlar to'g'risida maxsus Nizom ishlab chiqish zarur. Davlat mexanizmi faoliyatida oshkoralik, yuqori lavozimli mansabdor shaxslarning daromadlarining oshkoraligini ta'minlash maqsadida, ularning daromadlari, mulklari haqida muntazam axborotlar berib borish tartibini joriy etish kerak.

Yuqori davlat organlariga vijdonli, malakali, keng gumanistik dunyoqarashga ega bo'lgan, qalbi pok, sara insonlar kelishini ta'minlash uchun, ularga qo'yiladigan talablar tizimi, va ularning egallamoqchi bo'lgan lavozimlariga muvofiqligini tekshirishning shakl va usullarini butunlay qaytadan, yangi asnoda ishlab chiqish kerak; davlat organlarining rahbar xodimlari (vazirlar, hokimlar va sh.k.) faoliyati ustidan parlament va jamoat nazoratini kuchaytirishning samarali shaklini joriy etish kerak.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Davlat va davlat mexanizmi o'rtasidagi munosabat tavsifi
2. Davlat mexanizmi tarkibida davlat apparati
3. Davlat organlari va ularning tasnifi
4. Davlat hokimiyatini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi
5. Hozirgi zamonda qonun chiqaruvchi organlarning davlat mexanizmida tutgan o'rnini
6. Ijro hokimiyati va uning organlarini tavsiflang
7. Davlat mexanizmida sud organlarining tutgan o'rnini
8. O'zbekistonda davlat mexanizmini takomillashtirish jarayoni tavsifi

4-MAVZU: DAVLATNING SHAKLI VA FUNKSIYALARI MUAMMOLARI

REJA:

1. Davlat shaklini tushunish muammolari va rivojlanish tendensiyalari
2. Hozirgi zamon davlatlari boshqaruv shakli xususiyatlari
3. Hozirgi zamon ko'p millatli davlat sharoitida davlat tuzilishi shakllari muammolari
4. Hozirgi zamon davlati siyosiy rejimi va uning ko'rinishlari.
5. Hozirgi zamon davlati funksiyalari.
6. Hozirgi zamon davlati va global muommalar

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008.40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-иқтисодий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т.: «Ўзбекистон».1995.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон. 1992. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: – Т.: 1996.
4. Ватан саждагох каби муқаддасдир. 3-том. – Т.: «Ўзбекистон», 1996.
5. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон.2002. 76 б.
6. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
7. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал.
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.
- 9.Исламов З.М.Общество. Государство. Право. Т.:Адолат 2001. 695 с.
- 10.Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. Т.: Ўзбекистон. 2005.264 б.

11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
12. Проблемы теории государства и права. Учебное пособие. Под ред. М.Н.Марченко. - М: Юрист, 2004. 656 с.
13. Нерсисянц В.С.. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М: НОРМА. 2000.-233 с.
14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория, философия. М: Статут.1999-810 с.
15. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
16. Бобоев Х. Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. Т. Адолат. 2001.
17. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления. Курс лекций. М., 1997.
18. Чиркин В.Е. Современное федеративное государство. М., 1997.
19. Федерация в зарубежных странах. М., 1993.
20. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М., «Новый юрист» - 1999. 240 с.
21. Кольев А.Н.Нация и государство. Теория консервативной реконструкции. М.: «Логос». 2005.800с.
22. Азизхўжаев А. Демократия –халқ ҳокимияти демакдир. //Жамият ва бошқарув. 1997. №1. Б. 4-7.
23. Азизхўжаев А. Демократиянинг ёрқин ифодаси. // Жамият ва бошқарув. 2002, №1. Б. 4-8.
24. Саидов А. Демократия маданияти тўғрисида. / Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистон гуманитар журнали. 2004. № 2. (34). Б.30-34.
25. Саидов А.Инсоният ҳурлигининг буюк хартияси. Демократ-лаштириш ва инсон ҳуқуқлари.2008.№2.Б.7-11.
26. Саидов А. Демократия маданияти тўғрисида. / Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари.Ўзбекистон гуманитар журнали. 2004. №4. (36). Б.7-10.
27. Султонмурод Олим. Демократия тақдири. У кимнинг қўлида? HUUQUQ va BURCH. 2006. № 2. Б. 26-27.

1. Davlat shaklini tushunish muammolari va rivojlanish tendensiyalari

Davlatning mohiyati va mazmuni bevosita uning shakli orqali ifodalanadi va namoyon bo`ladi. Davlatni uning mohiyati nuqtai naza-

ridan o`rganilganda davlatda hokimiyatning kimga mansubligi, uning subyekti (egasi) kim ekanligi, davlat birinchi navbatda jamiyatning qaysi tabaqasi, guruhi, sinfining erkini ifodalab, manfaatini himoya qilishi aniqlanadi. Davlatni uning shakli nuqtai nazaridan o`rganish esa, - bu uning tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari, ichki tuzilishi, davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy uslublarini aniqlashga imkon beradi, ya'ni muayyan davlatda hokimiyat qanday tashkil etilgan, qaysi organlar tomonidan amalga oshirilgan, bu organlarning tashkil etilish tartibi va vakolatlari nimalardan iborat – kabi savollarga javob beradi.

Davlat va huquq nazariyasi fani o`tmishda va hozirda qanday davlat shakllari bo`lgan kabi masalalarni doimo o`rganib kelgan. Davlat shakli to`g`risidagi masala nafaqat nazariy, ayni paytda amaliy-siyosiy ahamiyatga molik masaladir. Zero, davlat hokimiyatining qanday tashkil etilganligi va qay tarzda amalga oshirilganligi davlat rahbarligining samaradorligi, hukumatning barqarorligi va salohiyatini belgilaydi. Yuridik adabiyotda «davlat shakli» tushunchasiga turlicha nuqtai nazar bilan qarashlar mavjud. Bir guruh mualliflar uni tor ma'noda tushunadilar, ularning fikricha, davlat shakli bu faqat boshqaruv shaklidir. Keng ma'noda tushunuvchi mualliflar esa bu tushunchaga boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shaklining majmui sifatida baho beradilar.

Yana bir boshqa mualliflar davlatning ichki va tashqi shakllarini farqlaydilar. Davlatning ichki shaklida siyosiy rejimning bir turi sifatida demokratiyani, tashqi shakli deganda davlatning boshqaruv va tuzilish shaklini tushunadilar (masalan, D.A.Kerimov). Shunga qaramasdan yuridik adabiyotda «davlat shakli tushunchasi»ga berilgan an'anaviy ta'rif mavjud bo`lib, uni olimlarning ko`pchiligi ma'qullaydilar. Shunday qilib, davlat shakli bu davlatdagi siyosiy hokimiyatni tashkil etilishi bo`lib, u o`zida davlatning boshqaruv shaklini, davlat tuzilishi shaklini va siyosiy rejimni mujassamlashtiradi.

Bunda boshqaruv shakli: oliy davlat hokimiyati va boshqaruvning yuqori organlarini tashkil etish va tuzishning muayyan tartibidan;

Davlat tuzilish shakli: davlatning hududiy tuzilishi, markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyatlar o`zaro munosabatlarining muayyan tartibidan;

Siyosiy (davlat) rejimi: davlat (siyosiy) hokimiyatini amalga oshirish uslublari va yo`llaridan iborat.

Davlat shakli tushunchasi o`z ichiga qo`yidagilarni oladi:

A) oliy davlat hokimiyatini tashkil etishni, oliy davlat hokimiyati manbalarini, hamda oliy davlat organlarining o`zaro va aholi bilan munosabati prinsiplarini;

B) davlat hokimiyatining hududiy tashkil etilishini, yaxlit tuzilma sifatidagi davlatning o`z tarkibiy qismlari bilan o`zaro aloqasini;

V) davlat hokimiyatini amalga oshirishning usul va metodlarini.

1. Davlat shakliga ta'sir etuvchi omillar: - davlatning mohiyati; - davlatning tipi; - siyosiy kuchlar nisbati; - aholining milliy tarkibi; - tarixiy an'analar; - mamlakatning hududiy sathi va shu kabilar.

Taniqli rus yuristi va faylasufi I.A.Il'inning ta'kidicha «aholining ko'p millatli tarkibi davlat shakliga nisbatan qator talablar qo'yadi. U davlatning tarqab ketishiga omil bo'lishi va halokatli fuqarolik urushlariga olib kelishi mumkin»¹.

Ushbu fikrning isboti tariqasida Yugoslaviya, Checheniston voqealarini keltirishimiz mumkin.

I.A.Il'inning ushbu fikri davlatlarga ogohlanirishdek tuyuladi: har bir xalqning o'ziga hos, o'ziga mos alohida individual davlat shakli va faqat uning o'zigagina mos keladigan konstitutsiyasi bo'lishi shart. Dunyoda bir hil xalqlar bo'lmagani kabi, bir hil shakl va Konstitutsiya ham bo'lmaydi.

a) XX-asr (ning oxiri) va XXI asr davlat shakli masalasiga o'z korrektivlarini kiritmoqda. Davlat shakli, xususan boshqaruv shaklining turli ko'rinishlari o'rtasida o'zaro yaqinlashuv jarayonlari sodir bo'lib, natijada «aralash», «gibrid» shakllar vujudga kelmoqda. Bunday holat hozirgi zamon siyosiy taraqqiyotida yangi tendensiyalarning ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda va u, ya'ni davlat shaklidagi bunday o'zgarishlar davlatning boshqariluvchanligini oshirish, ijro hokimiyati organlariga keng mustaqillik berish va barqaror etish zaruratidan kelib chiqmoqda.

Bunday holat, ma'lum darajada obyektiv xarakterga ega. Chunki, davlat shakli, huddi uning mohiyati kabi, hech qachon o'zgarmaydigan, uzil-kesil belgilab qo'yiladigan hodisa emas. Davlat shakli ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri ostida doimiy rivojlanish va o'zgarish jarayonini boshdan kechirib kelmoqda. L.Gumplovichning o'rinli ta'kidicha, «davlatning farqlanishi yoki davlat shakllarining xilma-xilligi haqidagi ta'limot, huddi davlat tushunchasining ta'rifi kabi aniq belgilanmagan va o'zgaruvchandir»².

¹ Ильин И.А. О государственной форме.//Современное государство и право. 1991 г. №11.с136

² Общее учение о государстве. СПб., 1910, с. 221 // Хавола олинди:Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М., «Новый юрист»-1999.165 с.

Demak, davlat shakli haqida aniq ta'limotning yo'qligi obyektiv tusga ega bo'lib, bu holat davlat shaklining turli omillar ta'siri ostida doimo o'zgarib turishi bilan ham bog'liq. Masalan, boshqaruv shaklining bir ko'rinishdan ikkinchisiga o'tish hollari ko'p kuzatilmoqda: RF, xususan prezidentlik respublikasi hisoblansa-da, unda boshqaruv shaklining boshqa ko'rinishlariga xos bo'lgan holatlar mavjud: hukumatni Prezident nazorat qilishi prezidentlik respublikasiga hos jihat bo'lgani holda, parlamentning quyi palatasi hukumatga ishonchsizlik bildirishi mumkin, garchi bu holatda hukumat taqdirini Prezident hal etsa-da.

v) Tuzilish shakli – davlatning tuzilish shaklida milliy aspekt katta ahamiyatga ega, ko'p millatli davlat sharoitida har bir millatning xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Ko'p millatli davlatda davlat tuzilish shaklining maqbul ko'rinishi bo'lib, milliy davlat federasiyasi hisoblanadi.

Siyosiy-huquqiy (atama, hodisa) hisoblangan «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash» huquqi mazmunida ham o'zgarish bo'lmoqda, Ayni paytda birontayam davlat Konstitutsiyasida federasiya tarkibidan chiqish huquqi mustahkamlanmagan.

Ko'p millatli davlatlar davlat tuzilishida avtonomiya shaklini qo'llaydilar. Avtonomiyaning: **milliy-hududiy; milliy-madaniy** ko'rinishlari mavjud.

Milliy-hududiy avtonomiya – o'ziga xos milliy davlatlar shaklida bo'lib, ular o'z Konstitutsiyasi, qonunchiligi, hukumati, oliy sud organi, fuqaroligiga ega bo'lishadi. Milliy-madaniy avtonomiya – bu alohida etnik guruhlarni maxsus maqomi tushunilib, u ko'p millatli davlatda uchraydigan ziddiyatlarni hal etishning huquqiy shakli hisoblanadi. Milliy-madaniy avtonomiyaning g'oyalari XX-asr boshlarida Avstro-Vengriya uchun Avstriya sotsial-demokratlari liderlari Karl Renner, Otto Bauer va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlatlararo hamkorlikning hozirgi zamon tashkiliy-huquqiy shakllari

Davlatlararo integrasiyaning yangi shakllari vujudga kelmoqda, ular «uyushma, davlatlararo ittifoq, hamjamiyat» kabi atamalar bilan nomlanmoqda.

Davlatlararo birlashma – davlatlararo shartnoma asosida bar-po etilgan va qatnashuvchi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy integrasiyasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadigan davlatlar ittifoqidir.

Davlatlararo birlashmalarga misol qilib, quyidagilarni keltirish mumkin¹.

1. Millatlarning Britan hamdo'stligi – (1946-yilgacha), hozirda esa Hamdo'stlik deb nomlanadi;
2. Yevropa Ittifoqi – (1993-yilgacha) – Hozirda Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati deb nomlanadi;
3. Yevropa Kengashi;
4. MDH:(1991-yil 10-dekabrda tashkil etilgan).
5. Belorussiya va Rossiya Ittifoq davlati – 1997-yilda shakllana boshlagan va b.

2. Hozirgi zamon davlat boshqaruv shakli xususiyatlari

Davlatning boshqaruv shakli deganda - davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy va markaziy organlari, ularni tashkil topish tartibi va tuzilishi, kompetensiyasi, bu organlarning o'zaro munosabati, davlat oliy hokimiyat organlarini shakllantirishda aholining ishtiroki kabilar tushuniladi

Muayyan jamiyatda davlat hokimiyati kim tomonidan va qay yo'sinda amalga oshirilishi masalasi insoniyatni qadim zamondan qiziqtirib kelgan. O'z zamonasining yirik mutafakkirlari Arastu va Platonlar qadimgi dunyoda davlat hokimiyatini tashkil topishi va amalga oshirilishining turli shakllarini o'rganib, bu davlatlarda kim va qanday tarzda hukmronlik qilishiga, ya'ni boshqaruv shakllari mezoniga qarab ularni tasniflashga uringanlar.

Avgustin, Gobbs, Montesk'e, Lokk, Russo, Radishev va boshqalarning asarlarida davlat boshqaruv shakllari haqidagi bilimlarni umumlashtirishga va tizimlashtirishga harakat qilingan. XX - asrga kelib markscha nazariya vakillari davlat boshqaruv shaklini davlat tipi, uning sinfiy tuzilishi, jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan bog'liqlikda qaraganlar. Davlat boshqaruv shakliga boshqa omillar ham ta'sir etadi: tarixiy an'analar, milliy ruhiyat, diniy ong, madaniy muhit, jamiyatning mafkuraviy va siyosiy darajasi, ekologiya va h.

Shunday qilib, **davlat boshqaruv shakli - bu muayyan davlatda davlat hokimiyatini tashkil etish uslublari yig'indisidir.** Bu ta'rif kengroq bayon qilinsa, bu oliy hokimiyatni, uning oliy va markaziy organlarini tashkil etish, ularning strukturasi, kompetensiyasi, bu

¹ Протасов В.Н.Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М.: «Новый юрист.». 1999. С.167.

organlarning tashkil topish tartibi, bu organlar vakolatlarining muddatlari, xalqning bu ishlardagi ishtiroki darajasini anglatadi.

Davlat boshqaruvining asosiy shakllari: **monarxiya** va **respublika** hisoblanadi.

«Monarxiya» atamasi yunoncha boʻlib, («monos» - yakka, «arxe» - hokimiyat), «yakka hokimlik», «yakka hukmronlik»ni anglatadi.

Boshqaruv shakli sifatida monarxiyaga aniq yuridik xususiyatlar xos. Davlat monarx shaxsida namoyon boʻladi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshligʻi, xalq vakili, millatning «otasi», fuqarolarni davlatga birlashtiruvchi shaxs boʻlib chiqadi.

Monarxga hokimiyat toʻlaligicha tegishlidir. Uning hokimiyati oliy va suveren hisoblanadi. U davlatda oliy hokimiyat timsolidir, qoida boʻyicha uning hokimiyati din himoyasiga olinib, muqaddas sanalgan.

Monarxiyaning belgilari:

- 1) monarx hokimiyati meros tariqasida avloddan avlodga oʻtgan;
- 2) hokimiyatning bir shaxs qoʻlidan boshqasiga oʻtishida xalqning ishtiroki talab qilinmaydi;
- 3) monarxning hokimiyat tepasida turishi muddatsiz va umrbod boʻlgan;
- 4) u har qanday javobgarlikdan ozod boʻlgan, yaʼni u oʻz boshqaruvining oqibatlarini uchun biron yuridik yoki siyosiy javobgarlikka tortilishi mumkin boʻlmagan.

Monarxiyaning oʻzi ham ikki koʻrinishda boʻladi: **mutlaq (cheklanmagan) monarxiya** va **cheklangan monarxiya**.

Mutlaq monarxiyaning asosiy jihati shundaki, monarxning toʻla hokimiyatini hech bir davlat organi cheklay olmaydi, unga tazyiq va taʼsir eta olmaydi.

Mutlaq monarxiyada monarx davlatning yagona, birdan-bir oliy hokimiyat organi hisoblanadi. U qonun chiqarish funksiyasini bajargan, chunki monarxning erki huquq va qonun manbai hisoblangan: ijro hokimiyati organlarini boshqargan; odilsudovni nazorat qilgan, yaʼni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari monarx qoʻlida toʻplangan. Masalan, XVII-XVIII asrlardagi Rossiya, 1789-yilgi revolyutsiyaga qadar boʻlgan Fransiya. Biroq, mutlaq monarxiyalarning amal qilish muddatlari uzoqqa choʻzilmagan, feodal tarqoqlikka muqobil-alʼternativ sifatida vujudga kelib, maʼlum vaqt oʻtishi bilan ular yo shaklan oʻzgargan yoki cheklangan monarxiyaga aylanganlar yoxud burjua revolyutsiyalari natijasida oʻz oʻrnini boshqaruvning boshqa shakliga boʻshatib bergan (Avstriya, Rossiya, Polʻsha, Fransiya).

Cheklangan monarxiyada monarx hokimiyati saylab qo'yiladigan organ - parlament yoki maxsus huquqiy akt - Konstitutsiya bilan cheklangan bo'ladi. Shu bilan birga ko'pgina cheklangan monarxiya davlatlarida monarx hokimiyati, ham parlament, ham konstitutsiya vositasi bilan cheklangan bo'ladi. Cheklangan monarxiya ham ikkiga bo'linadi: dualistik va parlamentlik monarxiyasi.

Parlamentlik monarxiya davlatlari (hozirgi Angliya, Kanada, Bel'giya, Norvegiya, Daniya, Niderlandiya, Shvesiya)da qirol monarx vazifasini o'tasada, mamlakatni to'la ma'noda boshqara olmaydi. Davlat boshlig'i - monarx tomonidan tayinlangan vazirlar parlamentning ishonch votumiga bog'liq bo'ladi, monarx "keyinga qoldirish" - veto huquqiga hamda qonunda belgilangan holda parlamentni tarqatish huquqiga ega. Hukumat parlament tomonidan saylovlarda ko'p ovoz olgan muayyan partiyalar vakillaridan iborat qilib shakllantiriladi. Eng ko'p deputatlik mandatlarga ega bo'lgan partiya rahbari hukumat boshlig'i bo'ladi. Qonun hujjatlari parlament tomonidan qabul qilinib, rasman monarx tomonidan imzolanadi. Qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati sohalarida monarx hokimiyati ramziy ma'noga ega. Parlament hatto monarxning shaxsiy hayotini ham tartibga solib turadi (nikoh, saroy xizmati masalalarida). XXI-asr bo'sag'asida ham monarxiya boshqaruv shakli o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. 1975-yilda Ispaniya xalqi monarxiya o'rnatilishi tarafdori bo'lgan. Ayni paytda, monarx sifatidagi davlat boshlig'i lavozimining saqlanishi - bu davlatlardagi barqarorlikning saqlanishi, ularning o'z tarixiy o'tmishlariga va o'z davlatchiliklariga bo'lgan hurmat va ehtiromlarini anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon davlatlarida monarxiyaning mavjud bo'lishi uchun kuchli tarixiy an'ana va xalqning bunga ruhiy jihatdan tayyor ekanligi muhim hisoblanadi.

Dualistik monarxiya (o'tmishda Prussiya, Avstriya, Italiya, Ruminiya, hozirda - Marokko, Iordaniya va b.) da butun ijro hokimiyati monarx qo'lida to'plangan bo'ladi, u hukumatni shakllantiradi, vazirlarni tayinlaydi, almashtiradi, «veto» va parlamentni tarqatib yuborish huquqidan keng foydalanadi. Monarx cheklanmagan miqdorda farmonlar chiqarish huquqiga ega, bu farmonlarning kuchi qonunga teng, ba'zan esa undan yuqori bo'ladi.

Teokratik monarxiya - bunda monarx davlatni boshqarishdan tashqari, uni diniy jihatdan boshqarishni ham o'z qo'lga olgan bo'la-di (masalan, Saudiya Arabistoni). Boshqarishning respublika shakli - bunda

oliy hokimiyat - davlat hokimiyatining muayyan muddatga saylab qo'yilgan organlarga tegishli bo'lishini anglatadi.

Boshqaruvning hozirgi zamon respublika shakli uchta turga bo'linadi: a) parlamentlik respublikasi;

b) prezidentlik respublikasi;

v) aralash (yarim prezidentlik) respublikasi.

Parlament respublikasida qat'iy belgilangan muddatga oliy vakillik qonun chiqaruvchi organ saylanadi. Parlamentga oliy davlat hokimiyati mansub bo'ladi va faqat oliy qonun chiqaruvchi organ bo'libgina qolmasdan, o'z hokimiyatining vakillik xarakteriga asoslangan holda ijro hokimiyati organlarini tuzadi, ya'ni prezidentni saylaydi, hukumatni shakllantiradi. Bunday tuzilishdagi davlatda ijro hokimiyatining ahvoli parlament qaroriga bog'liq bo'ladi.

Ijro hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyatga bog'liqligi yana shunda ko'rinadiki, parlament hukumat tarkibini belgilaydi, u qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatadi, hukumat tarkibida o'rin almashtirishlar, qayta joylashtirishlarni amalga oshiradi, hukumatni to'la tartibda yoki uning bir qismini yoxud ba'zi a'zolarini iste'foga chiqaradi. Ayni paytda parlamentning tarqatib yuborilishi yoki undagi siyosiy-partiyaviy ko'pchilik va kamchilik o'zaro nisbatining o'zgarishi – bevosita, avtomatik ravishda partiyaviy ko'pchilik prinsipi bo'yicha shakllangan hukumatning iste'foga chiqishiga olib keladi. Agar parlamentda bir siyosiy partiya tomonidan aniq ko'pchilik bo'lmasa, koalitsion hukumat tuziladi.

Parlament qo'lida hokimiyatning to'planib qolishi mamlakatdagi mavjud ko'ppartiyaviylik orqali muvozanat qilib turiladi, ya'ni parlamentda, hukumatda turli siyosiy partiyalar vakillari ishtirok etishadi, ular bir-birlarining faoliyatini tanqidiy tahlil eta borib, oxirida ma'lum bir muvozanatli qaror qabul qilishga kelishadilar, odatda bunday qarorlar, nisbatan ko'pchilikning manfaatiga mos keladigan bo'ladi. Shu bois, parlament respublikasining eng muhim sharti bo'lib, rivojlangan ko'p partiyalik tizimning mavjudligidir. Ijobiy tomoni: oliy hokimiyat shahobchalarining birligi, ya'ni ijro hokimiyati parlament tomonidan shakllantiriladi. Kamchiligi: hukumatning parlamentdagi kuchlar nisbatiga bog'liqligi va shu bois uning nobarqarorligi, partiya tizimi uncha rivojlanmagan hollarda, parlament, hukumat tarkibiga hatto ekstremistik guruhlarining kirib qolishi mumkinligi; - parlamentdagi oddiy ko'pchilikning ustuvorlik holatini suiste'mol qilinish xavfi. Parlament respublikalarida prezidentning mavqei (holati) asosan formalshakliy

tusdadir, real hokimiyat hukumat boshlig'i - premyer-ministriga mansubdir. Sof parlamentlik respublikalariga misol sifatida GFR, Italiya, Hindistonni ko'rsatish mumkin.

Prezidentlik respublikasi - bunda aholi faqat oliy vakillik qonun chiqaruvchi organgina saylab qolmay, balki davlat boshlig'i - Prezidentni ham saylaydi va u ayni paytda ijro hokimiyatining ham boshlig'i hisoblanadi. Bunday respublikalarda Prezident parlament respublikasiga qaraganda kengroq huquqqa, mustaqillikka ega bo'ladi. Prezident o'z vakolatlarini suiste'mol qilishning oldini olish maqsadida, Konstitutsiyada "o'zaro bir-birini tiyib turish" muvozanatni saqlashga qaratilgan murakkab tadbiriy choralar mustahkamlanib qo'yilgan. Bu Prezidentning «veto» huquqi, prezident impichmenti instituti va h. Prezident respublikasida hokimiyat turlari bir-biridan mustaqildir, ko'pincha ijro hokimiyati parlament oldida javobgar bo'lmaydi.

Aralash (yarim prezidentlik) respublikada ham prezidentlik, ham parlamentlik respublikasiga xos xususiyatlar uyg'unlashgan holda, ayni paytda ularga umuman xos bo'lmagan yangi jihatlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, bu shaklga hukumat va prezident o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yuridik aloqaning yo'qligi xarakterlidir.

Bir qator davlatlarda xalq tomonidan saylangan prezident formal-yuridik ma'noda ijro hokimiyatiga rahbarlik qilmaydi, konstitutsiyaga ko'ra, unga rahbarlik hukumatga yuklatilgan (RF), ammo Prezidentning hukumatni shakllantirishiga parlamentning quyi palatasi ishonch bildirishi konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi mumkin. Aralash tip boshqaruvli respublikalarga (Fransiya, Portugaliya, Ruminiya, Turkiya, Finlyandiya, Xorvatiya, Yaman va b.) tegishli bo'lgan belgilardan biri - bu prezidentning, parlament yoki uning quyi palatasini, ijro hokimiyati bilan yengib bo'lmaydigan nizo paydo bo'lib qolishi munosabati bilan tarqatib yuborish huquqidir.

Respublika shaklida aholining davlatni boshqarishda qatnashuvi eng ko'p ta'minlanadi. Boshqarishning respublika shakli to'g'risida so'z yuritganda sovetcha tip respublikalari to'g'risida to'xtalish zarur. Bu boshqaruv shaklining muhim xususiyatlaridan biri - unda hokimiyatlar bo'linishining yo'qligidir. Bundan tashqari, vakillik organi bo'lgan Sovetlar formal-shaklan butun, to'la hokimiyatli bo'lib, u sinfiy yoki boshqa nodemokratik prinsip bo'yicha saylanar edi. Sovetlar - davlat hokimiyatining vertikal bir-biriga bo'ysunuvchi organlari yagona piramidasini tashkil etar va shu tarzda kompartiya rahbar organlarining butun hokimiyatlilikini niqoblab ko'rsatar edi. Partiyaviy-byurokratik

rahbarlikning mavjudligi Sovetlar faoliyatining noprofessional xarakteri bilan belgilangan edi.

Oddiy misol, Sovetlar deputatlari asosiy ish joylaridan deyarli ajralmagan holda faoliyat yurgizgan, shuningdek, Sovetlar vaqti-vaqti bilan majlisga chaqirilib turilgan, doimiy ishlashmagan. Siyosiy rejimning nodemokratik xarakterdaligi respublika davlat boshqaruv shaklining mazmunini, obro'sini ko'tarishga xizmat qila olmagan.

Qizig'i shundaki, respublika to'g'risida gap ketganda, ba'zan bu shaklning amalda monarxiya shakli kabi mazmun kasb etgan hollariga tarix guvohlik beradi, chunki respublika shaklidagi totalitar tuzumda monarxiyaning belgilari paydo bo'lganmas: davlat rahbarining umrbod o'zgarmasligi (masalan, Indoneziyada - Sukarno, Yugoslaviyada - I.B.Tito, JAR prezidenti Bokassoning imperator bo'lganligi fakti va b.).

Isroil - hokimiyatning o'ziga xos tizimiga ega bo'lgan parlament respublikasidir. 1996-yildan boshlab, bu mamlakat jahondagi yagona davlat bo'lib, unda Prezident parlament (Knesset) tomonidan, premyer-ministr - bevosita fuqarolar tomonidan saylanadi. Isroil alohida huquqiy akt sifatidagi Konstitutsiyaga ega emas. Qisqasi, ijtimoiy hayot va demokratik rivojlanish davlat boshqaruv shaklining ayrim jihatlarini sinovdan o'tkazib, muayyan xulosa berishi tabiiydir.

3. Hozirgi zamon ko'p millatli davlatlari sharoitida davlat tuzilishi shakllari muammolari

Davlatning tuzilish shakli deganda davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishini, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi, davlatning alohida bo'laklari o'rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabat xarakterini tushunamiz. Davlatning tuzilish shakli faqat ommaviy hokimiyat bilan bog'liq bo'libgina qolmay, balki davlatning yana bir muhim xususiyati, ya'ni aholining hududiy tashkil etilishi bilan ham bog'liqdir. Garchi davlatning tuzilish shakli ko'rinishidan mavhum narsaga o'xshasa-da, aslida u fuqarolarning huquq va burchlari hajmiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi o'z vaqtida va to'g'ri hal etilgan davlat tuzilishi masalasi davlatning barqarorligini, uning samarali ahamiyatini ma'lum darajada ta'minlaydi, yoki aksincha, davlatning xarakteri va vazifalariga mos bo'lmagan tuzilish shakli davlatning tarqalib ketishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, har qanday davlat muayyan chegaralangan hududda joylashgan va o'z faoliyatini, turli funksiyalarini amalga oshirish uchun,

markazdan turib boshqarishni yengillashtirish maqsadida o'z hududini muayyan bo'laklarga bo'lib, ularda mahalliy o'z organlarini ta'sis etishga majbur bo'ladi. Shu asnoda markaziy va mahalliy organlar o'rtasida vakolatni bo'lishga to'g'ri keladi, ikkinchi tomondan davlat aholisi ko'p millatli bo'lishi mumkin, chunki har bir xalq, millatning o'z an'analari, davlatchiligining tarixiy tajribasi mavjud, madaniy, til va boshqa ma'naviy ehtiyojlarga ega. Bundan tashqari, subyektiv, tasodifiy omillar ham rol o'ynashi mumkin (o'zlashtirib olish, mustamlakachilik ta'siri, siyosiy manfa-atlar va b.) Davlat tuzilishining asosan ikki shakli mavjud: unitar va federativ.

Unitar (yagona, lotincha «unus» - bitta, fransuzcha «unitaire» - yagona, yaxlit) davlat oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, to'la siyosiy birligi bilan farqlanadi, u vertikal bo'ysunish bo'yicha qurilgan davlat hokimiyatining yagona organlariga ega. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linishga ega: tumanlar, viloyatlar, kantonlar. Biroq bu ma'muriy tuzilmalar mustaqil bo'lmay, bevosita markaziy hokimiyat organlariga bo'ysunadi, unitar davlat esa bo'linmasdir. Ayni paytda, unitar davlat tarkibida, agar u ko'p millatli bo'lsa, alohida ma'muriy-hududiy bo'linmalar - avtonomiya (mustaqil muxtoriyat)larni tashkil etish mumkin.

Avtonomiya (grekcha «autonomia» - o'zim qonun chiqaraman) – davlatning shunday bir bo'lagiki, u o'z ichki masalalarini o'zi yechish huquqiga ega, u bir davlat tarkibida yashovchi xalqlarning soni va rivojlanishidagi notekislik natijasida vujudga kelgan. Avtonomiya unitar davlatdan tashqari federativ davlat tarkibida ham tuzilishi mumkin (masalan, RFda - avtonomiyalar: okruglar, viloyatlar, o'lkalar). Avtonom tuzilmalarda o'zini o'zi boshqarish huquqi boshqa aholiga qaraganda kengroq bo'ladi. Biroq, avtonomiyalar mustaqilligiga markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina yo'l qo'yiladi. Unitar davlatdagi avtonomiyada vakolat markazdan quyiga berilsa, federasiyada, aksincha, subyektlardan federasiyaga beriladi va federasiya subyektlari teng huquqlidir. Unitar davlatlar: Buyuk Britaniya, Vengriya, V'etnam Sotsialistik Respublikasi, Gresiya, Gruziya, Daniya, Dominikan respublikasi, Misr arab respublikasi, Isroil, Indoneziya, Iordaniya, Iroq, Eron, Irlandiya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Yemen, Qozog'iston, XXR, Kolumbiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Kosta-Rika, Kuba, Livan, Liviya, Lyusemburg, Makedoniya, Mal'ta, Marokko, Mongoliya, M'yanma, Niderlandiya, Yangi Zelandiya va b. Janubiy Afrika respublikasi – federalizm elementlariga ega

unitar davlatdir, 9 ta provinsiyasi keng vakolatlarga ega, shu jumladan, qonun chiqarish avtonomiyasiga ham.

Federativ davlat(lotinchа «federatio» - ittifoq, birlashish) – murakkab tuzilma boʻlib, u oʻz tarkibida maʼmuriy-hududiy yoki milliy tuzilmalarga - federasiya aʼzolari (subyektlari)ga ega boʻladi va ular muayyan darajada mustaqillikka ega boʻladilar (AQShda – shtatlar, GFRda - yerlar, Shveysariyada - kantonlar).

Federasiyada butun federasiya uchun umumiy boʻlgan oliy hokimiyat va boshqaruv organi tuziladi, ayni paytda federasiya subyektlarida ham oʻz oliy hokimiyat va boshqaruv organi saqlanadi, baʼzan oʻz qonunchiligi, soliqlar tizimi, sud organlariga ham ega boʻlishi mumkin. Federasiya aʼzolarining manfaatini ifoda etish uchun umumdavlat miqyosida ikki palatali parlament tuziladi(AQSh, Shveysariya, RF).

Unitar davlat koʻp millatli, federativ davlat esa asosan yakka millatli ham boʻlishi mumkin, masalan, Bolgariya - koʻp millatli unitar davlat, AQSh esa, bir millatli federativ davlat. Bu ikki davlat tuzilishi shakli oʻrtasidagi asosiy farq - hududlarining boʻlinish shakli va davlat hokimiyati organlarini tashkil etish tizimidadir. Ayni paytda aholining milliy tarkibi davlat tuzilishi shakliga taʼsir etmay qolmaydi, shu bois federativ davlatlarni maʼmuriy federasiya (AQSh, GFR, Meksika, Braziliya va b.) va milliy federasiya (YuSFSR, ChSFR, SSSR(tarixiy shakllar), RF va b.)ga boʻlish mumkin. Maʼmuriy federasiyada hududlarning boʻlinishi asosiga obyektiv mezonlar: joylarning relʼefi, tuzilishi, iqlimiy sharoitlar, foydali qazilmalarning joylashuvi, aholi zichligi, mavjud xoʻjalik-iqtisodiy aloqalar, tarixiy anʼanalar va b. Qoʻyiladi. Milliy federasiyada esa hududiy boʻlinishga asos qilib, subyektiv omil boʻlgan aholining milliy tarkibi olingan. Shu sababli milliy federasiyalar davlat tuzilishining mustaqil shakliga aylana olmadi, Yugoslaviya, Chexoslovakiya, SSSR federasiyalari taqdiri bunga misoldir. Konstitutsiyalar dunyodagi barcha federasiyalarning huquqiy asosi hisoblanadi, unga oʻzgartirish kiritish federal organlarning vakolatiga taalluqlidir. Baʼzan federasiya va uning subyektlari oʻrtasidagi munosabat shartnoma asosida ham qurilishi mumkin, yaʼni shartnomali federasiyalar. RF aralash, yaʼni konstitutsion-shartnomali federasiya hisoblanadi.

Federativ tuzilish quyidagi asoslarda tuziladi:

1) ikki yoki undan koʻp mustaqil shakllangan davlatlarning mavjudligi;

2) birlashmoqchi boʻlgan davlatlarning nisbatan uncha katta boʻlmasligi, chunki birlashgach, yagona davlat sifatida mavjud boʻla olishi kerak ham hayotiy, ham siyosiy jihatdan;

3) birlashayotgan davlatlar haqiqatan ham bir-biriga aniq muhtoj boʻlishi – ham strategik, ham iqtisodiy jihatdan;

4) xalqning bu narsaga tayyor boʻlishlik xususiyati, yaʼni majburiyatlarni bajarishga tayyorgarlik, «buyuklik» maniyasining yoʻqligi va b.

Federasiyaga misollar: **Kanada**- 10 ta provinsiya; **Hindiston** – 25 ta shtat; **GFR** -16 ta er; **Venesuela** - 20 ta shtat, 1 ta Karakas federal okrugi, 2 ta federal hudud va 72 ta orollardagi federal erlar; **Malayziya** - 13ta shtat va 2ta federal territoriya (Kuala-Lumpur va Labuan oroli); **Meksika** - 31ta shtat va 1ta poytaxt federal okrugi; **Nigeriya** - 30ta shtat va Abudja federal poytaxt hududi; **Pokiston** - 4ta provinsiya va Islomobod federal poytaxt okrugi; **RF** - 88 ta teng huquqli subyekti: 21ta respublika, 5ta oʻlka, 49ta viloyat, federal ahamiyatidagi 2ta shahar, 1ta avtonom viloyat, 10 ta avtonom okrug; **AQSh** - 50ta shtat va Kolumbiya federal okrugi; **Tanzaniya** - 2ta subyekti bor: mamlakatning materik qismi – Tanganʼika va orol qismi - Zanjibar; **Shveysariya** - 23ta kanton va 3ta yarim kanton; **Efiopiya federativ demokratik respublikasi** – 9 ta shtatdan iborat.

Konfederasiya - bu suveren davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va harbiy vazifalarni birgalikda yechish uchun tuzilgan ittifoqidir (lotincha «konfederasio» - hamjamiyat). Konfederasiya federasiyadan farq qilib, u muayyan, cheklangan maqsadlarga erishish uchun muayyan tarixiy davr doirasida tuziladi. Konfederasiyani tuzgan davlatlar suveren boʻlib qolaveradi, xalqaro munosabatlar subyekti boʻlaveradi, oʻz fuqaroligini, hokimiyat organlari va boshqaruv tizimlarini, sudlov tizimini saqlab qoladi.

Taʼkidlash lozimki, konfederasiya kam uchraydigan va uncha barqaror boʻlmagan tuzilma, shu bois koʻzlangan maqsadlarga erishgach, tarqalib ketadi (masalan, Misr va Siriya arab-isroil nizosi vaqtida Birlashgan Arab Respublikasini tuzgan edilar, u Yaqin Sharqda ahvol normallashtirgach, tarqalib ketgan) yoki baʼzan federativ davlatga aylangan, masalan, Shveysariya federasiyasi 1848-yilgacha konfederasiya shaklida mavjud boʻlgan.

Konfederasiya doirasida qabul qilingan aktlar, aʼzolarining oliy hokimiyat organi tomonidan maʼqullanishi lozim. Konfederasiya aʼzolari oʻzlarining mustaqil daromad manbalariga ega boʻlib, ularning maʼlum qismini konfederasiya byudjetiga oʻtkazishadi. Armiya ham aʼzo davlatlar

harbiy qismlaridan iborat bo`lib, u umumiy qo`mondonlik ixtiyoriga umumiy qarorga ko`ra jo`natiladi.

Mustaqil davlatlar hamdo`stligi - MDHni ham o`ziga xos konfederasiya shakli degan fikrlar ilmiy adabiyotda uchrab turmoqda, chunki u bir payt yagona bo`lgan davlat - SSSRning tarqalib ketishi natijasida paydo bo`lgan, shu bois unda iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlar bilan bir qatorda, ushbu davlatlar xalqi o`rtasida tarixiy, etnik, madaniy birlikni mustahkamlash, uni yo`qotmaslik kabi vazifalar turibdi. Bunday birlik bu ittifoqning tezda to`laqonli bo`lishiga xizmat qilmog`i lozim edi, ammo amalda u hali shakllanish bosqichini o`tmoqda. Keyingi paytlarda qit`aning 217 davlatini birlashtirgan Yevropa Ittifoqi konfederativ birlashuvga misol bo`la oladi, degan fikr ilmiy adabiyotlarda uchrab turibdi. Fikrimizcha, bu masala munozarali bo`lib, u keng ilmiy jamoatchilikning e`tirofiga muhtoj.

4.Hozirgi zamon davlati siyosiy rejimi va uning ko`rinishlari

Davlatlar u yoki bu tarixiy tipga tegishliligi, shuningdek, muayyan davlat boshqaruv shakli va davlat tuzilish shakliga ega bo`lishlaridan tashqari bir-birlaridan o`z siyosiy rejimlari bilan ham farqlanadilar. **Siyosiy rejim (davlat rejimi)** deganda hokimiyat tepasida turgan guruhlar, sinf yoki qatlamlarning davlat hokimiyatini amalga oshirish uslublari yig`indisi tushuniladi.

Siyosiy (davlat) rejim davlat shaklining eng harakatchan (dinamik) qismi bo`lib, u atrofdagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muhitda sodir bo`ladigan eng muhim jarayonlar va o`zgarishlarga, xususan, ijtimoiy-siyosiy kuchlar nisbatiga sezgirlik bilan e`tibor beradi. Ta`kidlash joizki, ilmiy adabiyotda siyosiy rejimning tor va keng ma`nodagi talqini mavjud. Tor ma`noda u davlat rahbarligining usul va vositalari yig`indisi deb deb tushunilsa, keng ma`noda esa, u - shaxsning demokratik huquq va siyosiy erkinligining kafolatlanganlik darajasini, rasmiy konstitutsiyaviy va huquqiy shakllarning siyosiy amaliyotga muvofiq kelish darajasi, hokimiyat tuzilmalarining davlat va ijtimoiy hayotning huquqiy asoslariga nisbatan bo`lgan munosabatini anglatadi.

Siyosiy (davlat) rejimi – bu davlat hokimiyatining amalga oshirishda hokimiyat subyektlari tomonidan qo`llaniladigan usul va vositalar majmuidir. Davlat rejimi ham boshqarish va tuzilish shakli kabi bevosita hokimiyat bilan aloqadir, biroq bu bog`liqlik o`ziga xosdir. Siyosiy rejim to`g`ridan to`g`ri davlat organlari tizimi, yoki davlatning hududiy

bo`linmalari bilan bevosita bog`liq bo`lmay, balki, umuman, davlatning amal qilishi, hokimiyatning tashkiliy-rasmiy ifodasi sifatida namoyon bo`ladi. Siyosiy rejimning tushunchasi to`g`risida yurist-olimlar orasida fikrlar xilma-xilligi mavjud. Yuqoridagi ta`rif keng tarqalgani hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda siyosiy rejimni «davlat hokimiyatning tashkil etilish shakli, ifodasi bo`lib, u jamiyatdagi demokratiyaning (xarakteri) va siyosiy erkinlikning xarakteri va holatida, ahvolda ifodalanadigan» kategoriya sifatida ham tushunish mavjud (V.S. Petrov). Yana bir yondashuvga ko`ra, siyosiy rejim davlat hokimiyatini amalga oshirishning usul va vositalari yig`indisi bo`lib, ular orqa-li davlat hokimiyati o`zining mavjudligini va faoliyatini legitimlashtiradi. Legitimlash deganda, hokimiyat mohiyatining xalqning adolat to`g`risidagi tasavvurlariga mos kelishi tushuniladi.

Siyosiy rejim davlat shaklining eng dinamik, harakatchan tarkibiy qismi bo`lib, u jamiyatdagi o`zgarishlarni juda sezuvchandir. Davlat rejimini anglamasdan turib, davlatning mohiyat va mazmunini anglash qiyin. (Masalan, nima uchun monarxiya boshqaruvi bo`lsada, ba`zi davlatlarda demokratiya kuchliroq, ba`zi respublika shaklidagi davlatlarda esa aksincha va h.k.).

Davlat rejimi o`z-o`zidan paydo bo`lib qolmasdan, balki qator obyektiv va subyektiv faktorlar ta`siri ostida tarkib topadi. Siyosiy rejim mohiyatini anglashda davlat hokimiyatining aholi bilan o`zaro ta`siri qanday yo`llar va usullar bilan amalga oshirilishi, siyosiy sohada ijtimoiy qatlamlarning haqiqiy munosabati qanday namoyon bo`ladi, turli jamoat tashkilotlarining siyosiy mavqei qanday, aholini boshqarish bo`yicha davlat organlari aslida qanday rol o`ynaydilar kabi savollarga javob topish mumkin.

Siyosiy rejimlarning xilma-xil ko`rinishlari mavjud. Muayyan siyosiy rejimning shakllanishiga juda ko`p omillar, chunonchi, davlat mohiyati va shakli, qonunchilik xarakteri, davlat organlarining real vakolatlari va ular faoliyatining huquqiy shakli, ijtimoiy-siyosiy kuchlar nisbati, hayot darajasi va standartlari, iqtisodiy ahvol, mamlakatning tarixiy an`analari, ijtimoiy-siyosiy muhit, xalqaro ahvol ta`sir o`tkazadi.

Muayyan siyosiy rejimning shakllanishiga ta`sir etuvchi **obyektiv omillar** quyidagilardir:

- 1) iqtisodning xarakteri: uning markazlashuvi yoki nomarkazlashuvi, rejalashtirilganligi yoki bozor iqtisodiyotining amal qilishi;
- 2) jamiyatning rivojlanish darajasi;
- 3) jamiyatning umumiy, siyosiy va huquqiy madaniyati;

- 4) davlat tipi va shakli;
- 5) jamiyatda ijtimoiy-sinfiy kuchlar nisbati;
- 6) tarixiy, milliy, diniy va madaniy an'analar;
- 7) jamiyat tepasida turgan siyosiy elitaning xususiyati.

Siyosiy rejimga ta'sir etuvchi **subyektiv omillar**: - xalq ruhi va irodasi.

Xalq siyosiy rejimga o'zining sust, zaif, befarq munosabati bilan salbiy hamda faol, maqsadga yo'naltirilgan munosabati bilan ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Siyosiy rejimning tarkibiy qismi sifatidagi davlat rejimini tavsiflovchi jihatlar quyidagilardir:

1. Davlat hokimiyati organlarini shakllantirish usuli va tartibi;
2. Davlat organlari o'rtasida vakolatlar taqsimoti tartibi va o'zaro munosabati;
3. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlanganlik darajasi;
4. Huquqning jamiyat va davlat ishlarini hal etishdagi roli;
5. Davlat mexanizmida armiya, politsiya, razvedka va boshqa maxsus xizmatlarning o'rni;
6. Fuqarolar va ular birlashmalarining jamiyat va davlatni boshqarishda real ishtiroki;
7. Jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etishning asosiy vositalari.

Turli tarixiy davrlarda turlicha rejimlar shakllangan, masalan, quldorchilik tuzumiga despotik, teokratik monarxiya, aristokratik oligarxiya, quldorlik demokratiyasi rejimlari mansub bo'lgan bo'lsa, feodalizm davrida mutlaq, «feodal demokratiyasi»ning o'ziga xos rejimlari: klerikal-feodal, harbiy-politsiya, «ma'rifatli absolyutizm» rejimlari bo'lgan, kapitalistik tuzumda esa liberal, burjua-demokratik yoki konstitutsion, bonapartcha, harbiy-politsiya, fashistik, shuningdek, «fashistsimon», masalan, korporativ yoki irqchimillatchi, yana diktator-monopol, qo'g'irchoq, ba'zi islom davlatlarida klerikal-fundamental siyosiy rejimlar amal qilgan.

Siyosiy rejimlarning turlichaligiga qaramay ularni ikki katta guruhga bo'lish mumkin: demokratik siyosiy rejim; g'ayridemokratik siyosiy rejim. Qadimgi demokratiya siyosiy rejimi quldorlarga keng huquq va erkinliklar bergan, qullarni esa barcha huquqlardan mahrum etgan. Bunday rejim **aristokratik rejim** deb nomlangan. Bunga yaqin turgan siyosiy rejim bu **oligarxiya** (ozchilik hokimiyati) - bir guruh ekspluatatorlar hukmronligidir. Uning bir turi bo'lgan moliyaviy oligarxiyada aristokratik

rejimdan farq qilib, hokimiyat meros tariqasida o'tmay, balki eng boy odamlar hokimiyati bo'lgan. Jamiyat rivojlana borgan sari bu siyosiy rejimlar ularga nisbatan demokratik bo'lgan rejimlar bilan almashgan.

«Demokratiya» so'zi "xalq hokimiyati" degan ma'noni anglatadi - unda hokimiyat xalq tomonidan saylab qo'yilgan kollegial organ tomonidan amalga oshiriladi. Ayni paytda demokratik siyosiy rejim turli davlatlarda har xil bo'ladi, bu aholining saylab qo'yiladigan organda vakilligi darajasi, xalqning davlat ahamiyatiga molik qarorlar qabul qilinishida bevosita ta'siri imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Shu bois bevosita va vakillik demokratiyalari farqlanadi. Bevosita demokratiyada aholining davlat va jamoat hayotiga oid masalalarni hal etishda referendum, manifestasiya, mitinglar yo'li bilan qatnashishi tushuniladi¹.

Vakillik demokratiyasida esa xalq o'zi shakllantirgan davlat organiga - parlament, prezident, ta'sis majlislariga o'ziga tegishli hokimiyatning ma'lum qismini beradi. Demokratik davlat mana shu bevosita va vakillik demokratiyasini qo'shib olib borilishiga asoslanib quriladi. Ayni bir siyosiy rejim davlat turli boshqaruv shakllarida mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, boshqaruv shakliga ko'ra Angliya - cheklangan monarxiya, Germaniya va Italiya - parlament respublikalari, AQSh - prezidentlik respublikasi, Fransiya - aralash respublika, biroq bu mamlakatlarda burjua demokratiyasi rejimi mavjud, va aksincha, davlat boshqaruv shakli bir xil bo'lgan mamlakatlarda siyosiy rejim turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, boshqaruvning parlamentlik respublika shakli joriy qilingan ko'pchilik mamlakatlarda davlat rejimlari turlicha: demokratiyadan to fashistik rejimgacha.

Demak, siyosiy (davlat) rejim davlat shakli kabi yetarli darajada mustaqil namoyon bo'ladi. Uning yordamida hokimiyat sohibi davlat boshqaruvi va tuzilishining formal asoslarini buzmay, davlat shaklini mamlakatdagi o'zgaruvchan siyosiy vaziyatga moslashtirish mumkin. Davlat rejimi mamlakatdagi vaziyatga eng beriluvchan barometrdir. U o'zining mohiyatini o'zgartirmasdan turib, davlatning u yoki bu rivojlanish bosqichida turli jihatlari bilan namoyon bo'ladi va doimiy tarzda davlat

¹ Азизхўжаев А. Демократия –халқ ҳокимияти демакдир. //Жамият ва бошқарув. 1997. №1. Б. 4-7.; Азизхўжаев А. Демократиянинг ёрқин ифодаси. //Жамият ва бошқарув. 2002, №1. Б. 4-8.; Саидов А. Демократия маданияти тўғрисида./ Ижтимоий фикр.Инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистон гуманитар журнали. 2004. №2.(34).Б.30-34; Саидов А. Инсоният ҳурлигининг буюк хартияси. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2008. №2. Б.7-11.; Саидов А. Демократия маданияти тўғрисида./ Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. Ўзбекистон гуманитар журнали. 2004. №4. (36). Б.7-10.; Султонмурод Олим. Демократия тақдири. У кимнинг қўлида? HUUQUQ va BURCH. 2006. .№2.Б.26-27.

tuzilishiga, boshqaruv shakliga, davlat apparatini tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat siyosiy rejimiga xos bo'lgan qonuniyat shundan iboratki, jamiyatda umumiy yoki xususiy manfaatlarning muayyan nisbati davlat rejimining o'zgarishiga olib keladi va, aksincha davlat shaklining o'zgarishi siyosiy rejimni o'zgarishiga olib keladi.

Demokratik siyosiy rejim - bu davlat hokimiyatini ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi va ozchilikning qonuniy manfaatlari hamda huquqlarini hurmat qilish asosida amalga oshirish uslublari yig'indisidir.

Demokratik siyosiy rejimning **xususiyatlari**:

1) fuqarolar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlarining e'lon qilinishi va amalga oshirilishi;

2) bir qator, shu jumladan, muxolifatchi partiyalarning mavjudligi;

3) davlat hokimiyati markaziy va mahalliy organlarining almashinib turishi va saylab qo'yilishi;

4) konstitutsiyaviylik va qonuniylik prinipining rasmiy tan olinishi;

5) hokimiyatlar bo'linishi prinsipi;

6) vakillik va bevosita demokratiya institutlarining mavjudligi;

7) demokratik qonunchilikning mavjudligi.

Tarixda demokratik rejimlarning turli shakllari mavjud bo'lgan. Demokratik siyosiy rejimning bir ko'rinishi - bu **sotsial demokratik rejim**dir. U jamiyatda hali o'rta sinf uzil-kesil shakllanmagan davlatlar uchun xos.

Bu rejimning xususiyatlari:

a) **siyosiy sohada**:

- keng siyosiy demokratiya;

- davlat hokimiyatini amalga oshirishning demokratik va huquqiy metodlari;

- shoshma-shosharliksiz amalga oshiriladigan islohotlar;

- jamiyat rivojlanishining evolyutsion yo'li.

b) **ijtimoiy-iqtisodiy sohada**:

- ko'p ukladli iqtisodiyot;

- kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish;

- progressiv soliqqa tortish tizimi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor;

- ijtimoiy dasturlar mavjudligi.

Hozirgi kunda eng keng tarqalgan demokratik rejim – **parlament demokratiyasi** hisoblanadi, bunda butun xalq tomonidan umumiy, teng saylov huquqi orqali saylanadigan parlamentga hokimiyat beriladi.

Parlament demokratiyasining ko`rinishlaridan biri – **liberal demokratik rejim** bo`lib, uning asosiy xususiyatlari – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashuvni cheklash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hisoblanadi.

Fayridemokratik siyosiy davlat rejimi - bu davlat hokimiyatini ko`pchilik yoki ozchilikning ham fikrini hisobga olmasdan o`zboshimchalik asosida amalga oshirish uslublari yig`indisidir.

Fayridemokratik rejim – davlat hokimiyatining yakka shaxs qo`lida (diktator) yoki bir guruh shaxslar (xunta) qo`lida to`planishiga asoslanadi. Bunday rejimlar avtokratik (yunoncha «autokratus» - o`z hokimiyati) yoki avtoritar (lot. «autoritas» - shaxsiy hokimiyat) shakllarida bo`lishi mumkin.

Despotiya (yunoncha – cheklanmagan hokimiyat) rejimi – bu mutlaq monarxiya davlatlari uchun xos bo`lib, u bir shaxs tomonidan amalga oshirilgan va aholini qo`rquvda ushlab turishga asoslangan. O`rta Er dengizi, Yaqin Sharq, Afrika va Janubiy Amerika davlatlarida, ya`ni Osiyocha paydo bo`lgan davlatlarda uchragan.

Tiraniyaning despotiyadan farqi: hokimiyat istilo, zo`rlik orqali yoki qonuniy hokimiyatni ag`darish orqali o`rnatilib, o`zboshimchalik, qo`rqitishga asoslanadi (qadimgi Yunoniston polislarida, o`rta asr shahar-davlatlarida).

Nodemokratik siyosiy rejim **xususiyatlari**:

1) fuqarolar huquq va erkinliklarining bekor qilinishi yoki ancha cheklanishi;

2) muxolifatchi va boshqa partiyalar faoliyatining ta`qiqlanishi;

3) saylab qo`yiladigan davlat organlari mavqeining cheklanganligi (pastligi);

4) ijro organlarining kuchayishi;

5) davlat boshlig`i yoki hukumat boshlig`i qo`lida juda katta vakolatlarning to`planishi;

6) parlament va boshqa davlat hokimiyati organlarining oddiy formal institutlar holatiga olib kelib qo`yilishi.

Totalitar rejim bu XX-asr hodisasi bo`lib, u avtoritar rejimning eng qo`pol shakli hisoblanadi.

«Totalitarizm» atamasi lotincha «totalis» - “yaxlit”, “butunlay”, “to`la” ma`nolarini anglatadi. Uni siyosiy muomalaga birinchi marta Benito Mussolini 1923-yili kiritgan. Totalitarizm nazariyasi XX-asrning 40-50-yillarida shakllangan, asosiy xususiyati davlatning fuqarolar hayotiga aralashuvning juda keng ko`lam kasb etishi bo`lib, u hayotning

hamma sohalariga kirib boradi, hamma narsani nazorat qiladi. Uning xususiyatlari:

- hokimiyat monizmi (plyuralizmning yo`qligi);
- totalitar haqiqatga bo`lgan monopol huquq;
- kollektiv-mexanistik dunyoqarash (davlat-mashina, inson-vint);
- ijtimoiy hayotning mafkuralashganligi (davlat miqyosida yagona mafkuraning joriy etilishi);
- har qanday boshqa fikrga o`ta toqatsizlik, har qanday boshqa mafkuraning man etilishi;
- axborot tarqatishga monopol davlat huquqi;
- OAV ustidan to`liq kontrol;
- fuqarolik jamiyatining tugatilishi, xususiy hayotning yo`qligi;
- insonning o`ziga xosligini yo`qotuvchi tenglashtirish prinsipi;
- o`z aholisiga nisbatan ommaviy terror;
- huquq, Konstitutsiya bilan niqoblanish;
- davlat apparatining partiya tomonidan egallanishi;
- butun hokimiyatning yagona partiya apparatiga mansubligi;
- hokimiyatning qattiq markazlashganligi
- dohiyga sig`inish.

Totalitarizmning asosiy ko`rinishlari:

- **kommunistik totalitarizm** (sobiq SSSRda XX-asr 20-yillarining oxirida shakllanib, to 50 yilgacha davom etgan);
- **fashizm** (birinchi marta 1922-yilda Italiyada o`rnatilgan);
- **natsional-sotsializm** (1933-yili Germaniyada).

Nodemokratik siyosiy rejimning eng xavfli ko`rinishi **fashizmdir**. Demokratik uslublar bilan boshqara olmagan hokimiyat zo`rluk usuliga o`tadi.

Fashistik rejim **xususiyatlari**:

- boshqaruvning repressiv usullari, inson huquqlarini himoya qilish borasida ijtimoiy va siyosiy demagogiyaning uyg`unlashuvi;
- OAV orqali singdirilgan antisemitizm va boshqacha fikrlovchilarni ta`qib qilish;
- xalqqa qarshi siyosatni «xalq haqida g`amxo`rlik» shiorlari bilan xaspo`shlash;
- fashistik yo`lboshchilar siyosatiga qo`shilmaganlarni doimiy ravishda davlat darajasida ta`qib etish;
- hukmdor elitaning armiya, politsiya va boshqa repressiv organlarga tayanishi;
- dohiyning ulkan hokimiyatga egaligi (fyurer, duche va h.);

-ijro hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mutlaq ustunligi, diktaturasi;

-parlament tuzilmalarining «falajligi» va siyosiy ta'sirining yo`qolishi;

-vakillik hokimiyatining siyosatbozlar hokimiyati bilan almashinuvi;

-parlamentning o`z vakolati – qonun ijod etishdan mahrum etilishi (Germaniyada 1933-yil 24-martdagi «Xalq va davlatning halokatli holatini tugatish to`g`risida»gi qonunga ko`ra qonun chiqarish vakolati hukumatga berilgan. Bu qonunlar Konstitutsiyaga mos kelmasligi ham mumkin bo`lgan, xalqaro shartnomalar parlament ratifikatsiyasiga muhtoj bo`lmagan).

Avtoritar rejim: Kongo, Malayziya, Peru, Siriya, Tanzaniya (ba'zi demokratik tendensiyalari bor), Iordaniya, Iroq, Yaman.

Liberal rejim: Meksika (demokratiya va byurokratik avtoritarizm elementlari bilan), Shri-Lanka.

Nobarqaror siyosiy rejim: Pokistonda cheklangan islom demokratiyasi harbiy diktatura bilan davriy ravishda almashib turadi.

Eronda **krelikal-avtoritar rejim**, Konstitutsiya va 1981-yilgi qonunga ko`ra siyosiy partiyalar va noislom tashkilotlar faoliyati ta'qiqlangan.

Koreya XDRda siyosiy rejim xususiyati mamlakat dohiysi Kim Ir Sen (1918-1944) va uning rasmiy merosxo`ri Kim Chen Ir shaxsiga sig`inishda ko`rinadi.

5.Hozirgi zamon davlati funksiyalari

Davlatning funksiyalari mohiyatini chuqurroq tushunish uchun davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatni, aniqrog'i davlatning fuqarolik jamiyati ishlariga ta'sir etishi doirasini tahlil etish maqsadga muvofiq. Davlat ommaviy-siyosiy institut sifatida fuqarolik jamiyatiga nisbatan boshqaruvchi tizim sifatida o'zini namoyon etadi. Fuqarolik jamiyati o'zini-o'zi boshqaradigan tizim bo'lib, u davlatning ta'sir etish darajasini ham o'zi belgilaydi. Fuqarolik jamiyatining o'zini o'zi tartibga solishning aso-siy mexanizmlari sirasiga erkin bozor (iqtisodiy mexanizm), siyosiy erkinlik va mustaqil odil sudlovdan bimalol foydalanish (yuridik mexanizm) kiradi.

Davlatning funksiyalari bu uning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini amalga oshirish yuzasidan faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Ilmiy adabiyotda «davlatning bosh(general) funksiyasi» atamasidan foydalaniladi. Davlatning bosh funksiyasi - uning jamiyatga, fuqarolik jamiyatiga nisbatan tutgan o'rmini belgilab beradi. Libertar nazariyaga muvofiq davlatning minimal funksiyalari ajratiladi.

Har qanday davlatning oldida har qanday davrda ikki vazifani amalga oshirish masalasi turadi, ya'ni libertar nazariyaga ko'ra, davlatning ikki minimal funksiyasi mavjud:

- a) fuqarolarning erkinligi, xavfsizligi va mulkini ta'minlash;
- b) kommunikatsiyalar tizimini shakllantirish (transport, aloqa).

Pochta, temir yo'llar doimo davlat qo'lida bo'lishi kerak, chunki xususiy qo'lga o'tishi ularning bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlay olmasligi mumkin.

Davlatning fuqarolik jamiyatiga aralashuv darajasi masalasida ikki yondoshuv mavjud:

- a) liberal yondoshuv, uning vakillari Djon Lokk, Adam Smit.

Bu yondoshuvga ko'ra, davlat fuqarolik jamiyatining ishlariga qanchalik kam aralashsa, shunchalik xalq uchun yaxshi.

- b) etatistik yondoshuv – bu yondoshuvning ta'kidlashicha, davlat jamiyat ishlariga qanchalik ko'p aralashsa, jamiyat uchun foydali, biroq, bu aralashuv, albatta oqilona doirada bo'lishi kerak.

Liberalizm nazariyasiga ko'ra davlat «tungi qorovul» vazifasi-nigina o'tashi kerak, ya'ni davlat jamiyatga nisbatan minimal funksiyalargagina ega (XIX-asrdagi monopol guruhlar) degan fikrni ilgari suradi. Etatizmning ikki ko'rinishi mavjud: -avtoritar, -demokratik tartibga solish. Avtoritarizm fuqarolik jamiyatini, o'z-o'zini boshqarishni yo'qotib

yubormaydi, biroq uning harakatiga, rivojlanish darajasiga ta'sir etadi, mas., totalitar jamiyatlarda.

Demokratik etatizm – «Umumfarovonlik davlati» yoki ijtimoiy huquqiy davlatlarda mavjud bo'ladi», bunda davlatning fuqarolik jamiyatiga aralashuv darajasi fuqarolik jamiyati ehtiyojlari bilan belgilanadi. Minimal (liberal) davlat – industrial rivojlangan davlatlarda erkin raqobat davrida shakllangan. Davlat o'zining huquqiy vazifasini bajarish va kommunikatsiyalar tizimini barpo etish uchungina fuqarolik jamiyatiga aralashadi.

6. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatiga davlat aralashuvining ikki shakli mavjud: a) mo'tadil (umerenniy) etatizm, v) neoli-beralizm. Bu shakllar sotsial – huquqiy davlatda mavjud, ya'ni hozirgi ko'pchilik rivojlangan davlatlarda amal qiladi.

7. Sotsial (ijtimoiy) davlatning paternalistik funksiyalari mavjud bo'lib, bu funksiyalar minimal funksiyalar doirasidan chiqadigan funksiyalardir.

Sotsial davlatning paternalistik funksiyalari: a) ijtimoiy iqtisodiy vazifa – bunda davlat erkin raqobatni ta'minlagan holda milliy daromadni qayta taqsimlash orqali aholining muhtoj qatlamlariga yordam beradi; b) madaniyatning rivojlanishiga yordam ko'rsatish funksiyasi – bunda davlat bevosita ijod jarayoniga aralashmay, madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun tegishli sharoitlarni ta'minlaydi; v) ekologik vazifa – bu vazifani amalga oshirishda xususiy tashabbuslar tannarxi qimmatga tushib ketadi, shu bois bu vazifa asosan davlat zimmasida.

Hozirgi zamon davlati va global muammolar

Hozirgi zamon davlati funksiyalarining mazmuni jahonda mavjud global muammolar bilan muayyan darajada bog'liqdir¹. Shu o'rinda global atamasining mazmunini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi. Global so'zi fransuzcha Global-umumiy ma'nolarini anglatib, butun yer shariga, butun dunyoga nisbatan ishlatiladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotinig hozirgi bosqichi butun dunyoga, ya'ni bir yoki bir necha davlat doirasidan tashqariga chiqadigan va umumjahon mazmun kashf etadigan muammolar ko'payishi bilan tavsiflanadi. V.N.Protasovning fikricha, kishilik jamiyati global muammolarini ikki turga ajratish mumkin.

¹ Hozirgi zamon davlati va global muammolar paraqrafi V.N.Protasovning «Глобальные Проблемы и функции современного государства» paraqrafi asosida tayyorlangan. V.N. Protasov. Teoriya prava i gosudarstva. Problemy teorii prava i gosudarstva. M.: Novyy yurist.1999.

Birinchisiga insoniyat taraqqiyotining maromiy rivojlanishi mahsuli hisoblangan, biroq umumjahon ahamiyatiga egaligi bois, butun kishilik jamiyatining kuchi va sa'y harakatlarini talab etadigan muammolar, mas., jahon masshtabida axborot tizimini vujudga keltirish va sh.k. Ikkinchi tur global muammolar o'z mazmuniga ko'ra jahon sivilizatsiyasiga tahdidni o'zida ifodalaydi, ular sirasiga ekologik halokatlar, yadro texnologiyasidan foydalanish asoratlari, demografik, xom ashyo va energiya sohasidagi inqirozlarni kiritish mumkin.

Kishilik jamiyati oldida global muammolarning mavjudligi davlatlarning global funksiyalari paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday funksiyalar barcha davlat kuchlarini birlashtirishni, umumlashtirishni talab etadi. Ma'lumki, davlat funksiyalari tasnifiga oid ilmiy manbalarda davlat funksiyalarini ichki va tashqi davlat funksiyalariga ajratish keng tarqalgan. Global funksiyalarning mavjudligi davlat funksiyalarini bunday tasniflashning mazmunini zaiflashtirib yuboradi. Masalan, Orol muammosi bugungi kunda nafaqat mintaqaviy, balki umujahon ahamiyatga molik muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda hozirgi zamon davlatning global xarakterdagi funksiyalari sirasiga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- inson huquq va erkinliklarni ta'minlash,
- ekologik halokatlarning oldini olish va uning oqibatlarini tugatish,
- demografik, xomashyo va energiya masalasiga oid muammolar,
- xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va umumjahon huquqiy tartibotini o'rnatish,
- kosmosni o'zlashtirish sohasidagi hamkorlik,
- umumplaneta axborot-informasiyaviy tizimini tashkil etish,
- va boshqa funksiyalar.

O'zbekistonning bugungi kundagi davlat funksiyalari barcha davlatlar uchun xos bo'lgan funksiyalardan iborat¹.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Davlat shaklini tushunishdagi plyuralizm.
2. Hozirgi zamon davlatlari shakli rivojlanishi tendensiyalari.
3. Boshqaruv shakli rivojlanish xususiyatlari.
4. Ko'p millatli davlatlar sharoitida davlat tuzilish shakli xususiyatlari.

¹ Ўзбекистоннинг давлат функциялари ҳақида қаранг: З.Исломов. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. Т.: Ўзбекистон. 2005. 254 б.; М.Нажимов. Давлатнинг экологик функцияси. Т.: ТДЮИ. 2006. 96 б.

5. Hozirgi zamon davlati siyosiy rejimi va uning ko`rinishlari.
6. Hozirgi zamon davlati demokratik rejimi belgilari.
7. Totalitarizm va uning belgilari.
8. Hozirgi zamon davlati funksiyalari va globallashuv jarayonlari.
9. Modernizatsiyalash sharoitida O`zbekiston davlati funksiyalari.

5-MAVZU: HUQUQNING TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA QIYMATI

REJA:

1. Huquqni tushunishdagi plyuralizm.
2. Legizm va uning mohiyati.
3. Yunsnaturalizm va uning mazmuni.
4. Yuridik libertarizm.
5. Huquq va qonunni farqlash
6. Yuridik ontologiya, gnoseologiya va aksiologiya muommalari
7. Libertar huquqni tushunish sharoitida huquqiy tartibga solishning xususiyatlari

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008.40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ. 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.–Т.: Ўзбекистон.2002.. 76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
7. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ. Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ. Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.
7. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат. 2001. С.
8. Исламов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. Т.: ТДЮИ нашри. 2004. 139 б.
10. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 188 б.

11. Нерсисянц В.С. Ҳуқуқ фалсафаси. Қисқача ўқув қўлланма. Мас. муҳ. Ю.ф.д.,проф. А.Х.Саидов. Т.:Адолат. 2003. 280 б.
12. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
13. Проблемы теории государства и права: Учебное пособие. Под ред. М.Н.Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
14. С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М: НОРМА. 2000.-233 с.
15. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. М: Статут. 1999.-810 с.
16. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
- 17.Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы Теории права и государства. М., «Новый юрист»-1999.240 с.
- 18.Рустамбоев М.Ҳ.Абдухолиқов С.О. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 316 б.
19. Рустамбоев М.Ҳ.Абдухолиқов С.О.Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. Т.: ТДЮИ нашри.2005. 404 б.
- 20.

1. Huquqni tushunishdagi plyuralizm

Davlat va huquq haqidagi fan sifatida yurisprudensiya uchun uning negizida yotuvchi huquqni tushunish (huquq tushunchasi)ning u yoki bu tipi bosh va asosiy ahamiyat kasb etadi. Aynan huquqni tushunishning tipi yuridik bilishning paradigmasi, prinsipi va namunasi (mazmun modeli)ni, xususan yurisprudensiya tegishli konsepsiyasining ilmiy-huquqiy mazmunini, predmet va metodini belgilab beradi.

Bu har qanday izchil, tizimli asoslantirilgan, rivojlangan va tashkillashgan nazariya (xususan yuridik nazariya doirasida ham) tushunchaning ilmiy bilish maqomi va ahamiyati bilan belgilanadi. Huquq tushunchasida ilmiy-mavhum (konsentrsiyalashgan va ixcham) ko`rinishda muayyan yuridik nazariya, yurisprudensiya muayyan konsepsiyasining nazariy-huquqiy ma`nosi va mazmuni aks etadi. Agar huquq tushunchasi - bu ixcham (siqiq) holdagi yuridik nazariya bo`lsa, yuridik nazariya esa, - bu huquqning yoyiq (kengaytirilgan) tushunchasidir. Yaxlit yuridik fan esa (huquq haqidagi majmuaviy nazariy fan sifatida) huquq

tushunchasini muayyan nazariya ko`rinishida izchil va to`la ochib berishdan iborat.

Yuridik adabiyotda huquqni tushunishning turli tiplari mavjud, aniqrog`i huquqiy fikr tarixida va yurisprudensiya nazariyasida huquqni tushunishning asosan ikki tiplari o`zaro haqiqatga da`vo qilib kelishadi: 1) yuridik (jus-huquq); legistik (lex – qonun).

Huquqni tushunishning ushbu ikki tiplari o`rtasidagi farq quyidagicha. Legistik yondoshuvga ko`ra, huquq - bu davlat(uning hokimiyati, erki-xohishi, ixtiyori)ning ijodi, mahsuli bo`lib, u rasmiy hokimiyatning amri (majburiy ko`rsatmasi, qoidasi, normasi, hujjati, akti). Bunda huquq davlatning rasmiy, majburlov qoidalariga tenglashtiriladi, ya`ni pozitiv huquqning formal manbalariga, ya`ni mazkur vaqtda va mazkur joyda qonuniy kuchga ega bo`lgan yig`ma ma`nodagi qonunga olib kelinadi, huquq bilan qonun tenglashtiriladi. Huquq bilan qonun (pozitiv huquq)ni bunday legistik tenglashtirish mohiyatiga ko`ra aynan legistik pozitivizm bo`lgan “yuri`dik pozitivizm”ning prinsipi va ma`nosi hisoblanadi.

Legistik (pozitivistik) huquq tushunish huquqqa nisbatan turli etatistik, avtoritar, despotik, diktatorlik, totalitar huquqqa yondoshuvlarga xos. Legizm - huquqni davlat amri, majburiy qoidalar deb tushunishdir. Legizm huquqni avtoritar tushunishning normativ ifodasidir (Gobbs va b.) Ular huquq va qonunni tenglashtiradilar, o`z e`tiborini amaldagi (pozitiv) huquqqa qaratadilar.

Legistlar huquqning mohiyati, g`oyasi, qiymati kabi tushunchalarni xom xayol, quruq gap deb inkor qiladilar. Tabiiy huquq nazariyasi ularning eng achchiq tanqidi doimiy obyektini hisoblanadi.

Huquqni tushunishning yuridik tipi uchun, aksincha, huquq va qonun(pozitiv huquq)ni farqlashning u yoki bu varianti xarakterli hisoblanadi. Bunda huquq deganda qonun o`rnatuvchi (davlat) hokimiyatining xohish-irodasiga bog`liq bo`lmagan obyektiv hodisa tushunilib, bu hodisa boshqa ijtimoiy hodisalardan o`zining obyektiv tabiati va xususiyati, o`z mohiyati, farqlovchi tamoyili (alohida ijtimoiy regulyator sifatida) bilan farqlanadi.

Huquqni tushunishning yuridik (antilegistik) tipi doirasida ikki turli yondoshuv farqlanadi:

1.pozitiv huquqqa qarama-qarshi qo`yiluvchi tabiiy huquqni tan olishga asoslangan tabiiy-huquqiy yondoshuv - *yusnaturalizm (antipozitiv)*;

2. huquq bilan qonun(pozitiv huquq)ni farqlashga asoslanuvchi va huquq deganda tabiiy huquqni emas, balki (huquqning mohiyati va farqlovchi prinsipi sifatida) formal tenglik prinsipining mavjudligi va normativ ifodasini nazarda tutuvchi (huquqni tushunish umumiy nazariyasi pozitsiyasidan rivojlantiriluvchi) libertar-yuridik yondoshuv - *yuridik libertarizm*.

Bunda formal tenglik prinsipi huquqiy shakl (huquqiy munosabatlar shakli sifatida)ning yagona mazmunini tashkil etuvchi 3 elementning birligi sifatida namoyon bo'ladi: 1) norma va tenglik o'lchovining mavhum-formal umumiyliigi (norma va o'lchovning hamma uchun tengligi); 2) erkinlik; 3)adolat.

Munosabatlar shakli sifatida huquqni bunday munosabatlarning faktik mazmuni bilan aralashtirib yuborish mumkin emas. Aytish muhimki, mazkur elementlar nafaqat bir-birlarini to'ldiradilar, shu bilan birga bir-birlarini taqozo etadilar va nazarda tutadilar, chunki ular yagona huquqiy asos - formal tenglik prinsipi (shu bilan birga munosabatlarning huquqiy shakli) ning turli jihatlaridir.

Huquqni tushunish umumiy nazariyasi nuqtai nazaridan tabiiy-huquqiy yondoshuv va libertar formal-yuridik yondoshuv yuridik huquqni tushunishning turli shakllari sifatida huquqqa nisbatan nazariy yondoshuv, nazariy-huquqiy fikr sohasida taraqqiyotning vujudga kelishi, chuqurlashuvi va rivojlanishining bosqichlari va darajalarini anglatadi.

Libertar yondoshuv huquq bilan qonun nisbati va farqlanishining barcha shakllarini - ular o'rtasidagi qarama-qarshilikdan (huquqqa zid, huquqni buzuvchi qonun holatida) to ularning mos kelishigacha (huquqiy qonun holatida) bo'lgan shakllarini o'z ichiga oladi.

Libertar-yuridik huquqni tushunishga ko'ra, huquq - bu huquq subyektlarining formal tengligi prinsipi bilan belgilanuvchi tenglik, erkinlik va adolat munosabatlarining shaklidir. Qayerda formal tenglik prinsipi (va uni konkretlashtiruvchi norma) mavjud bo'lsa, o'sha yerda huquq, munosabatlarining huquqiy shakli ham mavjud. Huquq prinsipi sifatida formal tenglik huquqning farqlantiruvchi xususiyati va o'ziga xos belgisi, huquqiy asos hamdir. Huquqda formal tenglik prinsipi uning mohiyatliy jhati hisoblanadi. Ushbu prinsipdan tashqariga chiquvchi va unga qarama-qarshi bo'lgan hamma narsa nohuquqiy va huquqqa zid hisoblanadi.

Tabiiy huquq g'oyalari tarafdorlari uchun tabiiy huquq - bu obyektiv borliq - xudo yoki inson tabiatiga bog'liq yagona, haqiqiy, boshlang'ich huquqdir, u o'zida odillik, axloqiylik, adolat g'oyalarini mujassam etadi.

Ular pozitiv huquqqa tabiiy huquqdan chetga chiquvchi, ba'zida uni inkor etuvchi insonlar tomonidan o'zboshimchalik bilan yoki yanglishib, sun'iy tarzda o'rnatilgan huquq deb qaraydilar. Bunday yondoshuvga ko'ra, huquq haqiqiy ma'noda bu aynan va faqat tabiiy huquqdir.

Tabiiy huquqiy yondoshuvning ba'zi ijobiy tomonlari (nazariy jihatdan anglashilmagan holda yuridik huquqni tushunishning ba'zi jihatlari) va kamchiliklari (huquqni huquqiy bo'lmagan hodisalar – axloq, ma'naviyat, din bilan aralashtirib yuborish, huquqni barcha nohuquqiy narsadan farqlashning qat'iy mezoni yo'qligi, tenglik, erkinlik va adolatni formal-huquqiy tushunchalar, xususiyatlar sifatida emas, balki axloq fenomeni yoki aralash - huquqiy hodisa sifatida tushunish)ni ko'rsatish o'rinli.

Huquqni formal-yuridik tushunishda formal va faktik jihatlarni farqlashning prinsipial ahamiyatini alohida ta'kidlash zarur. Qoida bo'yicha faqat formal narsagina umumiylik kasb etadi, faktik mazmun esa, umumiy emas va har qanday faktik jihat xususiyydan boshqa narsa emas. Shu sababli faqat formal predmet (o'ziga xos shakl, alohida formallik) bo'lgandagina huquq umumiylik hususiyatiga ega bo'ladi, munosabatlarning mavhum-umumiy shakli bo'la oladi. Formal-yuridik yondoshuvda munosabatlarning huquqiy shakli (munosabatlar shakli sifatida butun huquq)ni noformal, har qanday faktik, faktik-mazmuniy jihatdan izchil farqlaymiz va "tozalaymiz". Bunday huquqni tushunishda tabiiy-huquqiy yondoshuvdagi muhim kamchilik - huquqni nohuquqiy hodisalar bilan, huquqiy shakl bilan faktik mazmun, formal bilan faktik, formal-huquqiy va faktik-mazmuniy jihatlarni aralashtirib yuborish yo'qotiladi.

Pozitivistlardan farqli ravishda huquq bilan qonunni farqlash ma'nosida huquqiy shaklni (huquq shakl sifatida) har qanday ixtiyoriy mazmun (normativ va faktik) uchun yaroqli bo'lgan bo'sh shakl sifatida emas, balki huquqni nohuquqiy narsadan, huquqiy shaklni nohuquqiy shakldan farqlovchi alohida formallashtirilgan xususiyatlarga ega maxsus shakl sifatida tushunish kerak. Boshqacha aytganda, formal-yuridik yondoshuv - bu huquqni mazmuniy tushunish, aniqlash va izohlash, biroq u formal-mazmunidir, faktik-mazmuniy emas.

Huquq (huquqiy shakl, formal tenglik prinsipi)ni bunday tushunishda u formal-umumiy tenglik o'lchovi, erkinlik, adolat kabi formal-mazmuniy xususiyatlarga ega bo'ladi. Formal tenglik prinsipini anglatuvchi ushbu formal-mazmuniy xususiyatlarga ko'ra shakl o'zining huquqiy xususiyatini kasb etadi, boshqa har qanday shakldan, munosabatlarning

axloqiy, diniy shakllaridan yoki majburiy-buyruq xarakterdagi munosabatlardan farq qiluvchi huquqiy shaklning o'ziga xos sifatiga ega bo'ladi.

Bunday formal-yuridik ixtisoslashgan va malakaviy shakl munosabatlarning huquqiy tipi va tartibga solishning huquqiy usulining mohiyati va o'ziga xosligini ifodalaydi. Shunday qilib, huquqiy shakl (butun huquq ham) legistlarda bo'lgani kabi har qanday faktik mazmunga yo'l qo'yuvchi bo'sh shakl, buyruq va lozim bo'lishlikning shunchaki shakli emas, balki huquqning xususiyatlari va talablarini ifodalovchi va huquqqa zid hamma narsani inkor etuvchi yuridik belgilangan shakldir.

Huquq bilan qonunni farqlovchi va tegishlicha huquqni tushunishning libertar-yuridik nazariyasi legizm va yusnaturalizm o'rtasidagi qarama-qarshilikdan holi va o'z ichiga ikki yondoshuvning ijobiy jihatlarini oladi. Bu nazariya huquq bilan qonunni legistik tenglashtirishni ham, huquqni tabiiy va pozitivga bo'lishni ham inkor etib, shu bilan birga huquq va qonun haqidagi pozitivistik va tabiiy-huquqiy ta'limotlardagi ahamiyatli xulosalar va qoidalarni e'tiborga oladi. Libertar nazariya huquq bilan qonunni farqlashni ular nisbatining ma'nosini, oqibat natijada ularni huquqiy qonunning zaruriy shaklidagi(ya'ni huquqning obyektiv mazmuni va prinsipi mos keluvchi pozitiv huquqdagi) lozim sintezini adekvat tushunish uchun zaruriy asos sifatida izohlaydi.

2. Legizm va uning mohiyati

Huquqni legistik tushunish asosida huquqni davlatning buyrug'i, majburiy qoidalar, rasmiy hokimiyat tomonidan o'rnatilgan majburiy normalar tizimi sifatida tushunish yotadi.

Legizm va yuridik pozitivizm uchun inson va fuqaro huquqlarini e'tirof etmaslik xos. Bu ma'noda legizm avtoritar huquq tushunishning normativ ifodalanishi hisoblanadi. Legizmning maqsadi - barchani hokimiyat qoidalariga va ko'rsatmalariga bo'ysundirishdir. Bu yerda insonga erkin subyekt sifatida emas, balki hoki-miyatning tobe obykti sifatida qarash hukmronlik qiladi. Gobbs o'zining qudratli davlat konsepsiyasida huquqni hokimiyat buyrug'i deb izohlaydi. U "qonunning huquqiy kuchi uning suveren buyrug'i bo'lganligida" deb ta'kidlaydi. "qonun" bu butun harakatdagi (pozitiv) huquq. Keyinchalik huquqni bunday tushunish legizm turli yo'nalishlarining vakillari tomonidan o'zlashtirilgan.

Yuridik pozitivizmning qaror topishi va rivojlanishi burjua tuzumining g'alabasi va mustahkamlanishi, davlat rolining ortishi va bunday sharoitlarda huquq manbalari tizimida davlat me'yoriy hujjatlarining ahamiyati va salmog'ining oshib borishi bilan bog'liq. G'oyaviy jihatdan "yuridik pozitivizm" qonunda o'zining huquqiy talablarini "tabiiy", "lozimlik", "ideal", "oqilona", "adolat" haqidagi har qanday tanqidiy va oppozision (nopozitiv) talablar va tasavvurlarga qarshi rasmiy, qonuniy tartibotni himoyalovchi mafkuraning rasmiy tan olinishiga erishgan g'olib burjua sinfining o'zgargan yuridik dunyoqarashini ifodalaydi.

"Yuridik pozitivizm"ning asosiy g'oyalari va xulosalari huquqni hokimiyatning ijodi sifatida, hokimiyat majburlovini oqibat natijada huquqning yagona farqlantiruvchi xususiyati sifatida talqin qilishni, huquqni tahlil qilishning formal-mantiqiy va yuridik-dogmatik metodlarini, huquqni ijtimoiy munosabatlardan, yurisprudensiyaning esa, huquqning mohiyati, qiymati, sabablari, tabiati haqidagi "metafizik" qoidalaridan ajratish va "tozalash"ni anglatadi. Bunday qarashlar XIX asrda Angliyada D.Ostin, Sh.Amos, Germaniyada B.Vindshayd, K.Gerber, K.Bergbom, P.Laband, A.Sitel'-man, Fransiyada Kabantu, Rossiyada E.V.Vas'kovskiy, A.X.Gol'msten, D.D.Grimm, S.V.Paxman, G.F.Shershenevich va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. XX asrda bu yondoshuv "yuridik pozitivizm"dagi V.D.Katkovning "umumiy tilshunoslik bilan isloh qilingan yuris-prudensiya", G.Kel'zenning "huquq haqidagi sof ta'limot", G.Xart-ning "huquq konsepsiyasi" kabi yo'nalishlarda o'z ifodasini topgan.

Masalan, D.Ostin huquqni "siyosiy rahbar yoki suveren tomonidan o'rnatilgan qoidalar agregati" deb xarakterlagan va "Har qanday huquq bu komanda, buyruq" deb ta'kidlagan. Sh.Amosning fikricha, "huquq bu mazkur hamjamiyatdagi shaxslar harakatini kontrol qilish maqsadida davlat oliy siyosiy hokimiyati tomonidan chiqarilgan buyruqdir". G.F.Shershenevich qarashlari ham shunga o'xshash: "Huquqning har qanday normasi buyruq hisoblanadi". Hokimiyat buyurgan hamma narsa huquq hisoblanadi. Huquqning o'zboshimchalikdan farqi shu bilan obyektiv va mazmuniy ma'nosini yo'qotadi va bu yondoshuv tarafdorlari uchun faqat subyektiv va formal xarakter kasb etadi: muayyan subyekt (davlat organi) tomonidan muayyan shaklda sanksiyalanadigan (qonun, farmon, qaror, sirkulyar kabi hujjat shaklidagi) oshkora o'zboshimchalik huquq deb tan olinadi. Legistik-pozitivistik tushunishda davlat-hokimiyati amrida afsonaviy imkoniyatlar tan olinadi. Bunday amr-buyruq bilan

nafaqat subyektiv xarakterdagi vazifalar (qonunchilik normalarini shakllantirish), shu bilan birga obyektiv mazmundagi vazifalar (huquqning o'zini yaratish, shakllantirish), shuningdek, ilmiy yo'nalishdagi vazifalar (huquqning o'ziga xosligini aniqlash, uni boshqa ijtimoiy normalardan farqlash va b.)ni ham hal etish mumkin¹.

Legizm o'zining barcha ko'rinishlarida huquq va qonun(pozitiv huquq)ni tenglashtirish bilan huquqiy hodisa sifatida qonunni uning huquqiy mohiyatidan ajratadi, qonunning obyektiv huquqiy xususiyatlarini, sifatlarini inkor etadi, qonun chiqaruvchi hokimiyat irodasining mahsuli sifatida izohlaydi. Shu sababli huquqni bunday tushunishda pozitivistlar qonun (pozitiv huquq) deganda nazarda tutadigan huquqning o'ziga xosligi muqarrar ravishda huquqning majburlov xarakteriga olib kelinadi. Bunday majburiylik huquqning qandaydir obyektiv xususiyatlari va talablari oqibati sifatida emas, balki boshlang'ich huquq hosil qiluvchi va huquq belgilovchi omil, kuchga asoslangan huquqning birlamchi manbai sifa-tida tushuntiriladi. *Hokimiyatning kuchi bu yerda majburlovga, buyruqqa asoslangan huquqni yuzaga keltiradi.*

Legizmga ko'ra, huquq haqidagi haqiqat qonun chiqaruvchi (suveren, davlat)ning fikri, pozitsiyasi, erki ifodalangan qonunda berilgan. Shu bois huquq haqidagi axtarilayotgan haqiqiy bilim rasmiy hokimiyat fikridan boshqa narsa emas.

Huquqni bunday tushunishga ko'ra, faqat birgina huquqni yaratuvchi hokimiyatgina haqiqatdan ham huquq nimaligini va u nohuquqiy narsadan nimasi bilan farq qilishini biladi. Fan esa, eng yaxshi holatda qonun(amaldagi huquq)da mujassamlashgan hokimiy-amriy fikrni adekvat anglashi va ifodalashi mumkin.

Legizmning nazariy-bilish manfaati to'laligicha amaldagi (pozitiv) huquqga qaratilgan. Mazkur pozitiv huquqning empirik doirasidan chetga chiquvchi hamma narsa, huquqning mohiyati, g'oyalari, qiymati to'g'risidagi barcha fikrlar pozitivistlar tomonidan huquqiy ma'no va mazmunga ega bo'lmagan qandaydir metafizik, sxolastik narsa sifatida inkor etiladi.

Pozitivistlar ayniqsa tabiiy-huquqiy ta'limotlarni keskin tanqid qiladilar. Tabiiy-huquqiy ta'limotlarga ular huquq bilan qonunni farqlovchi barcha konsepsiyalarni, qonun qoidalaridan farqlanuvchi huquq haqidagi barcha tasavvurlarni kiritadilar. Pozitivistik gnoseologiya bu

¹ Батафсил қаранг: Проблемы общей теории права и государства. - М.: Норма, 2004; В. С.Нерсесянц. Хуқуқ фалсафаси. Проф. А.Саидов таҳрири остида. Т.: Адолат. 2003. 280 б.

bilan mohiyat bo'yicha huquq nazariyasini inkor etadi va faqat predmeti pozitiv huquq bo'lgan, maqsadi va yo'nalishi huquq dogmasi, ya'ni harakatdagi (pozitiv) huquq, uni o'rganishning usullari, qoidalari va yo'llari, tasnifi, tizimi, sharhi haqidagi asosiy qoidalar majmui bo'lgan qonunshunoslik va qonun haqidagi ta'limotnigina tan oladi, xolos.

Huquq haqidagi barcha bilim bunday huquqni tushunishga ko'ra pozitiv huquqning o'zida, uning matnida rasman berilgan va huquq haqidagi pozitiv ta'limotning asosiy muammosi qonun tekstini to'g'ri sharhlashdan va bu matndagi rasmiy-huquqiy bilimni, qonun chiqaruvchining fikri va pozitsiyasini lozim darajada bayon qilishdan iborat. Bu pozitivistlarning qonunning huquqiy ma'nosi va mazmunini ochiq inkor etishda uni lingvistik va tekstologik izohlashga bo'lgan kuchayib boruvchi qiziqishi bilan bog'liq. Bunday yondoshuvda yuridik gnoseologiya legistik lingvistika bilan almashtiriladi, bunga ko'ra turli nopozitivistik tushunchalar, g'oyalar, konsepsiyalar (huquq mohiyati, huquq g'oyasi, tabiiy huquq, insonning ajralmas huquqlari kabi) - faqat soxta so'zlar, sofizm, noto'g'ri so'z qo'llash natijasi bo'lib qoladi.

Bunday qarashlarni ashaddiy pozitivist I.Bentam rivojlantirgan bo'lib, u analitik yurisprudensiyani (D.Ostin) qaror topishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Tabiiy huquq, uning fikricha, so'z fiksiyasi, bo'rttirib ko'rsatish, insonning ajralmas huquqlari – allaqanday «maxluq»dir. Yuridik huquqni tushunish huquq bilan qonun muammolarini tadqiq qilish yo'llari va vositalarining, lingvistik, tekstologik, strukturaviy, mantiqiy-analitik, yuridik-dogmatik yo'nalishlarning nazariy-bilish va amaliy ahamiyatini tan oladi. Biroq huquqga bo'lgan yuridik yondoshuv doirasida so'z huquqni qonunga, huquq nazariyasini qonun haqidagi ta'limotga va pozitiv huquq dogmasiga tenglashtirish haqida emas, balki ilmiy bilish usullari, vositalari, imkoniyatlarining butun majmuidan huquqni har tomonlama bilish jarayonida huquq va qonun haqida ishonarli va haqiqiy bilimni olish uchun foydalanish haqida boradi.

Aksiologik jihatdan legizm - huquq bilan qonun (pozitiv huquq)ni tenglashtirish va qonun chiqaruvchi bilan qonunga bog'liq bo'lmagan huquqning obyektiv xususiyatlarini inkor qilish tufayli mohiyatan huquqiy qadriyatlarni rad etadi va faqat qonun (pozitiv huquq)ning qiymatini tan oladi. Bunda pozitivistlar tan oladigan qonun (pozitiv huquq)ning "qiymati" aslida o'zining asl qiymat mazmunidan mahrum qilinadi. Qonunning pozitivistik "qiymati" bu qandaydir obyektiv asos bo'yicha uning umumahamiyat kasb etishi emas, balki uning rasmiy umummajburiyligi, hokimiy imperativligidan iborat.

Bu masalada Kel'zenning radikal-pozitivistik yondoshuvi o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra huquq buyruq sifatida, norma sifatida qiymatga ega. Bu (norma, buyruq sifatida) ma'noda huquq u tomondan lozim, shartlilik shakli sifatida xarakterlanadi. Biroq Kel'zendagi "norma" – sof buyruq bo'lib, tenglik, erkinlik, adolat normasi emas. U huquqning formal-huquqiy xususiyatlaridan hech birini ifoda etmaydi.

3. Yusnaturalizm va uning mazmuni

Yusnaturalizm (tabiiy-huquqiy yondoshuv) ga ko'ra huquq o'z mohiyati, tabiati va mazmuniga ko'ra, tabiiy huquqdir. Biroq, tabiiy huquqning o'zi nima degan savolga turli tabiiy-huquqiy konsepsiyalar turlicha javob beradilar.

Tabiiy-huquqiy ta'limotlar tarixi tabiiy huquq (va ular tushunchalari)ning plyuralizmini aks ettiradi, bunda o'zaro raqobatlashuvchi ta'limotlardan har biri tabiiy huquqni o'ziga xos tushunishga nisbatan o'z qarashlarining haqqoniyligiga da'vogarlik qilib keladi. Biroq, turli tabiiy-huquqiy ta'limotlar bir-birlaridan farqlanishlari bilan birga muhim umumiy xususiyatlarga ham ega bo'lganliklari sababli "tabiiy huquq"ni umuman "pozitiv huquq"dan farqlash imkoni mavjud va mantiqiy-nazariy jihatdan tabiiy huquqning umumiy tushunchasini aniqlash masalasi ko'ndalang bo'ladi. Buning uchun, eng avvalo, tabiiy huquqning mohiyati va o'ziga xosligini ixcham shaklda ifodalashda uning universal prinsipini shakllantirish zarur.

Huquqni tushunish umumiy nazariyasi nuqtai nazaridan tabiiy huquq bilan pozitiv huquqni farqlash huquq bilan qonunni farqlash umumiy nazariyasining xususiy (xronologik jihatdan birinchi, aslida eng keng tarqalgan, biroq o'zining qadimiy kelib chiqishiga ko'ra arxaik, nazariy jihatdan yetarlicha rivojlanmagan) ko'rinishi, variantidir. Huquq bilan qonunni tabiiy-huquqiy farqlashga ko'ra huquq va unga xos xususiyatlar maxsus ma'noda, ya'ni uning tabiiyligi, prinsipial qarama-qarshi qo'yiluvchi pozitiv huquqning sun'iyliigi (shu bilan birga uning subyektivligi, ixtiyoriyligi) jihatidan obyektiv hisoblanadi.

Shu bilan birga tabiiy huquq bilan pozitiv huquqni tabiiy-huquqiy farqlash bir vaqtning o'zida o'z ichiga ularga nisbatan berilgan qadr-qimmatni ham oladi: tabiiy huquq uchun - ijobiy, pozitiv huquq uchun - salbiy. Demak, huquq sohasida "tabiiylik"ni "sun'iylik"ka prinsipial qarama-qarshi qo'yish tabiiy huquqni pozitiv huquqdan farqlashdagi tabiiy huquq tushunchasining mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Abadiy va

o'zgarmas tabiiy huquq haqidagi an'anaviy tasavvurlarning mazmunini aynan huquq sohasida "tabiiylik"ni "sun'iylik"ka qarshi qo'yish prinsipi tashkil etib, bu ularning qadr-qimmatini va "tabiiylik"ning "sun'iylik" ka nisbatan ustunligini anglatadi.

Bu prinsip doirasida "sun'iylik" pozitiv huquq ko'rinishida namoyon bo'ladi, shu sababli "tabiiylik" (tabiiy huquq) – in'om etilganligi bois (olloh, tafakkur, tabiat, inson tabiati tomonidan) pozitivdan yuqori turuvchi narsadir. Bunda borliq makonida va vaqt birligida in'om etilgan "tabiiylik" bir vaqtning o'zida ontologik, gnoseologik va aksiologik mazmunga ega: tabiiylik (tabiiy huquq) avvaldan, shak-shubhasiz mavjud, to'g'ri va axloqiy, yaxshi; sun'iylik - yomon va "tabiiylik"dan chetga chiquvchi (insonlarga xos xatolar, o'zboshimchaligi tufayli) siqib chiqarilishi yoki tuzatilishi va "tabiiylik"ka muvofiqlashtirilishi lozim.

Tabiiy huquqning universal prinsipi mazmuni, shu bilan birga tabiiy huquqning umumiy tushunchasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1) mazkur prinsip huquqni o'zining qo'llanish va harakat qilish sohasi sifatida belgilab pozitiv huquq prinsipining huquqiy ma'nosini inkor etadi va tabiiy huquq mavjudligini, bu hodisa va tushunchani shak-shubhasiz va haqiqiy ma'nodagi o'ziga xos huquq sifatida tasdiqlaydi;

2) bu prinsip - o'zining tabiiy va pozitiv huquqni qarama-qarshi qo'yilishida - sifat jihatdan ikki qarama-qarshi sohalar - "tabiiylik" bilan "sun'iylik"ni qarama-qarshi qo'yilishini anglatadi. Bunda "tabiiylik" (tabiiy huquqni o'z ichiga oladi) o'zining mavjudligi, mazmuni va ahamiyatiga ko'ra birlamchi, obyektiv, shak-shubhasiz, haqiqiy, insonga bog'liq bo'lmagan narsa, "sun'iylik" esa, ikkilamchi, hosila, subyektiv, shartli, haqiqiy bo'lmagan, inson xohishiga bog'liq va umuman sifat jihatdan salbiy ("tabiiylik"ka zid va undan ajralgan) narsadir;

3) tabiiy huquq ("tabiiylik"ning huquqiy ifodasi sifatida) va pozitiv huquq ("sun'iylik"ning huquqiy ifodasi sifatida) tabiiy-huquqiy prinsipga ko'ra o'zaro bog'liq qarama-qarshiliklar va bir-birini taqozo etuvchi juft kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladilar. Bu jihatdan tabiiy huquq - uning pozitiv huquq bilan nisbatida - pozitiv huquqdan yuqori turuvchi in'om etilgan huquq bo'lib, pozitiv huquq huquqiy xarakter kasb etishi uchun unga mos kelishi kerak;

4) universal tabiiy-huquqiy prinsip (tegishlixa tabiiy huquqning universal tushunchasi ham) - bu tabiiy huquq universal modelining (tushunchasining ham) prinsipi bo'lib, u tabiiy huquqning barcha alohida ko'rinishlari uchun universal namuna sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiiy huquq - bu hamma joyda va hamisha mavjud, insonga tashqaridan in'om etilgan, mazkur vaqt va joy uchun birlamchi huquq bo'lib, u inson borlig'ining obyektiv qadriyatlari va talablarining ifodasi sifatida barcha inson tomonidan yaratilgan qoidalar, jumladan pozitiv huquq va davlat huquqiy xarakterining mutlaq mezoni va huquqiy mazmunining birdan-bir va shubhasiz birlamchi manbai hisoblanadi.

Tabiiy huquq umumiy tushunchasining qisqa ta'rifi: *tabiiy huquq - bu insoniyatga tashqaridan in'om etilgan va insonlar tomonidan yaratilgan qoidalarga nisbatan ustun bo'lgan huquqdir. Yoki: tabiiy huquq - bu insoniy munosabatlardagi sun'iylik ustidan tabiiylikning ustunligi va birlamchiligini ifodalashning huquqiy shaklidir.*

Aksiologik jihatdan tabiiy huquq uning tarafdorlari tomonidan "haqiqiy" huquqning obyektiv xususiyatlari va qadriyatlarining ifodasi, pozitiv huquq va tegishli huquq o'rnatuvchi hokimiyatni baholash uchun, ularning tabiiy-huquqiy qiymatini aniqlash uchun mezon va zarur namuna sifatida izohlanadi. Bunda tabiiy huquq o'z tabiatiga ko'ra axloqiy (diniy va b.) hodisa sifatida tushuniladi va boshidan mutlaq qadriyat deb sanaladi.

Shunday qilib, tabiiy huquq tushunchasiga huquqning u yoki bu obyektiv xususiyatlari bilan birgalikda (insonlar tengligi, erkinligi prinsipi) turli axloqiy (diniy va b.) xususiyatlar ham kiritiladi. Huquq bilan ahloq (dinni ham)ning bunday aralashtirish natijasida tabiiy huquq turli ijtimoiy normalarning qotishmasi, qandaydir axloqiy-huquqiy kompleks sifatida namoyon bo'ladiki, buning natijasida pozitiv huquq va pozitiv qonunchilik haqida u muayyan (qoida bo'yicha salbiy) xulosa chiqaradi.

Bunday yondoshuvda pozitiv huquq va davlat huquqiy mezonlar nuqtai nazaridan emas, balki asosan etik pozitsiyaning, muayyan konsepsiya muallifining huquqning axloqiy tabiati va mazmuni haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqib baholanadi. Umumlashgan ko'rinishda tabiiy huquqning bunday axloqiy-huquqiy xususiyatlari yig'indisi tabiiy huquqning umumiy va mutlaq adolatligining ifoasi deb talqin qilinadi hamda unga pozitiv huquq va davlatning butun faoliyati muvofiq kelishi lozim.

Shunday qilib, tabiiy-huquqiy yondoshuv doirasida huquq bilan ahloq (din va h.)ning qo'shib yuborilishi formal bilan faktik, lo-zim bo'lishlik va mavjudlikni, norma bilan faktik mazmunni, ideal bilan moddiylikni, prinsip bilan empirik hodisani aralashtirish bilan uyg'unlashadi va chigallashadi. Bunda huquq tushunchasi bilan qonun va davlatning huquqiy ahamiyatini izohlash ularning tabiiy huquqning

mazmuni haqidagi muayyan axloqiy yoki aralash axloqiy-huquqiy tasavvurlar pozitsiyasidan bergan axloqiy (diniy) bahosi bilan almashtiriladi. Bunday kamchiliklar, tabiiyki huquqiy nazariya va amaliyot sohasidagi yuridik aksiologiya muammolarini, insonlar erki va tengligi, tabiiy-huquqiy adolatlilik, insonlarning tug`ma va ajralmas huquqlari, huquq hukmronligi, hokimiyatni huquqiy cheklash, huquqiy davlat kabi g`oyalarni ishlab chiqishdagi tabiiy-huquqiy yondoshuv yutuqlari va xizmatlari ahamiyatini kamaytirmaydi. Huquq haqidagi Kantcha axloqiy ta`limotda gap davlat va pozitiv huquqning huquqiy qadriyati haqida emas, balki aynan axloqiy qiymati haqida boradi. Respublikachilik g`oyasining o`zi Kant tomonidan axloqiy ongning maksimi, axloqiy kategoriyaviy imperativ talabi sifatida asoslantiriladi. Gegel` davlat va pozitiv huquqning axloqiy g`oyalar ifodasi bo`lgan huquq tushunchasiga mos kelishi haqida yozgan.

Tabiiy-huquqiy konsepsiyalarda asosiy nazariy xulosalar tabiiy huquqni amaldagi pozitiv huquqqa qarama-qarshi qo`yish va undan ajratish bilan bog`liq tabiiy huquq haqidagi fikrlarni shakllantirishga yo`naltirilgan. Bunday yondoshuvda huquqiy qonun g`oyasining va tabiiy huquq bilan pozitiv huquqning o`zaro aloqadorligi jihatlari, amaldagi huquqni tabiiy huquq qoidalariga talablariga mos keltirish muammolari e`tibordan chetda qoldiriladi. Bu ma`noda shuni aytish mumkinki, yusnaturalizm vakillarini amaldagi huquq va uni umumiy tabiiy huquq talablariga muvofiq takomillashtirish masalalari emas, balki tabiiy huquqning o`zi va uning tabiatidan kelib chiquvchi “haqiqiy huquq” va shu sababli ham tabiiy amal qilishi ko`proq qiziqtiradi.

Bundan esa yusnaturalizmga bir vaqtning o`zida ikkita va parallel amal qiluvchi hamda o`zaro raqobatlashuvchi huquq tizimlari - haqiqiy, tabiiy huquq va nohaqiqiy, rasmiy (pozitiv) huquq haqidagi tasavvurning xosligi kelib chiqadi. Huquq tushunchasini tabiiy-huquqiy izohlashning kamchiliklarini e`tiborga olib, legizm vakillari tomonidan tabiiy-huquqiy ta`limotga nisbatan bildirilgan qator tanqidiy xulosalarning to`g`riligini tan olish o`rinli. Gap huquq bilan axloqni, tabiiy huquqni tushunishda formal va faktik jihatlarni aralashtirish, nisbiy axloqiy qadriyatlarni mutlaqlashtirish kabi kamchiliklar haqida boradi.

4. Yuridik libertarizm

Tenglik muayyan abstraksiyadan iborat, ya`ni tenglashtiriluvchi obyektlarga xos bo`lgan farqlardan ongli (fikriy) mavhumlashish

oqibatidir. Tenglashtirish tenglashtiriluvchi obyektlarning tafovutlanishini va shu bilan birga tenglashtirishning tegishli asosi (modeli) nuqtai nazaridan bu farqlarning muhim emasligini taqozo etadi. Masalan, turli obyektlarni miqdor mezoniga ko'ra tenglashtirish (miqdori, og'irligi va h.ni aniqlash uchun) ularning barcha mazmun-mohiyat (individual, turdosh va b.) belgilaridan mavhumlashishini anglatadi. Xuddi shu yo'sinda matematika shakllangan, unda tenglamalarni tuzish va hal etish asosiy rol o'ynaydi, tenglik sifat jihatlaridan "tozalanib" son tushunchalarining mutlaq abstraktsiyasigacha yetkaziladi.

Huquqiy tenglik matematikadagi son tengligi kabi o'ta mavhumlashmagan. Turli insonlarni huquqiy tenglashtirishning asosi (mezon) bo'lib, ularning huquq layoqati va huquq subyektliligi sifatida tasdiqlanadigan va tan olinadigan ijtimoiy munosabatlardagi *individdning erkinligidir*. Aynan mana shunda huquqiy tenglik va umuman huquqning o'ziga xosligi ko'rinadi.

Erkinlikdagi huquqiy tenglik erkinlikning teng o'lchovi sifatida huquq subyektlari bo'lgan erkin individlar o'rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik (sorazmernost'), ekvivalent talablarini ham anglatadi. Huquqiy tenglik - bu erkin va bir-biriga qaram bo'lmagan huquq subyektlarining barcha uchun umumiy bo'lgan masshtab, yagona norma, teng o'lchov bo'yicha tengligidir. Insonlar erkin va erkin bo'lmaganlarga bo'lingan joyda, keyingilar huquq subyektlari emaslar, balki huquq obyektlari hisoblanadilar va ularga huquqiy tenglik prinsipi tarqalmaydi.

Huquqiy tenglik - erkinlar tengligi va erkinlikdagi tenglik, individlar erkinligining umumiy masshtabi va teng o'lchovdir.

Huquq shunday tenglik bilan ish ko'radiki, u insonlarning birgalikdagi hayotida erkinlikni ifodalash va amalga oshirishning, borlig'ining umumiy va zaruriy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda huquq - erkinlik matematikasidir (Nersesyans V.S. Pravo – matematika svobodi. M., 1996). Biroq, matematikadagi sonlar tengligini ijtimoiy hodisalardagi tenglikka ko'chirib o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Pifagorchilar nazarida dunyoning mohiyati sonlardan iborat va borliqdagi barcha narsa raqamlarda ifodalanadi va tavsiflanadi. Tenglikni tegishli o'lchov sifatida muayyan son proporsiyasida tushunish bilan ular o'zlarining ijtimoiy matematikasi ruhida adolat (tenglik prinsipiga ega bo'lgan huquq) ni "4" soni bilan ifodalaganlar.

Tenglik haqidagi miqdor ko'rsatkichlarni ijtimoiy munosabatlarga bunday ko'chirish (ekstropolyasiya) huquq haqidagi to'ntoq tasavvurlarni ifodalaydi va mohiyatiga ko'ra insonlar ijtimoiy hayotidagi tenglikni

aynan erkin insonlarning formal-huquqiy tengligi sifatidagi o'ziga xosligini e'tiborga olmaydi. Huquq bu formal tenglik prinsipiga ega bo'lishi bilan birga o'z-o'zicha o'ziga xos (spesifik) ijtimoiy matematika (ijtimoiy munosabatlardagi tenglik va notenglik haqidagi ta'limot ma'nosida) hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi tenglik - bu hamisha huquqiy tenglik, formal-hokimiy tenglik hisoblanadi. Chunki huquqiy tenglik, har qanday tenglik kabi faktik farqlaridan mavhumlashtiriladi va shu sababli zaruriyat bilan va ta'rifiga ko'ra formal xarakter kasb etadi. Tenglik masalasi bo'yicha ko'p tushunmovchiliklar, xatoliklar va soxta tasavvurlar mavjud. Ularning negizida oqibat natijada tenglik ijtimoiy borliqda aynan va faqat huquqiy (formal-huquqiy, formal) tenglik sifatidagina mantiqan va amaliy jihatdan mavjud bo'lishi, oqilona mazmunga ega bo'lishi mumkinligini tushunib etmaslik yotadi.

Ko'pincha huquqiy tenglik turli xil egalitaristik (faktik tenglashtirish) talablari bilan qo'shib yuboriladi yoki, aksincha, unga "faktik tenglashtirish" qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday chalkashtirish huquqqa zid hisoblanadi. "Faktik tenglik" - bu "faktik" va "nofaktik" (formal) tushunchalarni aralashtirib yuborish va "tenglik" tushunchasining o'zidagi ziddiyatdir. Chunki "tenglik" (munosabatlar tipi va shakli, o'lchov masshtabi, tartibga solish prinsipi, tushuncha sifatida) faqat "faktik" va "formal" narsani farqlash jihatdan va so'zlar o'zlari anglatadigan buyumlardan, raqamlar va sonlar sanalayotgan predmetlardan, og'irlik - o'lchanayotgan massadan uzoqlashgani kabi "faktik"dan uzoqlashgan "formal" (mavhum) sifatida ma'no kasb etadi. Aynan o'z formalligi ("faktik"dan mavhumlashishi)ga ko'ra tenglik "faktik"ni tartibga solish prinsipi, usuli, vositasi, butun noformal (ya'ni "faktik") borliqning o'lchovi bo'lishi mumkin. Bu formal-huquqiy tenglikda ham kuzatiladi.

Huquq tarixi - huquqning har qanday tizimi, umuman huquq prinsipi sifatida formal (huquqiy) tenglik prinsipining mazmuni, hajmi, masshtabi va o'lchovining taraqqiyot evolyutsiyasi tarixidir. Insoniy munosabatlarda erkinlik va huquq tarixiy rivojlanishining turli bosqichlariga huquq va erkinlik munosabatlari va subyektlarining o'z doirasi, erkinlikning o'z masshtabi va o'lchovi - qisqasi formal (huquqiy) tenglik prinsipining o'z mazmuni xos. Formal tenglik prinsipi huquqqa doimiy xos bo'lgan tarixiy o'zgarib boruvchi mazmunga ega prinsipdir. Umuman formal tenglik prinsipining amal qilish sohasi, mazmuni, hajmining tarixiy evolyutsiyasi mazkur prinsipning ahamiyatini inkor etmay, balki, aksincha, ijtimoiy

tartibga solishning boshqa turlari (axloq, din) bilan nisbatida va farqida huquqning ajratib turuvchi xususiyati sifatida mustahkamlaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, *huquq - bu ijtimoiy munosabatlarda kishilar formal tengligi prinsipi vositasida erkinlikni ifodalashning me'yoriy (normativ) shaklidir*. Tenglik (teng o'lchov)ning mavhum - umumiy huquqiy prinsipi nuqtai nazaridan qarab chiqilgan (tartibga solingan) kishilar o'rtasidagi boshlang'ich faktik farqlar oqibatda ega bo'lingan huquqlarda notenglik (turli individlar - huquq subyektlarining huquqlari mazmuni va hajmiga, ular strukturasi bo'yicha teng bo'lmagan) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Huquq tenglik prinsipiga asoslangan munosabatlar shakli sifatida, albatta, turli individlar o'rtasidagi boshlang'ich farqlarni yo'qotmaydi (va yo'qota olmaydi), biroq faqat bu tafovutlarni yagona asos bo'yicha formallashtiradi va tartiblashtiradi, nomuayyan faktik farqlarni, erkin, birbiriga bog'liq bo'lmagan, teng shaxslarning formal-aniq noteng huquqlariga transformatsiya qiladi. Ijtimoiy munosabatlarni ifodalash, tartibga solish va boshqarishning huquqiy shaklini qiymati va chegaralari (cheklanganligi ham), mazmuni va xususiyati ham mohiyatiga ko'ra ana shundan iborat.

Huquqiy tenglik va huquqiy notenglik (huquqdagi tenglik va notenglik) - bir xil ahamiyatli (bir-birini taqozo qiluvchi va to'ldiruvchi) huquqiy tushunchalar va xususiyatlar bo'lib, bir xil darajada faktik farqlarga qarama-qarshi turadilar va ulardan farq qiladilar ham. Turli subyektlarning huquqiy tengligi prinsipi ular tomondan qo'lga kiritiladigan real subyektiv huquqlar noteng bo'lishini taqozo etadi. Huquq tufayli farqlar tartibsizligi yagona asos va umumiy norma bo'yicha muvofiqlashtirilgan tenglik va notenglikning huquqiy tartibiga qayta o'zgartiriladi.

Turli individlarni formal teng deb tan olish - bu ularning teng huquq layoqatliligini, muayyan ne'matlar, konkret obyektlarga bo'lgan u yoki bu huquqlarga ega bo'lish imkoniyatlarini tan olishdir, biroq bu individual-aniq buyum, ne'matlarga bo'lgan qo'lga kiritilgan konkret huquqlarning tengligini anglatmaydi. Formal huquq - bu faqat huquq layoqati, ushbu obyektga nisbatan o'zining individual-muayyan huquqini huquqiy tartibga solishning umumiy masshtabi va teng o'lchoviga muvofiq qo'lga kiritishning mavhum erkin imkoniyatidir.

Turli insonlarning formal tengligi va teng huquq layoqati mavjudligi sharoitida ular tomonidan real qo'lga kiritilgan huquqlar muqarrar ravishda (insonlarning o'zlari, ularning real imkoniyatlari, ular turmushining sharoitlari va holatlari o'rtasidagi farqlar tufayli) noteng bo'ladi:

huquqning birdek masshtabi va teng me'yori bilan o'lchanadigan va baholanadigan hayotiy farqlar natijasida konkret subyektga shaxsan tegishli (bu ma'noda – subyektiv), qo'lga kiritilgan huquqlardagi farqlarga olib keladi. Turli shaxslar tomonidan qo'lga kiritilgan huquqlardagi bunday farq bu shaxslarning formal (huquqiy) tenglik prinsipi, ularning teng huquqiy layoqatini buzilishini emas, balki rioya etilishining zaruriy oqibati hisoblanadi. Qo'lga kiritilgan huquqlardagi farq formal (huquqiy) tenglik prinsipini buzmaydi va bekor qilmaydi.

Misol tariqasida uch turli vaziyatni taqqoslaymiz. Birinchi vaziyatda er uchastkasi yoki ustaxonani shaxsiy egalikka olish huquqiga faqat ba'zi shaxslar (kapitalizmga bo'lgan vaziyat), ikkinchi vaziyatda - hamma (kapitalistik vaziyat) ega, uchinchi vaziyatda - hech kim maxsus tartibda (sotsialistik vaziyat) ega emas. Birinchi va ikkinchi vaziyatlarda tegishli huquqga ega bo'lgan barcha shaxslar, ular aslida tegishli obyektlarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritdilar-mi-yo'qmi, muayyan yer uchastkasi, ustaxonaning real egalari bo'ladilar-mi yoki yo'qmi - bularga bog'liq bo'lmagan holda, teng hisoblanadilar, teng huquq layoqatiga ega bo'ladilar. Albatta, birorta narsani sotib olish, birorta harakatni bajarishga bo'lgan huquqga ega bo'lish bir masala bo'lsa, bunday formal, mavhum-huquqiy imkoniyatni amalga oshirish va muayyan boylikka bo'lgan real huquqni qo'lga kiritish boshqa masaladir. Huquq - bu faqat turli insonlar uchun teng bo'lgan turli buyumlar, predmetlar, ne'matlarga bo'lgan huquqlarni qo'lga kiritishning formallashgan yo'lidir, biroq barcha bunday buyumlar va ne'matlarni barchaga teng miqdorda tarqatish emas.

Biroq yagona asos va umumiy masshtab bo'yicha tafovutlarni huquqiy tartibga solishda aynan munosabatlarning mazkur huquqiy shakli taalluqli barcha shaxslarning formal (huquqiy) tengligi va erkinligini tan olish mavjud. Masalan, ikkinchi vaziyatda barcha formal teng va erkin, garchi tegishli obyektlarga nisbatan real o'zlashtirilgan huquqlar turli shaxslarda turlicha bo'lsa ham. Birinchi vaziyatda huquqiy tenglik va erkinlikning tegishli sohasi faqat ba'zilar uchun ochiq; qolganlarda tegishli huquq (huquq layoqati)ning yo'qligi ularda formal (huquqiy) tenglik va erkinlikning tan olin-masligini anglatadi.

Uchinchi vaziyatda ishlab chiqarish vositalari sifatida bunday obyektlarga nisbatan individual mulkchilik huquqiga hech kim umuman ega bo'lmaganligi (huquq layoqatining, real qo'lga kiritilgan huquqning yo'qligi) sababli birinchi vaziyatdagi huquqiy imtiyozlar ham, tegishli obyektlarga nisbatan huquqlardagi farqlar ham bo'lmaydi. Individda muayyan huquqning bo'lmasligi - bu shu bilan birga tegishli individual

erkinlikning bo'lmashligi hamdir. Qarab chiqilgan munosabatda individlarning formal tengligi va erkinligining huquqiy prinsipi umuman yo'q va jamiyat uchinchi vaziyatda huquq subyektlari - individlarda konkretlashtirilmaydi. Ijtimoiy (shu jumladan xo'jalik) munosabatlari bu erda boshqa (nohuquqiy) vositalar va normalar bilan tartibga solinadi.

Huquqiy tartibga solishning maxsus prinsipi sifatida tenglikning namoyon bo'lish shakllari ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadi. Yuridik libertarizm - bu huquqni tenglik, shaxsning erkinligi va adolat prinsiplarining ifodasi deb tushunishdir.

Tenglik - formal tenglik.

Huquq - bu insonlarning ijtimoiy munosabatlardagi formal tengligi prinsipi orqali ular erkinligining normativ shakldagi ifodasi. Formal huquqiy tenglik formal faktik tenglikka olib kela olmaydi. Legistlar qonun bilan huquqni bir hodisa deb tushunishadi, yusnaturalizm esa, huquqni tabiiy va pozitivga bo'ladi va ular o'rtasida nazariy masalalarda qarama-qarshilik mavjud.

Libertar yondoshuv esa, bu ikki yo'nalishga tanqidiy qaragani holda, ayni paytda ularning qarashlaridagi ijobiy jihatlarni mutlaqo inkor etmaydi. Shunday qilib, libertar nazariya huquq bilan qonunni bir-biridan farqlash - ular o'rtasidagi nisbat va munosabatning mazmun va mohiyatini to'g'ri anglashning asosi deb talqin etadi va bunday yondoshuv huquq va qonunning kutilgan shaklda huquqiy qonunga aylanishiga olib keladi, deb hisoblaydi.

Demak, bu nazariya huquqiy qonunlar qabul qilinishi uchun, avvalo, huquq bilan qonun o'rtasidagi farqni bilish, anglash shartligini ta'kidlaydi.

5. Huquq va qonunni farqlash

Huquq va qonunning o'zaro nisbati to'g'risidagi masala huquq paydo bo'lishi bilanoq paydo bo'lgan deyish mumkin. Bu masala to'g'risida qadimgi dunyo mutafakkirlari Demokrit, Suqrot, Platon, Arastu, Epikur, Sitseron, sofistlar va rim yuristlari fikr bildirganlar va hozirda ham u muhim masala bo'lib qolmoqda.

Aytish joizki, huquq va qonun o'rtasidagi tafovut haqida fikr yuritilganda "qonun" degan tushuncha, odatiy tushunchamizdan, kengroq, ya'ni oliy hokimiyat organi akti va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan manba deb tushunishdan boshqacha talqin etiladi. Bunda "qonun" deganda uni maxsus, qat'iy ma'noda tushunilmay, balki yuridik normalarning barcha

rasmiy manbalari tushuniladi (qonunlar, farmonlar, qarorlar, sud pretsedentlari, sanksiyalangan odatlar va b.).

Huquq va qonunni ajratish masalasidagi konsepsiyalar ichidan ikkitasini ko'rsatish mumkin:

1. Bunda huquq davlat hokimiyatining ijodi tarzida tushunilib, mazmunidan qat'iy nazar barcha huquq normalari manbalari huquq deb tan olinadi (Shershenevich G.F.).

2. Tegishli subyekt tomonidan va tegishlicha tartibda qabul qilingan qonun ham huquqiy mazmunga ega bo'lmasligi, nohuquqiy qonun bo'lishi va siyosiy o'zboshimchalikni o'zida ifodalashi mumkin degan fikr ilgari suriladi. (Nersesyans V.S.).

Huquq va qonunning farqlanishi borasida yirik tadqiqotchi V.S.Nersesyansning ta'kidlaganidek, faqat huquqiy qonungina huquq deb tan olinishi mumkin: "Amaldagi qonunchilik normalari qachonki ularda individlarning formal tengligi prinsipi mustahkamlangan, normativ tarzda ifodalangan va amal qilgandagina huquqiy bo'ladi". Bu murakkab masalaning hal etilishida bir tomondan, jamiyat, davlat va huquqning o'zaro munosabati va nisbati masalasidan, ikkinchi tomondan esa, shakl va mazmun o'zaro aloqasining umum-falsafiy qonuniyatlaridan kelib chiqish kerak.

Ma'lumki, huquq va davlat ijtimoiy taraqqiyotning mustaqil mahsuli, natijalari hisoblanadi. Huquqning tashkil topish jarayoni ham davlatdan mustaqil holda kechadi. Huquqning paydo bo'lishi dastlab jamiyatda, uning "bag'ri"da kechadi va o'zini barqaror, qaytarilib turadigan ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor, harakat tarzida namoyon etadi va jamiyatning huquqiy intilishi, talabi (prityazanie) tarzida shakllanadi va ijtimoiy ong bilan mustahkamlanadi, hisobga olinadi. Davlatning vazifasi esa, jamiyatning bu talablarini vaqtida aniqlash va adolat asosida ularni qonun darajasiga ko'tarish, ya'ni rasmiy manbalarda umummajburiy xatti-harakat qoidalari tarzida rasmiylashtirish hisoblanadi.

Shunday qilib huquq shakl va mazmun birligi sifatida jamiyat va davlatning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi: huquqning mazmuni (xatti-harakat qoidalari, huquqning informativ jihatlari) obyektiv ravishda, ijtimoiy jarayonlar ta'siri ostida vujudga keladi, davlat esa, unga rasmiy shakl beradi.

Huquq va qonunni farqlashda bir jihatga, ya'ni huquqiy shakl doirasida nohuquqiy mazmunning mavjud bo'lishi mumkinligiga e'tiborni qaratmoq zarur. Shu o'rinda "umuman huquq u yoki bu ob'ektivlashgan shakldan tashqarida mavjud bo'lishi mumkinmi?" degan savol tug'ilishi

tabiiy, huquq o'zining shakligacha va o'z shaklidan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Zero, huquqning xususiyatlari to'g'risidagi hozirgi zamon qarashlariga ko'ra, "tabiiy huquq" deb atalgan hodisa, aslida tabiiy-ijtimoiy asoslarni anglatadi va u yuridik qoidalar mazmunini aniqlashi lozim, biroq tom asl ma'nodagi huquq hisoblanmaydi.

Nersesyansning ta'kidlashicha, tabiiy va pozitiv huquqni farqlash - qonun va huquq o'rtasidagi nisbatning bir elementi, xolos. Shu bois hozirgi kunda huquq va qonunni farqlash muammosining mohiyati tabiiy va pozitiv huquqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki pozitiv huquqning mazmuni va shakli o'rtasida muvofiqlik o'rnatishdan iboratdir.

Shu nuqtai nazardan huquq va qonun o'rtasidagi nisbatga tavsif berishda asos bo'ladigan holatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Huquq va qonunni bir-biridan farqlash lozim. Shu bois, qonun (normalarning rasmiy manbalari) huquqning ifodalanish shakli, huquqni tashqi obyektivlashtirishdir, huquq esa, bu shakl va mazmunning birligidir;

2. Huquq qonungacha va qonundan tashqari mavjud bo'la olmaydi. Shakl - bu huquq mavjudligining usuli, vositasi. "Barcha hozirgi zamon huquq tizimlariga qonunchilik mundiri kiygizilgan"(prof. Mushinskiy);

3. Qonun nohuquqiy mazmunga ega bo'lishi, ya'ni mazmunsiz, quruq, "nohuquqiy qonun" bo'lishi mumkin. Qonunning mazmuni huquqiymi yoki nohuquqiymi - bu masala tabiiy-huquqiy asoslar yordamida, ham mazkur jamiyatning konkret-tarixiy mavjudligi sharoitlaridan kelib chiqqan holda hal etiladi¹.

Bunday yondoshuv shakl va mazmun birligining umumiy qonuniyatlariga javob beradi.

1 Батафсил қаранг: Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М., «Новый юрист» -1999. 240 с.; Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсесянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.

7. Yuridik ontologiya, gnoseologiya va aksiologiya muammolari

Yuridik ontologiya, gnoseologiya va aksiologiyaning ichki birligi shu bilan belgilanadiki, uning asosida bir prinsip - formal tenglik prinsipi yotadi, bu prinsip yuridik ontologiya (huquq nima?), aksiologiya (huquqning qadr-qimmati nimada?), gnoseologiya (huquq qanday o'rganiladi?) uchun boshlang'ich asos sifatida tushuniladi va izohlanadi.

Ontologiya nuqtai nazaridan "huquq nima?" degan savolga "Huquq umumiy mavhum teng o'lchov, formal erkinlik va adolatlilik komponentlarini o'z ichiga olgan formal tenglikdir" deb javob beramiz. Huquq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy shakli sifatida ontologiya nuqtai nazaridan huquqning ushbu formal xususiyatlari - tenglik, erkinlik va adolatlilikning majmuidir.

Bunda faktik munosabatlarning huquqiy shakli bo'lgan huquqni huquqiy shakl va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning faktik mazmuni bilan, faktik munosabatlarning o'zi bilan aralashtirib yuborish mumkin emas. Shu sababli tenglik, erkinlik va adolat - bular faktik emas, balki huquqiy formalliklar, huquqning formal-mazmuniy xususiyatidir.

Ontologik, aksiologik va gnoseologik munosabatlarda, mavhum-umumiy teng o'lchov, erkinlik va adolat faqat ularning formal (formal-huquqiy) ifodalanishi va ma'nosida, ya'ni faqat formal tenglik prinsipining umumiy ma'nosini ifodalash va namoyon bo'lishining alohida shakli sifatidagina huquqni yagona, ichki uzviy bog'liq tushunishni shakllantirish hisoblanadi.

Gnoseologik jihatdan bu konsepsiya huquqning muayyan tushunchasi ko'rinishidagi qonun (pozitiv huquq) haqidagi bilimlar va haqiqatni ifodalash, nazariy jihatdan anglashning zaruriy nazariy bilish namunasidir.

Shunday qilib, bu konsepsiya huquq haqidagi oddiy fikrdan haqiqiy bilimga, huquq haqidagi haqiqatni bilishga, huquqni tushunishga, ya'ni huquqning obyektiv (hokimiyatlar erki va o'zboshimchaligiga bog'liq bo'lmagan) xususiyatlari, tabiati, mohiyati va uning namoyon bo'lishi (adekvat va noadekvat) shakllari haqidagi nazariy bilimga o'tish jarayonini ifodalaydi.

Libertar huquqni tushunishning markazida huquq bilan qonunning aloqadorligi, huquqning obyektiv xususiyatlarini qonunning mohiyat xususiyatlari va huquqiy sifat mezonlari sifatida tushunish va izohlash muammolari, huquqiy qonun (va qonuniy huquq) tushunchalarini ishlab chiqish masalalari turadi. Bunday yondoshuvda huquq bilan qonun haqidagi axtarilayotgan haqiqat bo'lib, huquqiy qonunning tabiati,

xususiyatlari va tavsiflari haqidagi, uni harakatdagi huquq sifatida tasdiqlanishining shart-sharoitlari haqidagi obyektiv ilmiy bilim hisoblanadi.

Bunday yuridik-gnoseologik yondoshuv o'z tabiatiga ko'ra obyektiv bo'lgan huquqning shakllanish jarayoni bilan qonunning shakllanish subyektiv (hokimiyat erki bilan bog'liq) jarayonining farqi va nisbatini aniqlashga va huquqni pozitivlashtirishning formal tenglik huquqiy prinsipini huquqiy tartibga solishning aniq sohalari va obyektlariga nisbatan normativ konkretlashtirishning ijodiy jarayoni sifatida tahlil qilishga imkon beradi. Va faqat shu ma'nodagina qonun ijod etish sifatida qonunchilik haqida gapirish mumkin.

Yuridik-libertar aksiologiyaga ko'ra, harakatdagi (pozitiv) huquq bilan real mavjud davlatning qadr-qimmatini yagona asos va mezon bo'yicha, aynan huquqiy qadriyatlardan kelib chiqish nuqtai nazaridan, belgilanadi. Bu erda gap axloqiy, diniy va boshqa nohuquqiy qadriyatlar haqida emas, balki aynan huquqiy qadriyatlar (ularning formal-yuridik mazmuni va tushunchalari) haqida boradi. Chunki, faqat shu tarzda muayyan huquqiy qadriyatlar - huquqning mavhum umumiyligi (formal-tenglik prinsipi, munosabatlarning huquqiy shakli) tufayli - mutlaq va umumahamiyat kasb etadi. Huquq bu bilan o'zining aksiologik o'lchovida aynan huquqiy qadriyatlarning qat'iy muayyan shakli, lozim bo'lishlikning boshqa shakllari (axloqiy, diniy)dan farq qiluvchi huquqiy lozim bo'lishlikning maxsus shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Libertar konsepsiyada gap qonun bilan mavjud real davlatning mazmuni va ahamiyatini huquq pozitsiyasidan baholash haqida, ularning huquqiy sifati haqida, ularning lozim darajadagi qadriyat sifatidagi huquq talablariga, maqsadlariga, imperativlariga mos kelishi haqida boradi. Bunda huquq qonun(pozitiv huquq) bilan davlat uchun maqsad sifatida namoyon bo'ladi, qonun (pozitiv huquq) bilan davlat huquqning talablarini mujassam etishga va amalga oshirishga yo'naltirilish lozimligini bildiradi. Qonun (pozitiv huquq) va davlat faqat huquqiy hodisalar sifatidagina qiymatga ega. Ular huquqqa qanchalik daxldor bo'lsalar, qanchalik huquq maqsadlarini ifodalasalar va amalga oshirsalar, shunchalik huquqiy ma'no kasb etadilar va huquqiy voqelik sanaladilar. Shunday qilib, libertar yuridik aksiologiya konsepsiyasiga ko'ra, qonun (pozitiv huquq) bilan davlatning qiymati ularning huquqiy mazmun va ahamiyat kasb etishidan iborat. Qonun (pozitiv huquq) bilan davlatga nisbatan shart bo'lgan huquqning maqsadini quyidagi qoida tarzida ifodalash mumkin: qonun (pozitiv huquq) va davlat huquqiy bo'lishi lozim.

8. Libertar huquqni tushunish sharoitida huquqiy tartibga solishning xususiyatlari

Huquq mohiyatiga ko`ra, bu - formal tenglik. Huquqiy tenglik prinsipining ma'nosini konkretlashtirish bo'yicha huquq tushunchasiga berilgan turli ta'riflar huquqning birdan-bir yagona mohiyatini ifodalaydi. Bunda bu ta'riflarning har qaysisi huquqiy tenglik prinsipining umumiy ma'nosiga taalluqli boshqa ta'riflarni ham taqozo etadi. Bundan quyidagi tashqi farqlanuvchi ta'riflarning ichki mazmun jihatdan teng qiymatga ega ekanligi kelib chiqadi, ya'ni: huquq - bu formal tenglik; huquq - bu ijtimoiy munosabatlarda insonlar erkinligining umumiy va zaruriy shakli; huquq - bu umumiy adolatlilik va h. Bunda umumiy formal tenglik o'lchovi, shuningdek, erkinlik va adolatlilikni taqozo etadi va, aksincha.

Huquqning bu ta'riflari uning obyektiv, mohiyatiy xususiyatlari orqali yaxlit tarzda huquqning tabiatini, ma'nosi va o'ziga xosligini ifodalaydi. Huquqning bu obyektiv mohiyat xususiyatlari uning qonundan farqlanishi bilan bog'liq, ya'ni ular qonun chiqaruvchining erkiga bog'liq emas, huquqiy hodisa sifatidagi qonunga qiyoslaganda mantiqan undan avval mavjud bo'ladi va huquqiy qonunning muhim xususiyati sanaladi.

Huquqning yuqoridagi qator ta'riflariga huquqni pozitivlashtirish jarayonida, uning qonun ko'rinishida ifodalanishida yana bir xususiyat, yangi ta'rif - muayyan vaqtda va muayyan ijtimoiy makonda qonun sifatida rasman tan olinadigan va o'rnatiladigan hokimiy umummajburiylik xususiyati kelib qo'shiladi.

Biroq qonun (pozitiv huquq) huquqqa mos kelishi ham, zid kelishi ham mumkin, bir tomondan, huquqni ham, ikkinchi tomondan, nohuquqiy mazmundagi talablar, ruxsat berishlik va man etishlikni ham normativ konkretlashtirish va himoyalashning, rasmiy hokimiy tan olishning shakli bo'lishi mumkin. Faqatgina huquqni ifodalanish shakli sifatidagina qonun (pozitiv huquq) huquqiy voqelik bo'lib hisoblanadi. Bunday qonun tufayli huquqiy tenglik (u bilan birga erkinlik teng o'lchovining umumiyligi ham) davlat-hokimiy, umummajburiy tan olinadi va himoya qilinadi, qonuniy kuchga ega bo'ladi. Qonun faqat huquqning obyektiv shakllangan xususiyatlarini ifodalanish shakli sifatidagina huquqiy qonunga aylanadi. Huquqiy qonun – rasmiy tan olingan, konkretlashtirilgan va himoyalangan, qonuniy kuchga kirgan huquqdir, ya'ni huquqning obyektiv xususiyatlariga ega bo'lgan pozitiv huquqdir.

Huquqni “pozitivlashtirish”, uni qonunga aylanishining haqiqiy jarayoni huquqning obyektiv xususiyatlari va talablarini e’tiborga olishning zarurligi bilan bir qatorda boshqa ko’p obyektiv va subyektiv omillar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy omillar, qonun ijod etish) ga ham bog’liq. Va qonunning huquqqa zidligi tuzum tomonidan huquqni inkor etish, qonun chiqaruvchining huquqqa zid pozitsiyasi yoki turli xatolar va yanglishishlar, past darajadagi huquqiy va qonun ijod etish madaniyatining oqibati bo’lishi mumkin.

Huquqqa zid qonunga qarshi kurashda erkinlik, huquq va davlat-chilikning tarixiy rivojlanishida qonun yaratish faoliyati (huquqni “pozitivlashtirish” jarayoni) ning ham, qonunning huquqqa zidligi ustidan obro’li, samarali nazorat (turli hokimiyatlar o’rtasidagi tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimi, qonunning huquqiy mazmuni ustidan umumiy sudlov, konstitutsiyaviy sudlov, prokuror nazorati) ning maxsus institutlari, tartiblari va qoidalari qaror topgan. Qonun (pozitiv huquq)ning umummajburiylik xususiyatida ikki farqlanuvchi, biroq o’zaro aloqador jihat - rasmiy-hokimiy va huquqiy jihatlar bor.

Birinchi jihat shundan iboratki, qonun rasmiy hokimiyatning qoidasi sifatida uning tomonidan qo’llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi, qonun buzilganda tegishli davlat sanksiyasi bilan ta’minlanadi. Bunday qarashda qonunning umummajburiyligi - bu faqat hokimiyatning o’z xohishicha ish tutishi, uning buyruqlari, qoidalarining majburiyligi oqibatidek ko’rinadi. Mana shu erda hokimiyatning majburiy ko’rsatmasi, buyrug’i bu huquqdir deb tushunuvchi legizmning ildizlari yotadi.

Ikkinchi jihat shundan iboratki, qonunga umummajburiylik (qonuniy kuch) ning berilishi uning shunchaki qandaydir birorta umummajburiy, biroq huquqqa zid qoida va voqelik bo’lganligi uchun emas, balki faqat aynan huquq sifatida namoyon bo’lishi bilan bog’liq. Qonun u faqat aynan huquq sifatida namoyon bo’lganligi bois umummajburiylikka (qonuniy kuchga) ega bo’ladi, shunchaki qandaydir umummajburiy va huquqiy bo’lmagan qoida (voqelik) bo’lgani uchun emas. Chunki, hokimiyatlar (va legistlar) faqat qonunning umummajburiyligi haqida gapirib qolmay, shu bilan birga uni huquq deb ham ta’kidlaydilar.

Qonunning o’zini huquq deb sanalishiga bo’lgan bunday talabi (intilishi)da shunday prinsipial holat namoyon bo’ladiki, qonun (pozitiv huquq)da huquqning mohiyatidan farqli bo’lgan o’zining xususiy mohiyati yo’q. Hokimiyatning umummajburiy qoidalari va hujjatlari haqida shuni aytish kerakki, ularga oid xususiy nomlar va yagona umumiy nomlanish yo’q, shu sababli ular “huquq” so’ziga turli sifat belgilarini qo’yish orqali

nomlanadilar (masalan, “pozitiv” huquq, “amaldagi” huquq, “rasmiy” huquq, “o`rnatilgan” huquq va h.). Qonunning huquqiy tabiati va mohiyatini tan olish pozitsiyasidan shu narsa aniqki, umummajburiy kuchga faqat huquqiy qonungina ega bo`lishi kerak. Aks holda huquqiy mohiyatning yo`qligini, kuch va zo`rlik vositasida har qanday o`zboshimchalikni huquqqa aylantirish mumkinligini tan olishga to`g`ri keladi. Biroq, huquqning obyektiv tabiati u inkor qilinadigan yerda ham namoyon bo`lishi mumkin: hatto tiraniya, despotiya, totalitar mohiyatga ega hujjatlar ularning mualliflari va nazariyotchilari tomonidan “huquq” “adolat” sifatida targ`ib qilingan.

Huquq tushunchasi bilan qonun shaklini huquqqa zid maqsad-larda suiiste'mol qilish imkoniyatlari, tabiiyki, huquqning insonlar ijtimoiy hayotida amal qilishi va uni ifodalashning zaruriy umummajburiy shakli sifatida o`z tabiatiga ko`ra huquqiy hodisa bo`lgan qonunning roli va ahamiyatini kamaytirmaydi.

Bu erda ikki tomonlama vazifaning birligi shundaki, faqat huquqgagina qonuniy kuch beriladi va shu bilan birga qonun faqat va doimo huquqiy bo`lishi kerak.

Huquq bilan qonunning nisbatida va farqlanishida qonunning umummajburiyligi uning huquqiy tabiati bilan belgilanadi va huquq obyektiv xususiyatlarining umumahamiyat kasb etishi oqibati, ijtimoiy ehtiyojning va tegishli rasmiy hujjatlar va qoidalarda huquq prinsiplari va talablariga majburiy rioya etish, konkretlashtirish va himoyalash zaruriyatining ko`rsatkichi hisoblanadi. Va aynan shuning uchun ham, mantiq qoidasiga ko`ra, huquq - bu rasmiy-hokimiy umummajburiylikning natijasi emas, balki, aksincha, bu majburiylik - huquq(huquqning umumahamiyatli ijtimoiy ma'nosini ifodalashning davlat-hokimiy shakli)ning oqibatidir. Bunday umummajburiylik huquqning yana bir zaruriy ta'rifi sifatida chiqadi (aynan qonun ko`rinishidagi huquq).

Huquqning obyektiv xususiyatlarini aks ettiruvchi uning boshlang`ich ta'riflari bilan mazkur qo`shimcha ta'rif o`rtasidagi asosiy farq shundaki, huquqning obyektiv xususiyatlari qonun chiqaruvchining erkiga bog`liq emas, huquqning obyektiv tabiati bilan anglashilinuvchi huquqiy qonunning umummajburiyligi esa, qonun chiqaruvchining erkiga va qator obyektiv sharoitlarga (jamiyatning rivojlanish darajasi, huquqiy qonunlarni paydo bo`lishi va amal qilishi uchun zarur obyektiv sharoitlarning mavjudligi va b.) ham bog`liq. Huquqning qonunga mos kelishida huquqning barcha aytilgan ta'riflari(huquqning qonundan farqlanishi va huquqning qonunga muvofiq kelishi) substansional ahamiyatga ega,

huquqiy qonun mohiyatining turli jihatlarini ochib beradilar, umumiy yagona tushuncha tarkibiga kiradilar.

Pozitiv huquq (huquqiy qonun) umumiy tushunchasining eng qisqa ilmiy ta'rif o'z ichiga kamida ikki ta'rifni olishi kerak: birinchisi - huquq bilan qonunni farqlovchi ta'rif, ikkinchisi – huquqning qonunga mos kelishini belgilovchi ta'rif. Huquqning obyektiv talablariga mos keluvchi pozitiv huquq (qonunning huquqqa mos kelishi) deb formal tenglik normalarining umummajburiy tizimiga, qonuniy kuchga ega erkinlikning teng o'lchovi (shakli, normasi, prinsipi)ga, qonun kuchiga ega adolatlilikka aytiladi. Sodaroq aytganda, huquq formal tenglik prinsipiga mos keluvchi rasman o'rnatilgan va davlat himoyasi bilan ta'minlangan normalar tizimidir.

Mazkur ilmiy ta'rif (definisiya)lar umumiy xarakter kasb etadi va pozitiv huquqning barcha tiplari va tizimlari (hozirgi zamon va o'tmishdagi ichki davlat va xalqaro huquq tizimlari)ga tarqaladi, faqat bu nisbiy bo'lib, ular huquqning obyektiv tabiati va talablariga qanchalik mos kelishi e'tiborga olingan holda yuz beradi, ya'ni ular o'zboshimchalikni emas, balki haqiqatan ham huquqni ijobiylashtirishni e'tiborga olishlari nuqtai nazaridan ifodalaydilar. Shu sababli mazkur ilmiy ta'riflar amaldagi turlicha pozitiv huquq tiplari va tizimlarining huquqiy sifatini tekshirish va baholashda gap haqiqatan ham huquqni pozitivlashtirilishi haqida ketayaptimi-yo'qmi yoki huquq va qonun shakllari tiraniya, despotiya, totalitarizmning majburiy qoidalarini va o'zboshimchalikni yashirish uchun huquqqa zid maqsadlarda foydalanayotganligini aniqlashda o'lchov va mezon bo'lib hisoblanadimi?

Huquqni tushunishning libertar formal-yuridik konsepsiyasi huquqning obyektiv mohiyatini xususiyatlarini ochishga imkon beradi-ki, ularning qonunda mavjudligi uni qonuniy voqelik, ya'ni huquq mohiyatiga mos keluvchi voqelik, huquqiy mohiyatning tashqi namoyon bo'lishi va amalga oshirilishi sifatidagi jihat deb xarakterlashga imkon beradi. Qonun (pozitiv huquq)ni huquqiy voqelik sifatida tushunish o'z ichiga qonunning umummajburiyligi muammolarini, uning davlat himoyasi bilan ta'minlanganligi, huquqbuzarlarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash imkoniyatini oladi. Qonun (pozitiv huquq) sanksiyalarining bunday o'ziga xosligi yuridik gno-seologiyaga ko'ra, qonun chiqaruvchining erki (o'zboshimchaligi) bilan emas, balki huquqning obyektiv tabiati (uning umumahamiatliliigi) bilan belgilanadi.

Huquqning obyektiv umumahamiat kasb etishi davlat tomonidan tan olinishi, normativ konkretlashishi va himoya qilinishi umumiy

zaruriyati (rasmiy-hokimiy umummajburiylik bilan to'ldirilishi) ni shu bilan birga huquq bilan davlatning zaruriy bog'liqligini ifodalaydi. Yuridik-libertar huquqni tushunishga ko'ra, davlat umumahamiyatli huquqni tegishli sanksiyaga ega umummajburiy qonun darajasiga ko'tarish uchun, huquqiy qonunni joriy etish va himoyalash uchun zarur bo'lgan huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondoshuvga ko'ra, majburlov faqatgina huquqiy qonunda nazarda tutilgan davlat sanksiyasi shaklidagina huquqiy bo'ladi.

Libertar-yuridik nazariyaga ko'ra, davlat va huquq - ijtimoiy hayotda insonlar erkinligining mavjudligi, tegishli normativ institusional tan olinishi, ifodalanishining umumiy va zaruriy shakllaridir. Erkinlik (individlarning erkinligi) tarixan ibtidoiy jamiyatning parchalanishi va uning ozod kishilar va qullarga bo'li-nishi jarayonida paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatdagi hokimiyat institutlari va normalar o'rniga kelgan davlat va huquq bu erkinlikni xususiy va ommaviy-hokimiy munosabatlarda individlarning huquq layoqatliligi ko'rinishida normativ va institusional tan olish, ifodalash va himoyalashning zaruriy (va hozirga qadar birdan-bir yagona) shakli hisoblanadilar. Erkinlikning butun jahon tarixiy jarayoni (qullikdan feodalizmga va kapitalizmga, so'ng postsotsialistik va postkapitalistik sivilizmga o'tish) bir vaqtning o'zida bu erkinlikning mavjudligi, mustahkamlanishi va amalga oshirilishining zaruriy huquqiy va davlat shakllari taraqqiyoti hamdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Huquqni tushunishdagi plyuralizm sabablari
2. Legizm va uning mohiyatini tavsiflang
3. Yuridikalizm va uning mazmunini yoritib
4. Yuridik libertarizmning mazmuni va mohiyati
5. Huquq va qonunni farqlashning ahamiyati
6. Huquqiy qonun tavsifi
7. Yuridik ontologiya, gnoseologiya va aksiologiya ahamiyati
8. Libertar huquqni tushunish sharoitida qonun ustuvorligi tamoyili

6-MAVZU. IJTIMOIIY TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA HUQUQ

REJA:

1. Ijtimoiy tartibga solishning obyektiv zarurligi
2. Normativ tizim tushunchasi va tizimi
3. Huquq tushunchasi, mohiyati, belgilari
4. Huquq prinsiplari va funksiyalari
5. Huquq to`g`risidagi nazariyalar

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2004. 40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
4. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайдими. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
5. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат 2001. 695 с.
7. Исламов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. Т.: ТДЮИ нашри. 2004. 139 б.
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 188 б.
9. Нерсисянц В.С. Ҳуқуқ фалсафаси. қисқача ўқув қўлланма. Мас. мух. ю.ф.д., проф. А.Х.Саидов. Т.: Адолат. 2003. 280 б.
10. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
11. Проблемы теории государства право: Учебное пособие. Под ред.М.Н.Марченко. -М.: Юрист, 2004. 656 с.
12. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М.: НОРМА. 2000.-233 с.

13. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. М: Статут. 1999.-810 с.
14. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
15. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. Вопросы и ответы. М., «Новый юрист» -1999.240 с.
16. 18.Ахмедшаева М. Нажимов М. Ҳуқуқ нима? Ўқув қўлланма. Т.:ТДЮИ нашри. 2004. 46 б.
17. Саидов А.Х., Таджиханов У.Т.. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2 томлик. – Т.: Адолат. 1-том.
18. Бобоев Х. Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. Т. Адолат. 2001.
19. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. Т.: Шарқ, 2002.
20. Кельзен Г. Чистое учение о праве. М.: Прогресс, 1988.
21. Нерсисянц В.С. Философия права. М.: Инфра-Норма, 1997.
22. Алексеев С.С. Право. М.: Статут, 1999.
23. Проблемы теории государства и права. М.: Юрайт, 2001.
24. Рустамбоев М.Ҳ.Абдухолиқов С.О. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 316 б.
25. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О.Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. Т.: ТДЮИ нашри.2005. 404 б.
26. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Ijtimoiy tartibga solishning obyektiv zarurligi

Ma'lumki, ijtimoiy hayot, jamiyat millionlab odamlarning oilaga, mehnat jamoasiga, hududiy tuzilmalarga, sinflarga, ittifoqlarga birlashgan, jamiyatning individual-yakka a'zolarining o'zaro harakati va o'zaro munosabatlaridan iboratdir. Shu ma'noda jamiyat kishilarning o'zaro xatti-harakatlari mahsulidir. Ko'z oldimizda son-sanoqsiz o'zaro munosabatlar amalga oshadi. Ularning hajmi, davomiyligi, mazmuni ham turlicha. Qisqasi jamiyat minglab, millionlab o'zaro munosabatlarning makoni bo'lib, ayni paytda bu munosabatlar muayyan, real ehtiyojlardan kelib chiqadi. Jamiyat a'zolari, ijtimoiy hayot qatnashchilari, ya'ni

individuumlar o`rtasida, ularning ijtimoiy birliklari o`rtasidagi barcha munosabatlar, o`zaro harakatlar majmui ijtimoiy munosabatlarni tashkil etadi va ularni ijtimoiy normalar tartibga soladi.

Har bir inson jamiyatda amal qiluvchi normalar va ular asosida o`z hayotini tashkil qilish haqida tasavvurga ega bo`lishi kerak. Turli ijtimoiy normalarni o`rganish, o`zlashtirish va qo`llash sotsializasiya, ya`ni ijtimoiylashuv deb ataladi. Indivud jamiyatdagi hayot haqidagi birinchi tasavvurlarini ota-onasi va oiladagi yaqinlaridan oladi. Maktabgacha bo`lgan muassasalarda va maktabda bolalarni normalar, an`analalar, qadriyatlar bilan tanishtiradilar, boshqa insonlarning hayot tarzi maxsus o`rgatiladi. Ijtimoiy muhitga, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishish jarayoni adaptasiya hisoblanadi. Adaptasiya muayyan maqsadlarga erishish uchun birgalikda faoliyat ko`rsatish jarayonida kishilarning muloqotga, o`zaro munosabatga kirishishi natijasida amalga oshadi.

Inson turli guruh, jamiyatlarda qatnashib ijtimoiy tajriba orttiradi, shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs - madaniy normalarni bilish asosida harakat qiluvchi individ, u jamiyatda o`z mavqeini tushunadi, boshqa odamlar orasidagi o`z o`rnini anglab etadi.

Insonning ijtimoiylashuvini sxematik tarzda uning oilada boshlanib, so`ng jamiyatda va davlatda amalga oshadigan hayot yo`li deb tushunish kerak. Eng muhimi va ahamiyatli, boshqa hech narsa bilan almashtirib bo`lmaydigan qadriyatlardan biri bu insonlarning o`zaro muloqot, umumiy munosabatlarda bo`la olish imkoniyatidir. Muloqot jarayonida biz shaxs sifatida shakllanamiz, dunyo va boshqa insonlar haqida tasavvurga ega bo`lamiz va o`zimizni, o`z imkoniyatlarimizni, xarakterimiz xususiyatlarini chuqurroq o`rganamiz.

Insonlarning birgalikdagi hayot kechirish tarzini tartibga soluvchi, yo`naltiruvchi turli-tuman normalar xalqaro bitim (konvensiya)larda, konstitutsiyada, turli tashkilotlar, partiyalar ustavlarida, kodekslar va qonunlarda, axloq qoidalarida, diniy odatlarda, madaniy an`analarda, siyosiy majburiyatlarda ifodalanadi. Ular yordamida jamiyatda muayyan tartib, ierarxiya, ya`ni bir xil munosabatlarning boshqasiga bo`ysunish tartibi joriy etiladi. Normalar bu tartibni ta`minlaydi va millionlab odamlarning birgalikdagi hayotini tartibsizlik, o`zboshimchalikka aylanishiga yo`l qo`ymaydi. Normalar hamma joyda va har doim amal qiladi, ular insonlarning har qanday faoliyatini, ularning o`zaro munosabatga kirishuvini tartibga soladi. Ijtimoiy normalar insonning butun hayoti davomida, ya`ni inson ona vujudida homila sifatida paydo

bo'lganidan boshlab to insonning o'limi bilan bog'liq holatlargacha (masalan, meros munosabatlari yuzaga kelganda) unga hamrohlik qiladi.

2. Normativ tizim tushunchasi va tizimi

«Norma» lotincha «norma» so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, qoida, namuna, standart, me'yor ma'nolarini anglatadi. Normalar turli obyektlar va jarayonlarga: tabiiy, texnik va ijtimoiy sohalarga taalluqli bo'lishi mumkin. Norma u yoki bu obyektning o'z sifatini, mavjud bo'lish qobiliyatini saqlab qolish chegaralarini, me'yorlarini belgilaydi. Insonga bevosita ijtimoiy bo'lmagan normalar ham xos bo'lishi mumkin. Masalan, inson tanasi haroratining normasi.

Yuridik fanda jamiyatda amal qiluvchi normalarni dastavval ikki katta guruhga - ijtimoiy va texnik normalarga bo'lish qabul qilingan. Texnik normalar deganda barcha noijtimoiy normalar tushuniladi. Bular - sof texnik normalardan tashqari, sanitar-gigienik, ekologik, biologik, fiziologik normalar va h.dir

Ular o'rtasidagi tafovut tartibga solish predmetiga qarab aniqlanadi. Ijtimoiy normalar insonlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi, ya'ni ijtimoiy turmushga oid munosabatlarni tartibga solsa, texnik normalar esa, insonlarning tashqi olam, tabiat, texnika bilan bo'ladigan munosabatlari bilan ish ko'radi. Bular «inson va mashina», «inson va mehnat quroli», «inson va ishlab chiqarish» toifasiga oid munosabatlardir.

Bu munosabatlarning o'ziga xos jihati shundaki, ularning ikkinchi tarafida jonsiz predmetlar turadi, shu sababli ular sof ijtimoiy bo'lmagan, yarim ijtimoiy mohiyat kasb etadilar. Texnik normalar tabiiy va sun'iy obyektlar, texnologik jarayonlar va opreasiyalar bilan ishlash usullari, vositalari, ilmiy asoslangan metodlarni belgilab beradi.

Ijtimoiy va texnik normalar predmet belgisidan tashqari o'z mazmun-mohiyati, tuzilishi, qayd etish usuli, umumlashganlik darajasi, shakliy ifodalanishi va boshqa jihatlari bilan ham bir-biridan farqlanadi. Ulardagi umumiy jihat ularning insonlar faoliyati bilan bevosita bog'liqligida bo'lsa, tafovuti esa, tartibga solish obyektlari va usullarida ko'rinadi.

Texnik normalarning ba'zilar huquqiy aktlarda mustahkamlanadilar va shu asnoda yuridik kuchga ega bo'ladilar. Bular texnik-huquqiy normalar bo'lib, moddiy ishlab chiqarish va boshqaruv sohasida uchraydi, masalan, yong'in xavfsizligi qoidalari, barcha transport turlaridan, atom stansiyalaridan foydalanish qoidalari, qurilish ishlarini olib borish, energota'minot, portlovchi va zaharli moddalarni saqlash va tashish, qurol

((yadro quroli) bilan ishlash qoidalari, turli xil davlat standartlari va h., ularning ba'zilarida sanksiyalar ham ko'zda tutilgan.

Kishilar o'zlarining kundalik faoliyati va turmushida ko'plab turli normalar va qoidalarga amal qiladilar. Bular orasida axloq, huquq, siyosiy, estetik, korporativ normalar, diniy odatlar, marosimlar, an'analar, ish ko'nikmalari, etiket talablari uchraydi. **Normalar - bu ijtimoiy muloqot qatnashchilarining xulq-atvori, xatti-harakatining muayyan namunalari, me'yorlari, andozasi, modelidir.** Ijtimoiy normalar – bu odamlarning jamiyatda mavjud bo'lishlik bilan bog'liq xulq-atvori, xatti-harakatining muayyan namunalari, standartlari, modelidir. Bularsiz kishilar turmushini va ayniqsa, murakkab tuzilmalar hisoblangan davlat, jamiyat-ning mavjud bo'lishi mumkin emas.

Yuristlar bevosita kasblari uchun ahamiyatli bo'lgan huquqiy normalar bilan ish ko'radilar. Biroq, huquqiy normalar xususiyatlarini ijtimoiy normalarning mohiyati va rolini bilmasdan turib aniqlash mumkin emas.

Ijtimoiy normalarga quyidagi jihatlar xos:

1. Ijtimoiylik. Ular ijtimoiy sohalarni tartibga soladilar va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) insonlarni;

b) ijtimoiy munosabatlar, ya'ni odamlar va ular birlashma-larining o'rtasidagi munosabatlarni;

v) insonlarning xulq-atvori, xatti-harakatini. Demak, ijtimoiy normalar insonlarning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi xatti-harakatlarini tartibga soladi.

2. Obyektivlik. Jamiyat murakkab ijtimoiy organizm (tizim) sifatida tartibga solishga ehtiyojni taqozo qiladi. Ijtimoiy normalar ijtimoiy zaruriyat tazyiqi ostida tarixan va qonuniyat tarzida shakllanadi. Ular insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xatti-harakatlar, o'zaro ta'sir, muloqotlar va muntazam takrorlanuvchi ijtimoiy aloqalarni me'yoriy ifodalash va umumlashtirish natijasida yuzaga keladilar. Jamiyat nuqtai nazaridan muhim va ahamiyatli bo'lgan insonlar faoliyati bilan bog'liq xatti-harakatlar va munosabatlarni mustahkamlashda va turmushda tatbiq etishga bo'lgan zaruriyat ijtimoiy-normativ jihatdan tartibga solishning muhimligini keltirib chiqaradi.

3. Normativlik. Ijtimoiy normalar umumiy xarakterga ega bo'lib, insonlar xatti-harakatlarini guruhiiy belgiga qarab tartibga soluvchi reguliyator sifatida amal qiladilar. Ular aniq, muayyan shaxsga qaratilgan bo'lmay, balki guruh, toifaga taalluqligiga qarab belgilanadi,

mo`ljallanadi, masalan, yoshiga, aqli rasoligiga qarab, yoki yuridik shaxsning maqomiga qo`yilidigan umumiy talablar va h. Ijtimoiy normalarning normativligi ular harakatining takrorlanishida, muntazamligida, ya'ni qo`llanishi mo`ljallangan muayyan guruhdagi vaziyat, sharoitlar yuzaga kelgan har bir holatda ijtimoiy norma ham amal qila boshlaydi. Ijtimoiy normalar xatti-harakatning umumiy modeli sifatida mazmuniga ko`ra muayyan guruhlarga mo`ljallanadi va belgilanadi.

4. Ijtimoiy normalar insonlarning manfaat va ehtiyojlarini qondirish usullarini, xulqiy faolligi doirasini belgilovchi erki, xohish-irodasining o`lchovidir.

5. Majburiyligi. Ijtimoiy normalar ijtimoiy zaruriyat-ning normativ ifodasi sifatida hamisha u yoki bu darajada majburiy hisoblanadi, buyruq xarakteriga ega.

6. Riya etish tartibining belgilanganligi. Ijtimoiy tartibga solishda ijtimoiy normalarni amal qilishi, qo`llash tartibi va usulini aniq belgilovchi qoidalarining mavjud bo`lishi muhim.

7. Sanksiyalanganligi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda belgilangan ko`rsatmalar, qoidalarini qo`llashni ta'minlovchi mexanizm bo`lishi kerak.

8. Tizimga solinganlik. Ijtimoiy normalarning turlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni yuzaga kelishida, ularning bir tizimga xos sifatlarini shakllantirishdan jamiyat manfaatdor bo`ladi.

Ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solish tizimi deganda jamiyatdagi insonlarning xulq-atvorlarini, xatti-harakatlarini, ularning birlashmalar, jamoalar doirasidagi o`zaro munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy normalar majmuini tushunish kerak. Bu tizimda huquqiy normalar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ma'lumki, huquq ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari oqibatida paydo bo`lgan, bu ehtiyojlar quyidagilardir:

-davlat paydo bo`lgach, kishilar Ma'lum hududlarda yashay boshlashgan, shu bois kishilarning yangi birligi - xalqning o`zaro munosabatlarini yagona tartibini belgilash zarurligi tug`ildi;

-sinflarning shakllanishi, shu sababli ular o`rtasida ziddiyatli munosabatlarning mavjudligi, ularning murakkabligi sharoitida yagona tartibni o`rnatish zarurligi;

-normal rivojlanish uchun o`zaro qo`shnichilik, hamkorlik munosabatlarini o`rnatish, harbiy nizolarni tinch vositalar bilan hal etish, ularni kamaytirish va yumshatish zarurati va h.

Huquq ijtimoiy tartibga solishning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

1. Eng avvalo, huquqning rasman paydo bo'lishi va amal qilishi davlatning paydo bo'lishi va mavjud bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Davlat o'z oldidagi vazifalarni, jamiyatda yagona tartib o'rnatish funksiyasini hamma uchun majburiy qonunlar chiqarish, mavjud odatlarning bajarilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi. Ayni paytda huquqiy normalarning bajarilishini ta'minlash davlatning ishtiroki, yordamisiz o'z-o'zicha amal qila olmaydi.

2. Faqat huquqgina barcha jamiyat a'zolari uchun majburiy normalar tizimidan iborat. Ijtimoiy normalar esa Ma'lum tabaqa, toifa, guruh, jamoalar uchungina majburiydir.

3. Huquqning bajarilishi davlat tomonidan ta'minlanadi. Boshqa ijtimoiy normalar esa davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanmaydi.

4. Huquq davlat tomonidan o'rnatiladi. Ijtimoiy normalar esa odamlarning ishonishi, fikrlari yo'nalishi (uyg'unlashuvi) sifatida shakllanadi yoki jamoat birlashmalari tomonidan o'rnatiladi.

5. Huquq rasmiy shaklda - qonunlarda ifodalanadi, unga shaklan aniqlik xos, huquq va majburiyatlarning aniq va tushunarli qilib mustahkamlanishi bilan ajralib turadi, bir tizimga ega va uning tarmoqlari o'zaro mantiqiy bog'langan.

Huquq - bu davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan va bajarilishi davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan hamma uchun umummajburiy bo'lgan me'yorlar tizimidan iborat. Huquqiy tartibga solish qayerda yuridik jarayon vositalari bilan huquqiy munosa-batlar isbotlanishi va ijro etilishi mumkin bo'lsa va ularni qo'riqlash zaruriyati yuzaga kelganda amalga oshiriladi. Ijtimoiy normalar tizimida huquq va axloqning o'zni o'ziga xos. Garchi ularning ikkalasi ham insonlarning xatti-harakati, yurish-turishiga ta'sir etuvchi vositalar bo'lsa-da, biroq, har birining o'ziga xos jihatlari mavjud. Shu bois huquq va axloq normalarining umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlash ijtimoiy normaning bu ikki turining mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy normalar tizimida aynan huquq va axloqning o'zni boshqacha, chunki ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita - regulyatorlardir.

Axloq - bu ijtimoiy normalarning turi bo'lib, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o'zining o'lchovi bilan qamrab oladi. U ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, o'zida insonlarning yaxshilik va yomonlik, adolat va

adolatsizlik, halol va harom, ezgulik va gunoh to'g'risidagi qarashlari, tasavvurlari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi hamda kishilar ongida, jamoatchilik fikrida, san'at asarlarida tamoyillar, me'yorlar, ezgulikka intilish kabi holatlarda mustahkamlanadi va ularning faoliyatida ma'naviy asos sifatida xizmat qiladi.

Umuminsoniy axloqiy normalarning bajarilishi jamoatchilik fikri, tarbiya, shaxs ichki dunyosi, vijdoni orqali ta'minlanadi.

Huquq va axloq o'zaro umumiy jihatlariga ega, ayni paytda bir-biridan ancha farq qiladi, shu bilan birga ikkalasi ijtimoiy hayotda birgalikda amal qiladi.

Axloqning huquq bilan umumiy jihatlari:

- ijtimoiy ehtiyojlar natijasida paydo bo'lgan;
- ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi;
- ijtimoiy normalar turkumiga mansub;
- normativlik xususiyatiga ega, ya'ni o'zida bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasini ifodalaydi;

- inson erkinligi doirasini belgilaydi;

- ko'p hollarda ixtiyoriy ravishda bajariladi.

Huquq bilan axloqning farqlanuvchi xususiyatlari:

- huquqning rasman shakllanish davlat bilan bog'liq bo'lgan davlat bilan birga paydo bo'lgan bo'lsa, axloq kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq vujudga kelgan;

- huquq davlatning huquq ijodkorlik faoliyati natijasida shakllansa, axloq normalari esa insonlarning yaxshilik, yomonlik, adolat, halollik, olijanoblik kabi tushunchalari shaklida insonlar ongida, qalbida, san'at asarlarida, xalq og'zaki ijodi namunalari asta-sekin shakllanadi;

- huquq aniq, yozma shaklga ega, axloq esa keng mazmunlidir;

- ularning tartibga solish obyektlari muayyan darajada bir-biriga mos kelsa-da, biroq ular o'zaro farqlanadi, axloqning harakat doirasi kengroq va chuqurroq;

- huquqning ijrosi davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlansa, axloq esa jamoatchilik fikri kuchi, insonning tarbiyalilik darajasi kabilar bilan ta'minlanadi;

- huquq normalarida majburlovning chora va shakllari oldindan belgilangan, axloqda esa bu belgilanmagan;

- huquq huquqbuzarning xatti-harakatigagina baho beradi, axloq esa, odamning har qanday xatti-harakatiga baho beradi;

- bir davlat doirasida yagona huquq tizimi mavjud bo'lsa, axloq normalari ushbu mamlakatning turli millatlarida, turli hududlarida boshqacha ham bo'lishi mumkin.

Huquq bilan axloqning o'zaro munosabati va o'zaro nisbati to'g'risida gapirganda, ularning tartibga soladigan munosabatlari doirasi to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Huquq bilan axloqning tartibga soladigan munosabatlarini farqlashda huquq bilan axloq birgalikda tartibga soladigan munosabatlar doirasini hamda faqat axloq yoki faqat huquq orqali tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilab olish muhim. Huquq, odatda yuridik vositalar tizimi yordamida huquqiy munosabatlarni isbotlash va amalga oshirish mumkin bo'lgan holatlarni tartibga soladi, masalan, buzilgan huquqni isbotlash va undan kelgan zararni aniqlash va qoplash mumkin bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

Odamlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, do'stlik, yaqinlik va o'zaro yordam kabi munosabatlar bevosita axloq normalarining tartibga soladigan obyekti hisoblanadi va huquq bu munosabatlarga aralashmaydi va aralashishi maqsadga muvofiq ham emas. Ayni paytda axloq aralashmaydigan sohalar ham mavjud, masalan, fuqarolarning turli birlashmalariga, texnik-yuridik normalar doirasiga, davlat organlarining vakolatlari doirasiga va sh.k. munosabatlarga axloq baho bermaydi. Huquq bilan axloq o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir etish munosabatlari mavjud. Huquq ko'pincha axloqqa asoslanadi, shu bois axloqning huquqqa ta'siri katta, ayni paytda huquq axloqiy qoidalarining ham himoyachisi sifatida amal qiladi.

Korporativ normalar - jamoat birlashmalari tomonidan o'rnatilgan xatti-harakat qoidalari bo'lib, ularning ustavlarida, nizomlarida, qarorlarida ifodalanadi va faoliyat maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladi.

Huquq va korporativ normalarning umumiy jihatlari:

- 1) aniq, konkret xatti-harakat qoidalarini o'zida ifodalaydi;
- 2) maxsus, alohida aktlarda mustahkamlanadi;
- 3) normalarning tizimga solinganligi.

Huquq va korporativ normalarning farqlari:

- ta'minlanish darajasida,
- majburlov shakllarida,
- huquq normasining ustuvorligida.

Odatlar - bu xatti-harakat, xulq-atvor qoidasi bo'lib, muayyan ijtimoiy muhitda shakllanadi, avloddan-avlodga o'tadi, insonlarning tabiiy

hayotiy ehtiyojlari sifatida namoyon bo`ladi va ko`p takrorlanganligi bois odamlar ularga o`rganib odatga aylanadi. An`analarni ham odatga kiritish mumkin. Qonunga bo`ysunish ham odatdir. Musulmon davlatlarida shariat bilan bir qatorda davlat tomonidan sanksiyalangan odatlar ham amal qiladi.

Huquq va siyosat. Ma`lumki, huquq davlat bilan birga vujudga kelgan va rivojlangan. Davlat siyosatni amalga oshiruvchi asosiy organdir. Siyosat - bu ma`rifiy jamiyatda odamlarni boshqarish san`ati, davlatni boshqarishda sinflar, ijtimoiy guruhlar va ular tashkilotlarining ishtiroki tushuniladi. Umuman olganda, siyosat - bu jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari manfaatlari o`rtasidagi munosabat va nisbatdir.

Tarixdan Ma`lumki, siyosat jamiyatning tabaqalarga ajralishi, ya`ni turli manfaatli yirik ijtimoiy qatlamlar vujudga kelishi va ular o`rtasida qarama-qarshilik paydo bo`lishi bilan shakllana borgan. Bu qarama-qarshilikni tartibga solish zarurati ham vujudga kelgan va shu tariqa kishilar hayotini tashkil etishning yangi shakli bo`lmish davlat va huquq paydo bo`lgan va ular yangi jamiyatdagi yangi murakkab munosabatlarni tartibga solishi, jamiyatning yaxlitligini ta`minlashi kerak bo`lgan.

Shundan beri davlat jamiyatdagi siyosiy manfaatlarni amalga oshiruvchi tuzilmalar ichida markaziy o`rinni egallaydi. Biroq, jamiyatda davlatdan ham boshqa siyosiy faoliyat bilan shug`ullanuvchi tuzilmalar, tashkilotlar mavjud: siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari.

Davlatning boshqa siyosiy faoliyat subyektlaridan farqi shuki, u butun jamiyat nomidan ish ko`radi va siyosiy hayotning markaziy subyekti hisoblanadi, ayni paytda boshqa siyosiy tuzilmalar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi, ularning faoliyati uchun sharoit yaratadi. Huquqiy normalar jamiyat, davlat va shaxs hayotining muhim jihatlarini universal holda tartibga solsa, siyosiy normalar esa jamiyatdagi mavjud tabaqalar, ijtimoiy guruhlar hamda partiyalarning siyosiy hokimiyat uchun kurash borasidagi murakkab faoliyatini tartibga soladi.

Siyosiy normalarga ham normativlik xususiyati xos, ular ham o`zida muayyan xatti-harakat qoidasini ifodalaydi. Ular ham rasmiy hujjatlarda mustahkamlanishi mumkin. Ba`zi holatlarda ular siyosiy rahbarlarning qarashlarida, g`oyalarida, chiqishlarida mujassam bo`lishi mumkin. Huquq bilan siyosatning o`zaro munosabati haqida so`z yuritganda, shubhasiz, huquqning siyosatga nisbatan ustuvorligiga to`xtalish zarur, chunki siyosat ham huquqiy mohiyatga ega bo`lishi lozim. Hokimiyat uchun olib

boriladigan har qanday kurash, albatta, qonuniy asoslarda kechmog'i kerak.

Huquq va din. Huquq va dinning, huquqiy va diniy normalarning o'zaro munosabati masalasi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Diniy normalar - ijtimoiy normalarning bir turi bo'lib, dindorlar uchun bajarilishi lozim bo'lgan qoidalar yig'indisidan iboratdir. Bu qoidalar dindorlarning turli tuzilmalarini tashkil etish va faoliyat yurgizish, shuningdek, muayyan bir dinga xos bo'lgan diniy taomillarni amalga oshirish tartiblarini o'zida jamlaydi.

Diniy normalar har bir dinning muqaddas manbai bo'lgan diniy kitoblarda mustahkamlangan, masalan, Qur'on, Sunna, Talmud, Vetxiy Zavet, Noviy Zavet va b.). Musulmon huquqining manba-lari yuridik xarakterga ega va ularda musulmning hayot yo'lini belgilovchi qoidalar to'plangan. Diniy va huquqiy normalarning o'zaro harakati shunchalik qalinligi bois ba'zi huquqiy tizimlar diniy huquqiy tizimlar deb yuritiladi, masalan, musulmon huquqiy tizimi, hind huquqiy tizimi. O'tgan asrning 20-yillarida O'rta Osiyoning ba'zi hududlarida musulmon huquqi normalarining qo'llanilishiga yo'l qo'yilgan. Hozirgi kunda huquqiy va diniy normalar o'rtasidagi munosabat davlatimiz tomonidan vijdon erkinligi-ning, ya'ni har bir shaxs istagan diniga e'tiqod qilishi yoki umuman hech bir dinga e'tiqod qilmasligi erkinligining kafolatlanishi, diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslarining belgila-nishida ko'rinadi. Diniy birlashmalar qonunchilikda belgilangan tartibda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi mumkin, bu holda ularning Ustavlari yuridik xususiyat kasb etadi.

3. Huquq mohiyati, belgilari tushunchasi

Huquq kishilik jamiyati taraqqiyotining Ma'lum bir bosqichida ijtimoiy zarurat natijasida rasman davlat bilan birga vujudga kelgan, ya'ni u ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat rivojining mahsuli sifatida maydonga chiqqan. Jamiyatdagi boshqa ijtimoiy normalar bilan birgalikda huquq inson xatti-harakati, yurish-turishini tartibga soluvchi vosita sifatida maydonga chiqib, u kishilarning o'zaro munosabatlarini va ijtimoiy muloqot ishtirokchilari xatti-harakatlarini tartibga soladi.

Huquq jamiyatdagi turli qatlamlar, tabaqalar, guruhlar, millatlar va elatlar o'rtasida ijtimoiy ahillikni, kelishuvni ta'minlaydi. U insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qiymatlarni adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi. Huquqning eng muhim jihatlaridan biri

shaxsning erkinligi o'ldhovi va me'yorl ekanligida namoyon bo'ldi, chunki huquqda nimalarni sodir etish mumkin va nimalarni sodir etishdan shaxs o'zini tiyishi kerakligi aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'ldi.

Huquqning yana bir e'tiborli jihati uning **normativ xarakterga ega ekanligidir**, ya'ni huquq yakka shaxsga qaratilgan bo'lmay, balki noaniq sonli ko'pchilikka yo'naltirilgandir, masalan, yo'l qoidalariga rioya etish majburiyati yo'ldan foydalanadigan, yo'ldan yuruvchi barchaga tegishli. Bundan tashqari huquq normalari bir marta qo'llanishga mo'ljallangan bo'lmay, balki muntazam qo'llanishga yo'naltirilgan, ya'ni qo'llanishga asos bo'lgan har bir holatda, tegishli huquq normasi qo'llanilaveradi, masalan, yo'l qoidasini buzganlik uchun javobgarlik, har gal shu huquqbuzarlik sodir bo'lganda vujudga kelaveradi.

Huquq ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga nisbatan bir xil choralarni qo'llaydi, ya'ni ularning ijtimoiy ahvoli, aqliy qobiliyati, jismoniy kuchi va boshqa jihatlariga qaramasdan ularga bir xil yondoshadi, masalan, yo'l qoidasini buzmaslik majburiyati mansabdor shaxsga ham, oddiy fuqaroga ham, sportchiga ham, oddiy talabaga ham bir xil yuklanadi. Huquqning turli qirralari haqida uzoq bahs yuritish mumkin, chunki u ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning barcha muhim jihatlarini jamlagan, ko'pchilikka ma'qul keladigan ta'rifini topish mushkul.

Umuman huquqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Huquq - bu davlat tomonidan o'rnatiladigan (yoki sanksiyalanadigan) va bajarilishi ta'minlanadigan, o'zida tenglik, erkinlik, adolat va xavfsizlik tamoyillarini ifodalaydigan umummajburiy xarakterga ega bo'lgan xatti-harakat, yurish-turish qoidalari majmuidir. Huquqning mohiyati, mazmuni bilan uning ijtimoiy qadr-qimmatl, ahamiyati bog'liqdir.

Huquqning ijtimoiy ahamiyati - bu uning shaxs uchun, jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini anglatuvchi tushunchadir. Demak, huquqning ijtimoiy ahamiyatini anglash - huquqning jamiyat va shaxs uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanligini tushunib etish demakdir. U quyidagilarda o'z ifodasini namoyon etadi: - huquq jamiyatda yuz beruvchi son-sanoqsiz ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yo'li bilan jamiyatda umumiy tartibot va barqarorlik o'rnatadi; - huquq ma'rifatli jamiyatda erkinlik va adolat o'rtasidagi nisbatning zarur darajasini ta'minlaydi va shu yo'l bilan turli manfaatli aholi qatlamlari o'rtasida ijtimoiy muvozanatni o'rnatadi; - huquq bevosita ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali ushbu ijtimoiy munosabatlar mazmuniga ham aniqlik

kiritadi; - huquq shaxsning ijtimoiy foydali erkin harakat qilishiga imkoniyat yaratadi, uning qonuniy faoliyatini muhofaza etadi.

Shunday qilib, huquqning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u jamiyat va shaxs uchun foydali bo'lgan munosabatlarning rivojiga imkoniyat tug'diradi, ularning himoyasini ta'minlaydi, ayni paytda, jamiyatning ravnaqiga to'siq bo'ladigan munosabatlarning ildizini qirqadi, oldini oladi.

4. Huquq prinsiplari va funksiyalari

Huquq prinsiplari bu huquqning mazmunini, mohiyatini va uning jamiyatda tutgan o'rnini belgilab beruvchi bosh g'oyalardir. Huquq prinsiplari bir tomondan, huquq rivojining murakkab qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan esa, huquqiy tartibga solishning barcha sohalarida amal qiladigan eng umumiy normalarni o'zida mujassam etadi. Huquq prinsiplari jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlari bilan huquqiy tizim o'rtasida bog'lovchi-vositachi rolini o'ynaydi va oqibat natijada huquqiy tizim jamiyat va inson manfaatlariga, ehtiyojlariga asta-sekin moslashadi.

Huquq prinsiplari yoyilish doirasiga qarab 3 guruhga bo'linadi: umumhuquqiy prinsiplar; tarmoqlararo prinsiplar; tarmoq prinsiplari.

Barcha huquq tarmoqlarida birdek amal qiluvchi umumhuquqiy prinsiplarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) adolatlilik prinsipi;
- 2) insonparvarlik prinsipi;
- 3) demokratizm;
- 4) qonuniylik prinsipi;
- 5) fuqarolarning qonun va sud oldida yuridik tengligi prinsipi;
- 6) huquq va majburiyatlarning birligi prinsipi;
- 7) ishontirish va majburlov uslublarining uyg'unlashuvi;
- 8) xalqaro huquq normalari ustuvorligi va b.

Huquq prinsiplari o'z mazmuniga ko'ra bir necha huquq tarmoqlarining xususiyatlarini ifodalaydigan bo'lsa, ular tarmoqlararo prinsiplar hisoblanadi. Masalan, jinoyat jarayoni, fuqarolik jarayoni va xo'jalik jarayoni uchun xos bo'lgan javobgarlikning muqarrarlighi, tortishuvchanlik, sud ishlarini yurgizishning oshkoraligi prinsiplari tarmoqlararo prinsiplar jumlasiga kiradi.

Faqat bir huquq tarmog'ida amal qiladigan prinsiplarga misol qilib, jinoyat jarayonida - aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolik huquqida taraflarning tengligi prinsipi, mehnat huquqida - mehnatning erkinligi prinsipini ko'rsatish mumkin.

Huquq taraqqiyoti jarayonida huquq shakliga xos bo'lgan bir qator o'ziga xos prinsiplar vujudga kelib, ularni yuridik adabiyotda huquqiy aksiomalar deb yuritiladi. Ular jumlasiga «Har qanday harakatni sodir etish mumkin, agarda u qonunda man etilmagan bo'lsa», «Qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas», «Hech kim o'zining ishi-ga o'zi sudya bo'la olmaydi», «Bitta va aynan o'sha huquqbuzarlik uchun ikki marta jazolanish mumkin emas» kabi prinsiplarni kiritish mumkin.

Huquqning mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. **Huquq funksiyalari - bu huquqning ijtimoiy munosabatlarga va insonlarning xatti-harakatlariga o'tkazadigan ta'sirining asosiy yo'nalishlaridir.** Huquq funksiyalarida yuridik normalarning hayotda qanday ishlashi, huquqning ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir etishi namoyon bo'ladi, demak, huquq funksiyalari orqali huquqning jamiyatda qanday o'rin tutishini bilib olish mumkin. Huquq funksiyalarini umumijtimoiy va funksional funksiyalarga ajratish mumkin. Umumijtimoiy funksiyasi orqali huquq iqtisodga, ma'naviyatga, siyosatga ta'sir etadi va tegishlicha iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy funksiyalarni bajaradi.

Biroq, huquqning asosiy, tub mohiyati uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishidir, ya'ni uning funksional jihatidir.

Huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish funksiyasi o'z navbatida quyidagi funksiyalarga mazmunan ajratiladi:

1) **regulyativ-statik funksiya**, bunda huquq jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali ularni mustahkamlaydi, ularga barqarorlik baxshida etadi. Bu funksiya asosan qator huquq subyektlarining maqomini belgilashda ko'rinadi, masa-lan, shaxs, davlat organi, jamoat birlashmasining huquqiy maqomini aniqlash, ularning vakolat doirasini belgilash va b.

Ushbu funksiya huquq subyektlariga vakolat beradi va ular shu vakolat doirasida harakat qiladilar, huquqiy munosabatlarga kirishadilar. Bun funksiya vakolat beruvchi va man etuvchi normalar va shu asnoda vujudga keluvchi passiv huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi;

2) **regulyativ-dinamik funksiya**. Bu funksiya orqali huquq ijtimoiy munosabatlar rivojini ta'minlaydi, ya'ni huquq subyekti-ning bo'lajak xatti-harakati qanday bo'lishi kerakligi aniqlanadi. Bu funksiya asosan majburiyat yuklovchi normalar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobida fuqarolarni burchlari belgilangan: soliqlarni to'lash, harbiy xizmatni ado etish atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi;

3) **qo`riqlav-muhofaza etish funksiyasi** - regulativ funksiya-ni ta'minlashga qaratilgan. U davlat tomonidan ta'minlanadi, uning organlari orqali amalga oshiriladi. Bu funksiya huquqiy cheklashlar, ya'ni jazolash, majburiyatlar, man etishlar, to`xtatib qo`yishlar orqali amalga oshiriladi;

4) **baho berish funksiyasi** orqali huquq insonning xatti-harakati huquqiy yoki nohuquqiy ekanligini ko`rsatadi. Nohuquqiy harakat yoki harakatsizlik uchun tegishli yuridik javobgarlik vujudga keladi. Huquqqa mos harakatlarni sodir etganlik uchun ham ijobiy oqibat kelib chiqishi mumkin, bunda rag`balantiruvchi normalar ishga tushadi, masalan, fuqaroga davlat oliy unvonining berili-shi, korxonada xodimga mukofot berilishi va b.

5. Huquq to`g`risidagi nazariyalar

Huquqning juda murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi, uni tushunishdagi ko`p fikrlilik(plyuralizm)ni keltirib chiqargan. Shu bois huquq to`g`risida ko`plab nazariyalar va qarashlar mavjud, ularning mazmun va yo`nalishi turlicha bo`lishidan qat'iy nazar huquq hodisasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Huquq haqidagi nazariyalar tahlilini tabiiy huquq nazariyasidan boshlash maqsadga muvofiq, chunki bu nazariyaning g`oyalari hozirgi zamon davlatlari huquqi mohiyati va mazmuniga singdirilgan hamda ularga ma`naviy-axloqiy asos bo`lib xizmat qiladi.

Tabiiy-huquq nazariyasiga ko`ra, inson dunyoga kelishida Olloh va tabiat tomonidan ularga qator huquqlar berilgan bo`lib, ular o`zida adolatni ifodalagan, ular o`zgarmaydi, olib qo`yilmaydi, chunki ular tabiiydir, inson tabiatidan kelib chiqqan, masalan, insonning erkin-emin bo`lish huquqi, teng bo`lish huquqi, xavfsiz bo`lish huquqi, baxtli, oilali bo`lish huquqi, mulkdor bo`lish huquqi va b.

Ilk g`oyalar qadimgi Yunoniston va Rimda shakllangan. Suqrot, Arastu, Sitseron va Ul`pianlar bu g`oyaning qadimgi asoschilari hisoblanadi. Keyinchalik u o`rta asrlar ilohiyshunosi Foma Akvinskiy ta`limotida rivojlantirilgan. Biroq, yaxlit, tugallangan nazariya sifatida XVII-XVIII asrlarda Gyugo Grotsiy, Tomas Gobbs, Djon Lokk, Vol`ter, Sh.Montesk'e, J.J.Russo, A.N.Radishev va boshqalar tomonidan uzil-kesil shakllantirilgan.

Bu nazariyaga ko`ra jamiyatda ikki, ya'ni tabiiy huquqlar va pozitiv huquq mavjud. Tabiiy huquqlar inson tabiati, mohiyatidan, adolat, axloqiylik va tafakkur prinsiplaridan kelib chiqqan, shu bois ular

adolatlidir, zero davr va makon, davlat va xalqlarga bog`liq emas, ulardan tashqarida, shu sababli barcha davrlarda, barcha xalqlarga nisbatan harakat qilaveradi, chegara bilmaydi.

Tabiiy huquqlar o`zining tabiiyligi bois, abadul-abad amal qiladi va o`zgarmaydi. Har bir davlatning vazifasi esa, o`z fuqarolarining tabiiy huquqlarini muhofaza etish va ularni ta`minlash hisoblanadi. Pozitiv huquq, ya`ni davlat tomonidan o`rnatilgan huquq faqat tabiiy huquqlarga mos kelsagina, ularni adolatli, oqilona huquq deyish mumkin.

Tabiiy huquqlarni, albatta sof yuridik ma`nodagi huquqlar deb aytish qiyin, biroq, u pozitiv huquq, ya`ni davlatning o`rnatadigan huquqi yordamida real huquqlarga aylanishi mumkin.

Tabiiy huquqlar haqidagi nazariya hozirgi kunda zamonaviylashgan holda amal qilmoqda. Unga ko`ra, davlat tomonidan o`rnatiladigan huquq, ya`ni pozitiv huquq - tabiiy huquqlardan kelib chiqqan hosila huquqdir va u umuminsoniy qadriyatlarga, ya`ni adolat, erkinlik, tenglik kabi prinsiplarga, aniqrog`i inson tabiiy huquqlariga mos kelishi kerak. Bu nazariyaning ikki yo`nalishi mavjud: neotomizm va "dunyoviy doktrina". Neotomizmning asosiy g`oyasi – davlat tomonidan o`rnatiladigan huquqning ilohiy qonunlarga mos kelishi, olloh qonunlari davlat qonunlarining tabiiy huquqlarga mos kelishini ta`minlashi kerak.

"Dunyoviy doktrina"ning bosh g`oyasi esa huquqning asosi, zamini axloqiy, etik qoidalar bo`lganligiga ishora qilib, davlat chiqaradigan qonunlar tabiiy huquqning axloqiy-ma`naviy talablariga javob berishi kerakligini ta`kidlaydi. Ta`kidlash zarurki, hozirda tabiiy huquq nazariyasining ko`pgina qoidalari ilg`or davlatlar va xalqlar tomonidan o`zlashtirilib, ularning konstitutsiyalarida o`zining ifodasini topgan O`zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni ham bu masaladagi eng ilg`or g`oyalarni o`zida jamlagan.

Huquqning tarixiy maktabi. Namoyandalari: Gustav Gugo, Savin`i, Puxta. Shakllanish davri – XIX-asrning birinchi yarmi. Mohiyati: huquq bamisoli erga tashlangan urug` qanday o`sib-unsan, etilsa, huquq ham odamlar ongida, tafakkurida xuddi shunday etiladi, "ona suti" bilan avloddan-avlodga o`tib boruvchi huquq til va axloq kabi asta-sekinlik bilan shakllanadi va o`zida o`sha xalqning ruhini ifoda etadi, u odatlar va qonunlar shaklida namoyon bo`ladi. Har bir xalqning huquqi o`sha xalqning ruhi bilan bog`liq holda shakllanadi. Demak, har bir xalq huquqi-o`sha xalq ruhi ifodasidir.

Ijobiy tomoni: huquq tarixini, uning manbalarini o`rganish zarurligiga e`tiborni qaratadi va shu munosabat bilan keng manba, ayniqsa, rim huquqi bo`yicha keng materiallar to`plagan.

Salbiy tomoni: barcha xalqlar uchun yagona bo`lgan huquqning bo`lishi mumkinligi inkor etilgan va har bir xalqning o`ziga xos va o`ziga mos huquqi bo`lishi kerakligi ta`kidlangan. Har qanday voqelik, shu jumladan qadimgi dunyodagi qullik ham u tarixan yuzaga kelganligi uchun odatdagi narsa deb tushunilgan va adolatli, asosli deb talqin qilingan, Germaniyadagi eski feodal-krepostnoylik huquqi institutlarini saqlab qolinishi yoqlangan, har qanday ijobiy, yangi o`zgarishlarga, xususan umumgerman fuqarolik kodeksini yaratish haqidagi takliflarga qat`iy qarshilik bildirilgan.

Huquqning psixologik (ruhiy) nazariyasi huquqning paydo bo`lishini jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog`lamay, balki shaxs yoki bir guruh shaxslar ruhiyati bilan bog`lab tushuntiradi. Bunda huquq ruhiy kechinmalar, ruhiy hissiyotlar natijasida shakllangan deb tushuntiriladi.

Bu nazariya XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Germaniya va Fransiyada keng yoyilgan, namoyandalari: Birling, Knapp (Germaniya), Tard (Fransiya), L.I.Petrajiskiy (Rossiya).

Mohiyati: - huquqning bosh manbai - bu ichki hissiyotlar, instinktlar sohasidir; - huquq bu tafakkurga nisbatan birlamchi bo`lgan hissiy kechinmalar, inson xarakteri, ruhiyati mahsulidir; - huquq davlatga, iqtisodga, sinflarga, sinfiy kurashga bog`liq emas; - ras-miy, davlat bilan bog`liq pozitiv huquq va rasmiy bo`lmagan alohida shaxs yoki ijtimoiy guruhning intuitiv huquqi farqlanadi; - intuitiv huquq ichki tuyg`u orqali anglanadigan huquq bo`lib, uning ildizlari inson ruhiyatida, uning his-tuyg`ularida joylashgan va u inson ruhiy kechinmalari ta`sirida shakllanadi; - intuitiv huquq hayotdagi o`zgarishlarga befarq qaramaydi, huquqiy tartibot prinsiplarini shakllantiradi, rasmiy huquqqa ta`sir ko`rsatadi; - rasmiy huquq intuitiv huquq bosimini o`zida sezadi, uning aksiomalarini singdiradi; - ikkala huquq o`rtasida o`zaro ta`sirning yo`qligi, o`zaro ziddiyatning yuzaga kelishi ijtimoiy nizoni keltirib chiqaradi.

Ijobiy tomoni: huquqni inson erki, ruhiyati bilan bog`laydi. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda, har bir shaxs huquqiy xulqining shakllanishida individual huquqiy ongning roli katta ekanligini ilgari suradi.

Salbiy tomoni: subyektivizm. Huquq bilan huquqiy ongni aralashtirib yuboradi va ularni bir hodisadek talqin etadi. Pozitiv huquq davlat tomonidan o`rnatilib, uning qonun hujjatlarida o`z ifodasini topadi va shu bois ko`pchilikka uncha tanish emas. Ijtimoiy munosabatlarni huquq orqali tartibga solish jarayonida individual huquqiy ongning rolga katta e`tibor bergan, chunki har bir insonning huquqiy ongi uning huquqiy xulq-atvorini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblashgan, huquqiy ong obyektiv reallik sifatida talqin qilingan. Huquqiy tartibga solish mexanizmida huquqiy ong bilan bir qatorda yana boshqa ijtimoiy-huquqiy xarakterdagi omillar ham yetakchi ahamiyatga ega ekanligi e`tibordan chetda qoldiriladi.

Huquqning normativistik nazariyasining shakllanishi va asoslanishi avstriyalik yurist Gans Kel`zen nomi bilan bog`liq, XIX-asrning 30-40-yillarida shakllangan. U o`zi tomondan yaratilgan "Huquq haqidagi sof ta`limot" nomli asari bilan bog`liq holda mazkur ta`limotni ham "huquqning sof nazariyasi" deb nomlagan.

Bu ta`limot XIX-asrda shakllangan formal-dogmatik yurisprudensiya va yuridik pozitivizm ta`siri ostida shakllangan. Pozitivizm tabiiy-huquqiy nazariyadan farq qilgan holda, subyektiv huquqni obyektiv huquqdan, ya`ni davlat tomonidan o`rnatilgan huquqdan keltirib chiqaradi, va bunday yondashuvi bilan tabiiy huquq nazariyasiga qarshi bo`lgan yo`nalishni egallaydi. Pozitivizm asosiy huquq va erkinliklarni insonlarga davlat beradi deb ta`kidlaydi. Normativistik nazariya huquqni qonun hujjatlari va boshqa norma-tiv aktlarda tashqi ifodalangan, jamlangan normalar majmuidan iborat deb tushunadi. Kel`zenning yozishicha, "huquq faqat huquq bilangina belgilanadi" va "huquqning kuchi uning o`zida", huquq bu majburiy tarzda amalga oshiriladigan normalar majmuidan iborat.

Kel`zen talqinicha, huquqning sof nazariyasi shuki, yuridik fan huquqni o`rganishda uning iqtisodiy, siyosiy, ma`rifiy-axloqiy jihatlarini istisno qilib o`rganishi kerak. Shu bois Kel`zen o`z asarida "mening vazifam huquqni tom ma`noda huquq hisoblanmaydigan barcha narsalardan tozalashdir" deb ko`rsatgan.

Kel`zen ta`limotida huquqning tuzilishiga oid fikrlari o`ziga xos o`rin tutadi. Uning fikricha, huquq "bosh norma" eng tepasida turgan, to`ppa-to`g`ri shakllangan, mantiqan bog`langan elementlardan iborat bo`lgan pog`onaviy piramidadan iboratdir, bu piramidaning har bir bo`g`ini o`zidan yuqori turuvchi normaga bog`liq, uning yuridik kuchi ham shu piramidada tutgan o`rni bilan belgilanadi.

Ushbu nazariyaga muvofiq, hozirgi zamon huquq tushunchasi - bu davlat tomonidan o`rnatiladigan, zarur hollarda bajarilishi davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va davlat irodasini ifodalaydigan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanadigan normalar majmuidan iboratdir.

Ijoiy tomoni: huquqning normativlik, ierarxiyaviylik, tuzilmaviylik xususiyatlarini ajratib ko`rsatadi. Bu nazariya jamiyatda qonunchilikning rivojlanishiga, huquq normalarini qo`llashda bir xillikni ta'minlashda, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, ular tomonidan huquq buzilishi hollarida qo`llaniladigan ta'sir choralarining tizimini, chora va vositalarini huquqda aniq avvaldan mustahkamlab qo'yishga imkon yaratadi.

Salbiy tomoni: Pozitiv huquqni, uning mohiyat va mazmunini, jamiyatdagi o`rni va ahamiyatini belgilovchi, uni yuzaga keltirgan ehtiyoj va sabablarni huquqni o`rganishda ahamiyati katta ekanligini inkor etadi, tabiiy huquqlarni tan olmay, huquqni davlatga bog`lab, uning huquqqa bo`lgan ta'siriga o`ta urg`u bergan.

Huquqning sotsiologik maktabi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida shakllangan bo`lib, uning asoschilari va vakillari R. Fon Iering, L.Dyugi, F.Jeni, E.Erlix, R.Paund (AQSh), D.Frensis, Levellin va b. hisoblanadi. Bu nazariya vakillari huquqni amaliy hodisa sifatida tushunib, sudning huquq yaratishdagi roliga katta e'tibor bergan. Shu bois bu nazariyani "jonli huquq" nazariyasi ham deb atashgan. Huquq deganda yuridik amaliyotni, huquqiy tartibotni, qonunlarni qo`llash jarayoni tushunilgan. Ularcha, huquq – bu huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo`lgan yuridik va jismoniy shaxslarning amaldagi, real xatti-harakatlaridir. D.D'yugining fikricha, "Huquq - bu faoliyat bo`lib, uning vositasida boshqa faoliyatga aralashish mumkin. Huquqiy norma esa bironta faol rol o`ynamaydi, u har bir aniq holatda individual ma'muriy yoki sud aktlarini chiqarish yo`li bilan mazmunga ega bo`luvchi "qog`oz bo`lagi" dir". Davlat tomonidan o`rnatilgan huquq umuman huquqning bir qismi xolos va bu huquq bilan bir qatorda "jonli huquq" ham amal qiladi. Bu "jonli huquq" esa, real hayotda tarkib topgan faktik amaliy munosabatlarning aynan o`zidir. Shunga asoslanib, ular "huquqning o`zgaruvchanligi" g`oyasini ilgari surganlar.

Bu nazariya tarafdorlarining fikricha: - huquq bu jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish rejimidir; - huquq sud hujjatlari bilan aynan, sud hujjatlari shunchaki huquq qo`llash aktlari emas, balki jamiyatdagi

umumiy tartib, ehtiyojlar, manfaatlar ifodasidir; - sud pretsedentlari huquqning asosiy manbai hisoblanadi (normativ-huquqiy aktlar emas); - sudlar qonunlar bilan emas, balki boshqa sudlar (ayniqsa, yuqori turuvchi sudlar)ning pretsedentlari bilan bog`liq; - qonunlar sud qarorlarida yashaydi (“jonli huquq”), qonunlar o`z holicha yashay olmaydi (“jonsiz huquq”); - “jonli huquq” sud qarorlari bilan belgilanuvchi odamlarning real huquq va burchlarida, huquqiy munosabatlarda yashaydi; - huquqni ijod etish qobi-liyati sudlarga tegishli.

Ijobiy tomoni: huquqqa bo`lgan keng yondashuv, ijtimoiy muhitni e`tiborga olish. Nazariya o`z e`tiborini huquqning jamiyatdagi harakatiga, uning real munosabatlar doirasidagi faoliyatiga qaratadi. Huquqiy tartibga solishning, huquq qo`llash jarayonining real shart-sharoitlarini o`rganish zarurligini ko`rsatadi.

Salbiy tomoni: huquqni huquqiy munosabatlar bilan, ya`ni huquqning hayotdagi real harakati bilan chalkashtirib yuborgan. Sud organlariga “huquqni yaratish, o`zgartirish” imkonini beradi, oqibatda qonuniylikning buzilishiga, sud organlari tomonidan suiiste`molliklarga yo`l qo`yilishiga, qonun ahamiyatini pasayishiga olib keladi.

Markscha-lenincha huquq nazariyasi XIX-asrning 40-yillarida shakllangan bo`lib, namoyondalari K.Marks, F.Engel`s, V.Lenin, I.Stalin, Buharinlar hisoblanadi. Bu nazariyaning asosini tarixni va sinfiy kurashga materialistik nuqtai-nazarda qarash tashkil eta-di. Markscha-lenincha huquq nazariyasi sovet yuridik fanida mutloq hukmron g`oya edi. Uning asoschilari Marks, Engel`s yashab ijod etgan davr dastlabki ilk kapitalizmning sinfiy ziddiyatlari ochiq ko`rinib turgan bir paytiga to`g`ri kelgan va bu davr ularning ijodida o`zining hal qiluvchi ta`sirini qoldirgan. Shu bois ular davlat va huquqni sinfiy hodisalar sifatida tushunishgan.

Mohiyati:

-huquq pirovard natijada jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan belgilanadi;

-huquq iqtisodiy bazisdan yuqori bo`la olmaydi, uning o`z tarixi yo`q;

-eski ijtimoiy-iqtisodiy formasiyaning huquqi sindirilishi lozim, chunki u inqilobdan so`ng yangi iqtisodiy munosabatlarga xizmat qila olmaydi;

-huquq kommunistik jamiyat arafasida axloqiy normalarga aylanib, barham topadi;

-huquq hamisha, hatto rivojlangan sotsializm sharoitida ham sinfiydir (umumxalq huquqi);

-huquqning rivojlanish jarayoniga kommunistik partiya rahbarlik qiladi;

-huquq jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hukmron sinfning qonun darajasiga ko'tarilgan erki ifodasidir.

Xususiyati: huquqni iqtisodiyot, mulkchilik shakllari, siyosat va hokimiyat uchun kurash bilan ochiq bog'liqligini ta'kidlaydi.

Kamchiligi: huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi boshqa omillarni qisman yoki to'la inkor etadi, madaniy fenomen sifatida huquqqa yetarli baho bermaydi. Shunday qilib, jamiyatda mavjud bo'lgan murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimi unga mos keluvchi va obyektiv tarzda shakllangan ijtimoiy normalar tizimi bilan tartibga solinadi. Jamiyatning normativ tizimida huquqning o'zni o'ziga xos bo'lib, u jamiyat, davlat va shaxsga oid eng muhim va tipik munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning ijtimoiy ahamiyati shundaki, huquq normalari vositasida ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi va shu tariqa kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy adolat va barqarorlik, tartibot va muvozanat ta'minlanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning obyektiv zarurligi
2. Jamiyatning normativ tartibga solish tizimi
3. Ijtimoiy normalar va ularning turlari
4. Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o'zni
5. Ijtimoiy norma sifatida huquqning belgilari
6. Huquqning prinsiplari
7. Huquqning funksiyalari
8. Huquq va axloqning o'zaro munosabati va nisbati
9. Huquq to'g'risidagi nazariyalar tavsifi

7-MAVZU: INSON HUQUQLARI MOHIYATI, TUSZHUNCHASI VA NORMATIV SHAKLI

REJA:

1. Inson huquqlari individlar o`zaro ta'sirining normativ shakli sifatida
2. Inson huquqlarining uch avlodi
3. Shaxsning huquqiy maqomi: tushunchasi va tuzilishi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008.40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ.1994.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т .: Адолат 2001. 695 с.
7. Исламов З.М. Проблема власти:ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: 2003. ТДЮИ нашри. 245 б.
8. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. Т.: Ўзбекистон. 2005.264 б.
9. Права человека.М.: Норма Инфра М.1999.
10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.Туркум рисоалар. Т.:ТДЮИ нашри.2005.
11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. – М.: Изд. НОРМА, 2004.- 832с.
12. Проблемы теории государства и права: Учебное пособие. Под ред.М.Н.Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
13. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М: НОРМА. 2000.-233 с.
14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. М.: Статут. 1999.-810 с.

15. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М.: Юрайт.1999. С. 240.

16. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.

17. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. – Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Inson huquqlari individlar o`zaro ta'sirining normativ shakli sifatida

Inson huquqlari kishilar o`zaro harakati, ular o`rtasidagi aloqalarni tartibga solish, ular harakati va faoliyatini muvofiqlash-tirish, ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, konfliktlarni bartaraf etishning normativ shakli hisoblanadi. O`z mohiyatiga ko`ra, ular individ, jamiyat, davlatning normal faoliyat ko`rsatishini ta'minlash obyektiv zarur bo`lgan kishilar hayot faoliyatining shart-sharoitlari va usullarini normativ shakllantiradilar. Bu me'yorlar erkinlik, tenglik, adolat prinsiplariga asoslanadi. Yashash, erkin bo`lish huquqi, qadr-qimmatga ega bo`lish, shaxs daxlsizligi, fikrlash va e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi kabilar ma'rifiy jamiyatda inson hayotini tashkil etishning zarur shartlari hisoblanadilar va ular davlat tomonidan so`zsiz tan olinishi, qo`riqlanishi shart.

Inson huquqlari mazmuniga konkret-tarixiy yondoshish zarur. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan inson huquqlarining hozirgi zamon katalogi - bu hozirgi zamon jamiyat normasi bo`lgan standartlarni uzoq tarixiy qaror topish jarayonining natijasidir. Inson huquqlarining rivojida hal qiluvchi bosqich bo`lgan XVII-XVIII-asrlar burjua-demokratik inqiloblari faqat inson huquqlarining keng majmuinagina emas, shuningdek inson huquqlarining universalligi va demokratik mazmunini belgilovchi formal tenglik prinsipini ham ilgari surdi. Formal tenglikka asoslangan inson huquqlari ijtimoiy taraqqiyotning bosh ahamiyatli yo`nalishlaridan biriga aylandi, ular davlatning xarakteriga katta ta'sir ko`rsata boshladilar, uning yakka hokimligini cheklovchi vosita hisoblanadilar, individni davlat hokimiyatining cheklanmagan homiyligidan hamda uning erki va manfaatlarini hokimiy tuzilmalar tomonidan ko`rsatiladigan tazyiqdan ozod qilib, davlat hokimiyati va individ o`rtasida demokratik o`zaro ta'sirni o`rnatishga imkon beradilar. Ayni paytda huquqiy davlatni

shakllantirish ijtimoiy ong va amaliyotda inson huquqlarini tasdiqlamasdan turib mumkin emas.

Biroq, bunga davlatli uyushgan jamiyatda individlarning ham hokimiyat, ham bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari shakl va usullarini qidirib topish uchun uzoq davom etgan azob-uqu-batli jarayon natijasida erishilgan. Bu jarayon sof huquqiy makonda kechmagan. Shu sababli inson huquqlari boshidan axloqiy-etik, ma'naviy-madaniy, diniy mazmunga ega bo'lgan.

Inson huquqlari kishilar faoliyatida ko'p marta takrorlanuvchi harakatlar, aloqalar va munosabatlarning qat'iy shakllariga bog'liq holda shakllangan. O'z manfaatlari, maqsadlari, ehtiyojlariga ega individlarning ko'pchiligi ishtirok etgan jamiyat hayotida kishilar hatti-harakatining turli yo'nalishlari muqarrar ravishda to'qnasha-di va qarama-qarshilikka uchraydi. Biroq, ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilari xatti-harakatlarining turli-tumanligiga qaramasdan muayyan barqaror normalar, etalonlar, qadriyatlar shakllanadiki, ular insonlar o'zaro ta'sir jarayonini tartiblashtirishga, turli individlar manfaatlarini tarixan shakllanuvchi ijtimoiy turmush, ishlab chiqarish usuli, ma'naviyat, davlatchilik bilan uyg'unlashti-rishga qodir. Har bir inson moddiy va ma'naviy ne'matlarning mu-ayyan miqdoriga da'vogarlik qiladi, intiladi, o'z navbatida ularni insonlarga berilishiga jamiyat va davlat imkoniyat yaratishi kerak.

Bu ne'matlarning hajmi tarixan doimo individning jamiyat sinfiy tuzilmasida, moddiy ishlab chiqarish tizimida tutgan o'rni va mavqei bilan belgilangan. Indivdga taalluqli bo'lgan bu ne'matlarni shartli ravishda inson huquqlari deb atash mumkin. Bu shartlilik jamiyatni uning rivojlanish turli bosqichlarida keskin qutblanishi (quldorchilik, feodalizm), sivilizatsiyaning o'ziga xosligi (evropacha, osiyocho va h.) bilan belgilanib, ular inson huquqlarining formal tenglik prinsipi asosida universallik xususiyati va hozirgi zamonga xos mazmun kasb etishga imkon bermagan.

Inson huquqlari, ularning genezisi, ijtimoiy ildizlari, ahamiyati - bu ming yilliklardan beri davom etib kelayotgan insoniyatning ijtimoiy-madaniy rivoji va siyosiy, huquqiy, etik, falsafiy va diniy fikrning muqarrar tarzda diqqat markazida bo'lib kelgan "abadiy" muammolardan biri hisoblanadi. Turli davrlarda bu muammo siyosiy-huquqiy muammo bo'lib qolishi bilan birga, u jamiyatda mavjud huquq va burchlarni sinfiy cheklovli taqsimlashni asoslantirishda va himoya qilishda manfaatdor bo'lgan hokimiyat tepasida turgan sinflarning ijtimoiy pozitsiyasiga,

ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy bosqichiga bog'liq holda goh diniy, goh etik, goh falsafiy mazmun kasb etgan. Inson huquqlari - ko'p qirrali, ko'p o'lchovli voqelik. Bu muayyan darajada inson huquqlari o'z ifodasini topgan huquqiy normalar genezisi bilan bog'liq.

Inson huquqlarini g'oyaviy ta'limot jihatidan asoslantirish - bu davlat hokimiyatining xohishi va o'zboshimchaligiga bog'liq bo'lmagan insonning tabiiy, tug'ma huquqlari haqidagi ta'limotdir; davlat hokimiyatining maqsadi avvaldan tabiat yoki Olloh tomonidan berilgan huquqlarni ta'minlashdir. Tabiiy-huquqiy g'oyalar paydo bo'lguniga qadar hukmron bo'lgan etatistik qarashlar o'z xohishicha insonlar taqdirini tasarruf qilishga haqli oliy kuch sifatida individni davlatga bo'ysundirishga yo'naltirilgan. Tabiiy-huquqiy konsepsiya e'tiborni shaxs avtonomiyasiga, uning individualligiga qaratadi.

Bunday yondoshuv bu ijtimoiy ongdagi inqilobiy to'ntarish hisoblanadi: oldin davlatga butunicha bo'ysungan va unga qaram bo'lgan individ endi avtonomiyaga ega, huquq bilan belgilanuvchi erkinlik doirasiga davlatning aralashmasligini talab qilish huquqiga ega bo'ladi hamda o'zining huquq va erkinliklari buzilgan taqdirda davlat himoyasi kafolatlarini oladi.

Tabiiy-huquqiy ta'limotning qadr-qimmatini erkinlik va adolat, inson qadriyati va baxtli bo'lish kabi axloqiy prinsiplar va kategoriyalarga tayanadi. Tabiiy-huquqiy ta'limotni burjua inqiloblarni g'oyaviy asoslashdagi, inson huquqlarini qaror topishdagi rolini yuqori baholash bilan birga uni davlat va shaxs o'zaro munosabatlarini belgilovchi yagona va ustun ta'limot deb hisoblash mumkin emas. Unga inson huquqlari, davlat bilan shaxs o'zaro munosabatlari tabiatiga bo'lgan pozitivistik yondoshuv muayyan darajada qarama-qarshi turib kelgan. Bu yondoshuvga ko'ra, inson huquqlari, ularning hajmi va mazmuni davlat tomonidan belgilanadi, davlat insonga nisbatan paternalistik funksiyalarni amalga oshirib, bu huquqlarni insonga "hadya qiladi".

Bu yondoshuvlarning qarama-qarshiligi yuz yillar davomida kuzatiladi va hozir ham mavjud. Ular ilmiy bahslar sohasida to'qnashmaydi va hozirgi zamon davlatlarining konstitutsiyalarida o'z ifodasini topadi. Masalan, AQSh, Fransiya, Italiya, Ispaniya konstitutsiyalarida inson huquqlarining tabiiy-huquqiy konsepsiyasi, Avstriya Konstitutsiyasida - pozitivistik konsepsiya aks etgan. Shu bilan birga inson huquqlari tabiatiga bo'lgan ikki yondoshuvdagi farqlar muayyan aniqlik kiritishni talab qiladi. Eng avvalo, davlat hokimiyatini inson huquqlari bilan cheklashni uning (ya'ni davlat) rolini mumkin qadar kamaytirish

ma'nosida tushunishni anglatmaydi, davlatning roli faqat inson huquqlari va erkinliklarini himoyalashdangina iborat emas, shuningdek, ularga qonuniy shaklni, umummajburiylik xususiyatini berishdan ham iboratligini unut-maslik kerak. Shu sababli, inson huquqlarini zimmasiga ham ularni himoya qilish va ta'minlash funksiyasini, ham ularni qonuniy shakllantirish funksiyasini olgan davlatga qarshi qo'yish mumkin emas. Bu huquqlarning konstitutsiyada yozib qo'yilishi alohida ahamiyatga ega.

Inson huquqlarini kelib chiqishi tabiiy-huquqiy ta'limotini tan oluvchi davlatlar amaliyoti ularni pozitiv rasmiylashtirishni hech bir inkor etmaydi. Hozirgi davrda tabiiy-huquqiy ta'limot ham, pozitiv yondoshuv ham antipod, antagonistlar sifatida namoyon bo'lmaydilar. Tabiiy-huquqiy ta'limot inson huquqlarining kelib chiqish ildizlarini ularning insondan ajralmas, begonalashtirilmaslik xususiyatlari bilan bog'laydi. Bu ta'limot inson huquqlarini davlatdan yuqori qo'yadi, uning mohiyati davlatning totalitar xarakterdagi talablarini inson huquqlari bilan cheklashga yo'naltirilganligida ko'rinadi. Shu bilan birga, pozitiv qonunchilikda inson huquqlari mustahkamlanmasa, ular juda noaniq hisoblanib, davlat tomonidan ularni himoyalash va ta'minlash funksiyasini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Hozirgi vaqtda inson huquqlari sohasidagi pozitiv yondoshuv muqarrar tarzda umumfarovonlik va ezgulik kabi axloqiy kategoriyalarga tayanishi shartki, bu ularni inson huquqlari muayyan katalogidan kelib chiqib qonunchilikda ifodalash uchun zarur. Inson huquqlari qonunchilikda ifodalanishi bilan qo'shimcha "energiya" oladi, davlat esa, ularni qonunchilikda mustahkamlash bilan bu huquq va erkinliklarni ta'minlash va kafolatlashga o'zini majburiyatli deb belgilaydi. Rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy amaliyoti shaxs avtonomiyasini va inson huquqlarini davlatga nisbatan us-tunligini tan olishi bilan shaxsga nisbatan davlatning tazyiqi va majburlovini istisno qiluvchi asosiy huquqlar va erkinliklarni konstitutsiyaviy mustahkamlash asosida tabiiy-huquqiy va poziti-vistik yondoshuvlar qarama-qarshiligiga muayyan darajada barham berdi. Bunday mo'tadil tendensiya bu ta'limotlardagi qarama-qarshilik va keskinlikni - inson tabiiy huquqlarini davlat tomonidan mustahkamlanishidan tashqarida himoyalanmasligini va pozitiv ta'limotni axloqiy, shaxsiy, ijtimoiy qadriyatlardan ajralib qoli-shini bartaraf etadi.

Inson huquqlari – bu falsafa, etika, yuridik va siyosiy fanlarga uzviy bog'liq bilimlar sohasidir. Bu bilim sohasi hozirgi zamon ko'rinishida II Jahon urushidan so'ng vujudga keldi, biroq uning ildizlari qadimgi davr, o'rta asr va albatta Uyg'onish davri bilan bog'liq.

Sotsializmda inson huquqlari tadqiq qilinmagan va o`qitilmagan. Aksincha, ularga g`arbga xos “insonning burjua huquqlari” deb qaralgan.

Dastavval, asosiy tushunchalar ma'nosini anglab olish kerak. Ba'zida jurnalistlar “mamlakatda demokratiya tantana qilgan bo`lsa, inson huquqlari bilan shug`ullanishda ma'no bormikan?” degan savol beradilar. Ular demokratiyani ko`pchilikning hokimiyati bilan tenglashtiradilar, ularning fikricha, buning isboti bu erkin, haqqoniy saylovlardir. Biroq, tarix shuni ko`rsatadiki, ko`pchilik hokimiyati alohida olingan shaxslarga va ozchilikka nisbatan juda qattiq munosabatda bo`lishi mumkin. Aynan ko`pchilik Suqrotga o`lim hukmini chiqargan va bu holda Afinaning siyosiy tuzumi haqida yaxshi fikr yurita olish mumkin emas.

Ko`pchilik esa odatda ozchilikning muammolarini umuman unutadilar, ba'zilar esa ko`pchilikning hatto g`azabini ham qo`zg`otadi. Demak, ko`pchilikning cheklanmagan hokimiyati alohida shaxslar va guruh uchun xavf tug`dirishi mumkin. Shu sababli, demokratiya – bu alohida shaxslarga tegishli bo`lgan barcha huquqlar va erkinliklar bilan cheklangan ko`pchilikning hokimiyatidir. Va ko`pchilikning bu huquqlar va erkinliklarni buzishga huquqi bo`lmaydi. Demak, inson huquqlari va erkinliklari ko`pchilikning erkini cheklaydi.

Cheklangan hokimiyat prinsipi ko`pincha konstitutsiyaviy prinsip deb ataladi. Bizning davrda bu prinsip Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklari haqidagi boblarida ifodalangan. Ular birinchi navbatda qonun chiqaruvchining hokimiyatini cheklaydi, chunki parlament a'zolari bir qo`l ko`tarish bilan ertadan boshlab barcha muammolarni hal eta olmaydi.

Demak, demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari ko`pchilik hokimiyatining chegaralarini belgilab beradi. Inson huquqlari sohasi uchun bosh tushunchalardan biri – huquqiy davlat tushunchasi hisoblanadi. Huquqiy davlat – bu inson bilan hokimiyat o`rtasida aniq, barqaror va barcha uchun bir xil yurish-turish qoidalari mavjud bo`lgan davlatdir. Bu davlatda inson hokimiyat uning xulq-atvoriga qanday munosabatda bo`lishi mumkinligi haqida yetarli aniq tasavvurga ega bo`la oladi, chunki bu davlatda o`zboshimcha chinovniklar va mansabdor shaxslar emas, balki qat'iy belgilangan qonun hukmronlik qiladi.

Tabiiyki, huquqiy davlat hamisha demokratik bo`ladi, biroq demokratik davlat –huquqiy davlat bo`la olmasligi mumkin.

Inson huquqlari va erkinliklari mutloq tarzda insonning davlat bilan bo`ladigan aloqalariga, ya'ni bu huquqlarning vertikal yo`nalishdagi harakatiga tegishlidir. Inson huquqlarini insonlar o`rtasidagi

munosabatlarga qo'llash (ya'ni bu huquqlarning gorizontal harakatlanishi)ga urinish o'zini oqlamadi, va hozirda inson huquqlari haqida gap yuritilganda inson bilan davlat o'rtasidagi o'za-ro munosabatlarni nazarda tutish kerak va garchi oila, sevgi, do'stlik yoki qo'shnilar bilan bo'ladigan munosabatlar bir qator huquq va burchlar uchun manba hisoblansa-da, inson huquqlari tushunchasi bularga qo'llanilmaydi.

Inson huquqlari – bu kollektiv emas, balki individual huquqlardir. Bu huquqlarning subyekti bo'lib inson chiqadi. Shu sababli inson huquqlari doirasida ozchilik huquqi haqida gapirish mumkin emas, bu siyosatning tili va predmetidir (misol tariqasida bunday kollektiv huquqi haqida avtonomiya tashkil qilish huquqini kelti-rish mumkin) – inson huquqlari ma'nosida milliy ozchilikka talluqli shaxs huquqlari haqida gapirish mumkin, yoki guruh sifatidagi invalidlar huquqlari haqida emas, balki alohida olingan har bir nogiron huquqlari haqida.

Inson huquqlarining ikki asosiy guruhi mavjud: moddiy huquqlar va protsessual huquqlar. Moddiy huquqlar insonga tegishli konkret huquqlar va erkinliklarni qamrab oladi: so'z, vijdon erkinligi, turar joyni tanlash erkinligi, bilim olish huquqi va h.k.z. Protsessual huquqlar – bu insonning hokimiyatni bu huquqlarga rioya qilishni va ularni bajarishga majbur qilishga yordam beruvchi harakat usullari va u bilan bog'liq institutlar hisoblanadi.

Moddiy huquqlar huquq va erkinliklarni qamrab oladi. Ba'zida, pozitiv huquqlar deb nomlanuvchi huquqlar – bu har bir insonga nisbatan hokimiyatlarning faol majburiyatlaridir. Masalan, bilim olish huquqi hokimiyatga bolalar o'qishi mumkin bo'lgan maktablarni qurish majburiyatini yuklaydi. Va bu holda ta'lim uchun to'lov masalasi ham muhim, ya'ni maktabga haq to'g'ridan – to'g'ri to'lanadimi yoki davlat byudjetiga soliqlar orqalimi, bunda davlat vositachi hisoblanadi. Agar bola ta'limni stipendiya to'lash samarali tizimining yo'qligi sababli ololmasa, uning bilim olish huquqi buziladi. Xuddi shu kabi sud himoyasiga bo'lgan huquq sud idoralari shohobchasini qurish majburiyatini yuzaga keltiradi, bu har bir inson o'zi uchun muhim bo'lgan nizoni hal qila olishi uchun bu idoralarga murojaat qila olish imkoniyatini yaratishni anglatadi.

Negativ huquqlar deb nomlanuvchi erkinliklar – bu inson hayotining muayyan sohasiga hokimiyat aralashuvini ta'qiqlovchi huquqlardir. So'z erkinligi yoki vijdon erkinligi – bu insonning hayotiy muhim masalalariga davlat hokimiyati aralashuvini ta'qiqlashdir. Boshqacha aytganda, insonning biror narsaga bo'lgan huquqi davlat hokimiyatini uning uchun

birorta narsani qilishga majbur qiladi, agar insonga erkinlik tegishli bo'lsa, unda davlat birorta harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim bo'ladi.

Huquq va erkinliklar bilan bog'liq barcha masalalar insonning hokimiyat bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari chizig'ida yuz berar ekan, unda bu munosabatlarning tabiatiga oid yondoshuvlarga to'xtamaslikning iloji yo'q.

Birinchi yondoshuvga ko'ra, hokimiyat birlamchi va aynan hokimiyat o'z rahmdilligiga ko'ra insonlarga u yoki bu huquqlarni beradi. Bu, hokimiyat qancha huquqlarni insonlarga hadya etgan bo'lsa, insonlarda shuncha huquq bo'lishini anglatadi. Bunday yondoshuv barcha kommunistik mamlakatlar konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi yondoshuv – ijtimoiy shartnoma modeliga asoslanadi. Ijtimoiy shartnomani, bir tomondan hokimiyat va boshqa tomondan, alohida shaxslar majmuidan iborat bo'lgan xalq tuzadi. Bo'ysunuvchilar soliqlar to'lashga kelishadilar, hukmdor esa o'z tomonidan ular uchun biror narsani bajarish: huquqlarini amalga oshirishga va ular hayotining muayyan sohasiga aralashishdan tiyilib turish, ya'ni ular huquqlarini tan olish majburiyatini oladi. Bunday shartnoma taraflardan har biri uchun u yoki bu darajada foydali bo'lgan konstitutsiya deb nomlanadi.

Uchinchi yondoshuv amerikacha – yondoshuvga xos. Shaxs insoniyat mohiyatining o'zidan kelib chiquvchi tabiiy huquqlar va erkinliklarga ega, insonlar o'zlarining yaxshi va qulay yashashlari uchun davlatni tuzish va hokimiyatni tayinlash masalalarini hal etadilar va davlatni amal qilishi uchungina ixtiyoriy tartibda o'z huquqlarining ba'zilarini davlatga berib, ularni cheklaydilar. Masalan, ular o'z mulkiy huquqlarini cheklab, soliqlar to'laydilar yoki zaruriyat bo'lganda o'z erkinliklarini cheklab armiyada xizmat qilishga rozi bo'ladilar.

Bu oxirgi model birinchisidan tubdan farq qiladi. Birinchi yondoshuvda insonlarda, hokimiyat ularga qancha huquqlar bersa, shuncha huquqlar bo'ladi. Uchinchi yondoshuvda esa, aksincha hokimiyatga insonlar qancha huquqni berishga rozi bo'lsalar, shuncha huquqlar bo'ladi. Yondoshuvlardagi bu farqlardan muhim amaliy oqibatlar kelib chiqadi. Bunga oson ishonish mumkin, huquqiy normani tanlab, uni biror holatga qo'llansa: inson bilan hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunishdagi birinchi va uchinchi yondoshuvlardan qaysi biriga asoslanishimizga qarab, butunlay turli yechimlarga kelish mumkin, uchinchi yondoshuvga ko'ra, «hokimiyatga faqat qonunda ko'rsatilgan narsalarnigina bajarishga ruxsat etiladi, insonga esa qonun bilan ma'n etilmagan barcha narsalarni qilishga ruxsat etiladi» - degan qoida inson

huquqlari konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Bu qoida faqat inson hayotiga davlatning majburiy aralashish imkoniyatlarini cheklaydi, xolos, biroq u umuman insonlarga, yaqinlarga, qo'shnilarga bo'lgan munosabatlarda bizning axloqiy majburiyatlarimizga ta'sir etmasligi kerak.

Inson huquqlari konsepsiyasi uchun asosiy narsa bu ajralmas, tug'ma insoniy qadriyat tushunchasidir. Insoniy qadriyat insoniyat mohiyatining o'zidan kelib chiqadi, u go'dakka ham, ashaddiy jinoyatchiga ham xos. Insoniy qadriyat mavjudligi oqibatlarini insonning davlat bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida unga tegishli huquq va erkinliklar doirasini, majburlov vositalariga ega qudratli davlat tomonidan unga nisbatan noinsoniy, tahqirlovchi munosabatlarda bo'lishidan himoya qiluvchi huquqlarini belgilab beradi.

Inson huquqlari va erkinliklari insonni, uning insoniy qadriyatini davlat tomonidan bo'ladigan tajovuzlardan himoya qiluvchi qalqondir. Inson huquqlari demokratiyada ko'pchilikning erkini ifoda qiluvchi davlat hokimiyati tomonidan inson qadriyatini tahqirlanish va tajovuz qilinishdan himoya qiladi. Inson huquqlari tufayli individ o'zini shaxsligini, takrorlanmas, xos xususiyatlarini saqlab qoladi. Insonning takrorlanmasligi va individualligini hurmat qiluvchi tuzilmaga qarama-qarshi tuzum bu totalitarizm bo'lib, u diktator tomonidan o'ylab chiqilgan etalondagi "yangi inson"ni shakllantirishga intiladi. Bu ideal fuqarolar bir xil fikrlaydilar, bir xil so'zlaydilar va h.k. Insoniy qadriyat bilan ikki asosiy tushuncha: tenglik va erkinlik tushunchalari bog'liq. Erkinlik hozirda ham Shimoliy Amerika va Yevropada turlicha tushuniladi. Bu XIX-asr oxirida yuqoridagi qit'alarda insonlarning turli ahvoli va turli tarixi bilan belgilanadi. Amerikada kolonistlar g'arbga qarab harakat qilgan, bosib olinmagan hosildor yerlar mo'l-ko'l bo'lgan, bu kishilar tomonidan yaratilgan davlat esa faqat ularni tashqi va ichki dushmanlardan himoyalash uchun zarur bo'lgan. Ichki dushmanlardan himoya qiluvchi odil sudlov tizimi va sherif institutini yaratishga, tashqi dushmanlardan himoyalash uchun armiyani yaratishga zaruriyat tug'iladi. Hindular tashqi dushman hisoblangan. Davlatdan erkinlik (svoboda ot gosudarstva) konsepsiyasining vujudga kelishini faqat himoyalash uchun qorovul rolini bajaruvchi davlat bilan bog'lash kerak.

Bu davrda Yevropada bo'sh yerlar yo'q edi, kishilarning ko'pchiligi boshqa odamlarga tegishli yerlarda ishlagan va ularga iqtisodiy, ba'zida yirik yer egalari ta'siridagi sud hokimiyatiga qaram bo'lgan. Bu insonlar esa, davlatni ularga tazyiq qiluvchi shaxslarni tartibga chaqirishga, ularga

erkinlik berishga qodir deb hisoblaganlar. Shu tarzda davlat orqali erkinlik (svoboda cherez gosudarstvo) konsepsiyasi paydo bo`lgan. Erkinlikni bunday tushunish davlat har bir fuqaroni baxtli qilish mumkinligi haqidagi umid bilan bog`liq va bu umidlar Fransuz Revolyutsiyasi hujjatlaridagi baxtli bo`lish huquqida ifodalangan. Erkinlikning Yevropacha konsepsiyasidan kelib chiquvchi talablar bu qit`aning butun tarixida aks etgan, aynan shu yerdagi hukmdorlar va hukumatlar insonlarni baxtli qilishni uddalay olishlariga ishonganlar.

“Tenglik” so`zi siyosat tilida turli narsalarni anglatadi. Kommunistcha fikrlovchi inson tenglik haqida gapirganda har bir insonga pul va boshqa sharoitlarni teng bo`lib berishni anglatadi, ya`ni “hammada bir xil oshqozon” degan shiorga ko`ra, hammaga bir xil taqsimlanishi kerak. Sotsialist uchun tenglik imkoniyatlar tengligini bildiradi. Hayotga qadam qo`yishda insonlar teng imkoniyatlarga ega bo`lishlari kerak, so`ng iqtidorlilar va mehnatsevarlar yutuqlarga erishadi, biroq, startda barcha teng imkoniyatlarga ega bo`lish kerak. Bunday fikrlash inson huquqlari konsepsiyasida milliy yoki jamoaviy ozchilikka tegishli shaxslar huquqlari masalalarini qarab chiqishda kerak bo`ladi. Nihoyat, liberal tenglikni shaxsning qonun oldida tengligi va huquqlar tengligi sifatida tushunadi. Tenglik tushunchasi o`z mazmuniga ko`ra diskriminasiyani ma`n etishga yaqin turadi. Diskriminasiya - bu oqilona asosga ega bo`lmagan, biologik yoki jismoniy belgilarga tayanib qurilgan har qanday huquqlarning tafovutlanishi (differensiasiyasi)dir. Masalan, ko`zi ojiz odamga avtomobilni boshqarish huquqini taqiqlash kamsituvchi taqiq emas, chunki u oqilona asosga ega. Biroq haydovchilik huquqini lo`lilarga yoki o`rta Ma`lumotga ega shaxslarga berishni taqiqlash kamsituvchi ma`n etish hisoblanadi. Amaliyot shuni ko`rsatadiki, diskriminasiyaviy qoidalar kiritilmagan huquqiy tizimlarni yaratish mumkin. Biroq, liberal nazariya tomonidan ilgari surilgan hammaning qonun oldida tengligiga javob beruvchi tizim hozirgacha ishlab chiqilmagan. Hamma yerda doimo mansabdor shaxslar boy yoki mashhur shaxslar bilan boshqalarga qaraganda o`zgacha munosabatda bo`ladilar. Teng munosabatda bo`lish qoidasi amalda mumkin emas, ammo, bu undan voz kyechishni anglatmasligi kerak.

Tenglik va erkinlik haqidagi munozara davlat tomonidan rioya etilishi kafolatlanuvchi moddiy huquqlar ro`yxatini tuzish va tartiblar, institutlarni yaratish uchun boshlang`ich nuqta bo`lishi kerak.

Moddiy huquqlarning ko`pchiligi cheklangan xarakterga ega. Inson huquqlari va asosiy huquqlari himoyasi haqidagi Yevropa konvensiyasiga

kiritilgan huquqlardan faqat har bir insonning qiynoqlarga solinmaslik va qullikda saqlanmaslikka bo'lgan huquqlarga nisbatan cheklovlar bo'lishi mumkin emas. Qolgan barcha huquqlar, agar ular boshqa shaxslar yoki boshqa qadriyatlarga zid kelgan hollarda, masalan, davlat xavfsizligini ta'minlashda cheklanishi mumkin. Lekin, davlat huquqlar va erkinliklarni himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlaridan faqat konkret holatlarda va bunga qonuniy asoslardagina chetga chiqishi mumkin – hukumatning o'zi-o'z qarorlari bilan huquqlarga cheklovlar kiritishga huquqi yo'q; huquq va erkinliklarni cheklash darajasi cheklov choralari kiritilishini taqozo etgan qadriyatni himoyalash masalasining keskinligi va dolzarbligiga javob berishi kerak; cheklov choralarining o'zi demokratik davlat qabul qilgan prinsiplarga mos kelishi kerak. Davlat tomonidan bu shartlarning buzilganligi haqidagi masalalar bilan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi shug'ullanadi.

Cheklovlar mavjud va bo'lishi ham kerak, ammo ularning harakat radiusi va xarakteri qat'iy kontrol qilinishi kerak. Inson huquqlarini cheklash imkoniyati bu huquqlar mohiyatini yo'qqa chiqarishni anglatmasligi kerak. Har bir insonning o'z huquqlarini himoya qilishga imkon beruvchi tartiblar mavjud bo'lmasa, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish faktining o'zi hech bir ahamiyat kasb etmaydi. Shunday qilib, inson huquqlarining qaror topishi va rivojlanishi u yoki bu mamlakat uchun xarakterli bo'lgan an'analar va ta'limotlar kurashi bilan kechuvchi uzoq tarixga ega.

Inson asosiy huquqlari deganda nimani tushunish kerak, ularni konstitutsiyaviy huquqlarga tenglashtirish mumkinmi? Qator konstitutsiyalarda qat'iy ta'riflarining yo'qligi bu savolga javob berishni qiyinlashtiradi. Fikrimizcha, individning asosiy huquqlari - bu eng avvalo konstitutsiyaviy huquqlardir. Asosiy huquqlar subyektiv huquqlar hisoblanadi.

Hozirda inson huquqlari himoyasi alohida olingan davlatlar chegarasidan chiqqan vaqtda universal xalqaro-huquqiy standartlarni yaratish zaruriyati yuzaga keldi, bular ham shuningdek inson asosiy huquqlari hisoblanadi. Bu asosiy huquqlar qator muhim xalqaro-huquqiy hujjatlarda ifodalangan, bu hujjatlar shaxs manfaatlari va huquqlarining umuminsoniy standartlarini o'rnatadilar, davlat ular belgilagan darajadan pastga tusha olmaydi. Bu inson huquqlari va erkinliklari faqat davlatning ichki kompetensiyasi obyekti bo'libgina qolmasdan, balki, shuningdek, butun xalqaro hamjamiyatning ishiga aylanganligini ko'rsatadi. Bugun shaxs huquqlari va erkinliklarining hajmi faqat u yoki bu jamiyatning

konkret xususiyatlari bilan emas, shu bilan birga umuman insoniyat sivilizatsiyasi rivoji, xalqaro hamjamiyatning uyushganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi Xalqaro Pakt (1966y.), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi Xalqaro Pakt (1966y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi Xalqaro Paktga Birinchi fakul'tativ Protokol (1966y.), Ikkinchi fakul'tativ protokol (1989y.), Inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasi haqidagi Yevropa konvensiyalari va qator boshqa xalqaro hujjatlar inson huquq subyektliligiga tub o'zgartishlar kiritdiki, u endi nafaqat ichki davlat, shuningdek, xalqaro huquq subyekti ham hisoblanadi. Bu xalqaro-huquqiy hujjatlar individning normal hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquq va erkinliklari-ning universal to'plamini belgilaydi.

Shu sababli hozirgi sharoitda inson asosiy huquqlari deganda davlat konstitutsiyasida va inson huquqlari bo'yicha muhim xalqaro-huquqiy hujjatlarda ifodalangan huquqlarni tushunish kerak. Agar insonning birorta asosiy huquqi davlat konstitutsiyasiga kiritilmay qolsa, unda bu huquq mazkur davlatda konstitutsiyaviy mustahkamlanishidan qat'iy nazar tan olinishi kerak. Xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi ichki davlat huquqiga nisbatan ustunligi xalqaro hamjamiyatning umum tan olingan prinsipi hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik qadriyatlarga, inson huquqlariga bo'lgan ijobiy munosabatini jahon hamjamiyatiga namoyon etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Asosiy qonunimizda birinchi navbatda shaxs manfaatining ustun etib belgilanganligi, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo'yilganligini yana bir marta ta'kidlab o'tish o'rinli"¹.

2. Inson huquqlarining uch avlodi

Inson asosiy huquqlari kategoriyasini ajratib ko'rsatish boshqa huquqlarni "ikkinchi darajali", ta'minlash uchun davlat tomonidan kam e'tibor talab qilinadigan, kam ahamiyatli huquqlar deb hisoblashni anglatmasligi kerak. Asosiy huquq va erkinliklar individ huquqiy maqomining asosiy bo'g'inini tashkil etib, unda insonning normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan boshqa ko'p sonli huquqlarni vujudga

¹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият Халқ сўзи. 2005 йил 8-декабр.

kelish imkoniyatlari ildiz otadi. Bu huquqlar individ, uning boshqa kishilar, jamiyat va davlat bilan o'zaro ta'siri uchun juda muhim. Asosiy huquqlardan individning ko'p miqdordagi boshqa huquqlari kelib chiqadi.

Asosiy fundamental huquqlar va ulardan kelib chiquvchi boshqa huquq va erkinliklar inson hayotining boshqa: shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarini ta'minlaydilar. Shunga mos holda ular guruhlar va nomlanishi bo'yicha tuziladi. Biroq, bu huquqlar faqat hayotning turli sohalariga taalluqli bo'lmay, shuningdek vujudga kelish vaqti bo'yicha ham farqlanadilar. Bundan "inson huquqlarining avlodi" degan tushuncha kelib chiqadi.

Inson huquqlarining birinchi avlodi deb burjua revolyutsiyalarini amalga oshirish jarayonida shakllangan va keyinchalik demokratik davlatlar qonunchiligi va amaliyotida konkretlashtirilgan va kengaytirilgan an'anaviy liberal qadriyatlar tan olinadi: fikr yuritish, vijdon va e'tiqod erkinligi, har bir fuqaroning davlat ishlarini boshqarish huquqi, qonun oldida teng bo'lish huquqi, shaxsning yashash, erkin va xavfsiz bo'lish huquqi va b.

"Negativ erkinlik"ni amalga oshiruvchi bu huquqlar davlatni bu huquqlarni amal qilish sohasiga aralashishdan tiyib turishga majbur qiladi. Inson huquqlarining ikkinchi avlodi turli sinflar va tabaqalarning o'z iqtisodiy ahvolini yaxshilash, madaniy maqomini ko'tarish ("pozitiv huquqlar" deb nomlanuvchi) uchun olib borgan kurashi jarayonida shakllangan, ularni amalga oshirish uchun bu huquqlarni ta'minlash bo'yicha davlat faoliyatining tashkiliy, rejali va boshqa shakllari talab qilinadi.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshida burjua jamiyatining keskin qutblanishi tufayli yuzaga kelgan nomotadil vaziyatni baholagan yangi liberalizm jamiyatdagi boylar va kambag'allar qarama-qarshiligini yumshatishga xizmat qiluvchi jamiyatni isloh qilish g'oyasini ilgari surdi. Bunday g'oya muqarrar holda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar: mehnat qilish huquqi, erkin ish tanlash huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi, dam olish huquqi, onalik va bolalikni himoya qilish huquqi, bilim olish huquqi, jamiyat madaniy hayotida ishtirok qilish huquqining vujudga kelishi bilan bog'liq. Hozir dunyoda bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar haqidagi Xalqaro Paktda, Evropa sotsial hartiyasida aks etganligi inson huquqlari rivojida, bu huquqlar katalogini kengayishida katta qadam bo'lib hisoblanadi.

Birinchi avlod huquqlari o'z tabiatiga ko'ra ikkinchi avlod huquqlaridan farqlanadi. Bu davlatning ularga nisbatan tutgan pozitsiyasiga bog'liq. Birinchi avlod huquqlari burjua siyosiy va huqu-qiy fikri tomonidan bu huquqlar(fuqarolik jamiyati a'zosining huquqlari)ni va siyosiy huquqlar (siyosiy hokimiyatni amalga oshirish ishtirokchisining huquqi)ni amalga oshirishda har qanday, shu jumladan davlat aralashuvidan himoyalani sh huquqini taqozo qiluvchi fuqarolik huquqlari deb nomlangan. Gap, eng avvalo, individual erkinlikning himoyasi haqida boradiki, uning cheklanishi ijtimoiy hayot va madaniyat sohasini muqarrar ravishda obro'sizlantiradi.

Ularni amalga oshirish uchun davlatga bu sohaga aralashishdan voz kye chishning o'zi yetarli emas. E'lon qilingan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni kafolatlashga imkon beruvchi ijtimoiy dasturlarni tuzish va har tomonlama bunyodkorlik ishlarini olib borishdan iborat vazifa yuzaga keladi. Paktga qo'shilish davlat uchun o'z ichki qonunchiligini takomillashtirish va unga mos o'z faoliyatini tashkil qilish majburiyatini yuzaga keltiradi. XX-asr oxiriga kelib davlatlarning ijtimoiy davlat bo'lishga intilmasliklarining iloji bo'lmay qoldi. Bu xorijiy davlatlar qator konstitutsiyalarida mustahkamlangan hozirgi zamon davlatlari rivojlanishining qonuniyatidir (GFR, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Turkiya).

2-jahon urushidan keyingi davrda inson huquqlarining uchinchi avlodi shakllandi. Uchinchi avlod huquqlari tabiati munozaralar predmetini tashkil qiladi. Bu huquqlarning xususiyati shundaki, ular kollektiv huquqlar hisoblanadi va alohida inson tomonidan emas, balki jamoa, uyushma tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash yoki rivojlanishga bo'lgan huquqi jamoaviy huquq bo'lib, ularni amalga oshirish alohida shaxsga emas, umumiy jamoaga bog'liq. Alohida inson bunday huquqlarni amalga oshirilishida ishtirok qiladi, biroq bu ishtirok uning shaxsiy maqomi bilan emas, balki uning jamoa a'zosi sifatidagi mavqei bilan bog'liq. Individual va kollektiv huquqlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, uning negizida kollektiv huquqlarni amalga oshirilishi individ huquqlari va erkinliklarini kamsitmasligini belgilovchi prinsip yotishi kerak. Bu huquqlarning amalga oshirilishi boshqa millat yoki irqqa tegishli individ huquqlarini kamsitmasligi kerak. Qandaydir jamoat tashkiloti (assotsiatsiya)ning kollektiv huquqlari individual erkinliklarni cheklash yoki bostirishga asoslanmasligi kerak.

3. Shaxsning huquqiy maqomi: tushunchasi va tuzilishi

Individning davlat bilan va kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari o'rtasidagi murakkab aloqalari davlat tomonidan yuridik shaklda –huquq, erkinliklar va burchlarning uzviy birligi bo'lgan individ huquqiy maqomi shaklida qayd etiladi. Individ huquqiy maqomi - bu jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, demokratiya darajasi, qonuniylik ahvoli bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim siyosiy-yuridik kategoriyalardan biridir.

Eng umumiy tarzda shaxs huquqiy maqomini inson huquqlari haqidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda va davlat tomonidan konstitusiyalarda, boshqa normativ-yuridik hujjatlarda qonuniy mustahkamlangan huquqlar va majburiyatlar tizimi sifatida xarakterlash mumkin. Huquq va majburiyatlar tizimida mavjud asosiy yuridik muammolar yechimiga yo'l o'zining ifodasini topgan. Huquq va majburiyatlarda, nafaqat, davlat ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko'rsatishi uchun majburiy, foydali, maqsadga muvofiq deb hisoblab o'z zimmasiga olgan xulq-atvor namunalari, standartlari qayd etiladi, shuningdek, davlat bilan shaxs o'zaro munosabatlarning asosiy yuridik prinsiplari ham namoyon bo'ladi.

Davlat bilan shaxs o'zaro aloqadorligi qat'iy tartibga solishni taqozo etadi. Bu bunday xil munosabatlarning individ erkinligini ta'minlash uchun, jamiyatni normal amal qilishi uchun alohida muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Fuqaro huquqiy maqomining sharti bo'lib, insonning muayyan siyosiy-huquqiy holati bo'lgan fuqarolik hisoblanadi. U individning davlatga tegishliligini bildiradi, "yuridik shaklda namoyon bo'ladi, fuqarolikni olish, yo'qotish shartlari va tartibini belgilovchi fuqarolik institutida siyosiy-huquqiy jihatdan ifodalanadi"¹, yuridik huquqlar va prinsiplardan foydalanish va qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishda individ uchun yuridik asos, ya'ni shaxs huquqiy maqomi-ning asosi bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy maqom, huquq va majburiyatlar tabiati huquqiy fanning bosh tushunchalari sifatida yuristlar e'tiborini tortadi. Shaxs huquqiy maqomi tushunchasiga nisbatan bir necha yondoshuvlar mavjud. Ba'zi olimlar shaxs huquqiy maqomiga bevosita fuqarolikni kiritadilar. Fikrimizcha, fuqarolik - bu huquqiy maqomni to'la hajmda hech bir istisnalarsiz belgilovchi shart-sharoit (asos) dir. Biroq, huquqiy maqomga

¹ Витрук Н.В. Основы правового положения личности в социалистическом обществе. М., 1979., с.38.

faqat fuqarolar emas, balki fuqaroligi yo`q shaxslar, xorijliklar ham ega. Bu holatda ular huquqiy maqomining hajmi fuqaro huquqiy maqomi (asosan siyosiy huquqlar sohasida)dan farq qiladi.

Huquqiy maqom tuzilmasiga shuningdek, umumiy huquq layoqatlilik, kafolatlar, qonuniy manfaatlar, yuridik javobgarlikni ham kiritadilar. Demak, huquqiy maqom tushunchasi haqidagi bahslar asosan unga kiruvchi elementlar to`plamini aniqlash bilan bog`liq.

O`zining yuridik tabiatiga va kafolatlari tizimiga ko`ra, inson huquqlari va erkinliklari aynan bir narsa. Ular davlat tomonidan ta`minlanadigan turli ijtimoiy sohalaridagi insonning ijtimoiy imkoniyatlarini belgilaydilar.

“Huquq” atamasi “erkinlik” atamasidan farq qilib, yanada aniq harakat chegarasini belgilaydi, masalan, davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, saylash va saylanish huquqi. Biroq, huquqlar va erkinliklar o`rtasida aniq chegarani o`tkazish qiyin, chunki ko`pincha siyosiy huquqlarning butun sohasini ba`zan “erkinliklar” deb ham ataydilar. Terminologiyadagi bu farq an`anaviy bo`lib, XVIII-XIX-srlarda paydo bo`lgan. Konstitutsiyalarda asosiy huquq va erkinliklar inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga bo`linadi. Avvalgi sovet davri konstitutsiyasida inson holati faqat uning davlat bilan o`zaro aloqadorligini davlat hokimiyatidan “hadya qilingan” huquqlargagina egaligi va uning butunlay davlatga tobe fuqaro ekanligi belgilangan. Inson va fuqaro o`rtasida farqlarni belgilab, yangi konstitutsiyalar burjua inqiloblari natijasida tasdiqlangan va insoniyat tarixida birinchi marta teng, erkin, baxtli bo`lish huquqlarini qonuniy tartibda mustahkamlagan Mustaqillik deklaratsiyasi (1876), Huquqlar haqidagi Bill(1791) (AQSh), Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789) (Fransiya)da o`z ifodasini topgan.

Insonga nisbatan bunday ikki xil yondoshuvdan maqsad nima? U bevosita fuqarolik jamiyati bilan davlatni farqlashdan kelib chiqadi, insonni faqat uning davlat bilan o`zaro aloqadorligi, uning o`z taqdirini o`zi belgilash sohasini toraytirish masalalariga bir tomonlama qarashga barham beradi. Insonga uning individual manfaatlari harakatlantiruvchi kuch bo`lgan faoliyatning avtonom sohasi beriladi. Bunday manfaatni amalga oshirish xususiy mulkchilikka asoslangan fuqarolik jamiyatida, oilada, shaxsiy hayot sohasida mumkin bo`ladi va insonga unga tug`ilishi bilan beriladigan tabiiy huquqlarga tayanadi. Davlat bu munosbatlarga aralashishdan o`zini tiyib, ularni faqat o`zi tomonidagina emas, balki boshqalar tomonidan ham aralashishdan qo`riqlashi kerak. Shunday qilib, fuqarolik jamiyatida inson huquqlari asosida shaxsni o`z taqdirini o`zi

belgilash, o`zini namoyon etish, har qanday noqonuniy aralashuvdan uning avtonomligi va mustaqilligini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi.

Fuqaro huquqlari individning davlat bilan bo`ladigan munosabatlar sohasini qamrab oladiki, bunda u o`z huquqlarini nafaqat noqonuniy aralashuvdan himoya qilishga, shuningdek, ularni amalga oshirishda davlatning faol ko`magiga ham tayanishi mumkin. Fuqaro maqomi uning davlat bilan bo`lgan maxsus huquqiy aloqadorligidir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Inson huquqlari va ularni tushunish masalalari
2. Inson huquqlari individlar o`rtasidagi munosabatning normativ shakli sifatida
3. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar tavsifi
4. Inson huquqlarining shakllanish tarixi
5. Inson huquqlarining uch avlodi tavsifi
6. Shaxsning huquqiy maqomi tushunchasi va tuzilishi
7. Inson va fuqaro tushunchalarini farqlashning ahamiyati
8. O`zbekiston Konstitutsiyasi va inson huquqlari

8-MAVZU. POZITIV HUQUQ TIZIMI VA KATEGORIYALARI

REJA

1. Pozitiv huquq tushunchasi va uning nazariy asoslari.
2. Huquq normalari tushunchasi va belgilari
3. Huquq manbalari muammolari
4. Huquq ijodkorlik muammolari
5. Huquq tizimi. Huquq tizimi bilan qonunchilik tizimi o`rtasidagi nisbat.
6. Qonunchilikni tizimlashtirish muammolari.
7. Huquqiy tartibga solish mexanizmida huquqiy munosabatlarning o`rni.
8. Hozirgi zamonda huquqiy ong inqirozi va uni bartaraf etish muammolari.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон.2002. 76 б.
3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
4. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайдиган. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал.
5. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат 2001. 695 с.
7. Исламов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. Т.: ТДЮИ нашри. 2004.139 б.
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 188 б.
9. Нерсисянц В.С. Ҳуқуқ фалсафаси. Қисқача ўқув қўлланма. Мас. мух. ю.ф.д., проф. А.Х.Саидов. Т.: Адолат. 2003. 280 б.
10. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. – М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.

11. Проблемы теории государство право: Учебное пособие. F Под ред.М.Н.Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
12. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М.: НОРМА. 2000.-233 с.
13. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. М.: Статут. 1999.-810 с.
14. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
15. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. Вопросы и ответы. М., «Новый юрист»-1999.240 с.
16. Кельзен Г. Чистое учение о праве. М.:Прогресс, 1988.
17. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О.. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар.Т.:ТДЮИ наشري. 2005. 316 б.
18. Рустамбоев М.Ў.Абдухолиқов С.О.Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданияи тушуниш асослари. 2-китоб. Т.: ТДЮИ наشري. 2005. 404 б.
19. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. муҳ. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Pozitiv huquq tushunchasi va uning nazariy asoslari

Huquq tushunchasi juda keng qamrovli bo`lib, uning turli ta`riflari mavjud. Shu o`rinda pozitiv huquq tushunchasiga biroz to`xtalishimiz zarur. V.S.Nersesiansning ta`biricha, «pozitiv huquq deganda mazkur jamiyatda harakatda bo`lgan, konkret-aniq mazmun va shaklga ega bo`lgan huquq ma`nosida, ya`ni yagona bir davlatga birlashgan insonlar xatti-harakatini tartibga soluvchi vosita sifatida o`zini namoyon etadigan huquq tushuniladi».

Huquqning vujudga kelishi va undan foydalanish jarayonida uning mohiyati insonlar tomonidan amaliy zaruriy xatti-harakat qoidalari vujudga kelishi va mustahkamlanishidan ancha keyinroq anglana borgan. Huquqning o`zi hamma tomonidan e`tirof etiladigan va yagona, butun jamiyat uchun umumiy bo`lgan xatti-harakat qoidalari sifatida namoyon bo`ladi.

Huquq insonlarning amaliy faoliyati sohasidagi ichki ishonchlari, baholari va intilishlari asosida vujudga keladi. Bundan tashqari, u yoki bu ma`rifiy jamiyatda mavjud bo`lgan huquq haqidagi qarashlar, g`oyalar va

ta'limotlar insonlar xatti-harakatini tartibga soladigan pozitiv huquqga asos bo'ladi. Pozitiv huquq normalari mazmunining tuzilishi tarixan asta-sekin boyib borgan. Qadimgi davrlardagi hukmdorlarning alohida «buyruqlari» hamda sudlarning turli masalalardagi «hukmlaridan» tortib fuqarolar, hokimiyat va amaldorlarning xatti-harakatini belgilovchi umumiy qoidalar, prinsiplargacha bo'lgan tarixiy rivojlanish davrini boshidan kechirgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida turli odatlar va an'analar pozitiv huquq tomonidan e'tirof etilgan. Bugungi kunda inson huquqlari haqidagi normalar va prinsiplar tobora mustahkamlanmoqda va ular nufuzli xalqaro hujjatlar orqali pozitiv huquqning tarkibidan munosib o'rin egallamoqda. Bundan tashqari, pozitiv huquq o'z ichiga konkret shartnomalardan kelib chiqadigan va qonunga zid kelmaydigan huquq va majburiyatlarni oladi.

«Pozitiv huquq» atamasi XVI-asrning oxiri –XVII-asr boshlaridan boshlab huquq fani va amaliyotiga kira boshlagan. Ma'lumki o'sha davrda «davlat» huquqini ilohiy tabiiy huquqqa qarama-qarshi qo'yish keng tarqalgan. Bunday fikrlar dastlab niderlandiyalik mutafakkir Gugo Grotsiy tomonidan «O prave voyni i mira» («Urush va tinchlik huquqi xususida») nomli asarida shakllantirilgan¹. O'sha paytda insonning tabiiy huquqlariga qonunchilikdan mustaqil bo'lgan va adolatli davlat uchun majburiy bo'lgan huquq sifatida qarash ancha keng tarqalgan. Bunday fikrlar J.-J.Russo, Sh.-L.Montesk'e, Vol'ter, T.Gobbs, I.Kant, A.Radishev (XVII-XVIII asrlar) asarlarida o'zining ifodasini topgan.

Tabiiy huquq davlatning qonunchiligidan farq qilgan holda, abadiy va o'zgarmas, insondan ajralmas huquqlar sifatida e'tirof etilgan. XIX-XX-srlardan boshlab Yevropa va Shimoliy Amerikada mulk erkinligiga asoslangan burjua davlatchiligi mustahkamlanayotgan bir sharoitda siyosatchilar va huquqshunoslar o'z e'tiborlarini nafaqat tabiiy huquqlarga, balki real hayotda mavjud bo'lgan davlat tomonidan yaratiladigan qonunlar va normativ aktlar, shuningdek, sud pretsedenti va sanksiyalangan odatlarga qaratisha boshlagan. Shu tariqa tabiiy huquq nazariyasining obro'si Ma'rifat-parvarlik va XVIII-XIX-srdagi burjua inqiloblari davridagidan kamaya borgan. XIX-asr va XX-asr boshlarida huquq nazariyasidagi bunday rivojlanish liniyasi yurisprudensiyaning qator yangi yo'nalishlarida o'zining ifodasini topgan: Huquqning tarixiy maktabi (Gugo, Savin'i, Puxta), pozitiv yo'nalishning turli variantlari (Angliyada D.Ostin, I.Bentam va b., Rossiyada G.F.Shershenevich), huquqning sotsial nazariyalari (L.Dyugining solidarizm «birodarlik»,

¹ Каранг: Проблемы общей теории права и государства. М.:Инфра. 2004.С. 237.

R.Iering, N.M.Korkunovning manfaatlar nazariyasi, F.Jeni, S.Erlis, S.A.Muromsevning sotsiologik maktabi, L.I.Petrajiskiy va uning izdoshlarining psixologik huquq maktabi) kabilar.

Mana shunday bir sharoitda tabiiy huquqqa xuddi kerakmas, feodal mutloqlikka qarshi kurashda o`zining rolini o`tagan bir tu-shuncha sifatida qarala boshlandi. Shu tariqa yuridik fikr o`z e`tiborini davlat tomonidan o`rnatilgan, real harakatda bo`lgan huquqqa qarata boshladi. Hatto L.Petrajiskiy tabiiy huquq mavjud emas ekan, demak «pozitiv» huquqni «huquq» deb atayverish kerak, degan fikrgacha borgan. «Pozitiv huquq» atamasi angliya, fransiya, avstriya va boshqa hozirgi zamon davlatlari huquqida, garchi ushbu davlatlar shaxsning tabiiy huquq va erkinliklari demokratik tamoyillari bilan aloqani uzishmagan bo`lishsada, shunga qaramay e`tirof etiladi. «Pozitiv huquq» atamasi hozirgi zamon davlatlari turli hu-quqiy tizimlari huquq shaklini umumiylashtirishga yordam beradi.

Shu o`rinda bir holatni ta`kidlash lozimki, Yevropa mamlakat-lari huquqlarida garchi «qonunchilik», «qonun» atamalarini «pozitiv huquq» atamasi bilan bir xil tushunish mavjud bo`lsa-da, Angliya, Kanada, Avstraliya Ittifoqi va boshqa anglo-sakson pretsedent huquqini «qonunchilik» deb atash mushkul. Diniy va an`anaviy huquq, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari huquqiy tizimidagi «qonunchilik» atamasiga qayd etilayotgan atama unchalik mos kelavermaydi. Shu bois, «pozitiv huquq» atamasi hozirgi zamon huquqiy tizimlaridagi « amaldagi, harakatdagi huquq» tushunchasini ifodalashda foydalanilsa joiz.

Shunday qilib, pozitiv huquq bu yuridik harakatda bo`lgan, davlat va xalqaro hamjamiyat tomonidan muhofaza qilinadigan normalar, huquqning umumiy prinsiplari, shuningdek, huquqiy munosabat ishtirokchilarining ularga asoslangan qonuniy manfaatlar, huquq va majburiyatlaridir. Pozitiv huquq shakllanishining ijtimoiy jarayoni – bu obyektiv tarkib topgan va jamiyat hamda davlat hayotida subyektiv tarzda namoyon bo`ladigan huquq normalari shakllanishiga ta`sir etadigan turli ijtimoiy omillarning o`zaro harakati, ta`siridir; bu jarayon davlatning yuridik rasmiylashgan huquq ijod etish jarayoni bilan yakunlanadi.

2. Huquq normalari tushunchasi, belgilari

Huquq normasi - bu ijtimoiy hodisa bo`lgan huquqning muhim elementi, yaxlit huquq tizimining asosiy hujayrasi, bo`g`inidir. Huquqni shakllantirish va tadbiq qilish jarayoni, qonunchilik, barcha yuridik tushunchalar, huquq tizimi va hatto nazariyaning negizida ham bevosita

yoki bilvosita tarzda huquq normasi yotadi. Yuridik fanda huquqni turlicha, ya'ni normativ, ijtimoiy, etik jihatdan tushunish mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarzda asoslan-tiriladi. Huquqni qo'llash va tadbiq etishda huquqni normalar tizimi sifatida tushunish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Har bir norma o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini, muayyan yurish-turish modelini ifodalaydi, masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ko'ra, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga maj-burdirlar. Bu huquqiy norma fuqarolarning tabiatga, tabiiy resurslar, hayvonot va o'simlik dunyosi, atmosferaga nisbatan qanday xatti-harakat qilishlari to'g'risidagi qoidani o'zida mustahkam-laydi. Huquq normasi – bu barcha huquq subyektlari uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan va qo'riqlanadigan hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan muayyan aniq shakllangan xatti-harakat qoidasi, xulq-atvor namunasi bo'lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyat-lari mustahkamlangan bo'ladi.

Huquq normasi - bu bajarilishi lozim va kelgusiga qaratilgan me'yoriy qoida, xulq-atvor o'lchovi bo'lib, u muayyan tarzda shakllan-tiriladi, ya'ni qonunchilikda o'z ifodasini topadi. Muayyan masalalar bo'yicha buyruq, ko'rsatma, farmoyishlardan farq qilib, norma ayrim alohida shaxsga emas, balki shaxslar guruhiga, huquq subyektlariga yo'naltiriladi; normaning amal qilishi bir gallik ijro etish bilan tugamaydi, balki u cheklanmagan miqdordagi holatlarga taalluqli bo'ladi; u ijtimoiy munosabatlarga va kishilar xatti-harakatiga tadbiq qilingandan so'ng ham amal qilaveradi.

Huquq normasi shaxslarning bir-biri bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida qanday xatti-harakat modeliga, namunasiga rioya etishlari lozimligini, ya'ni qaysi harakatlarni sodir etish yoki etmaslik mumkin ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda huquq normasi huqu-qiy xulq mezonini sifatida o'zini ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida ko'rsatilishicha, mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Huquq normasining tartibga soluvchi vosita sifatidagi ahamiyati shunda ko'rinadiki, biron-bir huquq subyekti (masalan, jismoniy shaxs, organ, muassasa) o'z harakatida huquq

normasida mustahkamlangan qoidaga rioya etadi yoki boshqa huquq subyektidan huquq normasida belgilangan tegishli xatti-harakatni sodir etishni talab qiladi, shuningdek, belgilangan qoidaning bajarilmaganligi huquq buzuvchiga nisbatan ta'sir chorasining qo'llanishiga olib keladi.

Huquq subyekti huquq normasida belgilangan xatti-harakat namunasiga rioya qilgan holatida huquq normasi xatti-harakat o'lchovi, me'yori, doirasi, chegarasi sifatida namoyon bo'ladi. Va, aksincha, huquq normasida belgilangan qoida buzilganda esa, u huquq subyekti harakatiga baho berish vositasi sifatida o'zini ko'rsatadi.

Ma'lumki, huquqning tartibga soluvchilik roli katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki u bo'lishi ehtimoli nazarda bo'lgan huquq buzilishi hollarining oldini olishga xizmat qiladi, sababi huquq subyekti tomonidan belgilangan xatti-harakat qoidasini buzilishi muqarrar ravishda unga nisbatan ta'sir choralari qo'llanishiga olib keladi.

Huquq normasi boshqa ijtimoiy normalardan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. U jamiyat, shaxs yoki ijtimoiy guruhlar uchun eng muhim va ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunda eng avvalo, adolat va erkinlik g'oyalari mos keluvchi normal ijtimoiy munosabatlar qonuniy jihatdan mustahkamlanadi. Zararli, noxush ijtimoiy xulq-atvor normada o'z-o'zicha aks etmaydi, balki konfliktli vaziyatlarni tartibga solish vositasi bilan ifodalanadi.

Yuridik normalarda ifodalanuvchi ijtimoiy munosabatlarning qanday ahamiyat kasb etish darajasiga qarab norma qonunchilik ierarxik tuzilmasida o'z o'rnini egallaydi. Masalan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yuridik jihatdan ko'proq yuqori ahamiyatli bo'lgan normativ-huquqiy aktlar - Konstitutsiya va qonunlarda beriladi.

2. Huquq normasi umumiy xarakterga ega. U ijtimoiy munosabat qatnashchilarining barchasiga, ularning xohish-istagiga bog'liq bo'lmagan holda tegishli bo'ladi, ya'ni u bironta konkret hol va hayotiy vaziyatga mo'ljallangan bo'lmay, balki ularning muayyan turiga, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning Ma'lum bir kategoriyasiga, turkumiga tegishlidir. U hayotiy vaziyatlarning tipik jihatlarini belgilab beradiki, ularda ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakat norma bilan tartibga solinuvchi ishtirokchilarning guruhviy belgilari namoyon bo'ladi; qoidaning o'zi xulq-atvor modeli (namunasi) sifatida umumiy shaklda ifodalanadi, normalarni buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari ham umumiy shaklda beriladi. Huquq normasi ayrim, yakka munosabatga emas, balki

munosa-batlar turiga taalluqli bo`ladi, bu bilan u huquqni qo`llash aktlaridan, ya'ni davlat organlarining muayyan ishlar bo'yicha chiqarilgan qarorlaridan, shartnomalardan, individual farmoyishlardan farqlanadi. Ish bo'yicha qabul qilingan qaror birorta individual vaziyatga va munosabatga nisbatan huquqiy normani qo`llashdan kelib chiquvchi natija bo`lib, unda doimo muayyan aniq shaxs, uning huquq yoki majburiyatlari mazmuni belgilab qo`yiladi.

Huquqiy norma turdosh belgilari bilan farqlanadigan shaxslar doirasiga yo`naltirilgan bo`ladi (masalan, fuqarolar, ota-onalar, er-xotinlar, soliq inspeksiyasi, prokuratura, tuman sudi va b.ga nisbatan). Huquq normasi, aniq shaxslarga nisbatan qaratilgan va to bajarilgunicha amalda bo`ladigan farmoyishlardan farq qilib, ijro etilish bilan cheklanmaydi (masalan, binoni qurish haqidagi buyruq, muayyan mulkni berish, mukofot pulini berish, ishdan bo`shatish haqidagi buyruq). Huquq normasi aynan bir va mavjud vaziyatga mo`ljallangan bo`lmay, balki muayyan turdagi umumiy shaklda kelgusida namoyon bo`luvchi vaziyatlar va munosabatlarning cheklanmagan miqdoriga mo`ljallangan (shartnoma tuzilishi, nikohga kirish, farzand tug`ilishi va h.) va unda nazarda tutilgan holatlar mavjud bo`lgan har bir holatda qo`llanilaveradi (farzand ko`rish munosabati bilan xodimaga ta`til berilishi va h.).

3. Huquq normalari davlatning vakolatli organlari tomonidan o`rnatiladi va sanksiyalanadi (rasman tan olinadi), ularda davlat erki irodasi, hokimona amri o`z ifodasini topadi, ya'ni huquq normasi muayyan munosabatlar ifodasi yoki muayyan harakatni sodir etishni maslahat beruvchi tavsiyanoma tarzidagi qoida bo`lmay, balki shu normada ko`rsatilgan holatlar yuzaga kelganda qanday harakat qilish lozimligini belgilovchi hokimona amr-buyruq bo`lib, u umummajburiy qoida tariqasida amal qiladi.

Huquq normalari davlat tomonidan qo`riqlanadi. Ularda belgi-langani burchlarni yoki taqiqlangan xatti-harakatni sodir etish (huquq buzilishi) davlatning majburlov choralari qo`llanishini taqozo etadi. Huquq normalari buzilgan hollarda qo`llaniladigan davlat majburlov choralari turlicha bo`lishi mumkin: ular buzilgan huquqni tiklashga, bajarilmagan majburiyatni amalga oshirishga qaratilgan bo`ladi yoki huquq buzuvchiga jazo chorasi qo`llaniladi.

5. Huquq normalari rasmiy huquqiy hujjatlarda shaklan aniq qoidalar tarzida mustahkamlangan bo`ladi, zero huquq normasini to`g`ri tushunish va o`rinli qo`llash uchun u albatta puxta ishlangan, aniq va ixcham shaklda bayon qilingan qoida bo`lishi kerak.

3. Huquq normalarining tuzilishi

Huquq normasi o'z ichki tuzilishiga ega, ya'ni u tarkibiy qism-lardan iborat bo'lib, ayni paytda ular o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Huquq normasi o'zining birligi, butunligi, bo'linmasligi bilan farqlanadi. Huquq normasining tuzilishida uning huquqning birlamchi bo'g'ini sifatida bajaradigan maxsus funksiyalari namoyon bo'ladi: ijtimoiy munosabatlarni aniq, batafsil va muayyan normativ tartibga solishni ta'minlash kabi funksiyalari.

Huquq normasining tuzilishi uning ichki mazmunini belgilaydi. Huquq normasi o'zining ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi (regulyator)lik rolini, agar bu munosabatlarni shakllantiradigan real hayot shart-sharoitlarini, ularning xususiyatlarini e'tiborga olsagina, bajara oladi, aks holda bu funksiya bajarilmay qoladi. Normada qoidani majburiy bajarish nazarda tutilishi kerak, aks holda u norma emas, balki istak bo'lib qoladi. Shu sababli, huquq normasi mazkur funksiyalarni bajaruvchi elementlar - qoidalarning birligidan iborat bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy normaning tuzilishi masalasida turli yondashuvlar mavjud bo'lsada, an'anaviy tarzda u 3 elementdan iborat bo'ladi:

1) **Gipoteza** - bu huquq normasi harakatga keladigan aniq faktik hayotiy shart-sharoitlar va holatlar (voqea, insonlar xatti-harakatlari, holatlar). Gipotezada huquq normasida belgilangan qoida **qay sharoitda va qay holatda** hamda **kim tomonidan amalga oshirilishi** ko'rsatiladi. Masalan, fuqarolik huquqi normasi fuqarolarning muomila layoqati qaysi holda to'la vujudga kelishini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi FKning 22-moddasiga ko'ra, fuqaroning to'liq muomila layoqati u voyaga etgach, ya'ni 18 yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Yoki O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 13-moddasi fuqaroning ma'muriy javobgarlikka tortilishi qaysi vaqtdan boshlanishi, ya'ni 16 yoshga to'lganidan keyin boshlanishini belgilaydi.

2) **Dispozitsiya** - huquq normasining «yuragi» bo'lib, u gipotezada nazarda tutilgan holatlar va sharoitlarga dahldor subyektlar bo'ysunishi lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasidir. Unda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilanadi va ularning ehtimoli nazarda tutilayotgan xatti-harakatlarining variantlari aniqlanadi. Demak, dispozitsiya huquqiy normaning bir elementi (tarkibiy qismi) bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda huquq subyektlari rioya etishlari

(bajarishlari) lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi ifodalangan bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar, bunda: gipotezada ko'rsatilgan holatlar – farzandlarning voyaga etishi va mehnatga layoqatli bo'lish holatlarining mavjudligi dispozitsiyaning amal qilishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni farzandlarda o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilish majburiyatini yuzaga keltiradi.

3) **Sanksiya** - huquq normasining tarkibiy elementi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoida (talablar)ni bajarmaganlik uchun shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi ifodalanadi.

Demak, huquq normasining tarkibiy elementlari quyidagilarni belgilaydi:

a) **Gipoteza** - dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kim, qachon va qaysi sharoitda bajarishi lozimligini;

b) **Dispozitsiya** - huquq subyektlari bajarishi lozim bo'lgan qoidaning nimadan iborat ekanligini;

v) **Sanksiya** - dispozitsiyada nazarda tutilgan qoidani bajar-maslik (yoki bajarilish) oqibatlarini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, hamma huquqiy norma ham uch elementli tuzilishga ega emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasida faqat gipoteza va dispozitsiya ko'rsatilgan va bu hol deyarli barcha konstitutsiyaviy normalarga xos. «Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi». Jinoiy va ma'muriy javobgarlikni ko'zda tutuvchi normalar esa asosan dispozitsiya va sanksiyadan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, huquq normasining tarkibi - bu uning o`zaro mantiqiy bog`liq ichki tuzilishi, qurilishidir.

Kolliziyaviy normalar. Ijtimoiy munosabatlar jadal rivojlanib va murakkablashib borayotgan hozirgi davrda bironta ham qonunchilik turfa ijtimoiy munosabatlarning barcha xususiyatlarini o`zida aniq va to`la ifoda eta olmaydi. Shu bois amaldagi qonunchilikda ba`zi nomutanositliklar bo`lishi Ma`lum ma`noda obyektiv xarakterga egadir. Har bir davlatning qonunchiligi o`ziga xos murakkab, kup tarmoqli tuzilma bo`lib, uning doirasida o`zaro nomuvofiqlik, bir-birini qaytarish, mos kelmaslik, biri ikkinchisiga zid kelish kabi holatlar, ya`ni yuridik kolliziya xollari uchrab turadi.

Yuridik kolliziya bu - bir yoki turdosh ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy xujjatlar yoki normalar o`rtasidagi tafovut va ziddiyat, shuningdek, huquq ko`llash jarayonida xamda kompetentli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan o`z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlardir. Bir yoki turdosh munosabatlarni tartibga soluvchi normalar o`rtasidagi tafovut va ziddiyat - yuridik kolliziyaning amaldagi ko`rinishlarining biri bo`lib hisoblanadi. Amaliy hayotda shunday vaziyatlar vujudga keladiki, muayyan munosabatlar bir emas, balki bir necha huquqiy normalar ta`siriga tushadi va oqibatda kutilmagan, noxush holat – muqobillik, ikki yoqlamalik (dilemma) paydo buladi. Bunda bir necha normalar bitta munosabatni tartibga solish uchun “talashishadi”, nizoga kirishishadi. Bunday murakkab vaziyatdan chiqib ketish uchun huquq sharhlovchi va huquq qo`llovchidan yuksak malaka, aniq tahlil va imkon qadar yagona to`g`ri yechimni yoki hech bo`lmaganda maqsadga muvofiq yechimni topish talab etiladi. Bunday holda mavjud ziddiyat yangi kollizion norma qabul qilish yo`li yo`qotiladi.

Kollizion normalar “hakam” normalar sifatida amal kilib, ular kollizion huquqni tashkil qiladi va biroq bu huquqni faqat shartli ravishda mustaqil huquq tarmog`i deb hisoblash mumkin, chunki uning normalari boshqa huquqiy hujjatlar tarkibiga kiradi va alohida holda mavjud bo`lmaydi.

Barcha nizoli xollarda kollizion normalar qo`llashning imkoni cheklangan. Yuridik kolliziyalar huquqiy tartibga solish samaradorligini cheklaydi, huquq qo`llash jarayonini qiyinlashtiradi va huquqiy nigilizmning kuchayishiga olib keladi, biroq butunlay kolliziyadan holi huquq tiziminining bo`lishi ham qiyin, zero bu jarayon Ma`lum darajada obyektiv xarakterga ega.

Kollizion normalarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) xalkaro kollizion normalar.
- 2) davlat ichidagi kollizion normalar.

Xalqaro kollizion norma - bu fuqarolik, oila, mehnat munosabatlarini hal etishda qaysi davlatning huquqi qo'llanishini ko'rsatadigan normadir. Muayyan bir davlat konunchiligidagi turli maqomga ega bo'lgan huquqiy hujjatlar normalari o'rtasidagi nizoni hal etishga qaratilgan normalardir. Kollizion normalar ko'prok federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda uchraydi. Kollizion norma huquqiy hujjatning huquq manbalari tizimida tutgan o'rnini va ahamiyatiga qarab, yuqori maqomdagi norma ko'llanishini ko'rsatadi.

3. Huquq manbalari muammosi

Shakliy aniqlik ijtimoiy regulyator sifatidagi huquqning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, huquq shaklan aniq tusga ega. Huquq normalari o'z tashqi ifodalanish shakliga ega bo'lishlari shart, zero shu shakl orqali huquq mavjud bo'ladi. Tashqi ifodalanish shakliga ega bo'lgan huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi mumkin. Tabiiy huquqlar ham har bir davlat pozitiv huquqida o'zining ifodasini, shaklini topsa, bu holda ularning bajarilishini davlat samarali himoya eta oladi. Tabiiy huquq bugungi huquqiy tasavvurlar va qarashlar nuqtai-nazaridan huquqning obyektiv asosini tashkil etadi, pozitiv huquqning mazmunini belgilab beradi.

Shu o'rinda ikki atama –“huquqiy shakl” va “huquq shakli” tushunchalarini bir-biridan ajratib olgan ma'qul. **“Huquqiy shakl”** deganda u yoki bu ijtimoiy jarayonlarni, sohalarni tartibga solishda qo'llaniladigan huquqiy vositalar tushuniladi. Misol uchun sog'liqni saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy shakllari va b. Huquqning tashqi ifodalanish shaklidan tashqari yana uning ichki shaklini ham ajratishadi. Huquqning ichki shakli deganda uning ichki tuzilish shakli, tarkibiy elementlari o'rtasidagi aloqadorlik tushuniladi. Huquqning tashqi ifodalanish shaklini “huquq manbalari” ham deyish ancha keng tarqalgan. Ta'kidlash joizki, bu atama bir ma'noni anglatmaydi. Huquqning moddiy ma'nodagi va shakliy ma'nodagi hamda huquq haqidagi bilimlar manbasi va g'oyaviy manbalari ajratiladi. Shakliy ma'nodagi huquq manbasi deganda uning shakli tushunilsa, moddiy ma'nodagi manba deganda huquqning keltirib chiqargan jamiyat hayotining moddiy shart-sharoitlari tushuniladi, huquq haqidagi bilimlar manbaiga o'tgan davrlar qonunlari

matni, yilnomalar, tarixiy solnomalar va boshqa huquqiy yodgorliklar kiradi. Jamiyatning huquqiy ongi, huquq haqidagi qarashlari, ta'limotlari, g'oyalari huquqning g'oyaviy ma'nodagi manbalari hisoblanadi.

Endi bevosita huquqning shakllari haqida gapiradigan bo'lsak, dastavval huquqiy odatni ko'rsatish zarur. Chunki huquqiy odat tari-xan birinchi huquq shakli hisoblanadi. huquqiy odat bu keng tarqalgan odat normasiga davlat tomonidan huquq tusi, maqomi berilishi bo'lib, u odatda ikki usul bilan amalga oshiriladi: 1) normativ-huquqiy aktda odatga havola qilish; 2) sud qarorining normativ asosi sifatida odatdan foydalanish.

O'zbekiston huquqiy tizimida huquqiy odatning salmog'i kam, mas. Fuqarolik Kodeksida "Ishbilarmonlik muomalasi odati" deb nomlangan moddada odatga xavola qilingan. Umuman, hozirgi kunda jahon huquqiy tizimlari manbalari ichida huquqiy odatning o'rne kamayish tendensiyasi mavjud. Sud pretsedenti – huquqning manbasi ikkinchi ko'rinishi hisoblanadi. huquqning bu manbasi o'z tarixini Qadimgi Rimdagi pretor huquqidan boshlagan, deyish mumkin. Bugungi kunda anglo-sakson umumiy huquqi mamlakatlarida keng yoyilgan. Mazkur davlatlarda sud pretsedentlari haqida Ma'lumotlarni jamlagan sud hisobotlari muntazam chop etilib turadi.

Sud pretsedentining huquq manbasi sifatida tan olinishi sudning huquq yaratuvchilik funksiyasining e'tirof etilishini anglatadi. Sudning mazkur funksiyasining mavjudligi yuksak huquqiy madaniyat hamda sud tizimining va jamiyatning yuqori darajadagi huquqiy onggi, demokratik tamoyillar, axborot tizimi va ijtimoiy nazoratning samarali yo'lga qo'yilganligi kabi muhim omillarga bog'liq. Ta'kidlash zarurki, sudyalari pretsedentlarni "ijod qilishmaydi", kashf ham etishmaydi, balki sud pretsedentlari yordamida jamiyatda tarkib topib bo'lgan normalarni mustahkamlaydi, xolos. Sud tegishli qonun bo'lsa ham, bo'lmasa ham pretsedent yaratishi mumkin. Pretsedentlar yuqori sudlar tomonidan o'rnatilishi mumkin. Mas. Angliyada Yuqori sud, Appelyasion sud va lordlar palatasi tomonidan o'rnatilishi mumkin.

4. Huquq ijodkorlik jarayoni muammolari

Huquq ijodkorlik jarayoni davlat faoliyatining muhim bir yo'nalishi hisoblanadi. Huquq ijodkorlik faoliyati bu davlatning qonunda ko'rsatib qo'yilgan vakolatli organlari tomonidan yangi huquqiy normalarni qabul qilish, amaldagilarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan faoliyatidir.

Shu o'rinda bir holatni ta'kidlab o'tish zarur. «Huquq ijodkorlik» atamasi Ma'lum ma'noda shartli tusga ega. Chunki, huquq tegishli davlat organi (mas. parlament) tomonidan rasmiy qabul qilinguncha, dastlab u jamiyat bag'rida tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabat, ehtiyoj tarzida namoyon bo'ladi va bu jarayonni huquqning yaratilishi deb belgilash mumkin. Davlat esa, o'zining tegishli vakolatli organi siymosida bu ehtiyojni o'z vaqtida ilg'ab, uni huquq bilan tartibga solishni rasmiylashtiradi.

Huquq ijodkorlik ancha murakkab, bir necha bosqichlarni va qator subyektlarni faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan jarayondir. Shu boisdan, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlarning hayotiyliigi va samaradorligini oshirishda bu jarayonning o'zining ham mustahkam va yetarli huquqiy asosga ega bo'lishi muhim. Aks holda, bu murakkab jarayon va uning bosqichlari o'rtasidagi mutanosiblik zaiflashuvi va huquq ijodkorlik jarayoni natijalari kutilgandek bo'lmasligi mumkin.

Aytish kerakki, O'zbekistonda huquq ijodkorlik jarayoni ancha keng huquqiy asosga ega. Eng birinchi huquqiy asos bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasi hisoblanadi, unda huquq ijodkorlik faoliyati subyektlarining huquq ijod etish borasidagi faoliyatlarining eng umumiy qoidalari mustahkamlangan.

Konstitutsiyadagi bu umumiy qoidalar huquq ijodkorlikka doir qator qonun hujjatlarida o'zining aniq va batafsil ifodasini topgan. Bunday qonun hujjatlariga sirasiga:

- 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida»gi,
- 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi,
- 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan «Qonun loyihalarini muhokamasi to'g'risida»gi,
- 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'g'risida»gi
- «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to'g'risida»gi, shuningdek, 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»
- «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi qonunlarni kiritish mumkin¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонунларини тайёрлаш тўғрисидаги Қонун // Ўзбекистон Республикаси ЯҚТ. 1997. № 17.;» Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги қонун. // Халқ

Mazkur qonun hujjatlarida huquq ijodkorlik jarayoni va uning subyektlari, bu faoliyatning bosqichlariga doir asosiy qoidalar mustahkamlangan.

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilgan parlament islohotlari va ikki palatali parlamentning ish boshlashi huquq ijodkorlik jarayoniga ham muhim o'zgarishlar kiritdi. Bu o'zgarishlar yuqoridagi qonun hujjatlarida o'zining tegishli ifodasini topdi.

Huquq ijodkorlik jarayonida markaziy o'rin egallagan qonun ijodkorligida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga alohida o'rin berilgan bo'lib, hozirgi kunda bu vazirlik:

1) Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi;

2). Yuqori organlarning topshirig'iga binoan va o'z tashabbusi bilan qonun loyihalarini tayyorlaydi, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari bilan birgalikda loyihalarni tayyorlashda ishtiroq etadi;

3). Qonun loyihalarini tayyorlash zaruratiga oid masalalarni davlat boshqaruvi organlari bilan dastlabki tarzda kelishib oladi;

4). Oliy Majlis va uning organlarining yoki Vazirlar Mahkamasining topshiriqlariga muvofiq qonun loyihalari yuzasidan yuridik xulosalar beradi;

5). Qonun loyihalarini tayyorlashni amalga oshirayotgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ishini muvofiqlashtirib boradi;

6). Qonun ijodkorligi masalalarida davlat boshqaruvi organlarining faoliyatiga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

7). Oliy Majlisni, uning organlarini va Vazirlar Mahkamasini qonun loyihalarini ishlab chiqish masalalari yuzasidan xabardor qiladi¹.

Yuqoridagi o'zgarishdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi huquq ijodkorlik jarayonida Adliya vazirligiga muvofiqlashtiruv bo'yicha alohida vakolatlar berilgan.

Shunday qilib, hozirgi kunda, mamlakatimizda huquq ijodkorlik jarayonining ancha salmoqli huquqiy asosi mavjud bo'lib, bu asos mazkur jarayonning qonunga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlaydi. E'tirof etish kerakki, huquq ijodkorlik jarayoniga doir parlament islohotigacha qabul qilingan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun hujjatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatning hozirgi maqomi va tuzilishi munosabati bilan

сўзи. 2001 йил, январ.; «Қонун лойиҳалари муҳокамаси тўғрисида»ги қонун. // Халқ сўзи. 2001 йил январ.

¹ 2003 йил 12 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни. Халқ сўзи. 2004 йил январ.

yanada chuqurroq yangilanishni taqozo etadi. Bu hujjatlarda huquq ijodkorlik jarayoniga doir ayrim jihatlar o'zining ifodasini yanada batafsilroq topishi zarur.

Fikrimizning dalili sifatida «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida» gi qonunga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar sirasida konstitutsiyaviy qonunlar haqida tegishli normalar kiritilishi lozim. Ta'kidlash kerakki mamlakatimiz ilmiy adabiyotida huquq ijodkorlik jarayoni huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurligi va uning yo'nalishlari haqida fikrlar mavjud. Masalan, ayrim mualliflarning fikriga ko'ra, qonun chiqarish jarayonida turli qonunlarning mavjudligi bir ma'nodagi huquqiy normalarning bir necha me'yoriy hujjatlarda takrorlanishiga olib kelmoqda va oqibatda qonunchilikda «o'rinsiz plyuralizm» holatiga olib kelmoqda, bunday holatni bartaraf etish uchun tegishli qonunlarni mukammal tizimga solish (kodekslashtirish) asosida tartiblash lozim.¹

Bunday kodeksni tayyorlash jarayonida ikki palatali parlament qonun chiqarish faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, qonun loyihasini tayyorlashdan tortib to uni qabul qilish, imzolash va E'lon qilingunga qadar barcha bosqichlardagi munosabatlarni, taomil (prosedura)larni mukammal tizimli tarzda tartibga solishga erishiladi. Mazkur kodeksni yaratishdan asosiy maqsad –O'zbekiston Respublikasining qonun chiqarish mexanizmida, davlat hokimiyati oliy organlarining qonun loyihalari ustida ishlash faoliyatida yuksak qonunchilik texnologiyasini joriy etishdan iborat. Kodeksning qabul qilinishi qonun yaratish jarayonining erkinlashuviga ham xizmat qiladi. Kodeksning tayyorlanishi va qabul qilinishi, bir tomondan, hokimiyat vakillik organining qonun ijod etish sohasi-dagi faoliyatini erkinlashtirish, ikkinchi tomondan, qonunchilikni erkinlashtirish borasida muhim qadam bo'ladi.

Oliy Majlisning huquqiy maqomi va qonun ijod etish faoliyatiga oid bir toifadagi qonunlarning jamlanishi va kodekslashtirilishi nafaqat parlament huquqiy maqomini mustahkamlash darajasi hamda nufuzini oshiradi, balki fuqarolarning mazkur sohadagi qonunchilik bilan tanishishi va undan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Mualliflar bunday kodeksni qabul qilishning zaruratini asoslab, aytishadiki, qonunchilik jarayoni kodeksi yagona kompleks hujjat tarzida qonun ijod etishga daxldor barcha masalalarning huquqiy talqini, yechimi va tartiblarini mufassal belgilaydi. Bu sohaga oid qonunchilik hujjatlari o'rtasidagi nomutanosibliklar va

¹ Х.Одилқориев, Ў.Мухамедов. Қонунчилик жараёни кодекси:унинг зарурати, структураси ва мазмуни. // Давлат ва ҳуқуқ. 2004 йил 4-сон.2-5 бетлар.

takrorlanishlarni bartaraf etishga ko`maklashadi, zero hozirgi kunda amal qilayotgan qonunchilik hujjatlari mazmunida o`zaro bir-birini takrorlovchi normalar va qoidalar mavjud¹. Ushbu taklif ilmiy munozaradan o`tishi kerak.

Chunki, milliy huquqiy tizimimizda, an'anaviy tarzda kodeks deb nomlangan hujjat, asosan muayyan bir huquq sohasidagi qonun normalarining ixchamlashgan jamlanmasi sifatida mavjud. Shu bois bu masala, bizningcha, mutaxxassis olimlar, deputatlar tomonidan juda chuqur tahlil va munozara qilinishi, va uning natijasida bu masala to`g`risida biron-bir xulosaga kelish mumkin. Huquq ijodkorlik faoliyati juda murakkab, bosqichli jarayon bo`lgani bois, unga nisbatan qator muhim talablar qo`yiladi. Normativ-huquqiy aktlarni tayyorlash, ularni muhokama etish, qabul qilish va E`lon etish jaryonlari muayyan qoidalar, talablar asosida kechadi. Qabul qilin-gan normativ-huquqiy akt ham qator talablarga javob berishi kerak.

Shu munosabat bilan, huquq ijodkorlik jarayonida yuridik texnika, yoki qonunchilik texnikasi tushunchalari mavjud. Ta`kidlash kerakki, bu ikki atama ham ilmiy adabiyotda ishlatilib kelinmoqda.

Ayrim olimlar qonunchilik texnikasi atamasini ko`proq qo`llashadi. Fikrimizcha, yuridik texnika tushunchasi qonunchilik texnikasi tushunchasi mazmunidan kengroq bo`lib, u o`z ichiga umuman huquq ijod etish jarayoniga doir masalalarni oladi. Ilmiy adabiyotlarda yuridik texnikaga berilgan ta`riflarga to`xtalib o`tamiz. Z.Islamov qonunchilik texnikasiga quyidagicha ta`rif bergan: qonunchilik texnikasi – bu huquqiy (normativ) aktlarni mukammal bo`lishini ta`minlash maqsadida, ularni belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqish va tizimlashtirishda foydalaniladigan vosita va usullar majmuidir. Yuridik texnika – bu normativ aktlarni aniq, tushunarli va samarali bo`lishi maqsadida ularni ishlab chiqish, rasmiylashtirish, tizimlashtirish qoidalari, vositalari va usullari majmuidir<sup>2</sup>. Yuridik texnika, demak, nafaqat normativ-huquqiy aktlarni ishlab chiqishda, balki ularni rasmiylashtirish va tizimlashtirishda ham qo`llaniladigan qoidalar, usullar, vositalar va ko`nikmalar majmuidir.

Yuridik texnika har bir jamiyatda huquqiy madaniyatning va huquqiy tafakkurning qanchalik rivojlanganligi darajasini ko`rsatadigan ko`rsatkich sifatida ham namoyon bo`ladi. Mustaqil O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli huquqiy islohotlarning markaziy yo`nalishi –

¹ Х.Одилқориев, Ў.Мухамедов. Қонунчилик жараёни кодекси: унинг зарурати, структураси ва мазмуни. // Давлат ва ҳуқуқ. 2004 йил 4-сон.2-5 бетлар.

² См.: Теория государства и права. М.: Норма. 2002. С.321.

respublika qonunchiligni takomillashtirishning strategiyasini aniqlashdan iborat. Qonunchilik strategiyasi mamlakat huquqiy taraqqiyot dasturining muhim va salmoqli tarki-biy qismidir.

Qonunchilik strategiyasi – bu mamlakat butun huquqiy tizimi-ning uni alohida tarkibiy qismlari, huquq hamda qonunchilik sohalari va institutlarining hozirgi va kelgusidagi taraqqiyot yo`nalishlarining belgilanishidir. Qonunchilik strategiyasi qonunlarni tayyorlashning, uni rejalashtirish va amalga oshirishning nazariy va amaliy masalalarini o`z ichiga oladi. U davlat siyosati bilan chambarchas bog`liq bo`lib, davlat tayanuvchi muhim prinsiplar asosida jamiyatga qonunlar orqali rahbarlik qilish san`ati hisoblanadi.

Shuningdek, qonunchilik strategiyasi siyosatni huquqiy munosabatlar mazmuniga singdirish, qonunlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish vositasidir. Qonunchilikni sobitqadamlik bilan rivojlantirish, uni davr talabiga hamohang tarzida yangilab borib va qonun chiqarish faoliyatini samarali yo`lga qo`yishda rejalashtirishning ahamiyati beqiyosdir. Bu erda gap qonunchilik faoliyatini qonun loyihalarini tayyorlash ishlarini maxsus rejalar asosi-da amalga oshirilishi xususida bormoqda.

Qonun loyihalarini tayyorlash ishlarini rejalashtirish – qonunchilik strategiyasini muayyan davr uchun belgilanishi, davlatning huquqiy siyosatini mujassamlashgan ko`rinishda va normativ tarzda mustahkamlanishining ifodasidir. Boshqacha aytganda, qonunchilik ishlari rejasi qonunchilik strategiyasini hayotga joriy etishning muhim tashkiliy vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Rejalashtirishning bosh maqsadi respublika qonunchiligini Konstitutsiya boshchiligidagi normativ aktlarning izchil va ichki mutanosib shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Rejalashtirishdan kutiladigan pirovard natija izchil, mukammal va barqaror qonunchilik tizimini yaratish ekan, buning uchun mutasaddi va vakolatli davlat idoralari quyidagi vazifalarni ado etishlari talab etiladi: mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda eski huquqiy aktlarni muntazam ravishda yangisi bilan almashtirib borish; aynan bir masala bo`yicha ko`plab aktlar mavjud bo`lishini bartaraf etish; qonunchilikning tartibga solinmagan, ochiq mavzular (probel) ni to`ldirib borish va h.k¹.

¹ Батафсил қаранг: Х.Т.Одилқориев. Конституция ва фуқаролик жамияти. - Т.: Шарқ. 2002.234-236 б.

Qonunchilik faoliyatning sifati, samaradorligi va batartib tashkillashtirilishi ko'p jihatdan qonunchilik texnikasiga bog'liq. Zotan, qonunchilik faoliyatini takomillashtirish, ayni vaqtda mantiqiy qonunchilik texnikasining rivojlantirilishi va mukammallashtirilishini taqozo etadi. Yuqori darajadagi qonunchilik texnikasining mavjud bo'lishi jamiyatda shakllangan yuridik madaniyat darajasini, huquq va qonunga hurmatni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Qonunchilik texnikasi huquqiy aktlarni rasmiylashtirish usuli sifatida talqin etish normativ aktlarning tili va uslubi, tuzilishi, huquqiy qoidalarni shakllantirish hamda bayon etish masalalarini chuqur o'rganish uchun zaruriy asos bo'lib hisoblanadi. Qonunchilik texnikasi qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, respublika qonunchiligi shunchalik barkamol bo'ladi.

Qonunchilik texnikasi qator muammolarni o'z ichiga oladi: normativ akt loyihasining matni ustida ishlash uslubiy qoidalari; normativ hujjatlarga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish, ularni to'la yoki qisman bekor qilishning to'g'ri va yagona tartibi; huquqiy hujjatlarning shakli; qonun chiqaruvchining fikrini normativ aktning moddalarida batafsil ifodalash uslublari, normativ aktning ichki tuzilish (strukturasi), uning tili va yuridik terminologiya; normativ aktlarni bir til ifodasidan boshqa tilga tarjima qilish va hokazolar.

Qonunchilik texnikasi – normativ huquqiy aktlar loyihalarini tayyorlashning huquq ijodkorligi amaliyotiga tayanuvchi va nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan qoidalar va usullar tizimi bo'lib, u normativ-huquqiy qoidalar shakli-mazmuniga to'la va aynan muvofiq bo'lishini, normativ materiallarni tushunarli, sodda hamda oson ilg'ash, tuzatib borishga imkon berishni, tartibga solinadigan masalalarni bekamuko'st qamrab olinishini ta'minlaydi.

Normativ-huquqiy aktlarni tayyorlashda qator talablarga rioya etish zarur bo'ladi, ular sirasiga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- huquqiy tartibga solishning aniqliligi, tushunarli va batafsilligi;
- normativ-huquqiy akt matnini bayon etishda mantiqiylikka rioya etilishi va normalar o'rtasidagi uzviy, mazmuniy bog'liqlik;
- normativ aktning o'zida hamda butun qonunchilik tizimida ziddiyatlarning, bo'sh joylarning bo'lmasligi;
- atamalarning tushunarli va ularni qo'llashning oddiy odamlarga ham tushunarli bo'lishi;
- hujjat matnida aniq bo'lmagan, har xil talqin etilishi mumkin bo'lgan iboralar, ko'chma ma'nolarda, yoki juda hissiy bo'lgan so'zlarni ishlatmaslik;

- matnda kam ishlatiladigan, eskirib qolgan, g'aliz iboralar bo'lmasligi;

- matnning imkon qadar qisqa, biroq mazmunni ifodalaydigan, ortiqcha «tekinxo'r» so'zlarsiz bo'lishi;

- bir masalani tartibga soladigan aktlar sonini imkon qadar qisqartirish;

- mumkin bo'lgan joyda, bir masalani tartibga soladigan bir necha aktlarni yiriklashtirish;

- normativ-huquqiy aktlar tilining imkon qadar oddiy, ravon va tushunarli bo'lishi va b¹.

Yuridik texnikadan normativ huquqiy aktlarni rasmiylashtirish qoidalari farqlanadi. Masalan, muqaddimaning bo'lishi, kodekslarning bo'lim, bob, moddalarga bo'linishi, o'zgartirishlar kiritilganda nomerlash o'zgartirilmay tepaga belgi qo'yilishi kabilar.

Normativ aktlarning rekvizitlariga esa uning rasmiy hujjat ekanligini ko'rsatuvchi talablarga quyidagilar kiradi: hujjat qabul qilingan joy, sana, familiyasi, lavozimi ko'rsatilgan vakolatli shaxsning imzosi (Normativ-huquqiy aktlar to'g'risidagi qonunning 21-moddasi), sarlavha, manzilgoh, hujjatning, turi, nomi, raqami kabilar. Huquq ijodkorlik jarayonining sifatini ta'minlashda yuridik texnikaning ahamiyati juda salmoqli. Shu munosabat bilan, O'zbekistonda huquq ijodkorlik faoliyati, yuridik texnikaning rivojiga oid masalalarni ta'kidlash lozim.

Huquq yaratish jarayonidagi muhim masalalardan biri – yaratilayotgan **normativ huquqiy aktlarning tili masalasidir**. Qonunda tushunarsiz, yoki ikki xil ma'noni anglatadigan, hamda ortiqcha so'zlar ishlatilmasligi kerak, qonun tili, oddiy, lo'nda, ravon bo'li-shi kerak, bunga erishish uchun, Parlamentda qonun loyiha ustida ishlayotgan deputatlarning saviyalari baland bo'lishi kerak. Mamlakatimizda bo'lib o'tgan parlament islohotlari, ushbu muammoni ham hal etishga qaratilgan, albatta.

Bundan tashqari ko'p qonunlar, avval **rus tilida yozilib, keyin o'zbek tiliga o'girilish hollari mavjud**. Buning bo'lajak qonunlarning tushunarlilik darajasiga ancha ta'sir etishi turgan gap. Shu bois, qonun hujjatlarini dastlab davlat tilida tuzilib, keyin rus tiliga o'girish lozimligin to'la amalga oshirish kerak, bizningcha.

O'zbekistonning **«Normativ –huquqiy aktlar» to'g'risidagi qonunlarga ayrim o'zgartishlar kiritish lozim** deb hisoblaymiz.

¹ Кенгрок қаранг: Исламов З.М. Общество. Государство. Право. - Т., Адолат. 2001. С.449; Теория государства и права. М., Норма. 2002. С.322.

Masalan, mazkur qonunda normativ-huquqiy aktlar, qonunchilik aktlari, qonun hujjatlari, qonunlarning turlari tushunchalariga aniqlik kiritish zarurati mavjud.

Bundan tashqari yana bir muammo – bu ham bo`lsa qabul qilina-yotgan qonunlarning **amalga oshirish mexanizmi yetarli ishlab chiqilmaganligidir**. Shu bois qator qabul qilingan qonunlar hayotga kutilgandek «kirishib» ketmaydi. Shuning uchun, Ma`lum bir qonunni qabul qilishdan oldin, albatta uning mexanizmini puxta ishlab chiqish lozim. Masalan, «Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi qonun to`la amal qilishi uchun barcha savdo shaxobchalari, do`konlar kassa apparatiga ega bo`lgan bo`lib, har xarid uchun albatta chek berishi lozim, busiz, iste`molchi, zarur bo`lib qolganda huquqini himoya qilish uchun asos topa olmay qoladi.

Bu narsa esa hali to`la amalga oshirilmagan bo`lsa, demakki, yuqoridagi qonunni ham to`la amalga oshirish ham mushkul vazifa. Aholining huquqiy onggi, o`z haq-huquqini talab qilishi darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, qonun yaratish jarayoni albatta, uning huquqiy mexanizmini yaratish orqaligina amalga oshirilishi lozim. Demokratik qonunchilik faoliyatining ifodalaridan biri – parlament muhokamasiga muqobil (al`ternativ) qonun loyihalarining kiritilishidir. Parlamentga muqobil qonun loyihalarining kiritilishiga asosiy sabab - fikrlar va manfaatlar xilma-xilligidir. Ko`ppartiyaviylik asosida tuzilgan parlamentda, albatta, manfaatlar xilma-xilligi mavjud bo`ladi va shuning zahirida muqobil qonun loyihalari muhokamaga qo`yilishi mumkin bo`ladi. Bu hol odatiy bo`lib, bunga ko`nikish lozim. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni to`la amalga oshirishning muhim yo`nalishlaridan biri «siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta`sirini tubdan kuchaytirish»¹ hisoblanadi.

Shunday qilib, huquq ijodkorlik jarayoni O`zbekistonda o`z rivojining yangi, mas`ul va murakkab bosqichiga kirdi. Bu jarayonning samaradorligidan, jamiyatimizning pirovard maqsadi –huquqiy davlat sari borishimiz sur`atlari bog`liq bo`ladi.

¹ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. // Халқ сўзи. 2005 йил.29 феврал.

6. Huquq tizimi: tushunchasi va tarkibiy elementlari

Huquq tashqi shaklidan tashqari ichki shaklga ham ega bo`lib, bunda uning ichki tuzilishi tushuniladi. **Huquq tizimi** - bu uning o`zaro bog`liq va muvofiqlashgan normalar, institutlar, tarmoqchalar va tarmoqlardan iborat ichki tuzilishidir. U real mavjud va rivojlanuvchi ijtimoiy munosabatlarning obyektiv ifodasidir. Jamiyatning faktik ijtimoiy tuzumi oqibat natijada u yoki bu huquq tizimini, uning tarmoqlari, institutarini belgilab beradi. Huquq tizimi uning qanday qismlar, elementlardan tashkil topganligini, ular o`zaro qanday nisbatda bo`lishlarini ko`rsatadi.

Tizimlilik - bu qanday huquq har tipining umumiy xususiyatidir. Huquqning har qaysi tarixiy tipiga uning o`z tizimi xos bo`lib, u mazkur tip va butun ijtimoiy formasiyaning xususiyatlarini ifoda etadi. Huquqning tuzilmasi - bu mazkur jamiyat tuzilmasining yuridik ifodalanishidir. Bundan huquq tizimining obyektiv ijtimoiy zarurligi, uning iqtisodiy, madaniy, milliy va boshqa omillar bilan belgilanishi kelib chiqadi.

Huquq davlat tomonidan yaratiladigan va qo`riqlanadigan normalar yig`indisidir. Biroq, bu yig`indi normalarning tartibsiz, mexanik yig`indisi emas, balki qat`iy muvofiqlashgan va o`zaro bog`liq yaxlit tizim bo`lib, unda normalar muayyan tartibda guruhlanadi, tartibga solinadi. Bu - integrasiya va differensiasiya jarayonlari ta`siridan o`tgan murakkab tizimli ierarxik tuzilmadir. Huquqning har qanday tipida uning konkret normalari o`rtasida doimo umumiylik va yagonalik, o`xshashlik va farq, mustaqillik va bog`liqlik elementlari mavjud.

Huquq tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning birlamchi elementi huquq normalari bo`lib, ular yanada yirik tuzilmalar – institutlar, tarmoqchalar, tarmoqlarga birlashadilar;

2) uning elementlari ziddiyatli bo`lmagan, ichki muvofiqlashgan, o`zaro bog`liq bo`lib, bu unga yaxlitlik va birlik baxsh etadi;

3) u ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy, madaniy, tarixiy omillar bilan belgilanadi;

4) u obyektiv xarakterga ega, ya`ni mavjud ijtimoiy munosabatlarga bog`liq va insonlarning sof subyektiv xohishiga qarab yaratilishi mumkin emas;

5) ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ularning o`ziga xosligi yuridik normalarning ham Ma`lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi.

Huquq tizimini tashkil etuvchi yuridik normalarning birligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) ularda ifodalangan davlat erkinining birligi;

- 2) ular amal qiluvchi huquqiy tizimning birligi;
- 3) huquqiy tartibga solish mexanizmining, uning boshlang'ich prinsiplarining birligi;
- 4) maqsad va vazifalarining birligi.

Ayni paytda huquq normalari o'zining konkret mazmuni, qoidalarining xarakteri, amal qilish sohalari, ifodalanish shakli, tartibga solish predmeti va metodlari, sanksiyalari va b.jihatlar bilan farqlanadilar. Shu sababli ular alohida tarmoqlar, institutlarga ajratiladi. Ularni bunday ajratishga ushbu xususiyatlar va eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarning turli-tumanligi, o'ziga xosligi asos bo'ladi.

Huquq tizimining tarkibiy elementlari:

- 1) huquq normasi,
- 2) huquq instituti,
- 3) huquq tarmog'i.

Huquq tizimi - bu huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi bo'lib, u huquqning qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligi, va shu qismlar o'rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko'rsatadi.

7. Huquq tizimi bilan qonunchilik tizimi o'rtasidagi nisbat

Qonunchilik ham huquq kabi o'z tizimiga ega bo'lib, bunda uning ichki tuzilishi nazarda tutiladi. Biroq, bu tushunchalarni quyidagi asoslarga ko'ra farqlash zarur:

1) huquq tizimining birlamchi elementi huquq normasi bo'lsa, qonunchilik tizimining birlamchi elementi bu normativ hujjatdir;

2) huquq tizimi mazmun sifatida, qonunchilik tizimi - shakl sifatida namoyon bo'ladi;

3) agar huquq tizimi obyektiv tarzda mavjud ijtimoiy munosabatlarga bog'liq holda shakllansa, qonunchilik tizimi esa, asosan subyektiv tarzda - davlatning erki-xohishidan kelib chiqib shakllantiriladi;

4) agar huquq tizimi birlamchi xarakterga ega bo'lsa, qonunchilik tizimi – hosilaviy xarakterga ega (huquq tizimi qonunchilik tizimi uchun boshlang'ich asos, poydevor hisoblanadi);

5) huquq tizimi faqat gorizontal (tarmoq) tuzilishga ega bo'lsa, qonunchilik tizimi - yana vertikal (federativ, ierarxik) tuzilishga ham ega;

5) huquq tizimi bilan qonunchilik tizimi hajmiga ko'ra farqlanadi: qonunchilik, bir tomondan, normativlikning barcha turli-tumanligini qamrab ololmaydi (chunki, qonunchilikdan tashqari huquq, huquqiy odatlarda, normativ shartnomalarda, yuridik pretsedentlarda

rasmiylashtiriladi); boshqa tomondan, u o'z ichiga normalar formulirovkalaridan tashqari boshqa elementlarni – muqaddima, bo'limlarning nomlanishini, boblar, moddalar sarlavhalarini ham oladi.

8. Normativ-huquqiy aktlarni tizimlashtirish

Hozirgi zamonda qonunchilik tizimi aniq bir tizimga, ya'ni uning elementlari o'rtasida ichki bog'liqlikka va mantiqiy uzviylikka ega bo'lishi uchun mamlakatda mavjud qonunchilik hujjatlari doimiy ravishda bir tizimga solinib borilishi lozim. Aks holda, qonunchilik o'zining muhim jihati bo'lgan tizimlilikni yo'qotib qo'yishi va foydalanish uchun noqulay bo'lgan qonun hujjatlarining shunchaki yig'indisiga aylanib qolishi mumkin.

Shu bois qonunchilik tizimini tizimlashtirib borishning bir necha turlari mavjud. Shu o'rinda avvalo tizimlashtirishning o'zi nima ekanligini aniqlab olish zarur. Tizimlashtirish – bu mavjud normativ materialni qonunchilikning tizimlilikini hamda huquq subyektlarini tegishli normativ-huquqiy axborot bilan ta'minlash maqsadida unga ichki va tashqi ishlov berish yo'li bilan tartibga solish va takomillashtirishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Tizimlashtirishning zarurligi har bir davlatda muntazam ravishda ko'plab normativ-huquqiy aktlar qabul qilinishi, ayni paytda Ma'lum vaqt o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z kuchini yo'qotishi, eskirishi hamda turli normalar o'rtasida ichki ziddiyatlar paydo bo'lishi bilan izohlanadi¹.

Bugungi kunda qonunchilikni tizimlash borasida bir necha sinalgan usullar (turlari) mavjud bo'lib, ularning ichida uch xili keng qo'llaniladi: - inkorporasiya, - konsolidasiya, - kodifikasiya.

Tizimlash turlari ichida eng oddiysi bu –inkorporasiya (jamlash) bo'lib, bunda normativ-huquqiy aktlar muayyan tartib va asosda joylanadi. Inkorporasiya – bu normativ-huquqiy materialni tizimlashning turi, usuli bo'lib, unda normativ-huquqiy aktlar faqat tashqi ishlovga tortiladi (ba'zan esa busiz) va muayyan tartib, ya'ni yo alfavit, yoki predmetga qarab, yoxud xronologik tarzda yagona to'plamga jamlanadi.

Inkorporasiyaning mohiyatini chuqurroq tushunish hamda uning boshqa tizimlash usullaridan farqlash uchun uning xarakterli xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq:

¹ Ушбу параграф В.Н.Протасовнинг «Теория права и государства. Проблемы теории права и государства» (М.:Новый Юрист. 1999.) номли китоби ва бошқа адабиётлар асосида тайёрланди.

A) inkorporasiya rasmiy ham, norasmiy ham bo`lishi mumkin;

B) inkorporasiyani davlat organlari, yoki jamoat birlashmalari, yoki xususiy shaxslar amalga oshirishi mumkin;

D) inkorporasiyada normativ-huquqiy aktning mazmuniga tegilmaydi, ulardagi normalar qanday mazmunda, shaklda bo`lsa, shundayligicha inkorporasiya qilinadi;

E) inkorporasiya chog`ida normativ aktlar qanday holda bo`lsa shundayligicha ham, yoki tashqi ishlov bergan holda inkorporasiya qilinishi mumkin;

F) normativ aktlarga tashqi ishlov berish o`z ichiga quyidagilarni oladi: -normativ aktlar matnidani o`z kuchini yo`qotgan alohida bандlar, moddalar, xat boshlari olib tashlanib, mazkur normativ akt qabul qilinganidan beri kiritilgan o`zgartish, qo`shimchalar qo`shiladi; -normativ akt matnidagi aniq bir normativ mazmundagi qoidani o`zida ifodalamaydigan joylari olib tashlanadi; -inkorporasiya natijasi quyidagicha bo`lishi mumkin:

- qonunlar to`plami;
- qonunchilik majmuasi;
- boshqa normativ akt.

Qonun hujjatlarini jamlashning alohida bir shakli bo`lib, qonunlar to`plami hisoblanib, u quyidagi mazmun va shaklda bo`lishi mumkin;

- yuqori hokimiyat, ya`ni qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati normativ aktlarining inkorporasiyalashgan nashri;

- qabul qilingan normativ-huquqiy aktlarni rasmiy E`lon etish manbai;

- hech bir istisnosiz mamlakatda amalda bo`lgan barcha qonunchilik hujjatlarini jamlash.

Inkorporasiyadan ko`ra murakkabroq tizimlash shakli bo`lib konsolidasiya hisoblanadi. Konsolidasiya bu - tizimlashning bir turi bo`lib, u normativ huquqiy aktlarning ko`payib ketishining oldini olish va huquqiy tartibga solishning birligini ta`minlash maqsadida mazmunan bir-biriga yaqin bo`lgan normativ aktlarni bitta yirik normativ-huquqiy aktga birlashtirishdir.

Bunday birlashtirish quyidagi xususiyatlarga ega bo`ladi:

- konsolidasiya bu huquqi jodkorlik mazmunidagi o`ziga xos usul hisoblanadi, chunki inkorporasiya, hatto rasmiy inkorporasiyaning huquq ijodkorlikka aloqasi yo`q;

- tegishli huquq yaratuvchi organ tomonidan, faqat o`zi qabul qilgan aktlarga nisbatan amalga oshiriladi;

- konsolidasiya qilingan normativ-huquqiy aktlar o'zining mustaqil kuchini yo'qotadi. Ularning o'rniga yangitdan vujudga kelgan normativ-huquqiy akt harakat qiladi. Yangi akt o'zining tegishli rekvizitlariga ega bo'ladi: nomi, sanasi, nomeri, tegishli mansabdor shaxsning imzosi kabi. Shu boisdan ham ilmiy adabiyotda konsolidasiyani "inkorporasiya bilan kodifikasiya o'rtasida turadigan oraliq holatni egallaydigan tizimlash turi", degan fikr ilgari suriladi. Normativ-huquqiy aktlarni tizimlashning eng yuqori turuvchi turi bu – kodifikasiyadir. Kodifikasiya bu – tizimlashning muhim bir turi bo'lib, u huquq ijodkorlik xarakteriga ega va muayyan ijtimoiy sohani yaxlit, ichki muvofiqlashgan holda tartibga solishini ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilikni tubdan qayta ishlash orqali yangi majmuaviy normativ-huquqiy akt yaratishga qaratilgan.

Kodifikasiyaning inkorporasiya va konsolidasiyadan farq qiluvchi muhim xususiyatlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kodifikasiya normativ-huquqiy aktlarni tizimlashning eng takomillashgan va murakkab shakli hisoblanadi;

- kodifikasiya mohiyatan huquq yaratishning bir turi hisoblanadi, chunki kodifikasiyaning bevosita obyekti bo'lib huquq normalari hisoblanadi;

- normativ-huquqiy aktlarni kodifikasiyalashni faqat tegishli kompetensiyaga ega bo'lgan davlat organlari konstitutsiyaviy va qonuniy vakolatlar asosida amalga oshirishidir;

- doimiy xarakterga ega bo'lgan inkorporasiyadan farq qilgan holda kodifikasiya davriy ravishda o'tkazilib turadi va uning natijalari ancha muddatga mo'ljalalanadi;

- kodifikasiya har doim ham huquqiy tartibga solish tizimiga muayyan yangilik kiritadi, ta'bir joiz bo'lsa, u o'ziga xos mitti "huquqiy islohot" (V.N.Protasov) bo'lib, ko'pincha jiddiy ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq;

- kodifikasiya mahsuli sifatida yangi kodifikasion hujjat – Kodeks vujudga keladi va u huquqiy va mantiqiy yaxlitlikka, majmuaviy mazmunga, katta hajmga va murakkab ichki tuzilishga ega bo'ladi, shuningdek, boshqa tarmoq aktlari ichida bosh o'rinni egallaydi va ijtimoiy hayotning muayyan bir sohasini qamrab oladi.

Kodifikasion aktlarning ilmiy adabiyotda quyidagi turlari ajratiladi: Qonunchilik Asoslari; Kodekslar.

Bundan tashqari Ustavlar, Nizomlar va qoidalar to'plamlari ham kodifikasion aktlar jumlasiga kiradi.

9. Huquqiy munosabatlarning huquqiy tartibga solish mexanizmidagi o`rni

Huquqiy tartibga solish mexanizmidagi huquqiy munosabatlar-ning o`rni o`zgacha. Zero, huquqiy tartibga solish mexanizmidagi huquqiy munosabatlar bevosita obyekt - ijtimoiy soha bilan «to`qnash» keladi. Oqibatda huquqiy munosabat murakkab huquqiy tuzilma sifatida tarkib topadi.

Huquqiy munosabatning belgilari:

1. Huquqiy munosabatlar - ijtimoiy munosabatlar, ya'ni insonlar o`rtasidagi munosabatlar.

2. Huquqiy munosabatlar yuridik normalar bilan uzviy aloqada mavjud bo`ladi.

3. Huquqiy munosabatlarning qatnashchilari o`zaro huquq va majburiyatlar bilan bog`liqdir.

4. Huquqiy munosabatlarga aniqlik, individuallik xos.

5. Huquqiy munosabatlar irodaviy xarakterga ega.

6. Huquqiy munosabatlar huquqdagi davlatning irodasi bo`lib, u davlat tomonidan qo`riqlanadi.

Huquqiy munosabat ishtirokchilari o`zaro huquq va majburiyatlar bilan bog`langan va davlat tomonidan qo`riqlanadigan irodaviy individuallashtirilgan ijtimoiy munosabatdir.

Huquqiy munosabat tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Huquqiy munosabatlar subyektlari.

2. Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar.

3. Faktik huquqiy xulq-atvor.

Huquq subyekti bu huquqiy munosabatlarning bo`lajak potensial ishtirokchilari, subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar egasi bo`lishi mumkin bo`lgan shaxslardir. Huquq subyekti huquqiy munosabatlar subyekti bo`lishi uchun yuridik faktlar bo`lishi kerak. Yuridik faktlar tegishli normani «ishga» solib yuborishadi. Mazkur huquq normasi tegishli huquq subyektlariga huquq va majburiyatlar yuklaydi va shu tariqa ularni huquqiy munosabatlar subyektlariga aylantiradi.

Huquq subyektlari bo`lishi mumkin: jismoniy shaxslar; tashkilotlar; ijtimoiy tuzilmalar (mas. xalqlar, millatlar).

Jismoniy shaxslarga mazkur davlat fuqarolari, chet elliklar, apatridlar (fuqaroligi bo`lmaganlar) va bipatridlar(ikki fuqaroliklar) kiradi.

Tashkilotlarga quyidagilar kiradi: -davlatning o`zi; -davlat tashkilotlari; -nodavlat tashkilotlar.

«Yuridik fakt» kategoriyasining shakllanishi rim huquqini uning keyingi tadqiqotchilari tomonidan qayta ishlanishi, qayta mushohada qilinishi va tizimli bayon etilishi munosabati bilan sodir boʻlgan. Rim yuristlari yuridik fakt tushunchasini shakllantirmagan. Bu vazifani nemis huquqshunosi Fridrix Karl fon Savin'i amalga oshirgan. Tarixiy huquq maktabining asoschilaridan biri boʻlgan Savin'i o'zining «Hozirgi zamon rim huquqi tizimi» (1840 y.) nomli kitobida «Men huquqiy munosabatlarning vujudga keltiradigan va ularni tugatishga olib keladigan hodisalarni yuridik faktlar deb atayman» deb ko'rsatgan.

Yuridik faktlar bu konkret hayotiy holatlar boʻlib, ular bilan huquq normalari huquqiy munosabatlarning paydo boʻlishi, oʻzgarishi va barham topishini bogʻlaydi. Huquqiy munosabatlarning obyektini aniqlashda ilmiy adabiyotda unchalik yakkilik yoʻq. Shu bois bu muammo huquq nazariyasida eng munozaraviy masalalardan hisoblanadi. Huquqiy munosabatlar obyekti haqidagi qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin: - **monistik**, bu nazariya vakillari huquqiy munosabatlarning yagona obyekti mavjud, degan fikrni ilgari surishadi. (O.S.Ioffe, prof. Yu.K.Tolstoy); **plyuralistik**, bu nazariya vakillari huquqiy munosabatlarning obyektlari koʻpligini e'tirof etishadi.(N.G. Aleksandrov, S.S. Alekseev).

Monistik nazariyaga koʻra, huquqiy munosabat obyekti bu – majburiyatli shaxsning xatti-harakati, xulq-atvori yoki huquqiy munosabat qaratilgan faktik ijtimoiy munosabatlar.

Plyuralistik teoriyaga koʻra huquqiy munosablar obyektlari boʻlib quyidagi moddiy va nomoddiy qimmatliklar hisoblanadi:

- 1) ashyolar;
- 2) ma'naviy ijod mahsulotlari;
- 3) shaxsiy nomoddiy qiymatliklar (nomi, qadr-qimmati);
- 4) harakatlar (harakatdan o'zini tiyish):
- 5) huquqiy munosabat subyektlari harakati natijalari.

Ilmiy adabiyotda monistik va plyuralistik nazariyalarni qoʻshib, ularni uygʻunlashtirishga intilish hollari ham mavjud. Bunda huquqiy munosabat subyektining faktik huquqiy xulqini huquqiy munosabatning yuridik obyekti deb (L.I.Spiridonov), mazkur xulq bilan bogʻliq boʻlgan turli ma'naviy va moddiy ne'matlarni –huquqiy munosabatning «moddiy obyekti» deb (prof. A.G.Bratko) e'tirof etishadi. Shunday qilib, huquqiy munosabat obyekti bu -tashqi olam hodisasi hisoblanadigan, o'z subyektiv huquq va yuridik majburiyatlari doirasida harakat qiladigan vakolatli shaxs manfaatini qondirishga yordam beradigan ashyolar, xizmatlar, ma'naviy ijod mahsulotlari yoki shaxsiy nomoddiy ne'matlardir.

Shu o'rinda huquqiy munosabat obykti va huquq obykti atamalarini o'zaro farqlash zarur. Huquq obykti bu huquq o'z ta'sirini qaratadigan, ya'ni huquqiy tartibga solish predmetini tashkil etadigan ijtimoiy munosabatlar sohasidir. Ta'kidlash joizki, quldorchilik tuzumidan keskin farq qilgan holda (qulni «gapiruvchi qurol») hozirgi zamon huquqi insonni huquqning faqat subyekti sifatidagina e'tirof etadi.

Ma'lumki madaniyat tushunchasiga juda ko'plab ta'riflar berilganiga qaramay, hanuzgacha bu hodisaning umume'tirof etilgan ta'rifi yo'q. Madaniyatni «kishilik jamiyati rivoji davomida insoniyat tomonidan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erishilgan yutuqlari» ma'nosida tushunish ancha keng tarqalgan. Shu ma'noda huquq madaniyati bu kishilik jamiyatining ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish borasida, huquqning tobora ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik va shaxs xavfsizligini ta'minlash yuzasidan evolyutsion rivoji davomida erishilgan yutuqlari sifatida e'tirof etish mumkin. Shunday davrlar bo'lganki, qonunlar insonlar o'rtasidagi notenglikni mustahkamlagan. Masalan, quldorchilik davlati qonunlari to'g'ridan-to'g'ri qullar va quldorlarning notengligini o'zida mustahkamlaganini eslash joiz. Bugungi kunda huquq shaxs erkinligi o'lchovi sifatida o'zini namoyon etmoqda. Zero davlat va huquqning jamiyatda tutgan o'rni jamiyatning bir me'yorda faoliyat olib borishini ta'minlash bilan birga, inson huquqlarini, shaxs erkinligini ta'minlashi bilan bog'liq holda belgilanadi.

XX asrning oxirgi dekadasi kommunistik mafkuraga asoslangan davlatlar barham topib. Ularning o'rnida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Mazkur davlatlar bugungi kunda mulkning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tish va demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan ketishmoqda. Kishilik jamiyati tarixi guvohlik berganidek, bir tuzumdan ikkinchisiga, ayniqsa totalitar tuzumdan demokratik tuzumga o'tishda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida eski munosabatlar o'rnini yangilari egallashi og'riqli kechadi. Eski, o'nashib qolgan fikrlar, qarashlar o'z o'rnini yangisiga osonlikcha bo'shatib bermaydi.

O'tish davri qiyinchiliklari huquqiy ongda ham muayyan inqiroziy jihatlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu jarayon o'tish davri qiyinchiliklari bilan bog'liq holda shakllanishi mumkin. Shu bois ham mamlakatimizda jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan jiddiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pozitiv huquq tushunchasi va mazmuni
2. Pozitiv huquqning nazariy asoslari
3. Huquq normalariga oid nazariy muammolar
4. Huquq tizimi va uning tarkibiy elementlari o`rtasidagi bog`liqlik
5. Ommaviy va xususiy huquq
6. Huquq tizimi va qonunchilik tizimi o`rtasidagi nisbat
7. Qonunchilikni tizimlashtirish muammolari
8. Huquqiy munosabatlarning huquqiy tartibga solish tizimidagi

o`rni

9. Huquq madaniyati.

9-MAVZU: HUQUQ HARAKATI JARAYONI VA HUQUQNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

REJA:

1. Huquqni amalga oshirish tushunchasi.
2. Huquqni amalga oshirish shakllari va usullarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Huquqiy normani qo'llash - huquqni tadbiq etishning muhim shakli sifatida.
4. Huquqiy normani qo'llash jarayoni bosqichlari.
5. Huquqni qo'llash aktlari: tushunchasi, xususiyati va turlari.
6. Huquqni qo'llash aktlarining normativ-huquqiy aktlardan farqlari.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ. 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайд. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
7. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т.: Адолат 2001. С.
8. Исламов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДЮИ нашри. 2004.139 б.
9. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. Т.:ТДЮИ нашри. 2005. 188 б.
10. Нерсисянц В.С. Ҳуқуқ фалсафаси. Қисқача ўқув қўлланма. Мас. муҳ. ю.ф.д., проф. А.Х.Саидов. Т.: Адолат. 2003. 280 б.
11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.

12. Проблемы теории государство право: Учебное пособие. Под ред. М.Н. Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
13. .С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. М.: НОРМА. 2000.-233 с.
14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. М.: Статут. 1999.-810 с.
15. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
16. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М., «Новый юрист»-1999.240 с.
17. Рустамбоев М.Ҳ.. Абдухолиқов С.О. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 316 б.
18. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О. Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 404 б.
19. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. Академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Huquqni amalga oshirish tushunchasi

Huquq, huquqiy normalar insonlar ongi va irodasiga ta'sir etib, ularni huquqqa mos harakat qilishga undaydi. Ma'lumki, kishilarning xulq-atvori, xatti-harakati huquqiy tartibga solishning obyekti bo'lib hisoblanadi.

1) Huquqiy tartibga solishning dastlabki bosqichi bo'lib, huquqiy aktning qabul qilinishi hisoblanadi. O'quv adabiyotida davlat tomonidan huquqni amalga oshirishning boshlang'ich bosqichi sifatida qonun chiqarish faoliyati ko'rsatilib, bunda huquqiy qonunlar qabul qilinishi, ularda huquqiy qoidalarining shakllanishi va mustahkamlanishi nazarda tutiladi.

2) Huquqni amalga oshirishning keyingi bosqichi bo'lib, qonunosti aktlarini qabul qilish hisoblanadi. Bunda qonunda mustahkamlangan huquq konkretlashtiriladi.

3) Biroq, huquqiy tartibga solishda eng muhimi – bu huquq normasida mustahkamlangan umummajburiy qoidani amalga oshirish hisoblanadi.

Huquq normalarini amalga oshirish - bu huquq subyektlarining huquq normalarini amalga oshirish bo'yicha xatti-harakati, ularning

subyektiv huquqlarini amalga oshirish, yuridik majburiyatlarni bajarish bo'yicha amaliy faoliyatidir.

Boshqacha qilib aytganda, kishilar xatti-harakatida huquq normasida umumiy tarzda mustahkamlangan talablarning ifoda etilishidir. Shu bois, huquqning amalga oshirilishi, huquqda mustahkamlangan qoidaning ro'yobga chiqishi - aynan huquqiy tartibga solishning bevosita natijasidir, uning konkret ifodasidir.

2. Huquqni amalga oshirish shakllari va usullarining o'ziga xos xususiyatlari.

Huquqni amalga oshirishning quyidagi shakllari mavjud:

- a) huquq normalariga rioya etish;
- b) huquq normalarini ijro etish;
- c) huquq normalaridan foydalanish;
- d) huquq normalarini qo'llash.

Huquq normasiga rioya etish – bunda huquq subyekti amaldagi huquq bilan ma'n etilgan xatti-harakat, qilmishni sodir etishdan o'zini saqlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 140-moddasida «Haqorat qilish» jinoyati ko'rsatilgan, ya'ni jinoyat-huquqiy qonunchilik bilan shunday harakatni sodir etish jazo berish tahdidi ostida jinoyat deb tan olingan. Rioya qilish orqali ma'n etuvchi normalar amalga oshiriladi.

Ijro qilish (bajarish) - huquq subyekti tomonidan ijobiy xarakterdagi yuridik majburiyatlarni bajarish yuzasidan faol xatti-harakatlarni qilish talab etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mustahkamlangan soliq to'lash majburiyati har bir huquq subyektidan belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lab borishni talab etadi. Demak, huquq subyektlari o'zlariga yuklatilgan pozitiv majburiyatlarni bajarish orqali huquq normasida mustahkamlangan talabni ijro etadilar, yoki fuqarolar o'z konstitutsiyaviy burchlarini ado etish orqali ushbu konstitutsiyaviy normalar ijrosini amalga oshiradilar.

Foydalanish – bu shaklda huquq subyekti o'z vakolatlarini amalga oshiradi, shu bois u o'z xohishiga ko'ra ham faol, ham sust harakat qilishi mumkin. Masalan, muayyan bir shaxs Ma'lum bir dinga sig'inishi, boshqa shaxs esa siyosiy partiyaga a'zo bo'lib kirishi, uchinchi shaxs esa, siyosiy partiyaga a'zo ham emas hamda biron bir dinga e'tiqod ham etmasligi mumkin. Huquq normasini qo'llash - bu huquqni amalga oshirishning eng muhim shakli bo'lib, unda huquq normalari konkret holatlarga maxsus hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan tadbqiq etiladi. Huquq qo'llash - bu vakolatli subyektlarning huquq normasi talablarini –

umumiy qoidalarini konkret holatga qo'llash orqali ro'yobga chiqarish bo'yicha hokimona tashkiliy faoliyatidir.

Huquq normalarini amalga oshirish – bu huquq normalarida mustahkamlangan qoidalarini huquq subyektlarining real faoliyatida ifodalash, huquq normasi talablarini shaxsning huquqiy xulqiga aylantirishdir. Shu o'rinda bir holatga e'tiborni jalb etish zarur. Ba'zan huquq normasi huquqiy munosabat vujudga keltirmay turib ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, huquq orqali man etilgan harakatlarni sodir etmaslik.

Huquqiy munosabatdan tashqarida - huquqlarini amalga oshirish, yuridik majburiyatlarni ijro etish bo'yicha faol harakatlar qilish shaklida ham amalga oshirilishi mumkin. Bundan harakatlarning xususiyati yana shunda ko'rinadiki, ular bevosita normativ akt mazmunidan kelib chiqadi va ayni paytda aytarli yuridik ahamiyatga molik oqibatlarga olib kelmaydi, masalan, yo'l harkati qoidalariga rioya etish fuqarolarning so'z erkinligidan foydalanish va b. Huquqiy munosabatlar vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor qilinishiga bog'liq bo'lgan davlat organlari, tashkilotlar va shaxs faoliyatini ikki turga bo'lish mumkin:

1. Huquqiy holati teng bo'lgan, bir-biriga qaram bo'lmagan huquq subyektlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar: - fuqarolar o'rtasida va tashkilotlar o'rtasida - fuqarolik-huquqiy munosabatlar;

2. Bir taraf maxsus – hokimiy vakolatga ega bo'lgan huquqiy munosabatlar, jumladan – bu ma'muriy-huquqiy munosabatlardir.

Qolgan hollarda esa, huquqiy munosabat kompetentli organning hokimona farmoyishi asosida vujudga keladi. Bunday munosabat tashabbuskori – o'sha vakolatli organ hisoblanadi va uning erki, qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, masalan, sud hukmi, ijtimoiy ta'minot bo'limining nafaqa tayinlash to'g'risidagi qarori, korxona rahbarining xodimni mukofotlash to'g'risidagi buyrug'i va h. Shu tariqa huquq amalga oshiriladi va bu shakl huquqni amalga oshirish deb ataladi.

Shunday qilib, huquqni amalga oshirish bu davlat organi yoki davlat tomonidan vakolat berilgan boshqa organlarning hokimiy faoliyati bo'lib, ular o'zlarining maxsus vakolatlari yordamida, huquq normasi asosida individual ahamiyatga ega aktlarni qabul qiladi va shu tariqa u yoki bu konkret masala hal etiladi. Huquqni tadbiq etishga zarurat - qachonki, muayyan huquqiy munosabat davlat hokimiyatini ifodalovchi organ qarori bilangina yoki davlat kontroli zarur bo'lgan hollarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, nikohdan o'tish, nafaqaga chiqish, mukofotlash,

Ma'lum lavozimni egallash – vakolatli organ qarori asosidagina mumkin bo'ladi.

2. Huquqiy normani qo'llash - huquqni tadbqiq etishning muhim shakli sifatida

Huquqni amalga oshirish jarayoni, ko'pincha, davlatning va uning organlarining ishtirokisiz amalga oshiriladi. Davlat organlari va fuqarolar, odatda, o'zaro kelishilgan holda, tashqi majburlovsiz huquqiy munosabatga kirishadilar. Ushbu munosabatlar doirasida o'z subyektiv huquqlaridan foydalanadilar, yuridik majburiyatlarini bajaradilar va qonunda belgilangan man etishlarga rioya qiladilar.

Ayni paytda, muayyan bir holatlarda huquqiy munosabatlarga davlatning aralashuvi taqozo etiladi, davlatning aralashuvisiz huquqni amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday vaziyat qay holatlarda vujudga kelishi to'g'risida, shu joyda, to'xtatish zarur.

Ta'kidlash joizki, amaldagi qonunchilikning qator normalarida, unda belgilangan qoidaning amalga oshishi uchun, davlatning ishtiroki zarurligi, oldindan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bunday normalar sirasiga, avvalo, jamiyatda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning davlat tomonidan taqsimlanishi masalasiga doir normalarni kiritish mumkin. Masalan, xizmat vazifasi bilan bog'liq holda, mutaxassislarga, jumladan sudyalarga xizmat turar joyi berish masalasi, albatta tegishli hokimiyat organining muayyan qarorga kelishini taqozo etadi. Yoinki, vaqti-soati kelib pensiyaga chiqqan fuqaroga nafaqa tayinlash - tegishli ijtimoiy ta'minot organining qarori asosida amalga oshiriladi. Xuddi shu tartibda, chet elda ishlash istagini bildirgan fuqarolar Mehnat va ijtimoiy ta'minot Vazirligining tegishli tuzilmasi qarori bilan ishchi kuchiga talab bo'lgan davlatga jo'natiladi; yoki, oilaning tarkibi kengayganligi munosabati bilan yer uchastkasi ajratish ham tegishli davlat organining aralashuvisiz amalga oshmaydi, albatta.

Bundan tashqari, davlat mexanizmi ichida kechadigan jarayonlar, jumladan davlat organlari va mansabdor shaxslar o'rtasida kechadigan munosabatlar hokimiy xarakterga ega bo'lib, ular hokimiyat-bo'ysunish munosabati tarzida amalga oshadi va bunday xarakterdagi munosabatlarning natijasi ham huquqiy akt-qarorda o'zining ifodasini topadi. Bunday huquq qo'llash aktlari boshqaruv sohasida juda ko'plab qabul qilinadi, masalan, biron-bir mansabdor shaxsni ishga tayinlash yoki ishdan olish haqida, yoxud, mansabdor shaxsni bir lavozimdan ikkinchisiga

o`tkazish haqida, biron-bir xodimni mukofot-lash haqida va shu kabi masalalar bo`yicha qarorlar qabul qilinadi.

Davlatning (uning tegishli vakolatli organi tomonidan) bevosita ishtiroki talab etiladigan holatlarning muhim bir guruhi - huquq subyektlari o`rtasida huquqqa doir nizo vujudga kelishi munosabati bilan paydo bo`ladigan munosabatlardir. Odatda, munosabat taraflari, huquq va majburiyatlar to`g`risida o`zaro bir kelishuvga kelisha olmagan hollarda, tegishli vakolatli organga murojaat qilishadi. Masalan, yuridik shaxslar huquqlar haqidagi da`vo bilan sudlariga, er-xotinlar oilaviy nizo yuzasidan fuqarolik sudlariga murojaat qilishadi.

Ayni paytda, ijtimoiy munosabatlarga davlatning ishtiroki shuning uchun zarur bo`ladiki, bunda huquq normalari buzilib, jinoyat yoki nojo`ya harakat sodir etilgan bo`lib, bu uchun tegishli javobgarlik belgilanishi zarur bo`ladi. Bunday holda ham, tegishli vakolatli organ, ya`ni sud yoki boshqa bir organning ishtiroki shart hisoblanadi. Chunki jazoni faqat qonunda belgilangan maxsus organlarga, masalan, ozodlikdan mahrum etish jazosini faqat sud orga-nigina tayinlashi mumkin.

Ta`kidlash lozimki, huquq qo`llash jarayonining vujudga kelishi sabablari va asoslari haqida ilmiy adabiyotda turlicha yondoshuvlar mavjud. Professor Z.M.Islomov ta`kidlaganlaridek, huquq qo`llash jarayonining tabiati va xususiyatlari haqidagi masala ilmiy adabiyotda munozaralar va tortishuvlar natijasida shakllangan. Bu munozaralarning sovet davri faniga borib taqaladi. Ayniqsa, huquqiy normalarni amalga oshirish va huquqiy tartibga solish mexanizmi masalasida katta tortishuvlar bo`lgan.

Professor Z.M.Islomovning ko`rsatishicha, huquq qo`llashning hokimiy xarakterga ega bo`lgan faoliyat ekanligi va maxsus subyektlar tomonidan amalga oshirilishi haqidagi qoidalar qator yirik olimlar, jumladan N.G.Aleksandrov, S.S.Alekseev, V.M.Gorshnev, I.Ya. Dyuryagin, V.V.Lazarev, P.E. Nedbaylo, A.S.Pigolkin, M.F. Orzix, P.M.Rabinovich, A.X.Saidov, M.M.Fayziev, Yu.A.Tixomirov, Sh.Z.O`razaev, L.S.Yavich kabi olimlarning ishlarida o`zining ifoda-sini topgan. V.V.Lazarev esa, o`z navbatida ta`kidlab ko`rsatadiki, huquq qo`llash jarayonining davlat-hokimiy xarakterga ega ekanligini e`tirof etmaslik, yuridik fanning hozirgi paytdagi taraqqiyoti erishgan marralardan orqaga qaytishni anglatishi mumkin, huquqni amalga oshirishning turli-tuman shakllari haqidagi tasavvurlarimizni toraytirishi mumkin, va shu tariqa huquqni amalga oshirishni faqat huquqga rioya etish va huquq qo`llash bilan chegaralab qo`yishi mumkin. Oqibatda esa,

davlat organlarining maxsus hokimiy faoliyatini va tashkilotlar hamda fuqarolarning huquqni ijro etish va undan foydalanish borasidagi faol faoliyatini aralashtirib yuborish mumkin¹.

Yana bir rossiyalik yirik olim V.A.Yusupov o'zining «Pravoprimenitel'naya deyatel'nost' organov upravleniya.» (M.Yurid lit. 1979. S.19)» kitobida, o'rinli ta'kidlashicha, aynan hokimiy xarakterga egalik boshqaruv munosabati subyektlari harakatiga uyg'unlik baxshi etadi, ya'ni hokimiylik sifati orqali huquq qo'llash aktlari majburiy xarakterga ega bo'ladi va davlatning barcha vositalari orqali ta'minlanadi: ishontirish va rag'batlantirish, moddiy, moliyaviy hamda majburlov vositalari².

Aytish kerakki, biz yuqorida yuridik fan yaqin tarixidagi munozaralarga bir nazar tashladik. Biroq, hozirgi kunda ham, ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda huquq qo'llash jarayoni va uning tabiati, huquqni amalga oshirishning shakllari masalasida hamon turli fikrlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda esa, garchi, ularning barchasi, asosiy masalada, ya'ni bu jarayon, albatta, davlatning tegishli organi aralashishini, ishtirokini talab etishini e'tirof etishadi. Shu munosabat bilan, rossiyalik huquqshunos olim V.N. Protasovning qarashlari e'tiborga loyiq. Mazkur olimning ta'kidlashicha, huquq normasi davlat organining hokimiy ta'sirisiz - yordamisiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan hollarda huquqni qo'llashga ehtiyoj tug'iladi.

Yuqorida qayd etilgan olimning yozishicha, quyidagi hollarda huquq qo'llash zarur bo'ladi: yuridik ahamiyatga molik holatlarni rasmiy tartibda belgilash zarurati asosida, bunday holatga misol qilib, shaxsni bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topish, shuningdek, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish haqidagi qarorning bekor qilinishi, hamda vafot etgan deb E'lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari holatlarini ko'rsatish mumkin. (O'zbekiston Respublikasi FKning 33, 34, 36, 37 moddolari)³; amaldagi qonunchilikdagi huquq normasining dispozitsiyasida mustahkamlangan qoida, davlat organining ishtirokisiz amalga osha olmaydigan hollarda, masalan, nikohdan o'tish, pensiyaga chiqish va shu kabilar.

- Huquq normasidagi sanksiyani amalga oshirish kerak bo'lganda, masalan, sodir etgan jinoyati jazo tayinlash.

¹ Общая теория права и государства. Лазарев В.В. тахр. остида. -М.: Юристъ. 1996. С. 221.

² Исламов З.М. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории) -Т.: Адолат. 2001. С. 575.

³ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги. Расмий нашр. 2003. -

Ta'kidlash kerakki, huquq qo'llash jarayonining belgilari borasida ham olimlar o'rtasida turlicha yondoshuv mavjud.

Masalan, professor Leushin V.I. huquq qo'llash jarayonining quyidagi belgilarini ajratadi:

1) davlat hokimiy funksiyaga ega bo'lgan davlat organlari yoki mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi;

2) Individual xarakterga ega bo'ladi;

3) Konkret huquqiy oqibatlarni – subyektiv huquq va majburiyatlarni hamda javobgarlikni belgilashga yo'naltirilgan;

4) qonunda belgilangan tartibdagi protsessual shakllarda amalga oshiriladi;

5) huquq qo'llash jarayoni bevosita individual yuridik qaror qabul qilish bilan yakunlanadi.¹

Shu munosabat bilan, ilmiy –o'quv adabiyotida huquq qo'llash jarayoniga berilgan ta'riflarga qiyosiy huquqiy yondoshish maqsadga muvofiq, bizningcha. Dastlab, professor Z.M.Islomovning ta'rifini keltiramiz: Huquq qo'llash – bu vakolatli davlat organlarining huquq subyektlariga tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga yordam berish hamda mazkur jarayon ustidan nazorat olib borish maqsadida amalga oshiradigan hokimiy-tashkiliy faoliyatidir². Professor V.I. Leushinning ta'rificha, huquq qo'llash – bu kompetentli organlar va shaxslarning yuridik faktlar va konkret huquqiy normalar asosida yuridik ishni hal etish bo'yicha individual xarakterdagi qarorni tayyorlash va qabul qilish bo'yicha hokimiy faoliyatidir.³ V.N.Protasovning ta'rificha, huquq qo'llash bu - kompetentli subyektlar tomonidan qonunda belgilangan protsessual shakllarda amalga oshiriladigan va individual konkret-yuridik qaror chiqarish yo'li bilan huquqiy normalarning amalga oshirishiga yordam beradigan davlat-hokimiy faoliyatidir.

Shunday qilib, huquq qo'llash jarayoni, bu - qonunda belgilangan protsessual tartibda, tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan, huquq normasini hayotiy holat va vaziyatlarga qo'llash yo'li bilan muayyan yuridik ahamiyatga molik masalani hal etishga qaratilgan davlat faoliyatidir.

¹ Леушин В.И. Реализация и применение права. Юридический процесс.// Теория государства и права. М.: Норма. 2002.С.399.

² Исламов З.М. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории) -Т.: Адолат. 2001. С. 576.

³ Леушин В.И. Реализация и применение права. Юридический процесс. // Теория государства и права. -М.: Норма. 2002.С.398.

4. Huquqiy normani qo'llash jarayoni bosqichlari

Huquq qo'llash jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bunda davlat normativ-huquqiy akti chiqarganidan keyin yana bir bora huquqiy tartibga solish jarayoniga hokimiy tusda qo'shiladi. Chunki, yuridik norma ko'pgina davlat organining aralashuvisiz, yordamisiz amalga osha olmaydi. Huquqni qo'llash jarayoni bosqichli jarayon hisoblanadi. Ko'rsatib o'tish kerakki, ilmiy adabiyotda, xususan, davlat va huquq nazariyasi fanida huquqni qo'llashning jarayonlari haqida, garchi turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lsa-da, biroq, ko'pchilik olimlar bu masalada mohiyatan bir-biriga yaqin nuqtai-nazardan bu masalani talqin etadilar.

Yuqorida qayd etilganidek, huquqni qo'llash jarayoni qator bosqichlarga bo'linadi. Huquqni qo'llash jarayonining bosqichlari haqida gap ketganda, avvalo, umuman bosqich tushunchasining o'ziga ham bir e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bosqich - biron-bir jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, u muayyan bir oraliq vazifaga va shu bois nisbatan mustaqillikka va yakuniylik tusiga ega bo'ladi.

Ilmiy adabiyotda huquqni qo'llash jarayonining asosiy bosqichlari sifatida;

1. Hal etilishi kerak bo'lgan ishning faktik jihatlarini aniqlash, belgilab olish.

2. Ishning yuridik asosini shakllantirish.

3. Ishni mazmunan hal etish.

Aytish kerakki, ushbu tasnif ilmiy adabiyotda ko'p olimlar tomonidan keltiriladi. Qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkin, huquq qo'llash aktini davlat tomonidan, ayrim hollarda majburiy bajartirish, huquqni qo'llashning yana bir bosqichi sifatida ham e'tirof etiladi. Yuqoridagi tasnifning mazmunidan ko'rinib turibdiki, ishning faktik holatini aniqlash va unga mos keladigan yuridik asosni shakllantirish bu ishni mohiyatan hal etishga bo'lgan tayyorgarlik bosqichlari hisoblanadi.

1. Huquqni qo'llash jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, hal etilishi lozim bo'lgan ishning faktik jihatlarini aniqlash hisoblanadi. Bu bosqichda bevosita ishga daxldor yuridik ahamiyatga molik faktlar, dalillar yig'iladi, to'planadi.

Maslan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining uchinchi bo'limi «Dalillar va isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar» deb, nomlanib, unda dalillar tushunchasi, isbot qilishning umumiy shartlari, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish, guvoh va jabrlanuvchini so'roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlarni

hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, murdani eksqumasiya qilish, eksperiment, olib qo'yish va tintuv, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ekspertiza, ekspertiza tekshiruvlari uchun namunalar olish, narsalar va hujjatlarni taqdim qilish, narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish kabi holatlarning protsessual jihatlari mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur JPKda dalillar tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra, «Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy Ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi»¹.

Dalillar bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday Ma'lumot, narsa, ko'rsatmalar va boshqalar ushbu bosqichga bevosita aloqadordir. Ishning faktik holatlari, ko'pincha, vaqt jihatidan o'tib ketgan bo'ladi, shu bois sodir bo'lgan voqea va holatlarni isbotlovchi hujjatlashtirilgan, rasmiylashtirilgan moddiy va nomoddiy izlar orqali isbotlanadi, masalan, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspert xulosasi, jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi va shu kabilar. Bu hujjatlar yuridik ishning asosiy materiallari hisoblanadi va yuridik ahamiyatga molik vaziyatni o'zida ifodalaydi.

Dalilarni yig'ishning qiyinligi, murakkabligi yuridik ishning turiga, xususiyatiga bog'liq. Masalan, biron-bir fuqaro pensiyaga chiqmoqchi bo'lsa, u asosan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, ijtimoiy ta'minot organiga taqdim etadi va shu asnoda unga pensiya ta'minlash masalasi hal etiladi. Masalan pensiyaga da'vogar shaxs pensiya yoshiga yetganligini, qonun talab qilgan ish stajiga ega ekanligini, maoshining miqdorini ko'rsatuvchi hujjatlarni taqdim etadi². Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ishni isbotlash vazifasining ham Ma'lum bir doirasi bor, albatta. Shu munosabat bilan, ilmiy adabiyotda dalilarga nisbatan ayrim talablar qo'yiladi:

A) Daxldorlik talabi - buning ma'nosi shuki, ish yuzasidan faqat ishga oid bo'lgan, ishning chinakam faktik holatlari hisoblangan hamda ish bo'yicha obyektiv haqiqatning o'rnatilishiga olib keladigan dalillar qabul qilinadi va tahlilga tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual

¹ Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал Кодекси.–Т.: Адолат.1995. 3-бўлим, 8-боб, 81-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Меҳнат Кодекси. – Т.: Адолат.1996. 3-параграф.

Kodeksining 59-moddasiga binoan, «Xo`jalik sudi ko`rilayotgan ishga daxldor bo`lgan dalillarni-gina qabul qiladi»¹.

B) Yo`l qo`yish talabi – bunda isbotlash jarayonida, faqat qonunda belgilab qo`yilgan isbotlash vositalarigina qo`llaniladi. Ma`lumotini qayerdan olganligini ko`rsata olmagan guvohning ko`rsatuvlari dalil bo`la olmaydi. O`zbekiston Respublikasi Xo`jalik – protsessual kodeksining 70-moddasi 2-bandida ko`rsatilganidek, «Agar guvoh o`zi bilgan Ma`lumotlarning manbaini ko`rsatib bera olmasa, u xabar qilgan Ma`lumotlar dalil hisoblanmaydi»².

V)To`liqlik talabi - bunda ishning mohiyatan adolatli hal etilishi va obyektiv haqiqatning o`rnatilishi uchun zarur bo`lgan barcha dalilarni to`plashga o`z faoliyatini qaratadi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual Kodeksining 57-moddasida mustahkamlanganidek, «Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo`lsalar ham, ularni muhokamaga qo`yadi»³.

2. Huquqni qo`llash jarayonining ikkinchi bosqichi bo`lgan – ishning yuridik asosini shakllantirish, ya`ni to`plangan faktik holatlarga, dalillarga baho berish ham murakkab va mas`ul jarayon hisoblanadi. Bunda eng muhim vazifa-aynan mana shu yuridik vaziyatga juda mos keladigan huquqiy normani topib, yuridik tavsiflash hisoblanadi. Bu masalada paydo bo`lishi mumkin bo`lgan holatlardan eng ko`p uchraydigani shunday holki, bunda gipotezada ko`rsatilgan holatlar mavjud, biroq ushbu normaning dispozitsiyasi judayam holatlarga monand kelavermaydi. Shu bois, ishning holatlarini chuqur tahlil etish talab etiladi. Ko`pincha tergov amaliyotida holatlarni gipotezaga moslashga urinish hollari mavjud va bu keyinchalik sudda yuridik tavsifning o`zgarishiga olib keladi.

Ayniqsa, xo`jalik sudlari juda katta qonun osti aktlari bilan ishlashlariga to`g`ri keladi, o`z navbatida qonun osti aktlari tez-tez o`zgarib turadi, shu bois bu holatda juda sinchiklab huquqiy asosni o`rganish talab etiladi.

3. Huquqni qo`llash jarayonining uchinchi bosqichi - yuridik ahamiyatli ish yuzasidan qaror qabul qilish hisoblanadi. Bunday qarorning

¹ Ўзбекистон Республикаси Хўжалик-процессуал Кодекси. – Т.: Адолат. 2003. 58-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Хўжалик-процессуал Кодекси. – Т.: Адолат. 2003. 70-модданинг 2-банди.

³ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик –процессуал Кодекси. – Т.: Адолат. 2003. 57-модданинг 2-банди.

mazmuni ishning faktik holatlariga bog'liq holda belgilanadi. Ish yuzasidan qaror chiqarishning ikki jihati mavjud:

a) qaror qabul qilish - aqliy faoliyat bo'lib, u yig'ilgan dalillarni baholash va uzil-kesil yuridik tavsiflashda ifodalanadi, natijada yuridik ishdagi taraflar uchun yuridik ahamiyatga molik subyektiv huquq yoki majburiyatlar vujudga keladi.

b) ishning hal etilishi ifodasi bo'lib, yuridik ahamiyatli hujjat - huquq qo'llash akti hisoblanadi va unda yuqoridagi yuridik ishni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan aqliy faoliyat natijasi, tomonlar uchun vujudga kelgan yuridik oqibatlar o'zining ifodasini topadi. Huquq qo'llash aktlari huquqiy tartibga solish mexanizmida katta rol o'ynaydi.

5. Huquqni qo'llash aktlari: tushunchasi, xususiyati va turlari

Huquqni amalga oshirish ko'p hollarda davlat va uning organlarining qatnashuvisiz ham sodir bo'ladi. Bunda fuqarolar, turli tashkilotlar o'zaro kelishuv asosida huquqiy munosabatga kirishadilar, va shu munosabatlar doirasida subyektiv huquqlaridan foydalanadilar, zimmalaridagi majburiyatlarini bajaradilar.

Huquq qo'llash jarayoni esa huquqni amalga oshirishning oxirgi, hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Yuridik adabiyotda huquq qo'llash jarayonini huquqni amalga oshirishning *alohida shakli* deb tavsiflash ham keng tarqalgan. Huquq qo'llash jarayonining xususiyati shundaki, huquqni amalga oshirishning bu shaklida davlat organlarining aralashuvisiz huquq normasini amalga oshirib bo'lmaydi, ya'ni davlatning hokimiy amri zarur bo'ladi.

Huquq qo'llashga ehtiyoj shunda tug'iladiki, qachonki, yuridik ahamiyatga molik holatlarni rasmiy jihatdan belgilash zarurati paydo bo'lsa, masalan, farzand tug'ilishini qayd etish, ismni o'zgartirish, fuqaroni vafot etgan deb topish kabi holatlar.

Bundan tashqari, ko'pincha, muayyan huquq normasida belgilangan holatning amalga oshishi uchun davlatning, ya'ni uning maxsus vakolatli organining individual hokimiy amri kerak bo'ladi, xususan nikohga kirish, nafaqaga chiqish kabi holatlar.

Huquq qo'llashga ehtiyoj, yana huquq normasida belgilangan sanksiyani amalga oshirishda vujudga keladi, jumladan, sud hukmi, zararni undirish haqidagi qaror va boshqalar.

Yuqoridagilarga asoslanib, huquq qo'llash jarayonining qator, o'ziga xos belgilarini ajratish mumkin: - huquq qo'llash maxsus vakolatli davlat

organi yoki mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi; - davlat-huquqiy xarakterga ega bo`ladi; - alohida individga qaratilib, konkret huquqiy oqibatni vujudga keltirishga yo`naltiriladi; - muayyan bosqichlardan iborat bo`lib, qonunda belgilangan tartib va shaklda amalga oshiriladi; - individual yuridik akt qabul qilish bilan yakunlanadi.

Huquq qo`llash jarayonining yuqorida qayd etilgan belgilari asosida, unga quyidagicha ta`rif berish mumkin: Huquq qo`llash - bu maxsus vakolatga ega bo`lgan tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquq normalarini amalga oshirish maqsadida muayyan tartib va shaklda olib boriladigan, davlat-hokimiy xarakterga ega bo`lgan va individual yuridik akt qabul qilish bilan yakunlanadigan faoliyatidir. Huquq qo`llash jarayonining natijasi bo`lib huquq qo`llash akti hisoblanadi. Huquq qo`llash akti – bu vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxsning konkret holatga tegishli huquq nor-masini qo`llash bo`yicha alohida huquq subyektiga qaratilgan va o`zida individual davlat hokimiy amrni ifodalagan rasmiy hujjatdir.

Huquq qo`llash akti qator xususiyatlarga ega. Yuqoridagi ta`riflardan ham ko`rinib turibdiki, huquq qo`llash aktini har qanday subyekt emas, balki qonunda belgilab qo`yilgan va maxsus vakolatga ega bo`lgan davlat organlari va mansabdor shaxslargina amalga oshiradi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 13 moddasida mustahkamlanganidek, «Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro`yxatidan o`tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi»¹.

Umumiy qoidadan istisno tariqasida fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organiga berilgan ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun bu organlar muayyan vakolatlarga va huquq qo`llash akti chiqarish huquqiga ega ekanligini ko`rsatib o`tish kerak, xususan ular ayrim notarial harakatlarni amalga oshiradilar.

Bundan tashqari, huquq qo`llash aktlari aniq, konkret huquq subyektiga qaratilgan, yo`naltirilgan bo`ladi, holbuki normativ huquqiy aktlar esa ko`pchilikka qaratilgan bo`ladi. Masalan, sudning zararni qoplash bo`yicha chiqarilgan hal qiluv qarorining adresati aniq huquq subyekti bo`ladi. Huquq qo`llash aktlari huquq normalarida mustahkamlangan qoidalarni konkret holatga, vaziyatga qo`llash

¹ Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси.// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 5-6 сонга илова. 1998 йил май-июнь. – Т.: 1998. 13 модда.

demakdir. Bunda konkret huquq subyektining huquq va majburiyatlari konkretlashtiriladi, yoki huquq subyektining javobgarlik darajasi doirasi belgilanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ayrim nazariy xulosalarni shakllantirish mumkin:

- Huquq qo'llash - huquqni amalga oshirishning alohida shakli bo'lib, unga ehtiyoj yuridik norma davlatning hokimiy aralashuvisiz hal bo'lmaydigan holatlarda vujudga keladi;

- Istisno tariqasida huquq qo'llash subyektlari sifatida jamoat tashkiloti va o'zini-o'zi boshqarish organi chiqishi mumkin;

- Huquq qo'llash jarayonida bevosita huquq subyektlarining huquq va manfaatlari hal etilishi bois, bu jarayon, umuman huquqiy tartibga solish mexanizmida alohida mas'ul o'rin tutadi;

Pozitiv huquq qo'llash bevosita fuqarolarning huquq va erkinliklari bilan bog'liqligi bois, masxus vakolatli organlardan yuqori huquqiy madaniyat va insoniy e'tibor talab etiladi.

6. Huquqni qo'llash aktlarining normativ-huquqiy aktlardan farqlari

Huquq qo'llash aktlari yuridik aktlar ichida eng keng tarqalgani hisoblanadi. Chunki, kundalik hayotda turli xil yuridik ahamiyatga molik masalalar yuzasidan huquq qo'llash aktlari qabul qilinadi.

Huquq qo'llash aktlari, umuman huquqni qo'llash jarayonining mantiqiy yuridik natijasi sifatida, tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan aniq bir yuridik ahamiyatga molik masalani hal etish yuzasidan qabul qilinadi. Darhaqiqat, insonlar ko'plab hayotiy masalalar bo'yicha tegishli subyektlarga – davlat organlari, mansabdor shaxslarga murojaat etadilar, ular esa o'z navba-tida bu masalani hal etib, tegishli qarorga keladilar.

Huquq qo'llash aktlari juda ko'p va keng masalalar bo'yicha qabul qilinadi. Farzand tug'ilgani, kimningdir vafot etganligi, pensiya ta'minoti, nikohdan o'tish, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish, yer uchastkasi olish, uy almashtirish kabi minglab holatlarda fuqarolar tegishli organ va tuzilmalarga murojaat etadilar. Yuqoridagi ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, bu masalalarning hal etilishi - maxsus subyektlarning, ya'ni davlat organi yoki mansabdor shaxsning vakolatli tarzda ishtirokini, qarorini taqozo etadi. Vaholanki, tegishli tuman ijtimoiy ta'minot bo'limining maxsus qarorisiz fuqaro pensiya ta'minotini ola olmaydi yoki tegishli FXDYo organining qarorisiz tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi, yoxud, hadya etilgan ko'chmas mulk tegishli tartibda notariusdan tasdiqlanmasa, u huquqiy oqibat vujudga keltirmaydi va hokazo.

Ta'kidlab o'tish kerakki, ilmiy adabiyotda huquq qo'llash aktining tushunchasi masalasida ancha umumiylik bo'lsa-da, biroq unga ta'rif berishda turli yondoshuvlar mavjud. Masalan, prof. Z.Islomov unga shunday ta'rif beradi: «Huquq qo'llash akti – bu kompetentli subyekt tomonidan konkret yuridik ish yuzasidan subyektiv huquq yoki yuridik majburiyat bor yoki yo'qligini aniqlash hamda tegishli huquq normalarini normativ amalga oshirish uchun ularning doirasini belgilash maqsadida qabul qilinadigan davlat-hokimiy, individual - aniq aktdir»¹.

Rossiyalik huquqshunos olim, professor V.I.Leushinning ta'rificha, «huquq qo'llash akti – bu kompetentli davlat organi yoki mansabdor shaxsning yuridik faktlar va huquq normasi asosida chiqaradigan, konkret

¹ Исламов З. Общество.Государство.Право. –Т.: Адолат. 2001. 587 бет.

shaxslarning huquq va majburiyatlarni yoki yuridik javobgarligi doirasini belgilaydigan huquqiy aktidir»¹.

Ko`rsatish kerakki, huquq qo`llash aktlari, umuman huquqiy aktlarning bir ko`rinishi bo`lib, u huquq qo`llash jarayoni natijasida yuzaga keladi. Ilmiy adabiyotlardan Ma'lumki, huquq qo`llash jarayoni o`z ichiga uch bosqichni oladi: ishga doir muhim holatlarni, faktlarni aniqlash, belgilash; ishning huquqiy asosini aniqlashtirib olish; ishni hal etish. Masalan, sodir etilgan jinoyat bo`yicha huquq qo`llovchi-tergovchi dastlab ishga doir barcha faktlarni, ashyoviy dalillarni to`playdi, ularni rasmiylashtiradi, holatlarni aniqlaydi, shundan keyin bu xatti-harakat (yoki harakatsizlik) qanday huquq normasiga tushishini, xususan Jinoyat Kodeksining qaysi moddasi, qaysi bandiga mos ekanligini aniqlaydi, shundan so`nggina bu xatti-harakatni (yoki harakatsizlikni) kvalifikatsiya (tavsiflaydi) qiladi. Jinoyat kodeksining tegishli moddasi va tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilinib, jinoyat ishi qo`zg`atilishi - huquq qo`llashning bir shaklidir.

Huquq qo`llash aktlari fuqarolarning kundalik hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi aniq. Shu bois, huquq qo`llash aktining huquqiy tabiati va uning normativ-huquqiy aktlardan farqi masalasi ham ilmiy, ham nazariy qiziqish uyg`otishi tabiiydir.

Normativ-huquqiy akt bu - maxsus vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan ijtimoiy hayotning muhim masalalari bo`yicha amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va berilgan vakolatlar doirasida qabul qilinadigan hamda o`zida umummajburiy qoidalarni ifodalaydigan xatti-harakat (yoki harakatsizlik) qoidalari yig`indisi. Normativ-huquqiy aktlar ham yuridik aktlar hisoblanib, ular huquq qo`llash aktlari bilan umumiy jihatlarga ham ega. Jumladan, ikkalasi ham yozma shakldagi hujjatlardir (masalan, qonun ham, ijtimoiy ta'minot bo`limining pensiya tayinlash to`g`risidagi qarori ham birdek yozma shaklda amalga oshiriladi), ikkalasi ham davlat tomonidan, uning tegishli organlari orqali qabul qilinadi, (masalan, jinoyatchiga nisbatan chiqarilgan hukm O`zbekiston Respublikasi nomidan tegishli sud tomonidan chiqariladi); normativ huquqiy akt ham, huquq qo`llash akti ham yuridik oqibat vujudga keltiradi (masalan, yangi qonun qabul qilinishi davlat bilan huquq subyektlari o`rtasida yangi huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, xuddi shuningdek, tegishli FXDYo organida ro`yxatga

¹ Леушин В.И. Реализация и применение права. //Теория государства и права. М.: Норма. Стр. 402

olingan nikoh nikohlanganlar uchun qator yuridik oqibatlarni vujudga keltiradi) va hokazo.

Ayni paytda huquq qo'llash aktlari normativ huquqiy aktlardan ayrim jihatlari bilan farqlanadi.

1) Huquq qo'llash aktlari normativ aktlardan farq qilgan holda, o'zida umumiy qoida emas, balki individual aniq bir qoida, amrni ifodalaydi, masalan, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun» o'zida aytarli barcha huquq subyektlariga daxldor qoidalarni ifodalasa, huquq qo'llash akti esa o'zida aniq bir yuridik ahamiyatga molik qarorni, xususan, muayyan bir fuqaroga yer uchastkasi ajratish to'g'risida, yoki Ma'lum bir shaxsni mukofotlash haqidagi qarorni ifodalashi mumkin.

2) Normativ - huquqiy aktlardan huquq qo'llash aktlari yana bir jihati - ijro etilishi xususiyatiga ko'ra ham farq qiladi. Normativ-huquqiy akt (qonun, Farmon, hukumat qarori)ning harakat vaqti muddati, mabodo uning o'zida aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, nomuayyan muddatda amal qiladi, masalan, qonunning vaqt davomidagi harakati uning o'rniga aynan shu munosabatlarni tartibga soladigan yangi qonun qabul qilinganga qadar davom etishi mumkin. Qisqasi normativ-huquqiy aktlarning harakati nomuayyan muddatga mo'ljallangan. Huquq qo'llash aktlarining harakat muddati bir martalik xarakterga ega, ya'ni ijro etilishi bilan ularning harakati to'xtaydi. Masalan, fuqaroga yer uchastkasi ajratish to'g'risidagi qaror, sud hukmi, nikohdan o'tish, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi huquq qo'llash aktlari ijro etilishi yoki amalga oshiri-lishi bilan o'z harakatini to'xtatadi.

3) Huquq qo'llash aktlari normativ-huquqiy aktlar asosida qabul qilinib, undagi huquq normalarini har bir yakka holatga nisbatan aniqlashtiradi.

4) Normativ-huquqiy akt huquqning asosiy manbalaridan hisoblansa, huquq qo'llash akti bunday xususiyatga ega emas - u huquq manbasi hisoblanmaydi, chunki yangi umumiy qoida yaratmaydi. Balki u huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor qilinishi uchun yuridik fakt - asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, huquqning jamiyatda tutgan o'zni, ijtimoiy qiymati oqibat natijada huquq qo'llash aktlarida o'zining ifodasini topadi, ya'ni yuridik mazmundagi holatlarga konkret huquq normasi tadbqiq etilishi orqali yuridik masala hal etiladi va shu tariqa huquqning pirovard maqsadi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali jamiyatda barqarorlik va adolat o'rnatish qaror topadi. Huquq qo'llash jarayonida ayrim ijtimoiy

munosabatlar huquq bilan tartibga solinmaganligi Ma'lum bo'lib qoladi. Bu holat «huquqdagi bo'sh joylar» deb ataladi.

Huquqdagi bo'sh joylar ikki xil, ya'ni dastlabki va keyingi bo'sh joylarga bo'linadi: Dastlabki bo'sh joy shunda paydo bo'ladiki, bunda huquqiy tartibga solinishi kerak bo'lgan munosabatlar bor, biroq qonun chiqaruvchi ularni e'tibordan chetda qoldirgan, normativ-huquqiy akt qoidasi ta'siriga tortmagan.

Huquqdagi keyingi «bo'sh joy»da esa, ijtimoiy munosabatlarning rivoji natijasida yangi munosabatlar paydo bo'lgan, biroq hali tartibga solinmagan, ammo albatta tartibga solinadigan munosabatlarga doir bo'ladi. Qonun chiqaruvchi huquqdagi bo'sh joylarni imkon boricha to'ldirishga harakat qiladi. Biroq, har qanday tizimda Ma'lum darajada bo'sh joylar saqlanib qoladi. Bo'sh joylar qonun va huquq analogiyasi (o'xshashligi) orqali to'ldiriladi.

Qonun analogiyasida, tartibga solinmagan munosabat o'xshash normani tartibga soladigan norma bilan tartibga solinadi. Agarda, o'xshash norma ham bo'lmasa, bu holda huquq analogiyasi qo'llaniladi, bunda huquqning umumiy prinsiplariga asoslanib munosabat tartibga solinadi. Ilmiy adabiyotlarda subsidiar huquq qo'llash tushunchasi mavjud bo'lib, bu boshqa huquq tarmog'idagi normaning qo'llanilishi hisoblanadi, masalan oila va fuqarolik huquqi normalari bunga misol bo'lishi mumkin. Bunday shaklning qo'llanishiga asos bo'lib, bir tarmoqning o'z ichida o'xshash normaning yo'qligi hisoblanadi. Huquq o'xshashligi barcha huquq tarmoqlarida qo'llanilavermaydi, masalan xalqaro huquq normalariga muvofiq, jinoyat huquqi sohasida o'xshashlik qo'llanilmaydi.

Huquqni bir xil tushunish va bir xil qo'llanishiga erishishda huquqni sharhlash faoliyati asosiy o'rin tutadi. Huquq normalarini sharhlash - bu sharhlanayotgan huquq normasida ifodalangan qonun chiqaruvchining umummajburiy irodasi ma'no-mazmunini aniqlash va tushuntirib berishga qaratilgan davlat organlari, turli tashkilotlar alohida fuqarolar faoliyatidir.

Sharhlash jarayonida huquq normasining mazmuni, asosiy maqsadi va ijtimoiy yo'nalishi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar, bu akt qanday sharoitda qabul qilingan, hozir qanday ahvol kabi masalalar yoritiladi. Sharhlashning maqsadi - huquq normasining matnda mujassamlashgan mohiyatini ochish va uning to'g'ri, aniq va hamma subyektlar tomonidan bir xilda qo'llanilishiga erishishdir.

Sharhlash vazifasi - amaldagi normalarga qo'shimchalar, o'zgartishlar kiritish bo'lmay, balki qonunda ifodalangan qoida mazmunini tushuntirish va aniqlashtirishdir. Sharhlash natijasida yangi huquqiy norma

paydo bo`lmaydi, faqat normada ifodalangan davlat irodasi o`rganiladi va aniqlashtiriladi. Sharhlash huquq yaratish jarayonining o`rnini egallamaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Huquq harakati tushunchasi va mazmuni.
2. Huquqni amalga oshirish shakllari
3. Huquqiy normasini qo`llash - huquqni amalga oshirishning muhim shakli sifatida
4. Huquq normasini qo`llash jarayoni belgilari
5. Huquq normasini qo`llash jarayoni bosqichlari
6. Huquqni qo`llash aktlari tushunchasi
7. Huquq qo`llash aktlari turlari
7. Huquq qo`llash aktlarining normativ-huquqiy aktlardan farqlari
8. Huquqdagi “bo`sh joylar” muammosi. Huquqni sharxlash.

10-MAVZU: QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT MUAMMOLARI

R E J A:

1. Qonuniylikni tushunish masalasi
2. Qonuniylik prinsiplari
3. Qonuniylik kafolatlari
4. Huquqiy tartibot tushunchasi
5. Huquqiy tartibot va ijtimoiy tartibot

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т.: «Ўзбекистон».1995.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон. 1992. Ўзбекистон:миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: – Т.: 1996.
4. Ватан саждагох каби муқаддасдир. 3-том. – Т.: «Ўзбекистон», 1996.
5. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Т.: Ўзбекистон. 2005. 74-б.
6. Каримов И.А.Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида.Т.:Ўзбекистон.2005.70-бет.
7. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ва манфаатлари – энг олий қадриятдир. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
8. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайдими. Халқ сўзи. 2005 йил, 17 феврал.
9. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат 2001. с.
10. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. Т.: Ўзбекистон. 2005. 264 б.
11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. – М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
12. Проблемы теории государства и права Учебное пособие. / Под ред.М.Н.Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
13. Нерсисянц В.С. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. –М.: НОРМА. 2000.-233 с.

14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. -М.: Статут. 1999.-810 с.
15. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
16. Кольев А.Н.Нация и государство. Теория консервативной реконструкции. -М.: Логос, 2005. -800 с.
17. М.Х.Рустамбоев. С.О.Абдухоликов. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. 1-китоб. -Т.: 2005. 316 б.
18. М.Х.Рустамбоев. С.О. Абдухоликов. Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. -Т.: 2005. 404 б.
19. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. -Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Qonuniylikni tushunish masalasi

“Qonuniylik” soʻzi bilan biz juda koʻp toʻqnash kelamiz. Bu tushuncha - keng qamrovli, serqirra tushunchadir.

Qonuniylik –bu qonunlarga rioya etish va uni hayotga tadbiq etishga doir qator talablar yigʻindisidir, yaʼni qonunlarning, ular kimga yoʻnaltirilgan boʻlsa, oʻshalar tomonidan aniq va muqarrar bajarilishi; qonunlar va boshqa normativ aktlarning ahamiyatiga qarab joylanishiga rioya etish; qonunni, uni chiqargan organdan boshqa hech bir organ tomonidan bekor qilinmasligi kabi talablarni bajarishdir va bu talablar qonuniylikning mazmunini tashkil etadi. Qonuniylik – bu ijtimoiy munosabat qatnashchilari tomonidan huquq normalarini qatʼiy, ogʻishmay bajarish, ularga rioya etishdan iboratdir. Qonuniylik bilan chambarchas bogʻliq holatda boshqa bir huquqiy hodisa –huquqiy tartibot turadi.

Qonuniylik quyidagilarni anglatadi:

1) Jamiyat va davlatda huquqiy qonunchilikning mavjudligi, yaʼni amaldagi qonunlar ideal huquqni, huquqiy prinsiplarni, umuminsoniy qadriyatlarni, erkin demokratik va huquqiy davlat gʻoyalarini adekvat ifodalaydi. Bunda konstitutsiya va boshqa qonunlar xalqaro huquq normalari va prinsiplariga, xalqaro standartlarga, insonning ajralmas huquqlariga mos keladi.

2) Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslarning harakatlarida konstitutsiya va boshqa qonunlardagi qoidalarning turli

shakllarda to'liq amalga oshirilishi. Bu mansabdor shaxslar, fuqarolar va boshqa shaxslar tomonidan o'zlarining huquq va erkinliklaridan foydalanishlarini ta'minlashlari, shuningdek, ko'rsatilgan huquq va erkinliklar buzilgan taqdirda yoki fuqarolar bilan mansabdor shaxslar o'rtasida konfliktlar yuzaga kelganda qonun bo'yicha muhofaza qilishi lozim bo'lgan shaxslardir.

3) Konstitutsiya va boshqa qonunlarning amal qilishi samarali himoyasining ta'minlanishi. Yuridik himoyaning bu tizimi o'z ichiga: qonunlarning harakatda bo'lishi ustidan davlat kontroli va nazorati tizimini, fuqarolar va boshqa shaxslar tomonidan o'z huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini individual himoya qilish tizimini oladi. Mana shu uch elementning mavjudligi erkin jamiyatda real amal qiluvchi huquq tizimi sifatidagi qonuniylik mazmunini tashkil etadi.

Qonuniylik bir qator asosiy belgilar bilan tavsiflanadi:

1) qonuniylikning umumiyligi. Yuridik normalarga rioya etish talabi huquq harakati chegarasida bo'lgan barcha shaxslarga taalluqlidir. Davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarni bajarishdan hech kimni bosh tortishi mumkin emas, shuningdek, davlat ham shaxs qonuniy huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilishni bajarmasligi mumkin emas. Davlat o'z fuqarolarining turli manfaatlarini qondirish uchun eng qulay rejimni yaratishi kerak. Qonuniylikning umumiyligi davlatga ham, uning fuqarolariga ham bir xil darajada taalluqlidir. Davlat fuqaro oldida, fuqaro - davlat oldida mas'uldir. Agar davlat qonunlarida fuqarolarning haqiqiy manfaatlari ifodalansa, huquqiy normalar davlat ta'sirining majburlov chora-larisiz tadbiriq etiladi.

Huquqiy normalarga rioya etishning umumiyligini ta'minlash - davlat va uning organlarining vazifasidir. Davlat zarur tashkiliy, moddiy va majburlash vositalariga ega bo'lib, u fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ishonchli tarzda himoya qilishi lozim. Fuqarolarning o'zi davlat-huquqiy tuzilmalarisiz ijtimoiy hayotda qonuniylik rejimini o'rnatmaydi. Davlat qonuniylikni yaratuvchisi va qo'riqllovchisi bo'lishi uchun o'zining hokimiy funksiyalarini istisnosiz amaldagi qonunlar asosida va doirasida oshirishi kerak. Bir vaqtning o'zida u ham o'z organlari va mansabdor shaxslari tomonidan, ham fuqarolar tomonidan sodir etiladigan har qanday huquqbuzarlikni to'xtatishi lozim.

Umumiylik qonun ko'rsatmalarini qat'iy amalga oshirish bo'yicha davlat organlari, jamoat, xo'jalik tashkilotlari va fuqarolar faoliyatining asosiy, umumiy tamoyili bo'lishini anglatadi.

2) qonuniylikning huquq, yuridik normalar bilan uzviy bog'liqligi. Mamlakatda qonuniylik rejimi ahvolini baholash davlatning qonunlari ijtimoiy taraqqiyot obyektiv ehtiyojlarini qanday darajada aks ettirishi asosida amalga oshiriladi. Agar davlat tomonidan qabul qilinadigan huquqiy normalar mamlakat butun aholisining umumiy va individual manfaatlarini e'tiborga olmay, faqat ayrim shaxslar yoki muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini mustahkamlasa va qo'riqlasa - qonuniylik bo'lmaydi. Agar huquqiy normalar faqatgina aholi turli qatlamlari manfaatlarini rasman ifodalasa, lekin ularni kafolatlamasa, bu holda ham qonuniylik haqida so'z borishi mumkin emas.

Bu talablar haqiqatan ham amalda bajarilsa – real qonuniylik, E'lon etilsa-yu, lekin amalda bajarilmasa – soxta (formal) qonuniylik mavjud bo'ladi. «Qonuniylikning asosiy talablari» atamasi ilmiy va o'quv yuridik adabiyotida asosli tarzda qo'llanib kelinadi. Uning mazmunida jamiyat huquqiy hayotining muhim qoidalari yotadiki, ularsiz real qonuniylik mavjud bo'lishi mumkin emas. Qonuniylik talablari o'z negiziga ko'ra huquq prinsiplariga mos keladi, chunki bu prinsiplarni amalga oshirish ijtimoiy munosa-batlarni tartibga solishning samarali rejimini yaratadi.

Shunga qaramasdan huquq prinsiplari va qonuniylik talablari bir xil narsa emas. Qonuniylik talablari huquq prinsiplarini amalga oshirish vositasi, huquq umumiy prinsiplarini hayotga joriy etish yuridik qurolidir. Bundan tashqari, qonuniylikning o'zi huquqning etakchi prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonuniylikning asosiy talablari quyidagilardir:

1. Qonunning barcha boshqa huquqiy aktlarga nisbatan ustuvorligi. Huquqiy davlatda qonun oliy yuridik kuchga ega. U ijtimoiy munosabatlarning bosh va asosiy regulyatori hisoblanadi. Obyektiv jihatdan huquqiy ta'sir doirasida bo'lgan munosabatlar asosan qonunlar bilan tartibga solinadi. Qonunosti aktlari, qachonki qandaydir munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinmagan holdagina amal qiladilar. Bunda ular qonunlarga qat'iy rioya qilingan holda va qonunlar asosida qabul qilinishlari kerak.

2. Qonunlarni amal qilish hududida ularni tushunish va qo'llashning birligi. Qonunlar vaqt va makondagi harakat sohasida bo'lgan barcha subyektlarga mutlaq bir xil talablarni qo'yadilar. Federativ davlat qonunlari federasiya tarkibiga kirgan barcha davlat tuzilmalarining hududida bir xil kuchga ega bo'ladi. Qonunlarning mohiyati va aniq mazmunini birday tushunish vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning huquqni qo'llash faoliyatida qonuniylikni ta'minlaydi. U qonunning

haqiqiy ma'nosiga mos keladi va undagi regulyativ funksiyalarni hayotga joriy qiladi.

3. Barcha fuqarolarning qonun himoyasidan foydalanishda teng imkoniyati va qonundagi qoidalarga rioya etishda teng majburiyatga ega bo'lishi (barchaning qonun va sud oldida tengligi). Jamiyatda qonuniylikning mustahkam va samarali rejimiga faqat barcha kishilarning qonun va sud oldida tengligi asosida erishish mumkin. Bir tomondan, huquq subyektlari o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni to'la hajmda bajarishlari lozim. Boshqa tomondan, davlat ularning qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishi lozim.

4. Insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi lozim. Huquqiy davlatchilik sharoitida bu talab muhim ahamiyatga ega, chun-ki bir kishining erkinligi boshqa kishining erkinligiga zarar yetkazib amalga oshirilishi mumkin emas. Qonun boshqa fuqarolar huquqi evaziga o'zga kishilarning huquqlarini kamsitishga yo'l qo'ymaydi.

5. Qonuniylikning realligi. Huquqbuzarliklar bilan samarali kurash olib borish va ularning oldini olish. Huquqiy davlat huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan moddiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi. Hayotning qulay moddiy sharoitlari, aholini ijtimoiy muhofazalanganligi, mamlakatda siyosiy barqarorlik, adolatli huquqni qo'riqlovchi qonunlarning mavjudligi qonuniylik rejimining real asosi hisoblanadi.

6. Qonuniylik bilan maqsadga muvofiqlikni bir-biriga qarshi qo'yishning istisno qilinishi. Bu ikki tushunchani bir-biriga qarshi qo'yishning mumkin emasligiga sabab shundaki, huquqiy qonunlarning o'zi yuqori darajadagi ijtimoiy maqsadga muvofiqlik bilan belgilanadi. Ularda kishilarning ijtimoiy va yakka manfaatlari eng ko'p darajada ifodalanadi.

Qonunning maqsadga muvofiqligi turmushdagi maqsadga muvofiqlik bilan rad etilmasligi kerak. Qonun talablarini buzib, Ba'zi mansabdor shaxslar va fuqarolar o'zlarining huquqqa xilof harakatlarini mahalliy yoki individual maqsadga muvofiqlik bilan oqlamoqchi bo'ladilar. Uning muayyan sharoitlarda qonunga rioya etish maqsadga muvofiq emas. Qonunlar qonuniylikning asosini tashkil etadi. Biron bir davlat qonunlarsiz mavjud bo'la olmaydi.

Qonuniylikning mustahkamlanishida qonun ustuvorligiga rioya etish juda muhim. Shu munosabat bilan, qonun ustuvorligi haqida fikr

yuritilayotganda, avvalo bir masala haqida ta'kidlab o'tish joiz. Tadqiqotchilar tomonidan qonun ustuvorligi bilan huquq hukmronligi tushunchalari bir mazmundagi, sinonim hodisalar sifatida tushunilish hollari mavjud. Biroq, ilmiy adabiyotda, ular mohiyatan yaqin huquqiy hodisalar bo'lsa-da, ayni paytda, bir-biridan muayyan darajada farqlanishi ko'rsatiladi.

Huquq hukmronligi bu shunda ko'rinadiki, har qanday davlat, o'zi huquqiy normalar yaratar ekan, eng avvalo o'zi aynan shu huquqiy normalarga rioya etishi kerak, ya'ni amaldagi huquq normalari fuqarolar uchun qanchalik majburiy xarakterga ega bo'lsa, davlat uchun ham shunchalik majburiy xarakterga egadir.

Davlat hokimiyati qonunda belgilab qo'yilgan asoslarda va doiralarda harakat qilmog'i, davlat organlari esa, hech bir istisnosiz harakatdagi huquq normalariga bo'ysunmog'i lozim. Buning ma'nosi shuki, davlat organlari faqat qonun bergan vakolat doirasida harakat qilib, Konstitutsiyaga muvofiq o'zining kompetensiyasiga (huquq va majburiyatlar majmui) kiradigan qarorlarni qabul qilish va harakatlarni sodir etish huquqiga ega.

Huquq hukmronligi bu - davlatning, uning mansabdor shaxslarining, davlat organlarining, fuqarolarning va ularning turli tuzilmalarining faoliyati huquq bilan bog'liqligi, huquq asosida kyeichishidir. Qonun ustuvorligi bu - muayyan bir davlatda amal qilib turgan huquq manbalari, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar ichida qonunning oliy yuridik kuchga ega ekanligi, barcha qonun osti aktlari qonunga mos kelishi lozimligidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bobi huquqiy davlat barpo etishda muhim bo'lgan ushbu prinsipni o'zida mustahkamlagan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar". (15 - modda.)

Oliy yuridik kuchga ega bo'lgan va O'zbekiston hududida bevosita to'g'ridan - to'g'ri amal qiladigan Konstitutsiyaning ustunligi shuni anglatadiki, O'zbekiston hududida qabul qilinadigan barcha qonunlar va boshqa normativ aktlar Konstitutsiyaga zid kelmasligi, unga mos kelishi lozim. Davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar, o'zini-boshqarish organlari, barcha boshqa tashkilot va tuzilmalar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etishlari kerak. Shu tariqa davlat faoliyati huquq va qonunlar bilan "bog'lab" qo'yiladi, Ma'lum darajada

cheklab qo'yiladi. Zotan, « Chinakam demokratik jamiyatda Prezident xam, oddiy fuqaro ham qonunga rioya etadi. Boshqa iloji yo'q.»¹

Qonunlarga rioya etish uchun ular rasmiy tarzda E'lon etilgan bo'lishi shart. Qonunlarning E'lon qilinishi - ularga rioya etishning shartidir, chunki E'lon qilinmagan qonun qo'llanilmaydi. Qonun ustuvorligi va huquq hukmronligi ("rul of law") - huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan, tavsiflaridan biri hisoblanadi. Shu bois ham olimlar huquq ustuvorligi bilan qonun ustuvorligini alohida talqin etishlari ham bejiz emas, albatta. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, hatto huquq ustuvorligi g'oyasining "yoshi" qonun ustuvorligi g'oyasinikidan kattaroq, ya'ni undan oldinroq shakllangan. Qonun ustuvorligi g'oyasining mazmunini Konstitutsiyaning ustuvorligi, qonunni qabul qilishning va unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning alohida tartiboti, muolaja jarayoni mavjudligi, qonunga barcha boshqa normativ-huquqiy aktlarning mos kelishi majburiyligi, qonunni amalga oshirish va uni muhofaza etishning maxsus mexanizmi mavjudligi, yaxlit qonunchilik tizimining ziddiyatsiz bo'lishini ta'minlaydigan konstitutsiyaviy nazoratning mavjudligi tashkil etadi.

Huquq ustunligi o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

1) davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalariga huquq va qonun nuqtai-nazaridan qarash va hal etish,

2) umuminsoniy axloqiy-huquqiy qadriyatlar va huquqning formal-regulyativ qadriyatlarini legitimli ommaviy hokimiy kuch bilan bilan uyg'unlashtirish,

3) davlat va jamoat organlarining har qanday qarorlarini g'oyaviy-huquqiy asoslash,

4) davlatda huquqning ifodalanishi va harakatini ta'minlashning ishonchli vositalari mexanizmi mavjudligi².

Huquq ustunligi haqida gapirganda, albatta, huquq va qonunning birligi tamoyili ham ta'kidlash lozim. Chunki bu huquqiy davlat qurish amaliyoti uchun juda muhim huquqiy masala. Zero huquqiy davlatda istalgan normativ-huquqiy akt nafaqat shakli, nomlanishi, qabul qilinish tartibi bo'yichagina emas, balki mazmuni va mohiyatiga qarab ham huquqiy qonun bo'lishi kerak.

Buning ma'nosi shuki, mazkur qonun, albatta o'zida insonning tabiiy huquqlarini jamlagan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari

¹ Каримов И.А. Янги уй курмай туриб, эскисини бузманг. Т.:Ўзбекистон. 1993. 26 – бет.

² Бу ҳақида яна қаранг: З.Исломов. Общество. Государство. Право. – Т.: Адолат. 2001. 354-361 б;

borasidagi xalqaro andozalarga mos keladigan, qonunda belgilangan asos va tartibda shakllangan davlat organi tomonidan qabul qilingan bo'lishi kerak. Qonunning ustunligi shunda vojib bo'ladiki, qachonki, unga tegishli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy zamin hozirlangan bo'lsa; huquq hukmronligi shunda yaratuvchilik harakteriga ega bo'ladiki, qachonki u o'zida haqiqat, tafakkur, idrok, vijdon, halollik, erkinlik, birodarlik va adolat kabi umuminsoniy-axloqiy qadriyatlarni o'zida ifodalab, ularning hayotga singishiga xizmat qilsa. «Chinakam huquqiy davlat barpo etmoq uchun mamlakatda adolatli, insonparvar, demokratik konunlar tantana qilmog'i shart»¹.

Aytish joizki, huquq xukmronligi va qonun ustuvorligi, eng avvalo adolatga asoslanmog'i, adolat hukmronligiga olib kelmog'i lozim, ya'ni Konstitutsiyamizning 13-moddasida mustahkamlanganidek, "...inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" degan qoidaning real amalga oshishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, qonun ustuvorligi albatta huquqiy qonun ustuvorligini nazarda tutishi, davlatning huquqiy qonun bilan bog'liqligi, huquq bilan bog'liqligi huquqiy davlat qurishda muhim ekanligi, shubhasizdir. Qonunning bunday nufuzga ega bo'lishini ta'minlashda qonun ustuvorligi tamoyili hal qiluvchi rol' o'ynashi, shubhasizdir.

Shu o'rinda bir masala, ya'ni qonun ustuvorligini ta'minlashda axolining, ayniqsa yoshlarning qonunlarga hurmat hissi bilan qarashini shakllantirish masalasi muhimligini yana bir bor ta'kidlash bilan bir qatorda, tarbiya tizimi ichida, aynan oilaning o'ziga xos o'rin tutishi, barcha ijobiy fazilatlar, avvalo oilada farzandga singdirilishi va shu munosabat bilan, jamiyatda qonunga itoatkor shaxsning shakllanishi uchun oilaning mas'uliyati, hatto ma'naviy javobgarligi mavjudligini qayd etish o'rinli.

Qonuniylikning normativ asosi bo'lib, ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining umumiy va individual manfaatlarini adekvat aks ettiruvchi huquqiy qonunlar hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy davlatda qonuniylik rejimi o'zaro bog'liq ikki omilning mavjudligini taqozo etadi: - ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beruvchi aniq va mukammal ishlangan yetuk qonunchilikni; - davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va turli birlashmalar tomonidan qonunlar va qonunosti huquqiy aktlarda ifodalangan qoidalarining to'la va og'ishmay, so'zsiz amalga oshirilishini.

¹ Бу ҳақида қаранг: Ҳ.Одилқориев. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: Шарқ. 2002. 262 бет.

Davlat hududida yashaydigan har qanday fuqaro, huquq subyektlarining manfaatlarini bevosita himoya etish maxsus huquqni muhofaza etuvchi organlar: sud, prokuratura, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy munosabatlarni qonuniy amal qilishini ta'minlashda bu organlar zarur hollarda huquq buzarlarga davlat majburlovining turli choralarini qo'llaydilar.

Qonuniylik rejimini saqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida markaziy o'rinni sudlar egallaydi, ular sud hokimiyatini sud ish yuritishning turli shakllarida amalga oshiradilar. Fuqarolar huquq va erkinliklarini buzuvchi davlat organlari, muassasalari, mansabdor shaxslari, xususiy tadbirkorlarning har qanday qarorlari va harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin. Qonuniylik ustidan oliy nazoratni konstitutsiyaviy sud olib boradi. Konstitutsiyaviy tuzum, inson asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, konstitutsiyaning butun mamlakat hududida bevosita amal qilishi va ustuvorligini ta'minlash maqsadlarida konstitutsiyaviy sud davlat vakillik organlari, ijro hokimiyati organlari chiqargan normativ-huquqiy aktlarning konstitutsiyaga mosligi haqidagi ishlarni ko'radi. Konstitutsiyaga zid deb e'tirof etilgan aktlar konstitutsiyaviy sudning tegishli qarori rasman chop etilgan kundan e'tiboran o'z kuchini yo'qotadi. Konstitutsiyaviy sudning qarori uzil-kesil hisoblanadi va shikoyat qilinishi yoki protest keltirilishi mumkin emas.

Shunday qilib, qonuniylik talablari birlikda va o'zaro bog'liqlikda ijtimoiy hayotning barqarorligini va uyg'unligini ta'minlaydi, tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonunlariga muvofiq ravishda fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga imkon beradi.

Qonuniylik subyekti - davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ularning birlashmalari hisoblanadi. Qonuniylik obyekti - huquq subyektlarining hatti-harakatidir.

Qonuniylik prinsiplari bu qonuniylik mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy bosh qoidalaridir: qonunning yuqoriligi, ustivorligi; qonuniylik birligi (umumiyligi); qonuniylikning maqsadga muvofiqligi; qonuniylikning realligi.

Qonuniylik va huquqiy tartibot demokratiya, siyosiy rejim bilan bog'liq. Jamiyatda qonuniylikning amal qilishida uni muhofaza etish vazifasi alohida dolzarbdir. Qonuniylikni himoya etish va ta'minlashdagi farq shundaki, qonuniylikni muhofaza etish uning buzilishi bilan, qonuniylikni ta'minlash esa, bunday buzilishlarning oldini olish va qonuniylikni mustahkamlash bilan bog'liq.

Qonuniylikni muhofaza qilish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) huquq ijod etish va huquqni qo'llash jarayonida huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni zudlik bilan bartaraf etish;

2) Huquqni muhofaza etish hamda huquq va huquqiy tartibotni tiklash vositalarini harakatga keltirish;

3) Huquq va qonunlar buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish.

Mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik qonuniylikning buzilishi deb qaraladimi, degan savolga adabiyotlarda bir tarzda tasdiqlovchi javob beriladi. Biroq, ba'zi olimlar bu fikrga qo'shilmaydi. Masalan, qonuniylik sud xatolariga yo'l qo'yilishi hollarini istisno qilmaydi, huquqni qo'llash faoliyatining boshqa turlarida ham shunday xatolar uchrab turadi.

Bunda qonuniylikning buzilishi deb, huquqni qo'llashdagi xatolik bilan bog'liq qonunning oddiy buzilishini emas, balki mansabdor shaxsning qonunga zid xatti-harakatidagi yo'nalish (tendensiya)ni tan olish kerak. Misol. Konkret holatda huquqbuzarning shaxsini e'tiborga olmagan holda ma'muriy jazo chorasini belgilash qonun buzilishi hisoblanmaydi, biroq bunday qator faktlarni jamlab qaraganda huquqbuzarlarning shaxsini e'tiborga olmagan holda ma'muriy jazo choralarini belgilashdagi mansabdor shaxsning xatti-harakatida muayyan yo'nalish mavjudligini ochib beradi. Aynan mansabdor shaxsning qonunga zid xatti-harakatidagi muntazamlik qonuniylikni buzilishi deb baholanadi.

Qonuniylikni buzilishi doimo fuqarolar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy va davlat manfaatlariga sezilarli darajada putur yetkazilishini anglatadi. Amalda mansabdor shaxslar tomonidan yo'l qo'yiladigan qonun buzilishlarining ba'zilarini qonuniylikning buzilishi deb farqlash empirik va adekvat bo'lmagan tarzda amalga oshiriladi. Huquqni muhofaza qilish organlari amaliyoti uchun qonuniylikni buzish hollarini bir necha turlarga bo'lish xos («qo'pol», «juda qo'pol»). Biroq bunday farqlash juda to'g'ri emas. Chunki, qonuniylikni har qanday buzilishi katta ijtimoiy xavfni keltirib chiqaradi, shaxsga jiddiy zarar yetkazadi. Albatta, qonun buzilishi bilan qonuniylikning buzilishi orasida real farqlar mavjud.

Qonunning buzilishi ayni paytda qonuniylikning ham buzilishi hisoblanishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

1) Konstitutsiya va boshqa qonunlar normalarining buzilishi (fuqarolar va boshqa shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, fuqarolar va boshqa shaxslarga imtiyozlarning

noqonuniy berilishi, fuqarolar va boshqa shaxslarning majburiyatlarni o'tashdan noqonuniy ozod etish);

2) Mansabdor shaxslar tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishlari (pora olish, mansab mavqeini suiiste'mol etish va b.). Shu bilan birga mansabdor shaxslar tomonidan qonunning ba'zi buzilishlari qonuniylikning buzilishi deb qaralmasligi kerak:

a) Konstitutsiya normalarini konkretlashtiruvchi qonunni jiddiy bo'lmagan holda buzish;

b) Mansabdor shaxslar tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan holda jinoyatlar va boshqa huquq buzarlklarni sodir etish hollari.

Davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash tizimi qonuniylik buzilishi hollarining oldini olish va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan choralar yig'indisidan iborat, ular ikki qismdan iborat:

1) qonuniylik buzilishining oldini olish;

2) qonuniylikni mustahkamlash.

Qonuniylik buzilishining oldini olish qonuniylikni buzilish sabablari va sharoitlarini aniqlashni, ularni yo'qotishni, qonuniylikning buzilishiga olib keluvchi barcha salbiy omillarni, jarayonlarni tugatishni anglatadi. Bunday omillar qatoriga: siyosiy beqarorlik, aholi va mansabdor shaxs huquqiy madaniyatining pastligi, professional huquqiy ong deformasiyasi, mansabdor shaxs tomonidan qonuniylikka nisbatan maqsadga muvofiqlikning ustun qo'yilishi va boshqalar kiradi. Qonuniylikni mustahkamlash davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylik kafolatlarini shakllantirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Qonuniylikning huquqiy kafolatlari: - qonunchilikni takomillashtirish choralari; - qonuniylikni buzilish holatlarini aniqlash choralari; - himoya choralari; - javobgarlik choralari; - qonuniylik ahvoli ustidan nazorat va kontrol olib borish choralari; - qonuniylik buzilishining oldini olish choralaridan iborat.

Qonuniylik ahvoli ustidan nazorat va kontrolga quyidagilar kiradi:

1) davlat hokimiyati oliy organlarining kontroli;

2) davlat boshqaruvi oliy organlari kontroli;

3) sud kontroli;

4) prokuror nazorati;

5) jamoat nazorati.

3.Huquqiy tartibot tushunchasi, qadr-qimmati va obyektiv zarurligi

Qonuniylik bilan chambarchas bog`liq holda boshqa bir ijtimoiy-huquqiy hodisa - huquqiy-tartibot turadi. Huquqiy-tartibot – bu huquq va qonunga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning tartibga solingan holatidir. Huquqiy-tartibot – bu huquqiy normalar qoidalarining barcha huquq subyektlari tomonidan aniq va to`la amalga oshirilishi natijasida o`rnatiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Huquqiy-tartibot – bu huquqiy talablarni amalga oshirishning oxirgi natijasi, huquq normalariga rioya etish, ularni bajarish natijasidir, ya`ni qonuniylikning amalga oshirilishi huquqiy tartibotga olib keladi. Huquqiy tartibot – bu huquqqa va qonuniylikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinganligidir. Huquqiy tartibot – qonunlarga va ularga qat`iy rioya qilishga asoslangan kishilar o`rtasidagi munosabatlardagi tartibotdir. Huquqiy tartibot – bu qonunlar va unga muvofiq chiqarilgan normativ aktlarga rioya etish, ularni ijro etish, foydalanish va qo`llash jarayoni, qonuniylikning real ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishi natijasidir. Huquqiy tartibot - bu huquqiy talablarni amalga oshirishning oxirgi natijasi, huquq normalariga rioya etish, ularni bajarish natijasidir, qonuniylikning amalga oshirilishi – huquqiy tartibotga olib keladi.

Qonuniylik bilan huquqiy tartibot o`zaro chambarchas bog`liq. Huquqiy tartibot huquqiy tartibga solishning maqsadi hisoblanadi, chunki:

1. Huquqiy tartibotga faqat huquqiy tartibga solishni, qonuniylikni takomillashtirish yo`li bilangina erishiladi.

2. Qonuniylikning mustahkamlanishi albatta huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga olib keladi.

3. Huquqiy tartibot mazmuni qonuniylik mazmuniga bog`liq holda shakllanadi.

Qonuniylik bilan huquqiy-tartibot o`zaro chambarchas bog`liq. Huquqiy-tartibot huquqiy tartibga solishning maqsadi, natijasi hisoblanadi, chunki:

1. Huquqiy-tartibotga faqat huquqiy tartibga solish va qonuniylikni takomillashtirish yo`li bilan erishiladi.

2. Qonuniylikning mustahkamlanishi albatta huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga olib keladi.

3. Huquqiy tartibot mazmuni qonuniylik mazmuniga bog`liq holda shakllanadi.

Huquqiy tartibotni shakllantirishda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmining barcha elementlari ishtirok etadi. Ularning sababiy-oqibat aloqadorligi jamiyat huquqiy hayotining asosini tashkil etadiki, bu oxir oqibatda huquqiy tartibotning o`rnatilishiga olib keladi.

1. Huquq normalari - bu huquqiy tartibotning normativ asosi, huquqiy tartibga solish mexanizmining boshlang`ich bo`g`inidir.

2. Huquqiy munosabatlar - huquqiy tartibga solish mexanizmining elementi bo`lib, ular qonun chiqaruvchi organ tomonidan taxmin qilingan ideal huquqiy tartibotdan huquqiy normalar bilan nazarda tutilgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining konkret xatti-harakatiga o`tishni ta`minlaydi. Huquqiy tartibga solish mexanizmining bu bosqichida huquqiy munosabat subyektlarining lozim darajadagi xulqini kafolatlovchi qonuniylik qo`shiladi.

3. Yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshirish aktlari huquqiy tartibotning yakunlovchi shartidir. Qonuniylik rejimi sharoitida huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari ularning real xatti-harakatlarida ifodalanadi, o`z maqsadiga etadi, shu tariqa huquqiy tartibotni tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga aylanadi. Huquqiy tartibotning mazmunini subyektlarning huquqqa mos xatti-harakatlari, xulq-atvori tashkil etadi, bu shunday xulq-atvorki, u huquq normalari bilan tartibga solingan va huquqiy tartibga solish maqsadlariga erishgan bo`ladi. Huquqiy tartibot tuzilishi - bu huquq bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimining ularning tarmoqlari mazmuni xususiyatlariga muvofiq holda birligi va ayni vaqtda bo`linishidir.

Huquqiy tartibot - bu amalga oshirilgan huquq tizimidir. U huquqning tegishli tarmoqlari normalari bilan tartibga solingan konstitutsiyaviy, ma`muriy, moliyaviy, yer, oila va ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlarini o`z ichiga oladi. Tuzilish jihatdan huquqiy tartibot huquq tizimining amalga oshirilgan elementlarini aks ettiradi. Ijtimoiy munosabatlarning maxsus tizimi sifatidagi huquqiy tartibotning xususiyati shundaki, u faqat huquq normalari asosida yuzaga keladi va shu sababdan davlat tomonidan qo`riqlanadi. Huquqiy tartibot bilan jamiyatda mavjud bo`lgan barcha munosabatlar qamrab olinmaydi. Ijtimoiy hayotning muayyan qismi huquqiy tartibga solinishga ehtiyoj sezmaydi. U boshqa huquqiy bo`lmagan ijtimoiy normalar ta`sirida bo`ladi. Bu ma`noda huquqiy tartibot normativ tartibga solish ta`sirida shakllanuvchi ijtimoiy munosabatlar umumiy tizimining bir elementi bo`lib hisoblanadi. U ijtimoiy tartibotning bir qismidir.

Ijtimoiy tartibot ijtimoiy normalarni tadbiq etilishi natijasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit jamlangan tizimidan iborat. Huquqiy davlatda ijtimoiy tartibotning barcha elementlari o`zaro aloqadorlikda va davlat himoyasida bo`ladi. Biroq, faqat huquqiy tartibotgina maxsus davlat choralari bilan qo`riqlanadi. Ijtimoiy tartibotni tashkil etgan munosabatlar tizimida asosiy bog`lovchi bo`g`in bo`lib huquqiy tartibot hisoblanadi, chunki u muayyan darajada normativ tartibga solishning eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi.

4. Qonuniylik va huquqiy nigilizm

Qonuniylik haqida gap yuritish ekanmiz, bu o`rinda albatta huquqiy nigilizm haqida ham so`z yuritish zarur. Zero jamiyatda qonuniylikning to`la amalga oshishiga to`siq hisoblanadigan salbiy hodisalardan biri bu huquqiy nigilizmdir.

Huquqiy nigilizm bu - jamiyatning muayyan bir holati bilan belgilanadigan huquqiy ong xastaligidir. Huquqiy, ya`ni yuridik nigilizm bu – huquqni ijtimoiy qadriyat sifatida e`tirof etmaslik bo`lib, u huquqqa, qonunga, huquqiy tartibotga negativ-salbiy yondoshuvchi, uni inkor etuvchi hamda huquqning jamiyatda tutgan o`rniga, uning zarurligiga va ahamiyatiga ishonmaslikda o`zining ifodasini topadi.

Nigilizm atamasi lotincha “nihil” – so`zidan olingan bo`lib, “hech narsa” (nichts), “hech nima” (nichts) ma`nolarini anglatadi¹.

Nigilizm o`z mazmuniga ko`ra ijtimoiy hodisalar qatoridan o`rin olgan bo`lib, u ayni paytda quyidagi xossalari bilan tavsiflanadi: - nigilizm jamiyatda e`tirof etilgan qadriyatlarga nisbatan juda keskin yondoshuvi bilan ajralib turadi, nigilizmning ijobiy xarakterdagi biron-bir maqsadga yo`naltirilmaganligi, bu hodisa o`zida biron-bir yaratuvchilik, g`oyalarini jamlamagan.

Ta`kidlab o`tish kerakki, jamiyatda nigilizmning ancha turlari mavjud bo`lib, ular, o`z navbatida turli mezonlar asosida tavsiflanadi. Masalan, qanday qadriyatlarni inkor etishiga qarab, nigilizmning siyosiy, diniy, axloqiy kabi ko`rinishlari ajratiladi. Huquqiy, ya`ni yuridik nigilizm bu – huquqni ijtimoiy qadriyat sifatida e`tirof etmaslik bo`lib, u huquqqa, qonunga, huquqiy tartibotga negativ-salbiy yondoshuvchi, uni inkor etuvchi hamda huquqning jamiyatda tutgan o`rniga, uning zarurligiga va ahamiyatiga ishonmaslikda o`zining ifodasini topadi.

Ilmiy, o`quv adabiyotida huquqiy nigilizmning bir necha turlari ajratib ham ko`rsatilgan. Masalan, rossiyalik huquqshunos olim, professor N.I. Matuzov huquqiy nigilizmning quyidagi ko`rinishlarini ajratgan:

1. Qonunlar va boshqa normativ aktlarni qasddan buzishlik.
2. Yuridik qoidalarni ommaviy tarzda bajarmaslik va ularga rioya etmaslik.
3. Bir-biriga zid huquqiy aktlar chiqarish.
4. Qonuniylikni maqsadga muvofiqlik bilan almashtirish.
5. Vakillik va ijro hokimiyati tuzilmalari o`rtasida qarama-qarshilik.

¹ Қаранг: Теория государства и права. Под. ред. Н.И.Матузова, А.В.Малько. Юристъ. – М.: 1997. С.585.

6. Inson huquqlarining buzilishi.

7. Huquqiy nigilizmning nazariy shakli mavjudligi. (bu ko`rinishi ilmiy adabiyotlarda mavjud bo`ladi).

Professor V.A.Tumanov esa huquqiy nigilizmning sust - passiv va faol shakllarini ajratadi. Huquqiy nigilizmning passiv shaklida huquqqa nisbatan befarqlik, loqaydlik, uning jamiyatda tutgan o`rni va ahamiyatini yetarlicha baholamaslik xos. Faol yuridik nigilizm uchun esa huquqqa nisbatan ongli ravishda do`stona bo`lmagan munosabat xos. Bunday yondoshuv vakillari, huquqning jamiyatda tutgan o`rni, uning imkoniyatlaridan boxabar, shu bois ham, ular huquqqa qarshi chiqadilar.

Yuqorida qayd etilgan olim huquqiy nigilizmni quyidagicha turlarga ajratadi:

A) ijtimoiy ongning eng yuqori qatlamlarida nazariy qoidalar sifatida mavjud bo`lgan huquqiy nigilizm;

B) ko`pchilikning oddiy ommaviy ongida qat`iy andozalar, salbiy qarashlar, noto`g`ri tushunishlar shaklidagi huquqiy nigilizm;

V) idoraviy huquqiy nigilizm – u idoraviy manfaatlar ustunlik qilib, qonunlarga zid keladigan, biroq idoraviy manfaatga mos aktlar qabul qilishda ifodalanadigan nigilizm;

Huquqiy nigilizm ancha murakkab hodisa bo`lib, unga qarshi kurash unchalik ham oson vazifa emas. Ayni paytda, unga qarshi kurash yo`llari har xil bo`lishi mumkin. Ular sirasiga quyidagilarni kritish mumkin:

- ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi islohotlar;
- huquqiy tartibga solish mazmunini o`zgartirish;
- yuridik normalarning mazmunini imkon qadar aholining turli qatlamlariga yaqinlashtirish;
- sud faoliyatining xarakterini o`zgartirish va aholida sudga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash orqali odil sudlovning obro`sini ko`tarish;
- huquq qo`llash amaliyotini yaxshilash;
- mazkur yo`nalishlarda olib boriladigan nazariy ishlarni takomillashtirish va shu kabilar.

Yuqoridagilarning barchasi, umuman olganda jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan hamdir. Demak, yuqori darajadagi huquqiy madaniyatning mavjudligi – huquqiy nigilizmning kamayishiga olib kelishi aniq. Huquqiy idealizm – huquqiy nigilizmdan farq qilgan holda, u huquqning jamiyatda tutadigan o`rniga yuqori baho beradi. Bu ikki hodisaning ham oziqlanadigan manbasi bita - huquqiy johillik,

huquqiy ong xastaligi, siyosiy-huquqiy madaniyatning zaifligi. Shu bois, bu ikki hodisaning bir medalning ikki tomoni deyish mumkin¹.

Aytish kerakki, huquqiy idealizm darrov ko`zga tashlanib ham turmaydi, uni tezda payqash ham qiyin. Biroq, uning natijalari davlat va jamiyat uchun juda sezilarli bo`lishi mumkin. Bu shunda ko`rinadiki, huquqqa amalga oshmaydigan orzu-umidlar bog`lanadi, undan ortiqcha natijalar kutiladi, oqibatda esa, kutilgan natijalarni bera olmagan huquqning qadr-qimmatini ancha tushib ketishi mumkin. Shuning uchun, huquqni mutlaq qadriyat sifatida ko`klarga ko`tarish ham maqsadga muvofiq emas, uning real hayotda o`rni va roli qanday bo`lsa, o`shanga muvofiq ravishda vazifalar yuklatgan ma`quldir. Haqiqatan ham, faqat yaxshi qonunlar qabul qilish bilangina maqsadga erishishi mumkin bo`lsa, allaqachon jamiyat juda ilgarilab ketgan bo`lar edi. Biroq, bu yaxshi qonunlar yaxshi natija berishlari uchun, sharoit, ya`ni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma`naviy omillar pishib etilgan bo`lishi kerak.

Qonunlarning kuchsizligi, ularning hayotiy emasligi aholi orasida unga ishonchsizlikni, loqaydlikni shakllantirishi mumkin. Qonunga loqaydlik esa, asta-sekin hokimiyatga loqaydlikka olib kelishi mumkin. Qonunlar ijrosi bilan kuchli. Sh.Montesk'e mana shu masalaga doir yozgan edi: «qachonki men u yoki bu mamlakatga otlanadigan bo`lsam, u yerda men yaxshi qonunlar bormi deb qiziqmayman, chunki yaxshi qonunlar hamma joyda ham bor, men asosan, qonunlarning qanday amalga oshayotganligi bilan qiziqaman».

Ayni paytda, qonunlarning bajarmasligiga aholining ham daxli bor bo`ladi, albatta. Jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatining pastligi ham bu holatga olib keladi. Markazda qabul qilingan yaxshi qonunning taqdiri, ko`pincha mahalliy amaldorlarning umumiy huquqiy madaniyati, davlatona yondoshuviga bog`liq holda ijro etiladi. Shunday qilib, huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm jamiyatning umumiy huquqiy ongi va umumiy huquqiy madaniyati hamda huquqiy tafakkuri bilan bog`liq hodisalardir. Shu bois ham jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini ko`tarish dolzarb masaladir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi lozim. Zero, mustaqillik so`zining zahirida ham katta, ulug` huquqqa ega bo`lish degan tushuncha yotadi.

5. Qonuniylikni ta'minlashda huquqiy madaniyatning roli

¹ Теория государства и права. Под.ред. Н.И.Матузова, А.В.Малько. Юрист. М.,1997. С.585.

Erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish vazifasi juda murakkab bo`lib, u siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida tub islohiy o`zgarishlarni taqozo etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari ham shu maqsadga qaratilgan.

Xuquqiy demokratik davlat qurish uchun zarur bo`lgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy omillar sirasida jamiyatning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirish alohida o`rin tutadi. Sababi, huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo`lgan boshqa shart-sharoitlarning yaratilishi darajasi, sifati va sur'ati jamiyatning yuqori darajadagi ongi va madaniyati, ayniqsa huquqiy ongi va madaniyatining darajasiga bog`liqdir. Shu ma'noda bu vazifa huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi poydevor, asosiy masalalardan biridir. Jamiyatni demokratlashtirish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlashda huquqiy ong va madaniyatning hal qiluvchi o`rin tutishini hisobga olgan holda, mamlakatimizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu sohada amalga oshirilayotgan muhim ishlar tizimida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgust qarori bilan tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi»da belgilangan chora-tadbirlar alohida o`rin tutadi. Milliy dastur «aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo`lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo`llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish»ga qaratilgan<sup>1</sup>. Dastur qabul qilinganidan beri o`tgan davr ichida unda belgilangan chora-tadbirlar hayotga tadbiq etib kelinmoqda. Natijada, bugungi kunga kelib aholining huquqiy savodxonligi birmuncha oshganligini, huquqiy targ`ibot ishlarining shakl va mazmuni ancha takomillashganini, aholining o`z huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlari jonlanayotganligini e'tirof etish mumkin.

Shu bilan birga aholining huquqiy ongi, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlariga munosabati va daxldorlik darajasi, jumladan mansabdor shaxslarning mas'ullik hissi bugungi kun murakkabliklariga to`la monanddir, deb aytish qiyin. Vaholanki, modernizatsiya-lash va

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг «Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури тўғрисидаги» қарори. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 9-сон, 227-модда.

demokratik jarayonlar fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligini taqozo etadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasi o`tkir va dolzarb vazifalardan biri bo`lib qolmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005-yil 7-fevralda hukumatning yangi tarkibi oldida so`zlagan nutqlarida «Bugun zamon shiddat bilan o`zgarayabdi, ammo bizning ongimiz, dunyo-qarashimiz juda sekinlik bilan o`zgarayatdi. Meni tashvishga soladigan, kerak bo`lsa, qiynaydigan og`ir muammo ana shu»¹ deb tashvishlanib aytgan fikrlari bevosita aholining huquqiy ongi va madaniyati o`sishi darajasiga ham taalluqlidir.

Shu munosabat bilan, jamiyatning huquqiy ongini va madaniyatini ko`tarish yo`lida qanday to`siqlar mavjud? – degan savol tug`ilishi tabiiy. Ma`lumki, huquqiy ong bu huquq subyektlarining amaldagi qonunlarga, huquqiy normalarga nisbatan munosabatlarini belgilovchi fikr-o`ylari, his-tuyg`ulari, tasavvurlari va qarashlari yig`indisidan iborat. Huquqiy ong insonlarning nafaqat amaldagi, balki kutilayotgan, istalayotgan huquqqa nisbatan ham munosabatini o`z ichiga oladi. Huquqiy madaniyat bu - har bir jamiyatda huquqning ijtimoiy qadriyat sifatida mavjud bo`lishi va rivojlanishida ifodalanadigan huquqiy ong va qonuniylik hamda yuridik amaliyotning chinakam ahvoli, qonunchilikning sifat darajasi bo`lib, u mazkur jamiyatning o`ziga xos yuridik boyligi hamdir². Huquqiy madaniyat huquqni ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli sifatida ijti-moiy-ma`naviy qadriyat sifatida qarashga asoslanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Qonuniylik» tushunchasi va uning mohiyati
2. Qonuniylik va qonun ustuvorligi
3. Qonuniylik va huquq hukmronligi
4. Qonuniylik prinsiplari
5. Qonuniylik kafolatlari
6. Qonuniylikning yuridik kafolatlari
7. Huquqiy tartibot va qonuniylik
8. Qonuniylikni ta`minlashda huquqiy ongning roli

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. – Т.: Ўзбекистон. 2005. 70-бет.

² Қаранг: Алексеев С.С. Право: Азбука. Теория. Философия: Опыт комплексного исследования. – М.: Статус. 1999. С.269

11-MAVZU: HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

REJA:

1. Huquqiy xulq: tushunchasi, tarkibiy qismlari, motivlari, turlari.
2. Huquqbuzarlik: tushunchasi, asosiy belgilari, turlari.
3. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, xususiyatlari, turlari.
4. Yuridik javobgarlik maqsadlari, funksiyalari va tamoyillari. Aybsizlik prezumpsiyasi.
5. Xatti-harakatning huquqqa xilofligi va yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
4. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал.
5. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ. Умумий масалалар. Давлат назарияси. Т. Адолат. 2000. 270-б.
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т.: 2001. ТДЮИ нашри.
7. Исламов З.М. Узбекистан: на пути к модернизации. -Т.: ТГЮИ, 2005. – 160 с.
8. Алексеев С.С. Право. -М.: Статут, 1999.
9. Проблемы теории государства и права. М.: Юрайт, 2001.
10. Тожионов У., Саидов А.. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2-томлик. 1-том. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ. 2001.
11. Тожионов У., Саидов А.. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2-томлик. 2-том. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ. 2002.
12. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. – М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
13. Проблемы теории государства и права Учебное пособие. / Под ред. М.Н.Марченко. - М.: Юрист, 2004. 656 с.

15. Ражабова М.А. Давлат курилиши ва суд-ҳуқуқ ислоҳоти истиқболлари. -Т.: Адолат, 2005. –179 б.
16. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
17. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. М., «Новый юрист»- 1999.240 с.
18. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. -Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 316 б.
19. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О.Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. -Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 404 б.
20. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. -Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Huquqiy xulq: tushunchasi, tarkibiy qismlari, motivlari, turlari

Ma'lumki, insonlarning faoliyati, xulq-atvori bir xil emas. Huquq insonning huquqiy ta'sir doirasiga kiradigan hatti-harakatini tartibga soladi. Huquq bilan tartibga solinuvchi xulq-atvor huquqiy xulq deb nomlanadi.

Ayni paytda huquqiy xulqning yuridik belgilari ham mavjud:

- a) huquqiy tartibga solinganligi;
- b) davlat nazorati ostidaligi;
- d) yuridik oqibatlarga olib kelishi.

Ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining mutlaq ko'pchiligi huquqqa mos ravishda, ya'ni mamlakat qonunlariga rioya qilib, uni buzmasdan, o'z huquq va erkinliklaridan foydalangan holda va majburiyatlarni bajarib normal xulq-atvorni amalga oshiradilar. Bu individual va jamoaviy xulq-atvor subyektlarining asosiy va umumiy xulq shaklidir.

Huquqiy xulq eng avvalo aholining ongli qismini, ya'ni qonunga itoatkor fuqarolarni qamrab oladi. Qonunni hurmat qilish esa huquqiy davlat va uning umumiy yuqori madaniyatining muhim xususiyatidir. Bunday xulq uyushgan kishilik jamiyatining, o'zaro maqbul va ma'rifiy munosabatlarning zarur shartidir. Rimliklar fikricha: «Kimki qonunlar asosida yashasa, u hech kimga zarar yetkazmaydi». Demak, huquqiy xulq - bu yuridik normalar talablariga mos keluvchi xulqdir. Bunda huquqiy

qoidalariga bo'ysunish ko'p hollarda sof mexanik (reflektor) emas, balki individning butun hayotiy tajribasi, uning madaniy, axloqiy va huquqiy qarashlari bilan belgilanadi. «qonun bilan man etilmagan narsalarga ruxsat beriladi» degan mashhur prinsipga asoslangan huquqiy xulq prezumpsiyasi mavjud.

Huquqiy xulqning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) u ijtimoiy zarur va ijtimoiy foydali hodisa;
- 2) inson irodasi erkinligini ifodalaydi va amalga oshiradi;
- 3) ham individ, ham davlat manfaatlari va ehtiyojlarini qanoatlantiradi;
- 4) jamiyatda zaruriy huquqiy-tartibotni ta'minlaydi;
- 5) shaxsning pozitiv javobgarligi bilan bog'liq;
- 6) huquqiy davlat huquqqa zid xulqni jamiyat hayotidan siqib chiqarish orqali huquqiy munosabatlar doirasini kengaytirishga intiladi, ya'ni huquqiy xulq ommaviy hisoblanadi;
- 7) ixtiyoriy va ongli ravishda amalga oshiriladi.

Huquqiy xulq – bu huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyat kasb etuvchi huquq subyektlarining ongli va ixtiyoriy xulqidir.

Mohiyatiga ko'ra, huquqiy xulq shakllari huquqni amalga oshirish shakllariga to'la mos keladi, ya'ni huquqiy xulq huquq normalarini amalga oshirilishini ifoda etadi, huquqqa rioya qilish, uni bajarish, undan foydalanish va uni qo'llash kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Huquq normalariga amal qilish, yuridik majburiyatlarni bajarish, o'rnatilgan huquqlardan foydalanish, maxsus subyektlar tomonidan huquqni qo'llash - bular hammasi birgalikda huquqiy xulqning mohiyatini ifodalaydi.

Bu yerda subyektning xulqi qanday holatlarda huquqiy, biroq jamiyat uchun istalmagan va zararli bo'lishini farqlash zarur. Masalan, subyekt arzimas sabablar bilan bir necha marta nikohni buzib va uni bekor qilsa, bu hol rasman necha marta uylanish mumkinligini belgilamagan qonunga zid kelmasada, biroq bu davlat va jamiyatning oilani mustahkamlashga bo'lgan intilishiga teskari. Shunga o'xshash saylovlarda ovoz berishda ishtirok etmaslik huquqqa zid harakat emas, biroq ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan subyektning bunday xulqini foydali deb bo'lmaydi, chunki davlat va jamiyat baribir barcha saylovchilarning o'z fuqarolik burchlarini bajarishlari, o'z erklarini u yoki bu tarzda ifodalashlaridan manfaatdor bo'ladi.

Huquqiy xulq tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:

- 1) subyekt (huquq layoqatli shaxs);

- 2) obyekt (ijtimoiy foydali natija);
- 3) obyektiv tomoni (huquqqa zid bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik);
- 4) subyektiv tomoni (pozitiv maqsadlar, motivlar, qoidalar).

Subyektiv tomon huquqiy xulqning ichki tomonini ifodalab, u huquq subyektlarining mas'uliyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Huquq nazariyasida huquqiy xulqning turli jihatlari, belgilari, tavsifi, xususiyatlari yetarlicha yoritilgan. Yuristlar asosan insonlarning huquqqa xilof nojo'ya harakatlari bilan ish ko'radilar, biroq ular shuningdek qonunlarga rioya etuvchilar qanday motivlarga asoslanadilar, normal xulq etaloni qanday, qanday holatni undan chetga chiqish deb hisoblash mumkinligini bilishlari lozim. Ham huquqiy, ham huquqiy bo'lmagan xulqning ruhiyati va texnologiyasini, ularning mexanizmi va sabablarini, ichki va tashqi omillarini bilish, tushunish muhim.

Xulqning ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

-obyektiv ravishda zaruriy xulq (yo'l qoidasiga rioya etish, soliqlarni to'lash, Vatanni himoya qilish);

-jamiyat uchun istalgan huquq (saylovlarda qatnashish, partiyaga a'zo bo'lish, nikohga kirish);

-ijtimoiy jihatdan yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xulq (ish tashlash, ajralish, ishini tez-tez o'zgartirish);

-ijtimoiy zararli, jamiyat uchun istalmagan xulq (jinoyatlar, nojo'ya harakatlar).

Huquqiy xulqni subyektlariga, obyektiv va subyektiv tomonlari, yuridik oqibatlariga qarab tasniflash mumkin.

Subyektiga qarab: individual va guruhii huquqiy xulq.

Obyektiv tomoniga qarab: faol harakat va harakatsizlik bilan bog'liq huquqiy xulq.

Subyektiv tomoniga ko'ra adabiyotda huquqiy xulqning quyidagi turlari va motivlari farqlanadi:

1) **Ijtimoiy faol xulq** – bu huquqiy normalarni amalga oshirishga, huquqiy tartibotni, qonuniylikni, barqarorlikni saqlashga, davlat, jamiyat, boshqa shaxslar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan, chuqur anglashilgan tashabbuskor xulqdir. Bunda subyekt huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha qat'iy harakatlarni sodir etadi, jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam qiladi. Huquq normalari subyekt tomonidan uning o'z qarashlari, ehtiyojlari, intilishlarini ifoda etuvchi obyektiv zarur, maqsadga muvofiq qoidalar sifatida qabul

qilinadi. Bu shaxsning o'z-o'zini anglash yuqori darajasi, uning pozitiv mas'uliyatini kuchli his etishidir.

2) **Ijtimoiy passiv xulq.** Subyektlar asosan huquqqa xilof harakatlarni sodir etishdan o'zlarini tiyib turadilar: alohida faolliksiz qonunlarga befarq rioya etadilar, garchi ba'zan ular bilan ichki jihatdan rozi bo'lmasalarda. Amalda bu majburiy xulqdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining 20%i (Rossiyada) jazolanish, fosh qilinishdan qo'rqib, qulay sharoitlarda jinoyat sodir etishdan bosh tortadilar. Demak, aholining bu qismi or-nomus, vijdon amri bilan emas, balki qo'rquv tufayli huquqqa rioya etadilar. Faqat javobgarlikdan qo'rqish ularni nomaqbul harakatlardan saqlaydi. Gegel'«Huquq falsafasiga tanqid» asarida ta'kidlashicha: «Ko'pincha huquqni jazolanishdan qo'rqish yoki boshqa ko'ngilsizliklardan qochish, masalan, yaxshi nom, or-nomus, obro'ni yo'qotib qo'yish, do'stlari, tanishlari, qarindoshlari ko'z o'ngida o'z obro'sidan ajrab qolishga yo'l qo'ymaslik uchun buzmaydilar». Shunga qaramasdan bu huquqiy xulq hisoblanadi, chunki bu yerda qonunga bo'ysunish mavjud.

v) **Odatdagi xulq.** Ijtimoiy so'rovlarga ko'ra, aholining uchdan bir qismi huquqiy normalarga odatiy tarzda, ya'ni nima uchun shunday harakat qilayotganliklarini fahmlamagan holda rioya etadilar. Ular odatda o'zlarining qonunga itoatkorliklari motivlarini tushuntirishga qiynaladilar, qoida bo'yicha «shunday qilish kerak», «shunga o'rgatilganman», «shunday tarbiyalanganman», «boshqacha bo'lishi mumkin emas» deb javob beradilar. Ular uchun huquqiy xulq tabiiy, hayot tarzi bilan belgilanuvchi hodisadir.

Bunday xulq ko'p omillar ta'sirida shakllanadi: an'analar, oilaviy tarbiya, sog'lom muhit; tartibotga, xotirjamlikka, ozodlikka intilish, shunday yo'l tutish bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga, yutuqlarga erishish mumkin deb tushunish.

g) **Konformistik (moslashuvchan) xulq.** Bu xulq avvalgisidan atrofdagilarning ta'siriga ko'p darajada bog'liqligi sababli kam ahamiyatli hisoblanadi, «o'zga shaxs fikri»ga bog'liq bo'ladi va shu sababli qoida bo'yicha o'zgaruvchan, mustaqil bo'lmagan, moslashuvchan xulq hisoblanadi. «Konformizm» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda moyillik, o'xshash, mos kelish, bir xillik, bir fikrga intilishni bildiradi. Bu asosan qat'iy fuqarolik pozitsiyasini istisno qiluvchi harakatlarning vaziyatga mos tarzidir.

Motivasiya oddiy: «oq qarg'a bo'lishni xohlamaslik», «umumiy qator»dan chetga chiqishni istamaslik, yaqinlar, do'stlar, tanishlar

ishonchini yo`qotib qo`yishdan xavfsirash, aksincha, ularning maqtoviga, qo`llab-quvvatlashiga sazovor bo`lishga intilish. Bunda taqlid qilish omili ham ahamiyat kasb etadi.

d) **Marginal xulq.** Marginallar - bu normal hayot tarzidan chetga chiqqan, hatto uning tubidagi insonlar (uysiz daydilar, gadoylar, xronik alkogoliklar va narkomanlar, sobiq mahbuslar, qochoqlar, ko`chmanchilar va b.)dir. Ularning xulqi ko`pincha huquqiy va nohuquqiy xulq chegarasida bo`ladi. «Marginal» lotinchadan tarjima qilinganda chekka, chegara, oraliq ma`nolarini anglatadi.

Bu toifa kishilarning ruhiyati nobarqaror (notinchlik, ertangi kunga ishnchsizlik, alamzadalik, o`ta johillik, g`azablanish va b.) bo`ladi. Taqdiri og`ir bu insonlar hamma narsaga tayyor bo`ladi. Yashash, ovqat topish ilinjida ular turli huquqbuzarliklar, jinoyatlarga qo`l uradilar. Muqim jinoiy muhitning o`zi ularning huquqqa, axloqqa, boshqa qadriyatlarga bo`lgan munosabatini belgilaydi.

e) **Nigilistik xulq.** Nigilizm muayyan qoidalar, normalar, prinsiplar, qarashlar, qonunlar, hayot tarziga salbiy munosabatni bildiradi. Bu individ ijtimoiy xulqining va dunyoni anglashning shakllaridan biridir. U qanday qadriyatlarni inkor qilishi va qaysi sohada namoyon bo`lishiga qarab turlicha: axloqiy, huquqiy, siyosiy, mafkuraviy, diniy bo`lishi mumkin.

Nigilistik kayfiyatdagi kishilarning xulqi o`z xususiyatlariga ega (skeptisizm, shubhalanish, norozilik, ekstremizm, radikalizm va b.). Bunda nigilistlarning o`zlari qoida bo`yicha birona ijobiy dasturlar va ularni amalga oshirish metodlarini ilgari surmaydilar. Ularning harakatlari ko`pincha ruxsat berilgan va man etilganlik chegarasida bo`ladi. Ular qonunlarni hurmat qilish va ularga rioya etishni «eskicha» deb hisoblaydilar, maksimalizmga, oshirilgan talablarga moyil bo`ladilar. Yuridik fan xulqning bu tipini e`tiborga olishi kerak.

2. Huquqbuzarlik: tushunchasi, asosiy belgilari, turlari

Huquqbuzarlik - bu davlat, jamiyat va fuqarolar manfaatlariga zarar yetkazuvchi aqli raso shaxsning huquqqa zid, aybli, jazoga loyiq, ijtimoiy xavfli qilmishidir. Qilmish harakat va harakatsizlik ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Huquqbuzarlikning belgilari:

- 1) qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

- 2) aybning mavjudligi;
- 3) huquqqa zidligi;
- 4) zararli oqibati;
- 5) qilmish bilan zararli oqibat o`rtasidagi sababiy bog`lanish;
- 6) yuridik javobgarlik belgilanishi.

Harakat subyekt xulqining faolligi bilan farqlanadi (o`g`irlik, bezorilik, talonchilik, qotillik, tan jarohatini yetkazish va h.). Harakatsizlik, aksincha, subyekt xulqining sustligi bilan xarakterlanadi: mansabdor shaxs tomonidan xizmat vazifalarini bajarmaslik (sovuqqonlik), birorta obyektni qo`riqlayotgan qo`riqchi yoki qorovulning xizmatda uxlab qolishi, insonni hayoti uchun xavfli ahvolda qoldirish, unga yordam ko`rsatmaslik, soliqni to`lamaslik, sudga kelmaslik va h.

Huquqqa zid xulq huquqiy xulqning aksidir. U har qanday demokratik davlatda kurash olib boriladigan illatdir. Huquqbuzarlik bilan yetkaziladigan zarar yoki ziyon jismoniy, axloqiy, moddiy, shaxsiy, tashkiliy, shuningdek, ko`p miqdorda va kam ahamiyatli, tiklanuvchi va tiklanmaydigan, o`lchanadigan va o`lchanmaydigan bo`lishi mumkin. Har qanday huquqqa zid harakat ham huquqbuzarlik sanalmaydi, u individ erkin irodasining natijasi, ya`ni anglangan va, demak, aybli bo`lishi lozim. Masalan, bolaning, ruhiy kasal yoki muomalaga layoqatsiz shaxsning huquqqa zid harakati yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi huquqbuzarlik sanalmaydi.

Qonunda yana shunday holatlar nazarda tutilganki, bunda u yoki bu harakat bironta huquqbuzarlik belgilariga ega bo`lsa ham, u ma`lum shart-sharoitlar ta`sirida huquqqa zid sanalmaydi (kam ahamiyatlilik, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va h.)

Huquqbuzarlikning qator majburiy belgilari uning tarkibini tashkil qiladi. Huquqbuzarlikning tarkibini aniqlash sodir etilgan qilmishning yuridik kvalifikatsiyasi bo`lib, u huquq nuqtai nazaridan shaxs taqdiriga bevosita daxldor bo`lgan o`ta muhim mantiqiy operatsiya hisoblanadi.

Jinoyatning yuridik tarkibi:

- 1) huquqbuzarlik obyekti;
- 2) huquqbuzarlik subyekti;
- 3) huquqbuzarlikning obyektiv tomoni;
- 4) huquqbuzarlikning subyektiv tomoni.

Huquqbuzarlik tarkibining mavjudligi shaxsni yuridik javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi. Bu tushunchada bir belgisining yo`qligi to`liq tarkibni bermaydi, bunda jinoyat ishini qo`zg`atish va shaxsni javobgarlikka tortish uchun qonuniy asos mavjud bo`lmaydi. Ba`zi ishlar

aynan jinoyat tarkibining yo`qligi sababli tugatiladi. Huquqbuzarlik obyekti - bu huquqbuzar tajovuz qilayot-gan, bevosita zarar yetkazayotgan narsadir. Umumiy va maxsus yoki konkret obyektlar farqlanadi. Umumiy obyekti sifatida huquqiy tartibot, davlat va jamiyat manfaatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum, ijtimoiy munosabatlar bo`lishi mumkin. Maxsus obyekti – bu konkret ne`matlar, qadriyatlardir (inson hayoti, sog`lig`i, or-nomusi, sha`ni, mulki, xavfsizligi va b.). Har qanday huquqbuzarlik ham umumiy, ham konkret obyekti ga putur yetkazadi.

Huquqbuzarlik subyekti bo`lib huquqbuzarlikni sodir etgan huquq va delikt layoqatli jismoniy va yuridik shaxs hisoblanadi. Jinoyat huquqida esa faqat jismoniy shaxs huquqbuzarlik subyekti hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar va ruhiy kasal shaxslar delikt layoqatli bo`lmaganliklari sababli huquqbuzarlik subyektlari bo`la olmaydilar. Shu qoida aqli norasolarga ham taalluqli. Chet el fuqarolari ham ba`zi jinoyatlarning subyektlari bo`la olmaydilar (davlatga xoinlik, armiyada xizmat qilishdan bosh tortish, dezertirlik va b.). Individi o`z qilmishlarining ijtimoiy ahamiyati va oqibat-larini 16 yoshdan boshlab anglay olishligi umumiy qoida deb qaraladi. Va alohida hollarda qilmishning huquqqa yaqqol xilofligi mavjud bo`lganda 14 yoshdan boshlab voyaga yetmagan shaxs ham o`z hara-katlari uchun javobgar hisoblanadi.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – bu uning tashqi belgilarining majmuidir, ular nima, qayerda, qachon, qanday yuz berdi kabi savollarga javob beradi. Bular quyidagi elementlardir:

- a) real irodaviy harakat yoki harakatsizlik;
- b) harakat yoki harakatsizlikning huquqqa zidligi;
- d) zararli oqibat, ijtimoiy xavflilik;
- e) qilmish va yuzaga kelgan zararli oqibat o`rtasida to`g`ridan-to`g`ri sabab-oqibatli aloqadorlik.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomonini to`liq tavsiflash uchun ba`zi boshqa fakul`tativ (qo`shimcha) belgilar va shartlar ham e`tiborga olinadi: qilmish sodir etilgan joy, vaqti, usullari; yakka yoki guruh tomonidan, qurol yoki boshqa texnik vositalarni ishlatish bilan sodir qilinishi; sistematik, takroran, alohida vahshiylik bilan sodir etilishi va h. Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni deganda subyektning o`z harakatlari va uning oqibatlariga bo`lgan ruhiy munosabati tushuniladi. Bunda jinoyatni rejalashtirishda va amalga oshirishda huquqbuzar rioya etgan maqsadlar, motivlar, ko`rsatmalar nazarda tutiladi. Subyektiv tomonga yana avvaldan til biriktirish, kuchli ruhiy hayajonlanish, jinoyat sodir etilganidan keyingi xulq-atvorni ham kiritadilar. Huquqbuzarlikning

subyektiv tomoni quyidagi savollarni nazarda tutadi: subyekt o'z qilmishlariga qanday qaraydi, uni shunday ish tutishiga nima undadi?

Bular «ayb», «ayblilik» tushunchalarida ifodalanadi. Ayb ikki shaklda namoyon bo'ladi:

1) qasd;

2) ehtiyotsizlik.

O'z navbatida qasd to'g'ri va egri (eventual') turlarga bo'linadi.

Ehtiyotsizlikning o'zi ham 2 turga bo'linadi:

1) jinoiy o'z-o'ziga ortiqcha ishonish, yengiltaklik;

2) jinoiy beparvolik yoki loqaydlik (sovuqqonlik).

To'g'ri qasdda subyekt o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfli ekanligini tushunadi, xavfli oqibatlarni yuzaga kelishi mumkinligini yoki muqarrarligini oldindan ko'ra biladi va shuni istagan tarzda ish tutadi. Egri qasdda subyekt o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, xavfli oqibatlarni yuzaga kelishi mumkinligini oldindan ko'ra biladi, biroq bunday oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'yadi yoki ularga nisbatan befarq bo'ladi. O'z-o'ziga ortiqcha ishonish (yengiltaklik)da shaxs o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra biladi, biroq ularni oldini olishga yetarli asoslarsiz o'z-o'ziga ishonib yengil harakat qiladi. Masalan, haydovchi texnik nosoz mashinada reysga chiqadi, avtoyo'l hodisasi bo'lishini oldini olaman deb yengil fikr qiladi, shunga qaramasdan yo'l hodisasi sodir bo'ladi.

Beparvolik(loqaydlik)da shaxs o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfli oqibatlarini yuzaga kelishi mumkinligini ko'ra olmaydi, biroq ularni oldindan ko'ra olishi lozim va mumkin bo'ladi. Masalan, haydovchi reysga chiqmasdan oldin avtomobilning texnik holatini tekshirmagan, mashina texnik nosoz bo'lgan va natijada yo'l hodisasi sodir bo'lgan. Bunday bo'lmasligi uchun haydovchi o'z majburiyatlariga mas'uliyat bilan qarashi lozim bo'lgan - mashinaning texnik holatini tekshirishi va nosozliklar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etishi lozim bo'lgan.

Huquqbuzarlik turlari. Barcha huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab 2 turga bo'linadi: **qilmish** (nojo'ya ish) va **jinoyatlar**. Huquqbuzarlikning eng xavfli turi bu **jinoyatlar** bo'lib, u nojo'ya ishlardan **ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi** bilan farqlanadi, shaxs, davlat, jamiyatga eng ko'p xavfli bo'lib, jiddiy zarar yetkazadi, JK nazarda tutiladi, ularni sodir etganlik uchun eng qattiq jinoiy jazo choralari qo'llaniladi. **Nojo'ya ishlar** - bu o'z xarakteri va oqibatlariga ko'ra **ijtimoiy xavfli-lik darajasi nisbatan kam** bo'lgan va jamiyatdagi huquqiy tartib-ning alohida tomonlariga tahdid soluvchi huquqbuzarlikdir.

Nojo`ya ishlarning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) fuqaroviy;
- 2) ma'muriy;
- 3) intizomiy;
- 4) moddiy;
- 5) protsessual.

Fuqaroviy nojo`ya ish (delikt)lar deganda tashkilot va shaxsning mulkiga yoki shaxsiga huquqqa zid harakatlar bilan zarar etkazish; shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik, mulk egasining huquqlarini buzish, huquqqa xilof bitimni tuzish kabilar tushunilib, ular mulkiy va nomulkiy munosabatlar sohasida sodir etiladi. Bu turdagi huquqbuzarliklar uchun sanksiyalar - moddiy yoki ma'naviy zararni qoplash, buzilgan huquqni tiklash, subyekt zimmasidagi majburiyatni ijro qilish, qarzni majburiy undirish va h.

**Ma'muriy nojo`ya ishlar** deganda jamiyatda o`rnatilgan huquqiy tartibot, boshqaruv tizimi, ekologik obyektlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar, sanitariya va gigiena talablari, yong`in xavfsizligi qoidalari, transportdan foydalanish qoidalarini muhofaza qiluvchi ma'muriy huquq normalarini buzilishi bilan bog`liq huquqbuzarliklar tushuniladi. Bunda jazo choralari: ogohlantirish, jarima, maxsus huquqlardan mahrum qilish, ma'muriy qamoq (15 sutka) va b.

**Intizomiy nojo`ya ishlar** asosan xizmat munosabatlari sohasida yuz berib, ishlab chiqarish, harbiy, o`quv, moliyaviy intizomni, tashkilotdagi ichki mehnat tartibi qoidalarini buzilishida namoyon bo`ladi. Jazo choralari: hayfsan, lavozimni pasaytirish, mukofotdan mahrum qilish, mehnat shartnomasini bekor qilish va h.

**Moddiy nojo`ya ishlar** - bu ishchi va xizmatchilar tomonidan o`z tashkilot va korxonalariga moddiy zarar yetkazilishidir. Asosan huquqni tiklovchi sanksiyalar qo`llaniladi: maoshning bir qismini ushlab qolish, zararni qoplash majburiyati, buzilgan buyumning qiymatini tiklash va h.

**Protsessual nojo`ya ishlar** - bu sud majlisiga yoki tergovchi huzuriga so`roqqa kelmaslik, daliliy ashyoni ixtiyoriy berishdan bosh tortish va h. Sanksiyasi - manfaatdor mansabdor shaxs yoki organ huzuriga chaqiruv qog`ozi bo`yicha majburiy keltirish.

3. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, xususiyatlari, turlari

Yuridik javobgarlik - bu individ ijtimoiy javobgarligining bir turi bo`lib, uning asosiy xususiyati shundaki, u davlatning majburlov

apparatiga tayanuvchi yuridik normalar, qonunlarni buzilishi bilan bog'liqdir. Bu kuch ishlatishga suyanuvchi javobgarlikning hokimiy-imperativ shaklidir. Bu erda hamisha jazolovchi, tarbiyalovchi va ogohlantiruvchi (preventiv) jihatlar mavjud.

Yuridik javobgarlik - ijtimoiy javobgarlikning eng qat'iy va aniq rasmiylashgan turidir. Huquqbuzarlik, ayniqsa, jinoyatlar uchun javobgarlik, qoida bo'yicha oldindan belgilab qo'yiladi va jamiyatga Ma'lum qilingan bo'ladi. Inson u yoki bu qonundan chetga chiqish, u yoki bu huquq normasini buzish qanday xavf tug'dirishini biladi. Ijtimoiy javobgarlikning boshqa turlarida bu narsa yo'q.

Yuridik javobgarlik murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lganligi sababli ilmiy yuridik adabiyotda unga turli ta'riflar berilgan. Yuridik javobgarlik - bu huquq normalarida ko'zda tutilgan sanksiyalar asosida aybdor shaxsga davlat ta'sir choralarini qo'llash va muayyan salbiy oqibatlarni tayinlash zaruriyati bo'lib, bunda shaxs muayyan ne'mat(shaxsiy, mulkiy, tashkiliy va b. huquq) lardan mahrum etiladi. Yuridik javobgarlik - bu davlatning huquq-buzarlikka nisbatan munosabat bildirishi, qonunda belgilangan sanksiyalarni amalga oshirish usulidir. Javobgarlikka tortish – bu huquqni amalga oshirish shakllaridan biri, aynan qo'llashdir, chunki bunda qonun chiqaruvchi nazarda tutgan maqsad ro'yobga chiqadi. Huquqiy norma hayotga joriy qilinadi, o'zining mantiqiy yakuniga etadi. Yuridik javobgarlikning asosi bu huquqbuzarlikni, jinoyatni sodir etishdir.

Amaliy jihatdan yuridik javobgarlik huquqbuzar uchun moddiy, axloqiy, shaxsiy, tashkiliy, jismoniy xarakterdagi noxush (salbiy) oqibatlarning (ozodlikdan mahrum qilish, cheklash, axloq tuzatish ishlari, mol-mulkni musodara qilish, jarima, qamoq, muayyan lavozimni egallash huquqidan mahrum qilish) yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Bunda javobgarlik va jazo tushunchalari o'zaro bog'liq, biroq aynan bo'lmagan tushunchalar ekanligiga e'tibor berish kerak. Sud jazodan ozod etishi mumkin, javobgarlik esa huquqiy holat sifatida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, jazo shartli bo'lishi mumkin, qonun, jamiyat, davlat oldida javobgar bo'lgan subyekt ozodlikda qolishi mumkin. Shuningdek, avf etish instituti ham mavjud, bunda inson jazoni keyingi o'tashlikdan ozod etiladi. Biroq, javobgarlik mazmun-mohiyatiga ko'ra olib tashlanmaydi.

Yuridik javobgarlikning xususiyatlari:

- 1) davlat tomonidan huquqiy normalarda o'rnatiladi, ya'ni amaldagi qonunchilik bilan nazarda tutiladi;
- 2) davlat majburloviga tayanadi;

- 3) maxsus vakolatli organlar tomonidan qo'llaniladi;
- 4) huquqbuzar uchun muayyan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi;
- 5) huquqiy norma sanksiyasini qo'llash shakli hisoblanadi;
- 6) protsessual shaklda yuklanadi;
- 7) faqat sodir etilgan huquqbuzarlik uchun yuzaga keladi;
- 8) huquqbuzar davlat nomidan jazolanadi.

Ushbu xususiyatlarni bir qator savollardan iborat o'ziga xos formula orqali ifodalash mumkin: Kim javob beradi? Nima uchun? qanday? Kimning oldida? Nima asosida javob beradi?

Yuridik javobgarlik o'z tabiatiga ko'ra bir xil emas, shu sababli u tarmoqlarga qarab asosiy turlarga bo'linadi:

- 1) jinoiy javobgarlik;
- 2) fuqaroviy javobgarlik;
- 3) ma'muriy javobgarlik;
- 4) intizomiy javobgarlik;
- 5) moddiy javobgarlik;
- 6) protsessual javobgarlik;
- 7) konstitutsiyaviy javobgarlik.

Yuridik javobgarlik huquq normasi asosida huquq qo'llovchi organning qarori asosida vujudga keladi.

Yuridik javobgarlikning faktik asosi bo'lib huquqbuzarlikning o'zi hisoblanadi. Huquqbuzarlikning barcha tarkibiy elementlari mavjud bo'lgandagina, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. Ayni paytda huquqbuzarlikning o'zi o'z-o'zidan, avtomatik ravishda javobgarlikka olib kelmaydi, balki javobgarlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuridik javobgarlikning real amalga oshishi uchun huquq qo'llash akti, ya'ni vakolatli organning qarori zarur bo'ladi. Bu qarorda konkret shaxsga nisbatan qo'llaniladigan maj-burlov choralarining hajmi va shakli belgilanadi, masalan, sud hukmi, vazir buyrug'i va b. bo'lishi mumkin.

Yuridik javobgarlikning yuzaga kelish jarayonini sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin: Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar JKda ko'rsatiladi: qilmishning ijtimoiy xavfini yo'qligi, holatlar o'zgarishi aniqlansa, voyaga yetmaganlarni kafillikka berish va b. Jinoiy javobgarlik - eng qattiq javobgarlik turi bo'lib, uni sodir etganlik uchun javobgarlik faqat qonun orqali belgilanadi. Jinoyatlar ro'yxati JKda belgilanadi, Jinoiy javobgarlikka tortish tartibi JPKda mustahkamlanadi. Jinoiy javobgarlikka tortishga faqat birdan-bir organ - sud haqli hisoblanadi. Jinoiy jazo choralari - eng qattiq davlat majburlovi hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik - MJKda belgilangan harakatni sodir etganlik uchun vujudga keladi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy aktlarda ham bunday javobgarlik o'rnatilishi mumkin. Ma'muriy ishlar davlat organlari va sudlar tomonidan ko'riladi. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik - mulkiy xarakterdagi shartnomaviy munosabatlarni buzganlik yoki fuqarolik-huquqiy delikt sodir etganlik uchun vujudga keladi. Bu javobgarlikning mohiyati - shaxsni salbiy mulkiy oqibatlarga duchor qilishdir. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning asosiy prinsipi - zararni to'la hajmda qoplash.

Intizomiy javobgarlik - intizomiy nojo'ya harakat sodir etganlik uchun vujudga keladi. Bunda bevosita man etilgan norma buzilmay, balki ijobiy qoida, ya'ni xodimning mehnat majburiyatini belgilovchi norma buziladi.

Intizomiy javobgarlikning uch turi mavjud:

1. Ichki mehnat tartibi qoidalari asosida;
2. Bo'ysunish tartibi asosida;
3. Intizomiy Ustav va Nizomlar asosida.

Ilmiy adabiyotda yuridik javobgarlikning boshqa yana konstitusiyaviy va ekologik turlari mavjudligi asoslantiriladi. Konstitusiyaviy javobgarlikdan boshqa javobgarlikning barcha turlari an'anaviy hisoblanadi. Konstitutsiyaviy javobgarlik rivojlangan davlatlarda Parlamentning tarqatilishi, hukumatning iste'foga ketishi va boshqalarni tushunish mumkin. Bu javobgarlikni yana siyosiy-huquqiy javobgarlik deb ham atashadi.

Adabiyotda va matbuotda hokimiyat oliy organlarining konstitusiyaviy javobgarligi haqida maxsus qonun qabul qilinishi haqida masala ko'tarilmoqda: insonlar, mamlakat taqdiri bilan bog'liq og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi, o'z xizmat burchlarini lozim darajada bajarmaslik, suiiste'molliklarga yo'l qo'yish (davlatning parchalanib ketishi, uning yaxlitligini buzilishi, aholini jamg'armalardan mahrum qilish, maoshlar va nafaqalarni to'lamaslik, urushlar, insonlarni ommaviy qurbon bo'lishiga yo'l qo'yish va h.).

3. Yuridik javobgarlikning ikki jihati

Hozirgi zamon fani uchun javobgarlikning 2 xil ma'noda: **negativ (retrospektiv)** va **pozitiv (perspektiv)** jihatdan tushunish xos. Retrospektiv javobgarlik shaxsning sodir etgan huquqbuzarligi uchun belgilanib, u avvaldan yuridik fan tomonidan atroflicha ishlab chiqilgan va barcha mamlakatlar qonunchiligi bilan batafsil tartibga solingan. Bu

davlat, huquq, qonun, jinoyatchilik paydo bo'lgan vaqtdan beri mavjud javobgarlikning klassik turidir.

Javobgarlikning pozitiv jihati faqat so'nggi o'n yillikda olimlar e'tiborini tortmoqda. Pozitiv javobgarlik deganda o'z burchlarini lozim darajada bajarganlik, yuklangan ish uchun javobgarlik, insofli xulq uchun javobgarlikni; jamiyat, davlat, jamoatchilik, oila, atrofdagilar oldidagi javobgarlikdir.

Bu axloqiy-huquqiy burch, fuqarolik pozitsiyasi, rivojlangan huquqiy ong hissidir. Ijobiy javobgarlik - bu o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik o'lchovidir. U subyektning real ijtimoiy-huquqiy maqomidan kelib chiqadi, shu sababli status javobgarligi deb atash mumkin. Fuqaroning umumiy yuridik maqomi Konstitutsiya va boshqa muhim qonunlarda mustahkamlanib, u shaxsning jamiyat oldidagi, boshqa kishilar oldidagi javobgarligi haqidagi qoidalar bilan belgilangan. Pozitiv javobgarlikning zarurligi, huquqqa mosligi, axloqiy-huquqiy xarakterini asoslash, uning jamiyat huquqiy tizimida tutgan o'рни va rolini aniqlash muhim.

Pozitiv javobgarlik negativ javobgarlik kabi subyekt uchun muayyan salbiy oqibatlarni keltirishi mumkin. Masalan, davlat xizmatchisi attestatsiyadan o'tmasligi mumkin va bundan muayyan tashkiliy xulosalar qilinadi (xizmatga yaroqsizlik, lavozimdan chetlatish va h.), bunda inson birorta konkret huquqbuzarlik sodir etmasada - u shunchaki o'z burchlariga, yuklangan ishga mas'uliyat bilan, jiddiy yondashmaganligi bois jazolanadi. Xuddi shuningdek, rahbar ishidagi kamchiliklari va no'noqligi tufayli jamoaning ishonchini yo'qotishi va ishdan ketishga majbur bo'lishi, o'qishga mas'uliyatsiz qaragan talabaning o'zlashtirmaganligi uchun talabalikdan chiqarilishi misol bo'la oladi. Negativ javobgarlikdan farq qilib, pozitiv javobgarlik vaqtinchalik va majburiy emas, balki doimiy, ixtiyoriy va shaxsni o'zining lozim darajadagi xulqi uchun chuqur anglangan javobgarligidir. U nafaqat subyektning o'z harakatlari ustidan kontrolini, shuningdek, jamiyat, davlat tomonidan bo'ladigan nazoratga ijobiy munosabatni ham taqozo etadi. Pozitiv javobgarlik negativ javobgarlikdan oldin mavjud bo'ladi.

Jamiyatda javobgarlikning bu ikki turi uzviy o'zaro bog'liq, chunki ular shaxs yagona ijtimoiy javobgarligining turli jihatlari sifatida namoyon bo'ladilar va jamiyatda qonuniylik, huquqiy-tartibotni mustahkamlanishida, huquqiy davlatchilikni qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Pozitiv javobgarlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, negativ

javobgarlikka tortilish hollari shuncha kam bo`ladi. Ularni bir-biriga qarshi qo`yib bo`lmaydi, ular bir-birini to`ldiradi va mustahkamlaydi.

4. Yuridik javobgarlik maqsadlari, funksiyalari va tamoyillari. **Aybsizlik prezumpsiyasi**

Yuridik javobgarlikning maqsadi umumiy ko`rinishda - bu konstitutsiyaviy tuzum, huquqiy tartibot, fuqarolar huquq va erkinliklarini qo`riqlash, tor ma`noda esa, - bu huquqbuzarni jazolash, jamiyatning qolgan a`zolarini bo`lishi mumkin bo`lgan huquqqa zid harakatlar va ularning oqibatlaridan saqlashdir. U individni huquq, qonun, intizomga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalaydi. Yuridik javobgarlik institutining mavjudligi - bu jamiyatning turli jinoiy elementlar tajovuzidan o`zini o`zi himoya qilish usulidir.

Yuridik javobgarlikning maqsadlari uning funksiyalarida ko`rinadi:

- 1) qonuniylik va huquqiy-tartibotni qo`riqlash va mustahkamlash (asosiy funksiyasi);
- 2) jazolovchi funksiya;
- 3) jarimaviy funksiya;
- 4) ogohlantiruvchi(preventiv) funksiya;
- 5) tarbiyaviy funksiya;
- 6) kompensasiyaviy(huquqni tiklash) funksiya.

Yuridik javobgarlikning asosiy prinsiplari:

1) **qonuniylik prinsipi.** Yuridik javobgarlik faqat vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan asoslarda va o`rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2) **Asoslantirilganlik prinsipi.** Javobgarlik huquqbuzarlik oqibatida kelib chiqadi. Bunda huquqbuzarlik tarkibining barcha elementlari va belgilari hamda zarur dalillar bo`lishi darkor, bular bo`lmasa shaxsni javobgarlikka tortish asosi ham bo`lmaydi.

3) **Jazoning muqarrarlighi prinsipi.** Birorta huquqbuzarlik yoki jinoyat jazosiz qolmasligi kerak: jazoning qattiqligi emas, balki uning muqarrarlighi muhim; barcha huquqqa zid harakatlar ochilishi, aybdorlar javobgarlikka tortilishlari lozim.

4) **Adolatlilik prinsipi.** Jazo turi va chorasi huquqbuzarlikning og`irligiga, holatlariga va aybdorning shaxsiga mos kelishi, bir huquqbuzarlik uchun ikki marta javobgarlikning istisno qilinishi; barchaning qonun va odil sudlov oldida tengligini nazarda tutadi.

5) **Insonparvarlik prinsipi** - jazolash jismoniy azoblarni, aybdorning insoniy qadriyatlarini tahqirlashni nazarda tutmasligi kerak; u engillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarlik motivlarini hisobga olishi kerak; shartli hukm qilish, hukm ijrosini kechiktirish imkoniyatini nazarda tutadi.

6) **Aybsizlik prezumpsiyasi** - har bir fuqaro uning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagunga qadar aybsiz deb sanaladi.

Rivojlangan huquqiy tizimga ega har qanday demokratik davlatda aybsizlik prezumpsiyasi amal qiladi, bunga ko`ra har bir fuqaro uning aybdorligi qonuniy tartibda o`rnatilmagungacha va sud hukmi bilan tasdiqlanmagunga qadar sofdil, intizomli hisoblanadi. Bunda ayblilikni isbotlash vazifasi shaxsni ayblayotganlar zimmasida bo`ladi, ayblanuvchining o`zi o`zining aybsizligini isbotlash majburiyatiga ega emas.

Fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi - shaxsning huquq va erkinliklarini mustahkam kafolatidir. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (26-moddasi)da aybsizlik prezumpsiyasi ifodalangan: «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko`rib chiqilib, uning aybi aniqlanmagunga qadar u aybdor hisoblanmaydi».

5. Xatti-harakatning huquqqa xilofligi va yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar

Yuridik javobgarlik va nojo`ya ishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar:

- 1) aqli norasolik;
- 2) zaruriy mudofaa (shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarini himoyasidan kelib chiqib, zarar yetkazuvchiga zaruriy mudofaa doirasida qarshilik ko`rsatish yoki zarar yetkazish);
- 3) oxirgi zarurat (shaxs, jamiyat, davlat manfaatlariga xavf bo`lganda bu xavfning oldini olishga qaratilgan choralar doirasidagi harakatlar);
- 4) ijtimoiy xavflilik darajasi bo`lmagan huquqbuzarlik sodir etilganda;
- 5) buyruq yoki farmoyishni bajarish va h.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Huquqqa mos xulq tushunchasi va turlari
2. Huquqbuzarlik tushunchasi

3. Huquqbuzarlikning turlari
4. Yuridik javobgarlik va uning asoslari, maqsadi
5. Yuridik javobgarlik funksiyalari
6. Yuridik javobgarlik turlari
7. Yuridik javobgarlik va aybsizlik prezumpsiyasi
8. Yuridik javobgarlikni istisno etuvchi holatlar

12-MAVZU: HUQUQ SAMARADORLIGI MUAMMOLARI

REJA:

1. Huquq samaradorligi tushunchasi va uning mazmuni
2. Hozirgi zamon sharoitida huquqning samaradorligini o`rganish uslublari
3. Huquqiy tartibga solish mexanizmi samaradorligi massalalari
4. O`zbekistonda qonunchilik samaradorligini oshirish muammolari

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008.40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ. 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.–Т.: Ўзбекистон.2002.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайд. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Халқ сўзи. 2005 йил 8 декабр.
7. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. Т.: Адолат 2001. С.
8. Исломов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДЮИ наشري.2004.139 б.
9. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. -Т.: ТДЮИ наشري. 2005. 188 б.
10. Нерсисянц В.С. Ҳуқуқ фалсафаси. Қисқача ўқув қўлланма. Мас. муҳ. Ю.ф.д., проф. А.Х.Саидов. -Т.: Адолат. 2003. 280 б.
11. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004. - 832с.
12. Проблемы теории государства и права: Учебное пособие. Под ред.М.Н.Марченко. – М.:Юрист,2004. 656 с.
13. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. – М.: НОРМА. 2000.-233 с.

14. Алексеев С.С. Право. Азбука, теория философия. -М.: Статут. 1999.-810 с.
15. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
16. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. – М.: «Новый юрист» -1999.240 с.
17. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О. 1-китоб. Ҳуқуқ методологияси: ҳуқуқни фалсафий тушуниш бўйича изланишлар. Т.: ТДЮИ нашри.2005. 316 б.
18. Рустамбоев М.Ҳ. Абдухолиқов С.О. Ҳуқуқ методологияси: тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш асослари. 2-китоб. -Т.: ТДЮИ нашри. 2005. 404 б.
19. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ. Бобоев. -Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Huquq samaradorligi tushunchasi va uning mazmuni

Kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan huquq o`sha davrdan boshlab jamiyat hayotida pozitiv rol` o`ynab kelmoqda. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali unda barqarorlik va ijtimoiy adolat o`rnatishga xizmat qiladi. Huquqning o`z oldiga qo`ygan vazifalarni to`la uddalashi qator ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar harakatiga bog`liq ekanligi Ma`lum. Shu bois ham huquqning samaradorligi muammosi bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Shu o`rinda huquqning samaradorligi tushunchasi nima, uni qanday belgilash mumkin, degan savollar ko`ndalang bo`ladi. Huquqning samaradorligi huquq harakatining natijasini anglatadi, huquqning jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal eta olish qobiliyatini, layoqatini anglatadi. Huquq samaradorligi tushunchasi ilmiy adabiyotda «huquq normasining maqsadi bilan uning harakati o`rtasidagi nisbat»sifatida e`tirof etiladi.

Har bir davlatda harakatda bo`lgan qonunchilik tizimining samaradorligi ushbu jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va axloqiy omillar bilan belgilanadigan vaziyatga bog`liq bo`ladi.

Huquq samaradorligi keng va serqirra tushuncha bo`lib, uning tarkibiy qismlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-mavjud qonunchilikning sifat jihati;

- huquq qo'llash faoliyatining samaradorligi;
- huquq qo'llovchining huquqiy ongi darajasi;
- aholining huquqiy ongi darajasi.

Ta'kidlash joizki, sovet davri fanida huquqning samaradorligi masalasiga o'ziga xos yondashuv mavjud bo'lgan. Qonunchilik samaradorligi nazariyasi huquqqa o'sha paytda keng tarqalgan «jamiyatni boshqarish vositasi» sifatida qarashga asoslangan. Ushbu nazariya ta'siri ostida yozilgan «Effektivnost' pravovix norm» (M.:1980). nomli monografiyada huquqiy normalarning samaradorligi «bu normalar harakatining faktik natijasi bilan mazkur normalar qabul qilinishiga olib kelgan maqsadlar o'rtasidagi nisbat» sifatida e'tirof etilgan. Rossiyalik huquq professori V.V Lapaevaning fikricha, huquq samaradorligini bunday ta'riflash unchalik huquqiy ma'noga ega emas, chunki u samaradorlikni u yoki bu harakat maqsadi va natijasi o'rtasidagi nisbat sifatida talqin etadigan umumiy tushunchaga hech narsa qo'shmaydi. Mazkur tushunchaning huquqiy mazmuni huquqiy normalar maqsadi deganda nimani tushunish bilan bog'liq bo'ladi¹.

Albatta huquq samaradorligini bunday tushunish o'sha davr xususiyatlari bilan izohlanadi va bugungi kundagi normativ-huquqiy tartibga solishning tipiga unchalik mos kelmaydi. Hozirgi zamon yondashuvida normativ-huquqiy tartibga solishning yangi tipiga ko'ra qonun yaratish turli ijtimoiy manfaatlarning muvofiqligi sifatida tushunishga asoslanib, bunda muayyan manfaatlarni amalga oshirish erkinligi boshqalarning erkinligiga daxl qilmasligi kerak. Shu munosabat bilan qonun yaratish mohiyatini belgilovchi huquqni tashkil etuvchi manfaatlarni aniqlash va hisobga olish muhim masaladir.

Huquq tashkil etuvchi manfaat bu alohida shaxsning yoki muayyan bir ijtimoiy qatlamning u yoki bu manfaatlari bo'lmasdan, balki jamiyatda mavjud turli ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarning oqilona uyg'unlashgan ifodasi modelidir. Bunday uyg'unlashgan manfaat qonun chiqaruvchi uchun muayyan munosabatlarni tartibga solishning aniq bir formulasi va konsepsiyasi bo'lmog'i lozim. Holbuki, har qanday qonun chiqaruvchi muayyan ijtimoiy muammoni qonuniy tartibga solishda jamiyatda mavjud turli qatlamlar ijtimoiy manfaatlarining kesishmasi markazida turadi, tegishlicha har bir manfaat o'zining qonuniy hal etilishini talab qiladi. Shunday vaziyatda qonun chiqaruvchi muayyan bir qatlam manfaatlariga urg'u bermasdan, balki butun aholining

¹ 12 - mavzu quyidaagi manba asosida tayёрланган: «Проблемы теории права и государства». - М.: 2004. Норма – Инфра М. 832.

umumlashgan va uyg'unlashgan manfaati ifodachisi sifatida harakat qilishi, yondoshishi kerak.

Shu o'rinda qonun yaratish jarayonida jamiyatdagi turli qatlamlar va guruhlar manfaatlari uyg'unlashuvining qonuniy ifodasini topish dolzarbdir. Zero bir guruh yoki qatlam manfaatiga daxl qilgan holda topilgan qonunchilik yechimi jamiyatda ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga xalaqit qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida mustahkamlanganidek, «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart».

2. Hozirgi zamon sharoitida huquqning samaradorligini o'rganish uslublari

Ta'kidlash joizki, huquq samaradorligini o'rganish yuzasidan muayyan tajriba to'plangan bo'lib, uning muhim bir yo'nalishi sifatida eksperimental analiz – tajribaviy tahlil usullari tizimini e'tirof etish mumkin. Bunda «eks-post-fakto» metodini alohida ko'rsatish lozim. Ushbu metodda tabiiy tarzda tarkib topgan muayyan bir vaziyat olinib, u bu bo'lib o'tgan hodisa, voqea xuddi eksperimental omilni harakatga kiritishi sifatida talqin etiladi. Qonun-chilik samaradorligini tadqiq etishning uslubi sifatida «eks-post-fakto» muayyan ijtimoiy munosabatlari Ma'lum bir vaqt davomida huquqiy tartibga solishning turli usullaridan foydalanib kelin-gan hollarda qo'llanilishi mumkin.

Bunday holatlar vujudga kelishiga sabab bo'ladigan shart-sharoitlarga misol qilib, quyidagilarni keltirish mumkin: - muayyan munosabatlarni tartibga solish o'zgargani holda, biroq tartibga solishning obyektida aytarli o'zgarishlar bo'lmagan holatlar.

Bu holda huquq samaradorligini tahlil etuvchi tadqiqotchilar oldida yangi huquq normasini kiritguncha va undan keyin bo'lgan holatni qiyoslash farqni o'rganish imkoniyati ochiladi; - o'xshash ijtimoiy munosabatlar turli huquq normalari bilan tartibga solinadi, bu holda amalda uchrab turadigan huquqiy tartibga solishdagi farqlar tartibga solish obyektidagi farqlar bilan belgilanmaydi. Bu holda esa parallel eksperiment uslubiyotidan foydalanish mumkin.

Parallel eksperimentga misol tariqasida ikki korxona olinib, ularning birida yangi norma, qoida asosida mahsulot sifatini oshirishning yangi bir usuli qo'llanilishi, boshqasida esa qo'llanilmasligi, tajriba oxirida uning natijalari solishtirilishini keltirish mumkin. Mabodo, mahsulot sifatini

oshirishga doir yangi qoidalar, normalar joriy etilgan korxonada mahsulot sifati oshishiga erishilsa, buni mazkur normalar samaradorligi bilan aynan tenglashtirib ham bo'lmaydi. Zero, mahsulot sifatining ortishi - bu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning maqsadi bo'lmay, balki uning natijasidir. Ayni paytda, mahsulot sifatining oshishi - ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar mazkur munosabatlarning rivojlanishini, obyektiv ehtiyojlarini to'g'ri ifoda etganligi, boshqacha qilib aytganda, ushbu normalar «o'z vaqtida» va «o'z o'rnida» ekanligi ko'rsatadi. Muhimi, mazkur munosabat qatnashchilari manfaatlari muvozanatini o'zida to'g'ri ifodalaganligidan dalolatdir.

Shunday bo'lishi mumkinki, yangi normalar kuchga kiritilishi natijasida mahsulot sifati ancha ko'tarilishi mumkin, biroq ishchilarning ko'pchiligi normalarda mustahkamlangan talablarga e'tiroz bildirishi mumkin, bu holda mazkur normalarning samaradorligi to'g'risida ijobiy fikr yuritish mumkinmi? Huquq turli manfaatlar, ehtiyojlarning kelishilgan, murakkab uyg'unlashgan ifodasi sifatida harakat qilishi kerak. Shu holdagina uning samaradorligi haqida gap yuritish mumkin bo'ladi.

Xo'jalik sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy maqsadi, ushbu munosabatlar qatnashchilariga erkin faoliyat yuritishni, ijtimoiy munosabatlarning erkin rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, MDH davlatlari amaliyoti, jumladan, soliq, bojxona, xususiylashtirish kabi masalalardagi qonunchilik normalari eksperimental analiz va uning bir ko'rinishi bo'lgan parallel eksperiment «eks-post-fakto» usulidan foydalanish uchun «ozuqa» bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda, MDH davlatlari qonunchiligini o'rganish masalasi bilan bir qatorda o'xshash qonunchilikning amalga oshirilishi, tadbqiq etilishi amaliyotini qiyoslab o'rganish ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molikligini ta'kidlash zarur. Bunday qiyoslash har bir davlatda muayyan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning eng maqsadga muvofiq variantini topishga yordam berishi mumkin. Qonunchilik samaradorligi o'rganishda ekspert baholari metodologiyasidan foydalanish ham muayyan ijobiy ahamiyatga ega. Bu uslub huquq sotsiologiyasida ancha rivojlangan.

3. Huquqiy tartibga solish mexanizmi samaradorligi masalalari

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish qator yuridik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga

solishda foydalaniladigan yuridik vositalar majmui huquqiy tartibga solish mexanizmini anglatadi. Mazkur yuridik vositalar orqali huquq amalga oshadi. Shu munosabat bilan huquqiy tartibga solishning samaradorligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

A.V.Mal'ko hozirgi zamonda huquqiy tartibga solish samaradorligini ko'tarishning quyidagi yo'llarini ko'rsatib o'tadi: -huquq ijodkorligini takomillashtirish; -huquq qo'llashni takomillashtirish; -huquq subyektlarining huquqiy madaniyatini ko'tarish¹.

Ta'kidlash joizki, bu yo'llar ilmiy adabiyotlarda va huquqiy tartibga solish amaliyotida keng tarqalgan va umume'tirof etilgan. Darhaqiqat, shunday holatga erishish kerakki, bunda qabul qilinadigan qonunlar o'zida chinakam ehtiyojlarni ifodalasin, ayni paytda bu ehtiyojlar bir guruh yoki qatlamning ehtiyoji emas, balki jamiyatning turli guruhlari va qatlamlarining umumlashgan, muvozanatlashgan ehtiyoj - manfaatlari ifodasi bo'lsin. Bu – masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni, bunday sifatli qonunlarda ifodalangan umumiy manfaatlar huquq qo'llovchi tomonidan konkret, aniq vaziyat va holatlarda to'g'ri va asosli ravishda qo'llanilishiga erishish juda muhim. Bu holda umumiylikdan konkretlikka o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Bu jarayonning samaradorligi huquq subyektining hamda huquq qo'llovchining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu bois ham jamiyatning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy tartibga solish mexanizmi samaradorligi darajasini belgilovchi omillardan muhimi hisoblanadi.

4. O'zbekistonda qonunchilik samaradorligini oshirish muammolari

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda tub islohiy o'zgarishlar amalga oshira boshladi. Chunki yangi demokratik tuzumga o'tish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish avvalgi tuzumdan qolgan «meros» orqali ro'yobga chiqarib bo'lmas edi. Ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yangi qonunchilik tizimi asosida sodir bo'lishi kerak edi. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida yangi huquq tizimi shakllandi.

Ayni paytda qabul qilingan qonunlarning ijrosi, ularning ijtimoiy munosabatlar rivojiga ijobiy ta'sir etishi **darajasini** bugungi kun talablari

¹ Теория государства и права. Под. ред. проф. Н.И. Матузова и А.В. Малько. М. Юристъ. 1997. С.632.

darajasiga ko'tarish dolzarb¹. Yangi qabul qilinayotgan qonunlarda, birinchidan, aholining turmush ehtiyojlari o'zining ifodasini topishi kerak, ikkinchidan esa, ularni amalga amalga oshirish jarayoni, ya'ni qonunlarning ijrosini ta'minlashni qattiq nazorat ostiga olish zarur.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, «Ming afsuski, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarimizni joylarga yetkazish, keng tushuntirish ishlarini, targ'ibotlarni o'tkazish va kechiktirmasdan hayotimizga joriy etish, buning uchun kerakli chora va tadbirlarni ko'rish - bugungi kunda faoliyatimizning oqsoq bir aylanib qolmoqda»².

Qonunlarning samaradorligi ko'p omillarga bog'liqligi - ma'lum holat. Biroq, qonunlarda turli manfaatlar uyg'unligini ta'minlash hamda yuridik texnika qoidalariga to'la rioya etish hamda qonunlarning ijrosi ustidan qattiq nazoratining o'rnatilishi alohida o'rin tutadi. Ikki palatali parlamentning shakllanishi mana shu masalalarni ijobiy hal etishga xizmat qilishi shubhasiz. Senat tomonidan qonunchilik palatasi qabul qilgan qator qonun va ayrim qonun normalarining ma'qullanmay, qaytarilishi mamlakatimizda sifatli qonunlar yaratishga qaratilgan murakkab va mas'ul jarayon kechayotganligidan dalolatdir. Huquq samaradorligini oshirishda qonun hujjatlarining monitoringi va ekspertizasi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki biron-bir qonun hujjatini, xususan qonunni qabul qilish ko'p bosqichli va murakkab mazmundagi jarayon bo'lib, unda ko'plab idoralar, tashkilotlar, mutaxassislarining ishtiroki talab etiladi. Qabul qilingan qonunni hayotga amalga oshirish esa, o'z navbatida nafaqat qator tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etibgina qolmay, balki davlatning jiddiy moliyaviy xarajatini ham taqozo etadi. Basharti qonun qabul qilingandan keyin, undan kutilgan natijaga erishilmasa, bu holda shuncha mehnat va harajat besamar ketgan bo'ladi.

Shu bois, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan sifatli qonunlar qabul qilinishini ta'minlash borasida jiddiy tashkiliy-huquqiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Qonunlarning sifatli bo'lishiga erishishning ishonchli mexanizmlaridan biri - qonun loyihalarining tegishli mutaxassis tashkilotlar, idoralar, huquqshunos olimlar tomonidan batafsil huquqiy ekspertiza qilinishidir. Bu rivojlangan davlatlar qonun ijodkorlik jarayoniga xos bo'lgan demokratik amaliyot bo'lib, u mamlakatimizda takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. O'zbekiston Respublikasi

¹ Ўзбекистонда қонун яратиш жараёни муаммоларини ҳал этишга доир масалалар ҳақида қаранг: қонун ҳужжатлари мониторинги: назария ва амалиёт масалалари. Мас. муҳарр. Ф.Ҳ.Отахонов. Т.: 2006. 377б.

² Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкалаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. Халқ сўзи. 2006 йил 25 феврал.

Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «qonun qabul qilinayotganda ularni, albatta, tegishli tashkilotlar ekspertizadan o'tkazishi darkor. Shundan so'nggina biz, jahon andozalariga mos qonun qabul qildik, deya olamiz»¹.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda qonun loyihalarini huquqiy ekspertiza qilishni takomillashtirish borasida katta burilish yili bo'ldi, desak mubolag'a qilgan bo'lmaymiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-apreldagi Farmoni bilan «...qonun ijodkorligi ishi sifatini oshirish va uning barcha bosqichlarida ekspert baholari rolini kuchaytirish maqsadida»² shuningdek, O'zbekiston Parlamenti qoshidagi shu nomdagi institutning maqomini aniqlash zaruratidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tashkil etildi.

Mazkur Institutga mamlakatimizda huquq ijodkorlik, ayniqsa qonun ijodkorlik jarayonini yangi bir sifat bosqichiga ko'tarishdek juda mas'ul vazifa yuklatildi. Ta'kidlash joizki, mazkur institutning o'tgan qisqa vaqt davomida olib borgan ishlari, tashkil etayotgan turli ijodiy tadbirlari ushbu jamoaning Farmonda ko'rsatilgan maqsad yo'lidan qat'iy ketayotganligidan dalolatdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda qonun yaratish jarayonining yanada demokratlashuvi, professional asoslarining kuchayishi va qonunchilik texnikasining takomillashuvi ushbu institut faoliyati bilan bog'liq. Amaldagi qonun hujjatlari ustidan monitoring olib borish – Institut faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanib, bu vazifa mavjud huquqiy bazani takomillashtirishning yo'nalishlarini aniqlash, qonunchilik tizimining o'zaro uyg'un holda shakllanib, rivojlanishini, inson huquqlariga oid xalqaro normalarga to'la muvofiqligini ta'minlashga qaratilganidir. Shu maqsadda institut «qonunlarda, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining norma va qoidalari to'liq ro'yobga chiqarilishi hamda ularning qo'llanilishi, shuningdek qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida huquqiy normalarning o'zaro bog'lanishi. Kompleksliligi va uyg'unligi monitoringi»ni amalga oshiradi.

Aytish mumkinki, mazkur institut O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashga, ya'ni qabul

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. - Т.: Ўзбекистон, 1997.126-б.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонунчилик мониторинги институтини ташкил қилиш тўғрисида»ги 2005 йил 2 апрелдаги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2005. 14 (150)-сон.100-м.

qilinayotgan normativ-huquqiy aktlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq chiqarilishi va qabul qilinishiga mas'ul.

Ta'kidlash joizki, Institut Ustavi mazmunidan bu jamoa nafaqat qonun loyihalari, balki barcha qonunchilik aktlari loyihalari yuzasidan, ularni tayyorlash jarayonining barcha bosqichlarida ekspert baholari va xulosalari berishi anglaniladi¹. Bizningcha Ustavdagi «qonun hujjatlari loyihasi» iborasi bu joyda tor ma'noda, ya'ni qonun loyihalari ma'nosida kelmoqda, aks holda bu institut tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ekspertiza obyektlari doirasi juda ham kengayib ketadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi bilan Mazkur institut o'rtasida vakolatlar doirasi nisbati masalasiga e'tiborni jalb etish muhim. Zero Adliya Vazirligi Nizomining 7 bandi 1 qismi a) punktida Vazirlik, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni tayyorlash va huquqiy ekspertizadan o'tkazish sohasidagi qator funksiyalari mustahkamlangan². Jumladan, Vazirlikka qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini yuridik ekspertizadan o'tkazadi va ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi yuzasidan xulosalar berish vazifasi yuklatilgan. Shu munosabat bilan mazkur institut va Adliya Vazirligi faoliyatining qonun loyihalariga ekspertiza xulosalarini berish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarur, bizningcha. Bunday hamkorlik ushbu ikki organ faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qaytarishlarning oldini olishi mumkin. Yoki, bu ikki subyektning vakolatlari doirasiga aniqlik kiritish zarur. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi Instituti qonun loyihalariga ekspert xulosalarini beradigan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijro hokimiyati tarkibiga kiradigan markaziy davlat organlarining normativ-huquqiy aktlari loyihalariga ekspert xulosalarini berish Adliya Vazirligi zimmasida qolaverishi mumkin. Ayni paytda, yuqorida qayd etilgan Institut O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil etilganligi munosabati bilan, mamlakatimizda qonunlarning loyihalarini huquqiy ekspertiza qilish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish funksiyasini - qonun loyihalarining huquqiy ekspertizani amalga oshirish bo'yicha maxsus tashkil etilgan - ushbu Institutga berish maqsadga muvofiq emasmikin? Vaholanki, bu funktsiya mazkur institut faoliyatining bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2005. 14(150)-сон.100-м.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 27 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига 2-илова. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2003.17-сон.

Yuqorida qayd etganiizdek, milliy parlamentimiz rivojidadagi novasiya – yuqori palata-Senatning bir yillik faoliyati qonun chiqaruvchi organning jamiyatdagi demokratik institutlar tizimida tutgan o`zining munosib o`rnini mustahkamlayotganligidan dalolat berib turibdi. Parlamentni ikki palatali tarkibda shakllantirishdan kutilgan asosiy maqsad - qonunlarning sifatini, hayotiyligini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda samaradorligini ko`tarishga erishish ekanligi Ma`lum. Bunday samaradorlikka erishishning muhim vositalaridan biri Parlament palatalari o`rtasidagi «bir-birini muvozanatlash» tizimining mavjudligi bo`lib, bu mexanizm, jumladan Senatning qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni qonunchilik palatasiga qayta qarab chiqish uchun qaytarilishi, shuningdek qonunda belgilangan hollarda ikki palata vakillaridan iborat Kelishuv komissiyasi tuzilib, u orqali munozarali masalalar yuzasidan maqbul xulosalarga kelish tartibini o`z ichiga oladi. Senatning bir yillik faoliyatida bir necha qonunlarning ushbu qoidaga muvofiq qonunchilik palatasiga qaytarilganligi ijobiy holat bo`lib, u bevosita qonunlarning sifatini, hayotiyligini kuchaytirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 5 yalpi majlisida so`zlagan ma`ruzalarida parlament palatalari o`rtasidagi sifatli qonunlar qabul qilishga qaratilgan hamkorlik bo`yicha to`plangan dastlabki ijobiy tajriba haqida to`xtalib, ta`kidlaganlaridek, bugungi kunda bunday tajriba «mamlakatimizning qonunchilik hokimiyati tizimida qabul qilinayotgan qonunlarning yuksak sifatini, jamiyatdagi manfaatlar uyg`unligini ta`minlaydigan, o`zaro muvozanatni saqlashga xizmat qiladigan samarali tizim shakllanayotganligini»¹ ko`rsatib turibdi.

Qonun loyihalari Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingunga qadar, ya`ni loyiha holida ikki palataning tegishli qo`mitalari o`rtasida amaliy hamkorlik munosabatlari doirasida munozarali, murakkab masalalar bo`yicha fikrlar almashinuvi asosida kechmoqda. Shu o`rinda davlat rahbari I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, «qonunlarni ko`rib chiqish va qabul qilish jarayonida Oliy Majlis palatalarining o`zaro samarali hamkorlik mexanizmini, avvalo quyi va yuqori palatalarning tegishli qo`mita va tuzilmalari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni takomillashtirish zarur» degan fikrlarini eslash o`rinli. Shu munosabat bilan, mazkur Institut bilan Parlament palatalari o`rtasidagi sifatli qonunlarning qabul qilinishiga

¹ Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. // Халқ сўзи. 2006 йил 25 феврал.

qaratilgan o`zaro hamkorlik munosabatlarini amalda yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlash joizdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Huquq samaradorligi va uni tushunish masalalari
2. Huquq samaradorligi xususiyatlari
3. Huquq samaradorligini o`rganish usullari
4. Huquqiy tartibga solish mexanizmi samaradorligi
5. Huquqiy tartibga solish mexanizmi samaradorligini mustahkamlashda huquqiy ongning o`rni
6. Sifatli qonunlar tayyorlash - huquq samaradorligining zamini sifatida
7. O`zbekistonda huquq samaradorligini oshirish masalalari
8. O`zbekistonda huquq samaradorligiga zamin hozirlashda ishtirok etuvchi davlat orgnlarini ko`rsating.

13-MAVZU: YURIDIK KONFLIKTOLOGIYA

REJA:

1. Ijtimoiy konfliktlar haqida qarashlarning shakllanishi tarixi
2. Yuridik konfliktologiyaning bugungi ahvoli
3. Yuridik konfliktlar tushunchasi
4. Konfliktlar turlari.
5. Yuridik konfliktlar va ularni hal etish muammolari.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008.40 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон. 2002. 76 б.
3. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
4. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмади. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал.
5. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ. Умумий масалалар. Давлат назарияси. Т.: Адолат. 2000.270-б.
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т.: 2001. ТДЮИ нашри.
7. Исламов З.М. Ўзбекистан: на пути к модернизации. – Т.: ТГЮИ, 2005. – 160 с.
8. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 187 б.
9. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. -Т.: Шарқ, 2002.
10. Кельзен Г. Чистое учение о праве. -М.: Прогресс, 1988.
11. Нерсисянц В.С. Философия права. -М.: Инфра-Норма, 1997.
12. Алексеев С.С. Право. М.:Статут, 1999.
13. Проблемы теории государства и права. -М.: Юрайт, 2001.
14. Тожиhoнов У., Саидов А.. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-томлик. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ. 1998.
15. Тожиhoнов У., Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2-томлик. 1-том. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ. 2001.

16. Тожиhoнов У., Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2- том-лик. 2-том. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ. 2002.
17. Ражабова М.А. Давлат қурилиши ва суд-ҳуқуқ ислоҳоти истиқболлари. -Т.: Адолат, 2005. –179б.
18. Дмитриев А.В. Конфликтология. -М.: Гардарики. 2000. 320с.
19. Фельдман. Конфликты в мировой политике. Международный Университет Бизнеса и Управления. “Братья Карич”.–М.:1997.-128 с.”
20. Эргешова Д. Қ. Нажимов М.К. Юридик конфликтология. – Т.: ТДЮИ нашри.2005. 129 б.
21. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. муҳ. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонқулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. – Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Ijtimoiy konfliktlar haqida qarashlarning shakllanishi tarixi

Kishilik jamiyati turli turfa munosabatlarga makon bo`lishi bilan birga. ayni paytda unda turli xil konfliktlar, kolliziyalar, nizolar va ziddiyatli holatlar sodir bo`lib turadi. Ular shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy sinfiy, davlatlar aro mazmunga ega bo`lishi mumkin. Ijtimoiy konfliktlar tabiatini anglashga qadimdanoq olimlar urinib kelishgan. Dastlab qadimgi yunon faylasufi **Geraklit (m.a. 530-470y)** urush va ijtimoiy konfliktlar haqidagi fikrlarni ilgari surgan. U urush va to`qnashuvlar barcha narsa va hodisalarning otasi deb hisoblagan, uning fikricha- konfliktlar – ijtimoiy hayotning atributi, ijtimoiy taraqqiyotning muqarrar va muhim sharti.

Faylasuf materialist **Epikur (m.avv. 341-270y.)** - insonlar davlatlararo to`knashuvlar qachonlardir odamlarni tinch yashashga majbur etishadi. Xristianlik falsafasi tinchlik va ahillikni targ`ib etgan. Uyg`onish davrining taniqli gumanistlari T. Mor, Erazm Rotterdamskiy, F. Rable, F. Bekonlar harbiy to`qnashuvlarni qattiq tanqid qilganlar.

Erazm Rotterdamskiy (1469-1536): *"Urush uni bilmaydiganlar uchun shirin tuyuladi, deb ta'kidlagan. U harbiy konfliktlar asta - sekin o`z domiga yangidan - yangi aholi qatlamlarini torta borishi xususiyatini va har qanday konfliktni, hatto undan taraflarning diniy ma'naviy yondashuvlarida yaqinlik, aynanlik bo`lsada, kelishish qiyinligini ko`rsatib o`tgan; "Eng katta bema'nilik shundaki -uro`shayotgan ikki dushman lagerda Xristos mavjud, u xuddi o`zi bilan o`zi urishayotganday:"*

Frensis Bekon (1561-1626) - u birinchilardan bo`lib mamlakat ichkarisida yuz berayotgan konfliktlarning moddiy, siyosiy, ruhiy shart -

sharoitlarini **batafsil nazariy tahlil etgan**. Nizolarning tagida moddiy sabab mavjudligiga u katta e'tibor bergan.

XVIII - asrda harbiy konfliktlarni ingliz demokratlari va fransuz ma'rifatparvarlari qattiq tanqid qiladilar:

V.O.Pristli, Sh.Montesk'e, D.Didro, J.J.Russo, Vol'terlar urushni, zo'ravonlikni varvarlik davri qoldiqlari sifatida qarashgan va mavjud feodal tuzumni yo'qotish –abadiy tinchlikka olib keladi, deb hisoblashgan. **Jan-J. Russo (1712-1778) - «Jamiyati-ning tabiiy holati»** tushunchasini ilgari surgan. Biroq uning bu qarashini I. Kant (1724-1804), T. Gobbslar ma'qullashmagan. Kantning fikricha **«yonma-yon yashovchi qo'shnilar orasidagi tinchlik, ahillik – tabiiy holat bo'lmay, aksincha, urush holatidir, hech bo'lmasa uning tahdidir, shu bois tinchlik holati o'rnatilmog'i lozim»** - deb hisoblagan.

T.Gobbs -tabiiy holatni - **hammaning hammaga nisbatan urush holatidir deb** hisoblagan, biroq kelajakda tinchlik holatining butunlay yangi darajasi o'rnatilishiga Russo kabi ishongan.

XIX - asrda ijtimoiy konfliktlar masalasida yangi yondashuv sezila boshladi. G.V.Gegel'**jamiyat taraqqiyotida urushlarning pozitiv roli** xaqida aniqroq fikr bildirgan. XIX - asrning shiddatli o'zgarishlari nazariyalarida o'z ifodasini topib, ularda kurashlar, konfliktlar jamiyat **hayotining muqarrar hamrohlari sifatida talqin etila bordi**.

Tomas (1766-1834) - ingliz iqtisodchisi, ruhoniylar - o'zining "Opit o zakone narodonaseleniya" (1789) asarida ishsizlik sabablarini aniqlashga urinib, **"tabiiy qonun"ga** asosan aholi geometrik, yashash vositalari esa arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, shu bois nizolar sababi - aholining ko'payish masalasiga yengil qa-rashda deb tushuntirgan.

Charl'z Darvin (1809-1882) - Darvin o'zining "tabiiy tanlanish" nazariyasini jamiyatga tadbiq etganligi aniq bo'lmasada biroq, keyinchalik **"ijtimoiy darvinizm" g'oyasi shakllana borgan**.

Gerbert Spenser (1820-1903) - jamiyatning bosh qonuni - bu eng moslashgan individlar o'zlarini saqlab qola biladilar - deb hisoblangan, shu bois to'qnashuv holati universal xarakterga ega, u tabiat va jamiyat o'rtasida **muvozanatni ta'minlaydi**¹.

Shunday qilib konfliktlar qonuni umumiy va asosiy qonun sifatida namoyon bo'ladi va u xalqlar o'rtasida o'zaro to'la inoqlik o'rnatilguncha davom etadi.

Uil'yam Samner (1840-1910) – AQSh - XIX-XX asr - sotsial darvinist - uning fikriga ko'ra **"kurashda eng kuchsizlar sinadi"**,

¹ Дмитриев А.В.Конфликтология. М.:Гардарики.. 2000. С.13.

g`oliblar esa - eng yaxshilardir - tabiiy tanlash mahsullari, shu bois davlat bu masalaga aralashmasligi kerak, hayotni yaxshilash g`oyasi esa- **bema`nilik**.

Lyudvig Gumplovich (1838 -1909) - sotsial darvinizmning polyak - avstriyalik vakili - u ijtimoiy konfliktlarni madaniyat tipi bilan bog`laydi, uning fikricha:

1) konfliktlar - tarixiy jarayonning mohiyatini tashkil etadi;

2) hukmronlar va bo`ysunuvchilar abadiy, demak shu asnoda konflikt ham abadiy;

3) nizolar jamiyatning birligiga xizmat qiladi;

Sotsial darvinizmning izdoshlari hozirgi kunda ancha kamayib ketgan; XIX - XX - asrlar chegarasida sotsiologiya fani rivojlanib, u konfliktlarni faktik Ma`lumotlar asosida o`rgana boshladi va ularning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlagan.

Georg Zimmel'(1858-1918) - "**konfliktlar sotsiologiyasi**" **atamasini ilmiy muomalaga kiritgan**. Uning fikricha - konflikt integrasiyaga olib keladi. XX - asrning 20 - yillarida sotsiologiyaning Chikago maktabi vakillari quyidagilardan iborat bo`lgan:

- Robert Ezra Park (1864-1944),
- Ernest Uotson Berdjess (1886-1996),
- Abbion Vudberi Smoll (1854-1926).

Ular ijtimoiy taraqqiyoti (o`zaro bog`liq) 4 tip o`zaro harakatdan iborat deb talqin qilishgan:

- musobaqa,
- konflikt,
- moslashuv,
- assimilyasiya¹

Marksizm - konfliktlarni tan olgan, biroq kelajakda ular yo`q bo`ladi, deyishi utopik xarakterga ega bo`lgan, albatta. **Nomarksistik an`ana vakillari - Maks Veber (1864-1920)ning** fikricha an`anaviy va hozirgi zamon kapitalizmi o`rtasidagi ziddiyat asosiy konfliktidir.

Vil`fredo Pareto (1848-1923)** - ital`yan tadqiqotchisi, elita nazariyasi asoschilaridan biri. Jamiyat **ijtimoiy jihatdan turlicha, shu bois elitaning almashinuvi va ular o`rtasidagi kurash - jamiyat asosini tashkil etadi, degan fikrni ilgari surgan.

Gaetano Moska (1858-1941) - ital`yan yuristi, politologiya asoschilaridan biri – «Jamiyat xalqniki bo`la olmaydi, real hokimiyat

¹ Дмитриев А.В. Конфликтология. М.: Гардарики.. 2000. С.15.

doimo siyosiy sinf qo`lida bo`ladi, xalq-hokimiyat, juda borsa "xalqning manfaatiga xizmat qilishi mumkin", - degan fikrni ilgari surgan.

Xulosa: konfliktlar normal ijtimoiy xodisa; ular muayyan pozitiv funksiyalarni bajaradi; konfliktlar jamiyatning tuzilishi bilan bog`liq; hukmdor va bo`ysunuvchi o`rtasida konflikt muqarrar; jamiyatdagi o`zgarishlarga bog`liq holda konfliktlar kelib chiqadi; konfliktlar yordamida muvozanat tiklanadi, aniqlanadi¹.

2. Yuridik konfliktologiyaning bugungi ahvoli

Konfliktlar haqidagi hozirgi zamon konsepsiyalari:

Tolkott Parsons (1902-1979) - amerikalik sotsiolog nazariyotchi: - konflikt anomaliya, o`ziga xos kasallik va uni yo`qotmoq kerak degan fikrni ilgari surgan. - **Elton Mayo (1880-1949)** - Garvard Universiteti professori – **sanoat sohasidagi** nizolarga e`tibor bergan, konflikt - xavfli ijtimoiy kasallik **deb** ta`kidlab, ijtimoiy muvozonatga erishish zarur deb hisoblagan. **Robert Merton** - ijtimoiy anomaliyalarni tahlil etgan. Ijtimoiy konfliktning hozirgi zamon konsepsiyalari XX - asrning 50-60 - yillarida paydo bo`lgan.

L`yuis Kozer** - bu Amerika tadqiqotchisi 1956 - yilda "Ijtimoiy konflikt funksiyalari" nomli kitob chop etgan. U konflikt-larning **pozitiv rolini ta`kidlagan.

**Ral`f Darendorf** - 1965 yili "Sinfiy tuzilma va sinfiy konflikt" degan kitobini chiqargan. "Konfliktning yo`qligi – no-normal holatdir" deb ta`kidlagan.

Kennet Boulding amerikalik sotsiolog va iqtisodchi "Konfliktlar umumiy nazariyasi" kitobi muallifi. U ham tabiat, ham jamiyatdagi konfliktlarni tahlil etgan. **Alvin Gouldner** – amerikalik sotsiolog, u nizolar sababini aniqlab, uni yo`qotish –sotsiologiyaning vazifasidir, deb hisoblagan.

Xalqaro nohukumat tashkiloti «Rim klubi» (1968y) a`zolari davlatlarning o`zaro bir-biriga bog`liqligi kuchayotgan bir sharoitda yangi global tafakkurga ehtiyoj mavjud, saylovdan saylovgacha ishlaydigan hukumatlar fundamental muammolarni samarali hal etishga ulgurisha olmaydi, zero bugungi kunda jamiyatdagi muammolar shunchalik murakkabki, ularni birin-ketin va alohida hal etib o`tirishning imkoni yo`q,

¹ Батафсил қаранг: Дмитриев А.В. Конфликтология. М.: Гардарики.. 2000. С.22.

zotan bu muammolar o`rtasida kutilmagan va oldindan ko`rib bo`lmaydigan murakkab aloqalar, bog`liqlik mavjud¹.

Faqat davlatlarning o`zaro hamkorligi, do`stona munosabatlari hamda ularning uyg`unlashgan tarzda rivoji orqaligina dunyoda tinchlik o`rnatilishiga erishish mumkin.

3. Yuridik konfliktlar tushunchasi

Ta`kidlash joizki, ilmiy adabiyotda konfliktlar tushunchasi masalasida yakdillik kuzatilmaydi. Konfliktlarning universalligi, ko`p qirraligi hamda konfliktlarning bir-biri bilan o`zaro bog`liqligi "konfliktlar umumiy nazariyasi"ni yaratishga intilishni kuchaytirmoqda. Bunday nazariya konfliktlarning barcha turlarini tushunishga yordam berishi kerak². Ayni paytda konfliktsiz jamiyatning o`zi bo`lmasligi, " faqat qabristondagina konfliktlar bo`lmasligi" Ma'lum holatdir³.

Sovet fanida konfliktologiya man etilgan edi, falsafa fani esa faqat ziddiyatlarini o`rganish bilan cheklanar edi, xolos. Faqat 90 yillarning boshida "Yuridik konfliktologiya" degan kitob chiqqan. SSSR barham topgandan so`ng, Rossiyada 1997 - yili "Konflikt asoslari" degan monografiya nashr etilgan. Rossiya olimlari ichidan huquqshunoslarning tadqiqotlari ancha ko`zga ko`rinarli hisoblanadi. Yirik huquqshunos V.N. Kurdryavsev huquqiy fanlar nuqtai nazariyadan konfliktlarni o`rganib, bu masalalardan asosiy yondoshuvlarni ishlab chiqqan<sup>4</sup> Yuridik konfliktologiya – konfliktlarni xususiyatlarini, huquq nuqtai-nazaridan umumlashtiradi va o`rganadi. Taraflarning huquqiy munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan va konflikt subyektlari va ularning xatti - harakati motivasiyasi yoki nizo obykti huquqiy belgilarga ega bo`lgan hamda yuridik oqibat kelib chiqaradigan har qanday nizo yuridik konfliktidir.

"Yuridik ensiklopediya" ta`rifiga ko`ra - **yuridik konflikt** - bu taraflarning, davlatlar va ular organlarining, jamoat birlashmalarining huquq subyektlarining maqomi va yuridik holatini g`ayrihuquqiy tarzda o`zgartirish maqsadida o`zaro bir - biriga qarshi borishi, to`qnashuvidir. Yuqoridagi fikrdan xulosa shuki:

¹ Дмитриев А.В. Конфликтология. -М.: Гардарики. 2000. С.31.

² Қаранг: Дружинин В.В., Конторов Д.С., Конторов М.Д. Введение в теорию конфликта. М., 1989. С.9.

³ Қаранг: Фельдман. Конфликты в мировой политике. М.Международный Университет Бизнеса и Управления. «Братья Карич». 1997. С.15.

⁴ "Юридический конфликт: сферы и механизмы." -М.: 1994. С.5-9.; Юридические конфликты. - М.: 1995. С.3-5 1995.

-yuridik konflikt – bu qachonki huquq subyektlarining maqomi va davlat tartibini **g`ayri - huquqiy o`zgartirishga qaratilgan konfliktlardir;**

- konflikt - bu man etilgan holat, davlatning konstitutsiyaviy prinsiplarini buzish maqsadidagi qarama qarshilik hisoblanadi.

Yuridik konfliktologiya muammosi I.A.Il'in tomonidan ko`ta-rilgan: Yuridik konfliktologiya - **bu tabiiy va ijobiy huquq o`rtasidagi (kurash) konfliktidir.**

Jamiyatda huquqiy normativ qadriyatlar tizimi mavjud bo`lib, u (u yoki) yuridik va jismoniy shaxslarning u yoki bu harakatlarini baholash jarayoni bilan bog`liq. Baholashni **esa konkret subyekt amalga oshiradi, xo`sh, u kim o`zi va qanday baho beradi, qanday tegishli huquq normativini qo`llaydi,** qonunchilikka rioya etiladimi? - yo`qmi, - shunga qarab adolat yo tantana qiladi yoki qaror topmaydi. Shu tariqa, huquqda obyektivlik bilan subyektivlik o`rtasida birlik ziddiyatli. Bu ziddiyatlar dialektikasi qator nizolar, konfliktlar kelib chiqarish uchun real imkoniyatlar yaratadi. Shunday ziddiyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- huquqiy ong holati va darajasining huquqiy munosabatlar realligiga, ularni ya'ni yuridik normalari bilan tartibga solishning obyektiv etiyojlariga mos kelmasligi;

- odat bilan qonun o`rtasidagi ziddiyat;

- eski qonunlar va amaliyot tomonidan bevosita shakllangan, (qonun chiqaruvchi faoliyatidan tashqarida) yangi umummajburiy qoidalar; - qonunlar majmuasi;

- pozitiv huquq bilan bir qatorda diniy xarakterdagi huquq-ning mavjudligi;

- Ushbu ziddiyatning oqibatida shunday holat vujudga keladiki, bunda har bir huquq subyekti ikki xil **huquqiy tartibotning qatnashchisiga aylanib qoladi:** - eski, biroq hali amaldagi; - eskining o`rniga kelayotgan yangi, biroq hali davlat tomonidan rasmiy-lashtirilmagan.

Bunday ziddiyatlarda odat va qonunning **konservativligi katta rol` o`ynaydi,** Ular ijtimoiy manfaatlarning amalga oshishiga yordam berishsa, bu holda regulyator rolini bajarishadi, va konfliktlar vujudga kelmaydi, odat o`z kuchini yo`qotayotganini sezganda odamlar yozma qonunga murojaat qilishadi.

Huquqiy ong ham muayyan darajada konservativlik holatiga ega, u mavjud huquqiy tartibga, ba'zan huquqiy aqidaga aylangan holda ancha tez moslashib oladi. Ayni paytda u muayyan **mustaqillika ega,** chunki

unga diniy qarashlar, axloqiy normalar, shuningdek, san'at ta'sir etishi mumkin. Huquqiy ong konservatizmning yana bir sababi - **u doimo o'rnatilgan huquqiy tartibot va siyosiy hokimiyat tizimiga nisbatan qo'riqllovchilik funksiyasini bajaradi va shu asnoda barqarorlik omili sifatida namoyon bo'ladi.**

Huquqiy ong bilan huquqiy borliq o'rtasidagi **ziddiyat**, huquqiy ong va huquqni yangilash uchun kurash qator vazifalarning bajarilishini taqozo etadi.

1) mavjud huquq normalarini o'zgartirish zarurati pishib - etilganligini obyektiv **mazmunini anglab etish;**

2) yangi huquqiy g'oyani shakllantirish;

3) mavjud huquqiy tartibning shakllangan yoki tarkib topayotgan ijtimoiy munasobatlarga **nomuvofiqligini asoslash.**

Huquq **tarixiy xarakterga** ega, bir tuzumdan ikkinchisiga o'tishda albatta konfliktli vaziyat vujudga keladi, ya'ni konstitutsiyaviy jarayon va yangi huquqiy munosabatlarni legitimlash masalasi kun tartibida turadi. Davlat va huquq paydo bo'lishi bilan **davlatning, hokimiyatning insonga, individga** munosabati masalasi shakllangan. Bu masala hali hal bo'lmagan va konfliktlar **maydoni** sifatida qolib ketmoqda. Qonun bilan aholining ommaviy xulq - atvori o'rtasidagi asriy konflikt, huquqqa ishonmaslik, huquqiy normalar bilan hokimiyat sarqitlari xulq harakatlarining **nomutanosibli**gi hamon mavjuddir.

Huquqiy nigilizm va unga bog'liq **konfliktlar o'tish davrida kuchayadi va ko'payadi.** Ma'rifiy - huquqiy xulq atvor va nohuquqiy xulq-atvor **o'rtasidagi qarama -qarshilikning** eng muhim sabablaridan biri - bu - **mavjud davlat tuzumi va mavjud huquqiy tartibning** legitimlik darajasi, holatidir. Ayniqsa, o'tish davrida **legitimasiya** muammosi o'tkir konflikt predmetiga aylanishi mumkin. Huquqiy - konflikt **doimo subyektning** konkret qilmishiga **baho berish bilan tavsiflanadi,** baholash esa shaklan subyektivdir. Qonunlar davlat tomonidan o'rnatilganligi bois muhim bo'lmay, balki **uni kim qanday** qo'llaydi. Bu holat ham juda ahamiyatlidir. Bu holat aynan konfliktli vaziyat bilan bog'liq.

Qonunga bo'ysunish: -xohlamay, biroq qo'rquv ostida, o'z ixtiyori bilan, tushungan holda amalga oshadi. Birinchisida - konflikt vujudga kelish xavfi saqlanadi.

4. Yuridik konfliktlarning turlari

Konfliktlarning turli tasniflari mavjud, avvalo ular **ikki guruhga** bo`linadi: 1) aynan huquqiy; 2) ifodalash shakli, tartibga solish usuli va hal etilish usuliga qarab bo`linadigan konfliktlar.

Birinchisi huquqiy ong va huquqiy munosabatlarga xos bo`lsa, ikkinchisi huquqning ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan o`zaro **harakati doirasida** vujudga keladi, (aralashgan); birinchisida **majburlov** qo`lanilmaydi.

Ikkinchisi amaliy - hayotiy masalalar yuzasidan vujudga keladi, mas. huquqiy - iqtisodiy munosabatlar.

Konfliktlarni yana: **konstruktiv - yaratuvchi konfliktlar; destruktiv - buzuvchi konfliktlar** guruhlariga ajratish mumkin¹.

Birinchisiga huquqiy tizimni amalga oshirishga doir konfliktlarni kiritish mumkin: qonunlar kolliziyasi, konstitutsiyaning legitimligi masalasi, hokimiyat tarmoqlari kolliziyasi va b.

Jinoyatchilikni – anomal, konfliktlar deb guruhlash mumkin. Qarama qarshi turuvchi subyektlar **sudga** murojat qilishadi. Sud - maxsus davlat instituti sifatida **konfliktni majburiy tarzda hal etadi**. Yuridik konfliktlarning soni ancha bo`lib, olimlarning hisoblashicha, **huquqda va yuridik amaliyotda 200 dan ortiq konfliktli zonalar mavjud**. Ular huquqiy ong va huquq qo`llash amaliyotining **jonli to`qimasi** hisoblanadi, va ular faqat huquqbo`zarlikdan iborat emas, ular ko`p qirrali bo`lib, ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimiga mansub va uni boshqarish texnologiyasini tashkil etadi.

5. Yuridik konfliktlarni hal etish muammolari

Har qanday ahamiyatga molik konflikt u yoki bu tarzda yuridik oqibat bilan tugashi mumkin. Har qanday yuridik konfliktda uchinchi taraf-sud ishtirok etib, nizoni hal etadi va tegishli qaror qabul qiladi². Bundan tashqari, nizolarni hal qiluvchi boshqa davlat organlari hamda turli tuzilmalar ham mavjud.

Konfliktni hal etish bir necha bosqichdan iborat bo`lishi mumkin:

- 1) konflikt ishtirokchisining birida yuridik mazmundagi motivning vujudga kelishi;
- 2) konflikt ishtirokchilari o`rtasidagi munosabatning institutlashuvi;

¹ Конфликтлар таснифи ҳақида батафсил қаранг: Дмитриев А.В. Конфликтология. -М.: Гардарики. 2000.; "Юридический конфликт: сферы и механизмы." -М.: 1994.. Юридические конфликты. -М.: 1995.; Д.К.Эргешева, М.К.Нажимов. Юридик конфликтология. Ўқув қўлланма. -Т.: 2005.

² Бу ҳақда батафсил қаранг: Д.К.Эргешева, М.К.Нажимов. Юридик конфликтология. Ўқув қўлланма.-Т.: ТДЮИ нашриёти. 2005.

3) ishning sudda ko`rilishi munosabati bilan huquqiy munosabatning keyingi rivojlanishi;

4) Konfliktni hal etuvchi huquqiy aktning qabul qilinishi.

Konfliktlarni sud orqali hal etishning ustunliklari sirasiga qo`yidagilarni kiritish mumkin:

- konfliktlarni ko`rib, hal etadigan sud organining boshqa hokimiyat tarmog`idan mustaqilligi, shu bois uning o`z mohiyati va ahamiyatiga ko`ra ishni adolatli va qonunlarga asoslangan holda ko`rishdan manfaatdorligi;

- sudda ishlarni ko`rishda ishning faktik holatini aniqlash bo`yicha qoida-taomillarning aniq ishlab chiqilganligi va mavjudligi;

- sud faoliyatning aniq normativ bazasi mavjudligi va uning qonunga va o`z ichki ishonchiga asoslanib ishlarni ko`rishi;

- konflikt yuzasidan qabul qilingan qarorning konfliktidagi taraflar hamda boshqa shaxslar uchun bajarishga majburiyligi¹.

Shunday qilib, bugungi kunda yuridik nizolarni hal etishning samarali tashkiliy shakli bo`lib odil sudlov hisoblanadi. O`zbekistonda bugungi kunda konstitutsiyaviy, jinoiy, ma`muriy, fuqarolik, xo`jalik ishlari bo`yicha sud ishlarini yuritish mavjud².

Ta`kidlash joizki, yuridik konfliktlarni hal etish usuli konflikt xarakteriga mos holda bir-biridan farqlanadi. Masalan, oilaviy, ayrim mehnat, fuqarolik-huquqiy nizolarda sud taraflarni yarashtirishni ham nazarda tutsa, jinoyat-huquqiy munosabatlarda esa aksari hollarda aybdorni jazolash va jinoyatni to`xtatish maqsadini ko`zlaydi. Shu o`rinda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, jumladan, uning muhim bir yo`nalishi bo`lgan jinoiy jazolarni liberallashtirish siyosati ayrim toifa jinoiy ishlarini hal etishda yarashuv institutini joriy etilganligini ta`kidlash o`rinli. Bu mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimi-ning insonparvarlashuvidan dalolatdir.

Bundan tashqari aholida sudlarga nisbatan nizolarni hal etuvchi va fuqaroning haq-huquqini himoya etuvchi organ sifatida qarashni kuchaytirish ham muhim. Darhaqiqat, sudning haqiqiy mustaqil bo`lishi jamiyatimiz hayotini yangi sifat jihatiga ko`tarishi tabiiydir, chunki yaqin o`tmishimizda mavjud bo`lgan bir holat, ya`ni aholining ongidagi sudga jazo beruvchi organ tarzida qarash, asta-sekin, o`z o`rnini insonlarning

¹ Дмитриев А.В. Конфликтология. М.: Гардарики.. 2000. С.265-266.

² «Судлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг қонуни (Янги таҳрири)» Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. 2001. 1-2-сон. 48-80 бетлар.

sudga haq-huquqni tiklaydigan va muhofaza etadigan organ sifatida qarashga bo'shatib berishiga erishish dolzarb masaladir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Konfliktlar tushunchasi
2. Ijtimoiy konfliktlar va ular to'g'risidagi qarashlarning shakllanish tarixi
3. Ijtimoiy konfliktlarning turlari
4. Yuridik konfliktlar tabiati va mohiyati
5. Yuridik konfliktlar turlari
6. Yuridik konfliktlarning oldini olish muammolari
7. Yuridik konfliktlarni hal etish masalalari
8. Yuridik konfliktlarni bartaraf etishda sudning o'рни

14-MAVZU: HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI:SHAKLLANISH TARIXI VA HOZIRGI ZAMON

REJA:

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, asosiy belgilari.
2. Huquqiy davlat g`oyasining shakllanishi.
3. Huquqiy davlat belgilari.
4. Hozirgi zamon davlatining ijtimoiy va huquqiy mohiyati.
5. O`zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllan-tirish va huquqiy davlat qurish masalalari

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон. 2008. 40 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ. 1998.
3. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон. 2002.. 76 б.
4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Халқ сўзи, 2005 йил 29 январ.
5. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Халқ сўзи. 2005 йил 17 феврал
6. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т.: Адолат 2001. 695 с.
7. Исламов З.М. Проблема власти:ее понимание, назначение, социальная ценность. -Т.: 2003.ТДЮ нашри. 245 б.
8. Исламов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. -Т.: Ўзбекистон. 2005. 264 б.
9. Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под ред. В. С.Нерсисянца. –М.: Изд. НОРМА, 2004.-832с.
10. Проблемы теории государства и права: Учебное пособие. / Под ред.М.Н.Марченко. – М.: Юрист, 2004. 656 с.
11. В.С. Нерсисянц. Юриспруденция. Введение в курс общей теории права и государства. -М.: НОРМА. 2000.-233 с.
12. Алексеев С.С. Право: азбука, теория философия. -М.: Статут. 1999.-810 с.

13. Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. -М.: Юрайт.1999. С. 240
14. Марченко М.Н. Теория государства и права. 2-изд. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004, -640 с.
15. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш: муаммолар ва ечимлар. -Т.: ТДЮИ. – 211 б.
16. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. -Т.: ТДЮИ, 2002. – 46 б.
17. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. -Т.: Шарқ, 2002. -318 б.
18. Чиркин В.Е. Государство социального капитализма. Государство и право. №5, с.54-60.
19. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. / Мас. мух. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. -Т.: Адолат, 2007, 916-б.

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi, asosiy belgilari

Ma'lumki huquqiy demokratik davlat barpo etish uchun fuqarolik jamiyati shakllangan bo'lishi kerak. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi ijtimoiy hodisalardir. Shu munosabat bilan, avvalo fuqarolik jamiyatining tushunchasi, uning ayrim xususiyatlari haqida biroz fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolik jamiyati tushunchasi tarixi qadimgi davrga borib taqaladi, deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki davlat paydo bo'lganidan beri fozil insonlar adolatli, insonning kamoliga sharoit tug'diradigan, insonning haq-huquqlariga katta e'tibor beradigan jamiyat qurish haqida orzu qilib kelganlar.

Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim fuqarolik jamiyati haqidagi ilk fikrlar shakllangan zamindir¹. XVI-XVII asrlarda fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlar, g'oyalar o'sha davrning buyuk allomalari, olimlari bo'lmish N. Makiavelli, G.Grotsiy, T.Gobbs, Dj. Lokk, Sh.Montesk'e, J.J.Russolar tomonidan rivojlantirilib, yan-gi mazmun kasb etgan. Fuqarolik jamiyati tushunchasi Gegelning mashhur "Huquq falsafasi" asarida batafsil ishlab chiqilgan. Gegelning aniqlashicha, davlat bu - umumiy manfaatlar sohasi, fuqarolik jamiyati esa xususiy manfaatlar sohasidir². Shuningdek, Gegel fuqarolik jamiyatining davlatga nisbatan

¹ Бу ҳақда қаранг: Теория государства и право. М.: - 2002.90 - 91 б.

² Бу ҳақда қаранг: Гегель Г.В. Философия права. М.: , 1990.

muayyan mustaqil-ligini ta'kidlagan. Ma'lumki fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy-ma'naviy asoslari g'arbiy Yevropada taxminan XV -XVI asrlarda, ya'ni kechki o'rta asrlar davrida shakllangan. Bunga zamin bo'lib, tabaqaviy feodal jamiyatiga qarshi kurash hisoblana-di, shuningdek, burjua inqiloblari ham bu masalaga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan.

Fuqarolik jamiyatining biron-bir davlatda shakllanganligi masalasida ilmiy adabiyotda unchalik aniqlik yo'q, olimlarning fik-richa, aslida, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyoti o'z ichiga bir necha asrlarni olgan va hozirgi kunda "mana shu davlatda komil fuqarolik jamiyati shakllangan" deb aytish ancha mushkul. Xuddi shuningdek, hozirgi kunda fuqarolik jamiyatiga aniq-tiniq, barcha e'tirof etadigan umumiy ta'rif berish ham mushkul, chunki bu hodisa, bir jihatdan juda murakkab, ikkinchi jihatdan esa, uning amaliyoti, hayotda ro'yobga chiqish jarayoni davom etayotibdi, demakki, bu ijtimoiy hodisaning yana yangi-yangi qirralari namoyon bo'laveradi. Professor X.Odilqorievning yozishicha, «Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonun-larga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlana-digan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik mahorati mexa-nizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'na-viy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat».¹

Rossiyalik huquqshunos professor V.D.Perevalovning ta'rifi-cha, «Fuqarolik jamiyati – bu konkret insonga o'z faoliyatini qarata-digan, huquqiy an'ana va qonunlarga, umuminsoniy ideallarga hur-mat muhitini yaratadigan, ijod va tadbirkorlik faoliyati erkinli-gini ta'minlaydigan, farovonlikka erishish hamda inson va fuqaro-larning huquqlarini amalga oshirish imkonini beradigan, davlat faoliyatini chegaralash va nazorat qilishning mexanizmini samarali ishlab chiqadigan erkin demokratik huquqiy davlatdir».²

Yuqoridagilarga asoslanib, fuqarolik jamiyatini quyidagicha tavsiflash mumkin: Fuqarolik jamiyati bu - erkin demokratik huqu-qiy davlatli jamiyat bo'lib, u insonning kamoli, uning huquq va erkinliklari amalga oshishi uchun real sharoitlar yaratiladigan, huquq va qonunlarga, insoniy fazilatlarga yuksak hurmat hissi shakllanadigan, xususiy tashabbus

¹ Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. -Т.: Шарқ, 2002. –172 бет.

² Перевалов В.Д. Гражданское общество и правовое государство. // Теория государство и право. -М.: Норма. 2002. 95 бет.

va shaxsning boshqa ijodiy jihat-larining yuzaga chiqishining to'la imkoniyati vujudga keltiriladi-gan, fuqarolarning munosib va farovon hayot kechirishi ta'minlana-digan, jamiyatning davlat faoliyati ustidan oqilona nazorati o'rna-tiladigan, davlatning jamiyat va xususiy shaxs hayotiga ortiqcha ara-lashuvi istisno etiladigan jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy zamin yaratilgan hamda axborot tizimla-rining muayyan darajasi shakllangan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy sohada kishilarning turli birlik va birlashmalari va ular o'rtasidagi munosabatlar majmui muhim o'rin tutadi. Bunda oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy sohada iqtisodiy institutlar va munosabatlar majmui muhim ahamiyat kasb etadi, bu munosabatlarga individlar mulkka egalik qilish, ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish yuzasidan kirishadilar.

Siyosiy tizim o'z ichiga davlatni, siyosiy partiyalarni, ijti-moiy-siyosiy harakatlarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni oladi.

Ma'naviy-madaniy tizim insonlar o'rtasida ma'naviy va madaniy boyliklar va ularga doir tuzilmalar masalasi yuzasidan vujudga keladigan munosabatlarni oladi. Bunda ta'lim birlamchi o'rinni egallaydi.

Axborot tizimi esa ommaviy axborot vositalari va ularga doir odamlar va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan munosa-batlarni oladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili fuqarolik jamiyatining xarakterli belgilarini ajratish imkonini beradi, jumladan: - fuqarolik jamiyati bu – jamiyatning erkin a'zolari hamjamiyati, uyushmasidir, ochiq ijtimoiy tuzilmadir, murakkab tuzilmasi plyu-ralistik tizimdir, o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini-o'zi bosh-qaradigan tizim, huquqiy demokratik jamiyatdir.

Ba'zi olimlar (mas. Odilqoriev X.) fuqarolik jamiyati belgi-larini quyidagicha ko'rsatadi: ko'ppartiyaviylik, siyosiy hayotning va siyosiy institutlarning, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi, o'zini-o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi, jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari ahamiyatining kattaligi. Fuqarolik jamiyatining ichki tizimini tashkil etadi: -iqtisodiy sohada: Fuqarolik jamiyatida davlat imkon qadar jamiyatning ja-miyat a'zolarining hayotiga kamroq aralashadi, jamiyatning o'zini-o'zi boshqarish asoslari kengayishiga va chuqurlashuviga har tomonlama sharoit tug'diradi.

Jamiyatda ko'ppartiyaviylik, ko'p fikrlilik, ko'p e'tiqodlilik, turlicha qarashlar mavjud bo'lishi uchun sharoit yaratiladi, ommaviy axborot vositalari oshkoralikni ta'minlash orqali jamiyat hayotida mutloq yuqori

o`rinni egallay boshlashadi va shu tariqa katta ijti-moiy kuchga aylanadi. Jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilot-lar, turli xil fuqarolarning uyushmalari, ittifoqlari, tashkilot-lari roli yuksalib, ular faoliyati orqali fuqarolar o`zlarining tur-li xil intilish va qobiliyatlarini namoyon etadilar.

Fuqarolik jamiyati shaxsning kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratadigan jamiyat, Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, “Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo`lib, u insonning o`z-o`zini kamol toptirishga monelik qil-maydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to`la darajada ro`yobga chiqishiga ko`maklashadi¹.

Bu esa o`z navbatida, fuqarolarda yuksak ong, fuqarolik burchini chuqur anglash, ijtimoiy va siyosiy faollik, huquqiy xulq bo`lishini taqozo va talab etadi. Ma`lumki, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tizimida iqtisodiy erkinlik, mulkning turli shakllarining mav-judligi va ularning davlat tomonidan birdek himoyalani-shi, rivoj-lang-an bozor munosabatlari shakllangan bo`lishi kerak. Fuqarolik jamiyati asosini xususiy mulk tashkil etib, u fuqarolik jamiyati a`zolariga erkinlik va insoniy qadr-qimmatini saqlash, iqtisodiy jihatdan davlatga “boqimanda” bo`lib qolmaslikka imkon beradi. Xususiy mulk, xususiy tashabbus, xususiy tadbirkorlik asosida har bir shaxs o`zining iqtisodiy mustaqilligini ta`minlashi, mustahkamlashining real imkoniyati vujudga keltiriladi.

Biroq, erkinlik bor joyda, albatta majburiyat ham bo`ladi, fuqarolar qonunga muvofiq tartibda va shaklda tadbirkorlik bilan shug`ullanmog`i, belgilangan soliq va to`lovlarni to`lashlari lozim.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ya`ni prokuratura, sud, militsiya, soliq va bojxona organlari nafaqat huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi organlar bo`lmay, balki fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini, manfaatlarini muhofaza etuvchi kuchli tuzilmaga aylanishi lozim bo`ladi. Ayniqsa, sudning fuqarolar huquqini himoya etishdagi roli butunlay yuqori bo`lishi kerak. Ma`lumki, huquqiy davlat fuqarolik jamiyati shakllangan zaminda bar-po etiladi, shu bois ham huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo`y-gan har bir xalq, davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ustuvor vazifa deb biladi. Fuqarolik jamiyati mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun, uning davlat bilan o`zaro munosabatini aniqlash joiz. Masalan, har qanday davlat o`zaro bo`ysunish va davlat intizomi orqali bir-biri bilan bog`langan davlat organlari va

¹ Каримов А. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997. 173 б.

mansabdor shaxslarning bir markazdan boshqariladigan pog'onaviy, vertikal tizimidan iboratdir.

Davlatdan farq qilgan holda, fuqarolik jamiyati fuqarolar-ning va ularning turli uyushmalari, tuzilmalari o'rtasidagi turli xil aloqadorlik, bog'liqlik munosabatlari tizimini o'z ichiga oladi, bu munosabatlar o'zaro tenglikka, shaxsiy tashabbusga asoslangan. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar qonunda man etilgan faoliyat tur-laridan boshqa har qanday faoliyat bilan shug'ullanishga haqli, ya'ni ular uchun, "qonunda man etilmagan har qanday harakatni sodir etish mumkin" degan tamoyil amal qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun esa "faqat qonunda ruxsat etilgan harakatlarnigina sodir etish mumkin" degan tamoyil amal qiladi, ya'ni ular o'zlar-ning kompetensiyasiga kiradigan faoliyatnigina amalga oshira oladilar. Fuqarolar o'zlariga berilgan huquqlardan to'la foydalanish-lari mumkin, biroq, o'z xohishiga ko'ra ayrimlardan foydalanmas-liklari ham mumkin, masalan, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, say-lovda ishtirok etish kabi huquqlardan foydalanmasligi ham mumkin. Fuqarolardan farq qilgan holda, davlat organlari va mansab-dor shaxslar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun ularga berilgan vakolatdan foydalanishlari shart.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar o'rtasidagi munosabat vertikal, bo'ysunish munosabatlaridir, ya'ni bu munosabatlarning ishtirokchilari teng emas, har bir bo'g'in davlat organi o'zidan yuqori turuvchi organga tashkiliy-huquqiy bo'ysunish munosabatida bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar va ularning turli tashkilot-lari, uyushmalari, birlashmalari o'rtasidagi munosabat gorizontaal xarakterga ega bo'lib, tenglik, itiyoriylik asosiga quriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, fuqarolik jamiyatini shakllantirish ancha uzoq davom etadigan, murakkab jarayon bo'lib, u iqtisod, siyosat, ij-timoiy va ma'naviy sohalarida yuksak rivojlanish ko'rsatkichlari-ning va jamiyatning yuqori madaniyati mavjudligini taqozo etadi.

2. Huquqiy davlat g'oyasining shakllanishi

Shu o'rinda bir holatni, ya'ni huquqiy davlat g'oyasining shakllanishida, uning nazariy-falsafiy asoslarining ishlab chiqilishi-da nemis falsafiy - siyosiy, davlat - huquqiy fikrining o'rni o'zga-cha. Kant va Gegel'qarashlarining ta'siri ostida nemis zaminida keyinchalik huquqiy davlat g'oyasini uzil-kesil ishlab chiqishga o'z e'tiborlarini qaratgan olimlarning yangi bir avlodi shakllangan: Robert Fon Mol` (1799-1875),

Karl Teodor Vel`ker (1790-1869), Otto Bauer (1817-1895), Fridrix Yulius Shtal` (1802-1861), Rudol`f Fon Gneyst (1816 -1895) va b.¹

Keyinchalik Rossiyada ham huquqiy davlat g`oyasini shakllanti-rish borasida faoliyat yurgizgan qator olimlar guruhi tarkib top-gan, ularni umumlashtirib “rextshtatist”lar deb ham atashgan. Bu-ning boisi, Germaniyada birinchi bor “huquqiy davlat” atamasi shakllangan. Bu ibora dastlab 1813 yilda Karl Vel`ker va 1824 yil-da esa I.X.Frayxer Fon Aretinning ishlarida uchragan bo`lsa, 1832 yilda nemis olimi Robert Fon Mol` tomonidan birinchi bor bu atama tahlil etilib, ilmiy muomalaga ham bir yo`la kiritilgan. Bu atama -“Rechtstaat”- “huquqiy davlat” Rossiyada XIX asrda keng tar-qalgan, chunki Rossiya nemis universitetlari bilan samarali ilmiy aloqa olib borgan, shu bois bo`lsa kerak, bu atama hatto tarjimasiz rus ilmiy adabiyotida qo`llangan.

Rossiyada huquqiy davlat g`oyasining izdoshlari qatorida B.N. Chicherin, P.I.Novgorodsev, M.M.Kovalevskiy, N.M.Korkunov, B.A.Kistyakovskiy va boshqa bo`lgan. Bu atama Yevropaning boshqa davlatlariga asta-sekin tarqalgan, xususan, Angliyada “huquqiy dav-lat” atamasi ingliz tili xususiyatlari bilan bog`liq holda aynan bo`lmasada, unga mazmunan mos keluvchi ekvivalent atama “Rule of Law” ishlatilgan. Bu iboraning ma`nosi “huquq boshqaruvi”, “huquq hukmronligi” ma`nolariga yaqin. Bu iboraning shu ma`noda qo`llani-lishini boshlab bergan shaxs, Al`ber Venn Daysi hisoblanadi. U Oksford Universitetining professori bo`lgan va o`zining 1855 yilda chiqqan “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” nomli asarida bu atamani birinchi bor ilmiy muomalaga kiritgan².

Ta`kidlash kerakki, hozirgi kunda jahondagi qator davlatlar Konstitutsiyalarida bevosita yoki bilvosita ushbu davlatlar huquqiy davlat ekanligi mustahkamlangan, masalan, 1949 yilgi GFR Kons-titutsiyasida (Asosiy qonunida) bu davlatning ijtimoiy-huquqiy davlat ekanligi mustahkamlangan, xuddi shunday holatni 1978 yilgi Ispaniya Konstitutsiyasida ko`rish mumkin, 1993 yilgi Rossiya Fede-rasiyasi Konstitutsiyasi ham bunday qoidani o`zida ifodalagan. Bun-dan tashqari AQSh, Fransiya, Angliya, Avstriya, Gresiya, Bolgariya, Turkiya va boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida ham bu qoida mavjud. Huquqiy davlat to`g`risida ko`plab tadqiqotlarning mavjud-ligiga qaramay, hozirgi kunda ilmiy adabiyotda huquqiy davlatning ta`rifi, tushunchasi, uning belgilari, prinsiplari, fuqarolik jamiyati bilan munosabati masalalarida umumiylik

¹ Каранг: Ўша асар. 286 б.

² Бу ҳафда қаранг: Перевалов В.Д. Гражданское общество и правовое государство.//Теория государства и права. М., 2 наshr. 2002. 101-102 б.б.; Протасов В.Н. Уша асар. 286 б.

hamon qaror topmagan. Shu munosabat bilan huquqiy davlatga berilgan tariflar-ni qiyosiy nuqtai - nazardan qarab chiqish muayyan qiziqish uyg`otishi tabiiydir.

Taniqli huquqshunos olim V.V. Lazarevning ta`rificha, huqu-qiy davlat - bu nafaqat insoniylik va adolatni qaror toptirishga qaratilgan ijtimoiy qadriyatlardan biri bo`libgina qolmay, balki shaxsning erkinligini, uning qadr va qimmatini ta`minlash va himoya qilishning amaliy instituti, byurokratiya, mahalliychilik va idorachilik bilan kurashishning vositasi hamda xalq hokimiyatchi-ligining amal qilish shakli hamdir<sup>1</sup>. Bu tarifda huquqiy davlat g`oyasi sotsial qadriyat sifatidagina namoyon bo`lmay, balki jamiyat hayotini oqilona tashkil etishning amaliy, real shakli tarzida qaror topishiga bo`lgan ishonch ko`rinib turibdi, albatta.

Professor A.V.Mal`koning ta`rificha, huquqiy davlat - bu shunday davlatki, unda inson va fuqaroning huquq va erkinlik-larini eng to`la ta`minlash, hamda hokimiyat suiiste`molliklariga yo`l qo`ymaslik maqsadida siyosiy hokimiyatni huquq bilan asta-sekin bog`lash uchun sharoit yaratilgan bo`ladi<sup>2</sup>. Bu ta`rifda huquqiy dav-latda hokimiyatlar bo`linishi prinsipi davlat organlari tomonidan vakolatlarni suiiste`mol qilishning oldi olinishi, huquqiy dav-latni tashkil etish prinsiplarining aniq amalga oshishi inson huquq va erkinliklarining to`la ruyobga chiqishiga imkon yaratishi ta`kidlanadi.

Taniqli huquqshunos, davlat va huquqga liberal yondoshuv vaki-li V.S.Nersesyansning talqinida, huquqiy davlat bu - ommaviy-siyosi hokimiyatni tashkil etilish va bu hokimiyat faoliyatining, hamda inson va fuqaro huquq va erkinliklarining soxiblari bo`lgan huquq subyektlari sifatidagi individlar bilan o`zaro munosabatining huquqiy shakli tarzida ta`riflanadi<sup>3</sup>. Bu ta`rifda huquqiy davlat-ning jamiyat hayotini tashkil etishning huquqiy shakli ekanligi, va u ham davlatning tashkil etilishiga, ham uning faoliyatiga, hamda bu davlatning individlar bilan bo`lgan munosabatiga birdek taaluqli ekanligi ta`kidlanadi.

Professor Z.M.Islomov huquqiy davlatni ommaviy-siyosiy hokimiyatni tashkil etish va uning faoliyatining, hamda inson va fuqaro huquq va erkinliklari egasi, huquq subyektlari sifatidagi indi-vidlar bilan o`zaro munosabatining huquqiy shakli sifatida ta`riflaydi⁴. Yuqoridagi ta`riflardagi turlichalikka qaramay, ularda muayyan umumiylikni

¹ Қаранг: Общая теория права и государства. М., "Юрист".1994. 293 б.

² Қаранг: Теория государства и права. М., "Юрист" 1997. 189 б.

³ Проблемы общей теории права и государства. -М.: Норма. 1999. 677 б.

⁴ Исламов З. Общество. Государство. Право. -Т.: 2001.119 б.

ta'kidlash o'rinli. Shunday qilib, huquqiy davlat bu shunday davlatki, unda insonning huquq va erkinliklari to'la ta'minlanadi, davlat faoliyati hokimiyatlar bo'linishiga asoslanib, hokimiyat suiiste'molli holatlari istisno etiladi, davlat va shaxs o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarga asoslangan munosabat tizimi hamda huquq hukmronligi tarkib topadi.

3. Huquqiy davlat belgilari

Aytish joizki, huquqiy davlat nazariyasi va uning xarakterli jihatlari to'g'risidagi fikrlar har bir davr nuqtai-nazaridan, uning reallik va murakkabliklaridan kelib chiqilgan holda yangi yondoshuvlar asosida talqin etiladi. Bu jarayon, bir jihatdan tabiiy hamdir, chunki har bir nazariya o'z taraqqiyotining har bir yangi bosqichida bir imtihondan, hayot maktabidan o'tadi.

Huquqiy davlatning mohiyatini yanada to'liq anglab etish uchun uning belgilari va prinsiplariga hamda xususiyatlariga kengroq to'xtalish zarur. Huquqiy davlatga yuqorida berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, unga har tomonlama, keng qamrovli ta'rif berish qiyin vazifa. Bu holat, bizningcha ta'rif ob'ektining juda murakkab ijtimoiy - siyosiy hodisa ekanligi bilan ham tavsiflansa kerak. Huquqiy davlatning bevosita belgilari masalasi tahliliga o'tishdan oldin, umuman huquqiy davlatni shakllantirish qator masalalarning hal etilishiga bog'liq va bu masalalar jumlasiga, eng avvalo inson va fuqaro huquqlarini maksimal darajada ta'minlash, davlat va fuqaroning o'zaro, bir-biri oldida mas'ulligi jamiyat hayotida huquq hukmronligi va qonun ustuvorligi asosida qonunning nufuzini yuksak ko'tarish, qonunga barcha huquq subyektlarining to'la va og'ishmay amal qilishiga erishish kabilar kiradi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy davlat mazmun va mohiyatiga ko'ra totalitar va avtoritar davlatlarning aksi, ularning qarama-qarshi-si hisoblanadi. Bundan xulosa shuki, huquqiy davlatni qurish, eng avvalo chinakam demokratiyani shakllantirish va uni yuqori darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Davlatning qurilishi va tuzilishi faqat huquqiy asoslarga tayanishi, davlatda haqiqiy qonunchilik rejimi va chinakam huquqiy tartibot amal qilishi kerak.

Huquqiy davlat belgilari to'g'risida gap ketar ekan, shu joyda bu belgilarning amal qilishida xalq suvereniteti g'oyasining qaror topishini ko'rish mumkin bo'ladi. Xalq suvereniteti bu xalqning davlat hokimiyatining yagona manbasi ekanligi bilan tavsiflanadi.

Davlat suvereniteti esa davlat hokimiyatining mustaqilligi-ni, ustuvorligini, umumiy va keng qamrovliligini anglatadi. Shu munosabat bilan, huquqiy davlatni qurishda davlat suvereniteti bilan huquq hukmronligini birga, uyg'unlashgan holda mustahkamlash muhimdir. Davlat suvereniteti, bevosita davlat hokimiyatining oliyligini huquqiy tashkil etish, davlat organlari tizimining ishi va huquqiy maqomini aniqlash, siyosiy tizimning barcha bo'g'inlari va fuqarolar huquqiy holatini aniqlashni talab etadi.

Huquqiy davlatning yuqorida ko'rsatilgan eng muqim, barcha tomonidan e'tirof etilgan belgilaridan tashqari yana qator belgilar-ni ham ko'rsatishadi. Ular qatoridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) davlat hokimiyatining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yuzasidan vakolatlarining faqat davlat organlari tizimida to'planganligi;

2) "hokimiyatlar bo'linishi", ya'ni bir tizim davlat organlari tomonidan boshqasining funksiyasi egallanishiga yo'l qo'yilmasligi;

3) rivojlangan fuqarolik jamiyati shakllanganligi;

4) davlat hokimiyatining bir institut yoki bir bo'g'in organda jamlanib qolishining oldini oladigan mexanizmning tashkil etilishi;

5) konstitutsiyaviy qonunning ustunligi va bevosita harakat qilishi;

6) davlat hokimiyatining suverenligining ham qonunda, ham amalda o'rnatish;

7) saylov huquqi normalari asosida jamiyatning qonun chiqaruvchi organlarini shakllantirilishi va qonunlarda qonun chiqaruv-chilik irodaning shakllanishi va ifodalanishi ustidan nazorat o'rnatish;

8) ichki milliy qonunchilikning xalqaro huquq normalariga va prinsiplariga mos kelishi;

9) barchaning har qanday o'zboshimcha qarorlardan himoyalanganligi;

10) huquqiy davlatchilikni ta'minlashning namunasi, modeli va vositasi sifatidagi sudning nufuzining o'sganligi;

11) qonunlarning huquqqa mos kelishi va davlat hokimiyatining huquqiy tashkil etilganligi;

12) fuqarolarning huquq va majburiyatlari birligi;

13) davlat va shaxsning o'zaro bir - biriga mas'ulligi.¹

Huquqiy davlatning belgilari masalasida turli fikrlar mavjudligini, biz yuqorida ko'rsatib o'tgan edik. Shu munosabat bilan. V.N. Protasov tomonidan ko'rsatilgan huquqiy davlat belgilari ham e'tiborga molikdir. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, bu ikki tasnif bir-biriga zid bo'lmay, balki

¹ Каранг: Общая теория права и государства. М., Юрист. 1994. 295 б.

bir-birini to'ldiradi, huquqiy davlat belgilarini o'ziga xos tarzda guruhlaydi, xolos. V.N.Protasov huqu-qiy davlatning quyidagi belgilarini ajratadi:

- davlat hokimiyatini inson va fuqarolarning huquq va erkin-liklari bilan cheklash (hokimiyat fuqarolarning ajralmas huquqlarini tan oladi);
- ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquq (huquqiy qonun) ustuvorligi;
- hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipining konstitutsiyaviy - huquqiy tartibga solinishi;
- rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
- davlat va fuqaro o'zaro munosabatining (o'zaro huquq va majburiyatlar, o'zaro mas'uliyat) huquqiy shakli mavjudligi;
- huquq tizimida qonunning ustuvorligi;
- ichki qonunchilik normalarining xalqaro huquqning umum-e'tirof etilgan norma va prinsiplariga muvofiqligi;
- Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri harakat qilishi;
- sudning yuqori nufuzga egaligi¹.

Huquqiy davlatning belgilari haqida gap ketganda, davlat tomonidan aholining munosib hayot darajasini ta'minlash majburiyati haqida ham gapirish zarur, chunki busiz shaxsning to'la qonli yashashi va ishlashi, ma'naviyati mustahkamlanishi mushkul. Ehtimol, yuqoridagi mualliflar bu jihatni, huquqiy davlatning belgisi sifatida keltirilgan rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi tushunchasi ichida nazarda tutgan bo'lishlari mumkin, chunki rivojlangan fuqarolik jamiyati, albatta, yuqori iqtisodiy poten-sialni, rivojlanish darajasini nazarda tutadi.

Huquqiy davlatning belgilari bilan uning prinsiplari² o'rta-sida bog'liqlik mavjud desak, biz mutlaqo mubolag'a qilgan bo'lmay-miz. Chunki, huquqiy davlatning prinsiplari, uning belgilari kabi mohiyatga daxldor tushunchalardir. Huquqiy davlatning prinsiplari haqida gapirishdan oldin umuman prinsiplar atamasi har qanday faoliyat asoslanadigan, yoki shu faoliyat zahirida yotadigan umumiy qoidalar, g'oyalar tushunilishini ta'kidlash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy davlatning prinsiplari uning faoliyatining bosh qoidalari deb ko'rsatish mumkin.

Huquqiy davlatning prinsiplari - bu huquqiy davlat deb nomlana oladigan davlatning ideal konstruksiyasi (modeli)ni belgilab beruvchi bosh,

¹ Протасов В.Н. Теория права и государства. Проблемы теории права и государства. -М.: "Юрайт". 2001. 287 б.

² Қаранг: Проблемы общей теории права и государства. -М.: Норма. 1999. 104 б.

asosiy g'oyalar, talablar majmuidir. Huquqiy davlat faoliyatining asosini tashkil etadigan bu bosh g'oyalarning shakllanishiga qator omillar ta'sir etadi, albatta, ular quyidagilardir:

- jamiyatning intellektual darajasini ko'rsatadigan madaniyat, fan, ta'lim kabi sohalarining rivojlanish darajasi;
- mavjud davlat tuzumining adolatli, demakki huquqiy deb e'tirof etishida namoyon bo'ladigan, jamiyatning axloqiy-ruhiy darajasi;
- davlat organlari faoliyatida huquqiy asoslarni qaror toptirishning barqaror mexanizmining bor yo yo'qligi;
- har bir inson tomonidan o'zining erkinligi sifatidagi huquqni o'zlashtirishi, va bu huquqni kerakli holatlarda, kerakli xajmda chegaralashi¹.

Ma'lumki har qanday jamiyatda huquq davlat bilan fuqaro o'rtasida bog'lovchilik rolini o'tab kelgan. Shunga muvofiq holda, mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki xil boshqarish tarkib topgan. Bu haqda qadimgi mutafakkirlar ham keng gapirib o'tishgan. Hukmdorning manfaatiga xizmat qiluvchi jamiyatda fuqarolarga nima qilish mumkin yoki mumkin emasligi qonunda aniq, mufassal belgilab qo'yiladi va "faqat qonunda ruxsat berilgan harakatlarnigina sodir etish mumkin" degan prinsip amal qiladi.

4. Hozirgi zamon davlatining ijtimoiy - huquqiy mohiyati

Huquqiy davlat tushunchasi haqida gapirganda bugungi kunda ijtimoiy davlat to'g'risida ham gapirish darkor. Umuman sotsial davlatchilik g'oyasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan. Bu tushuncha liberal huquqiy davlatda ham bo'lmagan yangi jihatlarning mavjudligini anglatadi. «Sotsial» (ijtimoiy) – so'zi lo-tinchada umumiy, ijtimoiy, ya'ni jamiyatdagi odamlar hayotiga te-gishli degan ma'noni anglatadi. Shu ma'noda barcha davlatlarni ijtimoiy davlat deyish mumkin, biroq «ijtimoiy davlat» deganda biz alohida sifat va vazifalarga ega bo'lgan davlatni tushunamiz.

Ijtimoiy davlat tushunchasi huquqiy davlat g'oyasidan keyinrok shakllandi. Ijtimoiy davlat g'oyasining shakllanishiga turtki bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlar xizmat qil-di, ya'ni o'sha davrdagi burjua jamiyatida uning ikki prinsipi:

1. Erkinlik prinsipi.

¹ Ўша жойда.

2.Tenglik prinsipi, aniqrog'i bu ikki prinsip o'rtasidagi muayyan ziddiyatni yo'qotish zarurligi xizmat qilgan.

I. Individual erkinlik tarafdorlari:

- Adam Smit, - Mill` (Djon Styuart), - Benjamen Konstan, - Djon Lokklar davlatdan individual erkinlikni himoya qilishni, hatto davlat aralashuvidan himoya qilishni talab qilish zarurligini yoqlab chiqishdi, biroq ular bunday erkinlik oqibat natijada notenglikka olib kelishini yaxshi tushunishlari bilan birga, baribir erkinlikni ular oliy qadriyat deb hisoblaganlar.

II.Tenglik prinsipi tarafdori bo'lib J.-J.Russo hisoblanadi, garchi u individual erkinlikni ahamiyatini inkor etmasada, biroq hamma narsa tenglik prinsipiga bo'ysunishi kerak deb hisoblangan. Individual erkinlik natijasida XIX-asrning oxiriga ke-lib, jamiyatning mulkiy tabaqalanish chuqurlashib, ijtimoiy portlash xavfi, ziddiyatlar tarangligi holatini (ahvolini) keltirib chi-qardi va erkinlik prinsipi o'z ahamiyatini yo'qota boshladi va ijti-moiy tenglik prinsipi ahamiyat kasb eta bordi – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga aralashuvi talab etila boshlandi.

Xuddi mana shu sharoitlarda ijtimoiy davlat g'oyasi shakllana bordi, uning alohida o'ziga xos xususiyatlari anglana bordi.

Ijtimoiy davlat g'oyasi keyinchalik ko'pchilik tomonidan tan olina bordi va hozirgi zamon davlatlari Konstitutsiyalarida o'zining ifodasini topdi.

Birinchi bor 1949 yilda GFR Konstitutsiyasida nemis davlati ijtimoiy deb ataldi. Hozirda u yoki bu tarzda ijtimoiylik prinsipi ko'p davlatlar Konstitutsiyalarida mustahkamlangan:

Fransiya

Gresiya

Italiya

Niderlandiya

Portugaliya

Daniya

Tursiya

Shvesiya

Ispaniya

Yaponiya

Xaqiqiy ijtimoiy davlat demokratiya sharoitida, fuqarolik jamiyatidagina mavjud bo'la oladi va u albatta huquqiy bo'lishi kerak. Hozirgi kunda huquqiy davlat albatta ijtimoiy davlat bo'lishi, ijtimoiy davlat esa huquqiy bo'lmasligi mumkin emas.

Umuman davlatning sotsial siyosati ildizlari qadimga borib taqaladi. Qadimgi Rim hukmdorlari oddiy xalqqa «non va tomosha» berish zarurligi to'g'risida qayg'urganlar. Biroq, xaqiqiy sotsial davlatning vujudga kelishi XX-asrning 60-yillari hisoblanadi. Har bir davlat har bir o'z fuqarosiga hech bo'lmaganda yashash mini-mumini ta'minlashi kerak, keyin munosib

hayot tarzini ta'minlashi lozim. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida (26-modda) har bir shaxs o'zining va oilasining farovonligini ta'minlovchi hayot darajasiga ega bo'lishiga hakli ekanligi mustahkamlangan.

Ijtimoiy davlatning shakllanishi – nafaqat iqtisodiy, siyosiy jarayon, balki axloqiy jarayon hamdir.

Ijtimoiy davlatning belgilari:

1. Davlat hokimiyatining demokratik tashkil etilishi;
2. Fuqarolarning, ayniqsa mansabdor shaxslarning yuksak axloqiy darajasi;
3. Qudratli iqtisodiy potensialning mavjudligi – mulkdorlarning ahvolini jiddiy o'zgartirmasdan daromadlarini qayta taqsimlash;
4. Iqtisodning ijtimoiy yo'naltirilgan strukturasi shakllanganligi;
5. Davlatning huquqiy rivojlanganligi;
6. Fuqarolik jamiyatining shakllanganligi;
7. Davlatning ochiq, aniq ijtimoiy yo'naltirilgan siyosati;
8. Davlatning umumfarovonlik o'rnatish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish kabi maqsadlari qo'yilishi. Bunda har bir fuqaroga:
 - A) munosib yashash sharoitini yaratish;
 - B) ijtimoiy himoya
 - V) rivojlanish uchun teng boshlang'ich imkoniyatlar – ta'minlanishi kerak.
9. Rivojlangan ijtimoiy qonunchilikning mavjudligi;
10. Mamlakat Konstitutsiyasida «ijtimoiy davlat» formulasining mustahkamlanishi.

Ijtimoiy davlat funksiyalari haqida gap ketganda unga barcha an'anaviy davlat funksiyalari xosligini ta'kidlash lozim. Ijtimoiy davlatning barcha funksiyalari ijtimoiy ahamiyat, mazmun kasb etadi, ya'ni umum ijtimoiy funksiyasi mavjud deyish ham mumkin.

Ayni paytda uning maxsus, o'ziga xos funksiyalari ham mavjud: - ijtimoiy himoyalangan aholi qatlamlarini qo'llash; - odamlar mehnati va sog'lig'ini muhofaza etish; - oila, onalik, bolalik, otalikni muhofaza etish; - ijtimoiy notenglikni daromadlarni qayta taqsimlash bilan (soliq solish, davlat byudjetining maxsus dasturlar orqali) kamaytirish; - xayriya faoliyatini rag'batlantirish; - funda-mental ilmiy tadqiqot ishlarini, madaniy dasturlarni moliyalash-tirish; - ishsizlikka qarshi kurash, mehnat ta'minoti, ishsizlik nafaqasini to'lash; - erkin bozor iqtisodi bilan davlatning iqtisodiyotga ta'siri doirasi o'rtasidagi muvozanatni izlash; -

xalqaro sotsial xarakterdagi dasturlarda qatnashish; - jamiyatda tinchlikni saqlash haqida gʻamgʻorlik.

MDH davlatlarida ijtimoiy davlatni shakllantirish borasida ayrim qiyinchiliklar mavjud va ular oʻtish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun xosdir.

Bu davlatlarni sotsial davlatga oʻtish davrini boshidan kechi-rayotgan davlatlar deb koʻrsatish mumkin. Ularning xususiyatlari:

- agar Gʻarb davlatlari avval huquqiy davlatni shakllantirib, keyin uning yangi bosqichi sifatida sotsial davlatga aylanayotgan boʻlsa, MDH davlatlari avvalo huquqiy davlatga aylanib olishlari va shu asosda ijtimoiylik kasb etishlari kerak boʻladi;

- oʻrta hol mulkdorlar sinfini shakllantirish kerak;

- kuchli iqtisodiy potensial shakllanishi va shu asosda mulk-dorlar manfaatiga jiddiy zarar yetkazmay daromadlarni qayta taq-simlash mumkin boʻlishi kerak;

- ishlab chiqarish va mahsulot sotishda monopoliyalar tugati-lishi kerak;

- rivojlangan, yetuk fuqarolik jamiyati hali toʻla shakllan-magan;

- maʼnaviyat, jamiyatning axloqiy darajasi kuchayishi kerak;

- siyosiy partiyalar real siyosiy kuchga aylanishi lozim;

- jamiyatning siyosiy, huquqiy onggi yuksalishi lozim.

Ijtimoiy davlatlar – barcha davlatlar qatori, Oʻzbekiston uchun ham erkin jamiyat kurishning yagona yoʻlidir.

5. Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurish masalalari

Hozirgi kunda Oʻzbekiston jamiyati huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida kelajak sari intilmoqda. Xalqimizning bu ezgu intilishi Oʻzbekistonning Asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda oʻzining ifodasini topgan. Davlatimiz rahbari I.Karimov aytganlaridek, xalqimiz tariximizning tub burilish nuqtasida, gʻoyat xatarli va murakkab kunlarda haqiqatan ham yakkayu yagona toʻgʻri yoʻlni - ochiq demokratik va huquqiy davlat qurish yoʻlini tanladi¹. Huquqiy davlat qurish murakkab, keng qamrovli va koʻp qirrali jarayon ekanligini rivojlangan davlatlar va yangi qaror topgan davlatlarning eng yangi tarixi koʻrsatib turibdi. Bu jarayon Oʻzbekistonliklar uchun ham

¹ Бу ҳақида Қаранг: Каримов И. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.Т.: “Ўзбекистон”.2002. -6 б.

oson kechmasligi, qator qiyinchiliklar va to'siqlarni yyengib o'tishga to'g'ri kelishi, shubhasizdir.

Istiqlolning ilk kunlaridanoq eski, qotib qolgan mafkuraviy aqidalardan voz kyechishga, ma'naviy yangilanishga, odamlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasi tamoyillarini singdirishga qaratilgan aniq siyosat olib borildi. Biroq, shunga qaramasdan, yurtimizdagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonining ko'lami kengayib, samaradorligi oshib borgani sari jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va yanada demokratlashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat tuzimini demokratlashtirish, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizda kechayotgan yaratuvchilik jarayonlarini, xususan, huquqiy davlat barpo etish borasidagi sa'y harakatlarimizning mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun, biz, avvalo huquqiy davlat barpo etishdagi vazifalar haqida fikr yuritishimiz mantiqan zarurdir. Huquqiy davlat, ya'ni faoliyati huquqga asoslangan davlat haqida insonlar qadimdanoq orzu qilib kelishgan, jamiyatda huquq, qonun hukmron va ustuvor bo'lishi zarurligini anglab etishgan, aks holda jamiyatda hokimiyatni suiiste'mol qilish, insonlarning haq-huquqlari poymol etilish xollari avj olishini bilishgan.

Hozirgi kunda ko'pchilik rivojlangan davlatlar huquqiy davlat g'oyasini hayotga tadbiq etish yo'lidan ketmoqda va bu sohada katta yutuqlarga erishmoqda. Ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiyalarida u yoki bu shaklda huquqiy davlat g'oyasi mustahkamlangan.

Huquqiy davlat - bu huquq hukmronligi, qonun ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, insonning huquq va erkinliklari e'tirof etiladigan va kafolatlanadigan, hokimiyatni tashkil etish hokimiyatlar bo'linishiga asoslanadigan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlat barpo etish vazifasi juda murakkab jarayon bo'lib, u qator ko'rsatkichlarga, sifatiy jihatlarga erishishni taqo-zo etadi, quyida biz shularga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquq hukmronligi - bu davlatning barcha fuqarolari, ya'ni oddiy fuqarodan tortib, to eng yuqori mansabdor shaxslargacha barchaning birdek huquq bilan bog'liqligi, huquq oldida birdek javobgarligidir.

Bu - barcha davlat organlari, idoralar tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, jamoat birlashmalari, xususiy jamoalar, o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquq asosida kyechishi, ularning

huquq bilan bog'liqligidir. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi - bu ularning huquqiy jihatdan mustahkamlanganligi bilan cheklanmasdan, balki ularning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan ham kafolatlanishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqaro huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Unga ko'ra, inson va uning qadr-qimmat, erki va huquqlari eng oliy qadriyatdir. Jamiyatimizda mulkning turli shakllarining mavjudligi, ularning birdek huquqiy maqomga va himoyaga egaligi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor mu-nosabatlarining mavjudligi, demokratik institutlarning faoliya-ti, siyosiy va ma'naviy qarashlarning turli shakllari mavjudligi, mustaqil sudning shakllanishi yuzasidan olib borilayotgan ishlar inson huquqlarining real kafolatlanishiga olib borishi shubhasiz.

Huquqiy davlatning shakllanishi va amal qilishida hokimiyatning mohiyati va mazmuni masalasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Hokimiyatning bo'linishi prinsipi, ya'ni uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linganligi - hokimiyat vakolatlarining suiiste'mol qilinishining oldini oladi. Bu uch hokimiyat tarmog'i o'zaro bir-birini tiyib, muvozanatda ushlab turish asosida amal qiladi, hamda biri boshqasining vakolatini o'zlashtirib olmasligini nazorat qilib turadi.

Huquqiy davlatni qaror toptirish uchun yyetuk fuqarolik jamiyati shakllangan bo'lishi kerak. 2005 yil 28 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidalgan ma'ruzada ta'kidlanganidek, «Bizning asosiy va uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish. odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»¹. Bu maqsadga erishish uchun jamiyatimizda o'z-o'zini boshqarish asoslarini, fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish zarur, “davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”².

Fuqarolik jamiyatida turli jamoat birlashmalari, ijtimoiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar o'zaro birgalikda harakat qiladi, bunda bironta ham

¹ Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир». Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2005 йил 28 январ куни бўлган қўшма мажлисида маъруза. // Халқ сўзи. 2005 йил 29 январ. – Т.: Шарқ. 2005. 34-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболларининг асосий тамойиллари. – Т.: Ўзбекистон. 1995. 14 б.

mafkura rasmiy mafkura sifatida o`rnatilmaydi. Bunda jamiyatning o`zini-o`zi boshqarish asoslari kuchayadi va ken-gayadi, aholining ijtimoiy faolligi yuqori darajaga ko`tariladi, davlatning jamiyat, jamoat va xususiy shaxslar hayotiga aralashishi oqilona chegara doirasida cheklanadi.

“Fuqarolik jamiyati - ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvidan, ma’muriy tazyiqlardan xoli bo`lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir”<sup>1</sup>. Huquqiy davlat qurishdagi muhim bir holat - davlat va inson o`rtasidagi munosabatlarning o`zaro mas’uliyat asosida quri-lishidir. Davlat shaxsning kamoli, uning o`sib-unishi uchun, huquq va erkinliklari amalga oshishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi kerak, ayni paytda, fuqaro ham davlat oldida mas’ul, ya’ni u qonunlarga rioya etishi, o`ziga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan bajarishi lozim.

Huquq tizimida qonunning ustuvorligi - huquqiy davlatning belgilaridan biri bo`lib, u davlatning barcha, hammaga taaluqli normativ hujjatlari ichida qonunning yuqori o`rnini, nufuzini anglatadi. Buning ma’nosi shuki, Konstitutsiya va qonunlar boshqa qonunosti normativ hujjatlariga asos, baza bo`lib hisoblanadi. Amaldagi qonunlarga Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari, vazir-lik va davlat qo`mitalarining normativ xarakterdagi aktlari, mahalliy hokimiyat qarorlari - barcha-barchasi mos kelishi kerak, aks holda ular bekor qilinadi. Huquqiy davlatning muhim yana bir mu-him jihati - bu ham bo`lsa, davlatning ichki milliy qonunchiligining xalqaro huquq normalari va tamoyillariga mos kelishi zarurligidir. O`zbekiston xalqaro huquqning to`la huquqli subyekti sifatida, o`z hududida xalqaro normalarning ustuvorligini e’tirof etadi va ta’minlaydi, tegishli xalqaro konvensiyalarga qo`shiladi va hokazo.

Haqiqiy mustaqil sudning mavjudligi va sudning yuqori nufuzga egaligi - huquqiy davlatning hal qiluvchi belgilaridan muhimi ekanligi, shubhasizdir. Sud har qanday tashqi ta’sirlardan, har qanday ijtimoiy va davlat tuzilmalarining aralashuvidan xoli, faqat qonunga bo`ysunadigan mustaqil hokimiyatga aylanishi kerak. Bu albatta, juda murakkab vazifa.

Keyingi yillarda sud tizimini mustahkamlash bo`yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. I.Karimov ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to`qqizinchi sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek, “hokimiyatning uchinchi tarmog`i bo`lmish sud tizimini mustahkamlash, sudlarning mustaqilligini, ularning faqat qonunga bo`ysunishini kuchaytirish borasida mohiyat – e’tiboriga ko`ra mutlaqo

¹ Қаранг: Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. — Т.: “Шарқ”. 2002. - 164 б.

yangi qadamlar qo'yildi, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi"¹. Sudning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish borasidagi tadbirlardan biri, bu - prokuratura tizimi ustidan ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, uning ayrim huquqlarini chegaralash va qisqartirish, bu huquqlarning ko'pini sud organlariga olib berish masalasiga aniqlik kiritilganligidir.

Bu o'zgarishlarning maqsadi, odamlarda sud idoralariga jazolovchi organlarga qaraganday emas, balki insonning huquq va erkinlarini himoyalovchi tuzilma sifatida qarashlariga erishmoqdir.²

Huquqiy davlat barpo etishda erishish lozim bo'lgan ko'rsatkich va omillarning to'la amal qilishi uchun jamiyat va uning a'zolari yuksak umumiy madaniyatga, yuqori huquqiy ong va tafakkurga, axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi lozim, bularsiz yuqoridagi holatlarning amalga oshirilishi mavhum va mushkuldir.

O'zbekistondagi huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi say'i harakatlarni yanada chuqurlashtirish, ularga hozirgi kun realliklariga mos sur'at baxsh etish uchun qator tashkiliy-huquqiy ishlar amalga oshirilishi zarur. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy davlat qurish vazifasi, o'zida jahon davlatlari bu masalada erishgan tajriba va saboqlari hamda o'zimizning taraqqiyotimiz xususiyatlarini mujassamlashtirgan holda amalga oshmoqda va bu jarayonlar orqaga qaytmas, muqarrarlik xarakteriga ega bo'lib bormoqda. Siyosiy sohada eng muhim vazifalardan biri, real, kafolatlangan so'z, matbuot erkinligiga erishish, jamiyat va davlat hayotini oshkoralikka asoslantirish, shu maqsadda xususiy ommaviy axborot vositalari tizimini tez shakllantirish, siyosiy erkinliklarni to'la kafolatlanishiga erishmog'imiz kerak. Mamlakatdagi mavjud ko'ppartiyaviylikni amalda, real, ishlovchi ko'ppartiyaviy tizimga aylantirish, bu vazifaning amalga oshishi uchun avvalo jamiyatda oshkorolik, haqiqiy so'z va matbuot erkinligi qaror topishi kerak. Aytish kerakki, huquqiy davlat g'oyasi va uning O'zbekistondagi amaliyoti, jamiyatimiz oldinga ilgarilab borgani sari, taraqqiyotning har bir yangi bosqichi boshlangani sari yangi mazmun va mohiyat kasb eta boradi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Sodda qilib aytganda muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o'zi o'rta qo'yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini

¹ Каримов И. Ўша асар. 12-13 б.

² Бу ҳақда батафсил қаранг: Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: ТДЮИ.2003.225-241 с.; Ўша муаллиф: Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. Т.: ТДЮИ.2002.46 б

taqozo etadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo`lidagi yangi vazifalar demakdir. Bu - hayot qonuni biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz yo`q¹.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Huquqiy davlat to`g`risidagi ilk qarashlarning shakllanishi
2. Huquqiy davlat to`g`risidagi nazariyaning shakllanishi
3. Huquqiy davlat belgilari
4. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati
5. Fuqarolik jamiyati tarkibi va belgilari
6. Ijtimoiy davlat va uning huquqiy tabiati
7. Ijtimoiy davlatning belgilari
8. O`zbekiston davlatining ijtimoiy xarakteri
9. O`zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurishning nazariy-huquqiy masalalari.

¹ Каранг: Каримов И. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йуналишлари. –Т.: Ўзбекистон. 2002. 15 б.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1.RAHBARIY ADABIYOTLAR

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
- 1.2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. -Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
- 1.3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Т. 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
- 1.4. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан.- Т. 4. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 394 б.
- 1.5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. -Т. 5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
- 1.6. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. -Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- 1.7. Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.
- 1.8. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
- 1.9. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.
- 1.10. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
- 1.11. Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- 1.12. Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. -Т. 12. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
- 1.13. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.
- 1.14. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. –Т.: Ўзбекистон, 2006. –280 б.
- 1.15. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. –Т.: Ўзбекистон, 2007. –320 б.

1.16. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маърузаси./Халқ сўзи. 2007йил 31 август.№173. (4326).

1.17. Каримов И.А.Асосий мақсадимиз-юртимизда эркин ва обод, фаровон ҳаёт барпо этиш йўлини қатъият билан давом эттиришдир. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. /Халқ сўзи. 2007 йил 8 декабрь. №243. (4396)

NORMATIV-HUQUQIY AKTLAR

1) **«Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури»** Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси.—1997.—№ 9.

2) **"Ўзбекистон Республикаси референдуми тўғрисида"**ги қонун (Янги таҳрири) Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 30.08.2001 й. N 265-II N 9-10, 176 м. Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан ўзгартириш киритилган 03.12.2004 й. N 714-II Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2005, № 1, 18 м.

3) **"Ўзбекистон Республикаси Сенати тўғрисида"**ги Конституциявий қонун. 12.12.2002 йилда қабул қилинган. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2002, N 12, 213 м. Ўзбекистон Республикаси қонуни билан ўзгартириш киритилган 25.04.2003 й. N 482-II Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2003, N 5, 67 б.

4) **"Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик Палатаси тўғрисида"**ги Конституциявий Қонун.12.12.2002 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2002, N 12, 215 м. Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан ўзгартириш киритилган 25.04.2003 й. N 482-II Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2003, N 5, 67 м.

5) **"Прокуратура тўғрисида"**ги қонун (Янги таҳрири). 29.08.2001 й. N 257-II Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2001, N 9-10, 168 м. Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан ўзгар-

тириш киритилган 25.04.2003 й. N 482-II, 03.12.2004 й. N 714-II қонуни билан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2003, N 5, 67 м., 2005, № 1, 18 м.

6) **"Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида"**ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. 14.12.2000 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 2001, N 1-2, 8 м. 12.12.2003 й. N 568-II; 03.12.2004 й. N 714-II Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан ўзгартириш киритилган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномалари 2004, N 1-2, 18 м.; 2005, № 1, 18 м.

7) **"Судлар тўғрисида"**ги Ўзбекистон Республикаси қонуни (Янги таҳрири). N 162-II 14.12.2000 йилдаги қонун билан тасдиқланган 2001, N 1-2, ст. 10 07.12.2001 й. N 320-II, 12.12.2003 й. N 568-II; 03.12.2004 й. N 714-II Ўзбекистон Республикаси қонуни билан ўзгартириш киритилган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномалари 2002, N 1, 20 м.; 2004, N 1-2, 18 м.; 2005, № 1.

8) **"Сиёсий партиялар тўғрисида"**ги қонун. 26.12.1996 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 1997, N 2, 36 м. 20.08.1999 й. N 832-I, 12.12.2003 й. N 568-II, 30.04.2004 г. N 621-II, от 03.12.2004 г. N 714-II Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан ўзгартириш киритилган, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномалари 1999, N 9, 229 м.; 2004, N 1-2, 18 м.; 2004, N 5, 90 м., 2005, № 1, 1 м.

9) **"Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди тўғрисида"**ги қонуни. 30.08. 1995 йилда қабул қилинган. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 1995, N 9, ст. 178. 13.12.2002 г. N 447-II, 30.08.2003 г. N 535-II Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан ўзгартириш киритилган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномалари 2003, N 1, ст. 8; N 9-10, ст.149

10) **"Ўзбекистон Республикаси жамоат бирлашмалари тўғрисида"**ги қонун. 15.02. 1991 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Совети Ахборотномалари 1991, N 4, 76 м. 03.07.1992 й. N 664-XII, 25.04.1997 й. N 421-I, 26.12.1997 й. N 549-I, 12.12.2003 й. N 568-II, 30.04. 2004 й. N 621-II; 03.12.2004 г. N 714-II Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан ўзгартириш киритилган. 1992, N 9, 363 м. Ўзбекистон Республикаси Олий Совети Ахборотномалари; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 1997, N 4-5, 126 м.; 1998, N 3, 38 м.; 2004, N 1-2, 18 м.; N 5, 90 м.; 2005, № 1 18 м.

11) Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида ўлим жазосини бекор қилиш тўғрисида»ги 2005 йил 1 август Фармони. Халқ сўзи. 2005 йил 2 август.

12) Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қамоққа олишга санкция бериш ҳуқуқини судларга ўтказиш тўғрисида» ги 2005 йил 8 август Фармони. Халқ сўзи. 2005 йил 9 август.

DARSLIKLAR

1) Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Масъул муҳаррирлар Ҳ.Б.Бобоев, Ҳ.Т.Одилқориев.-Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи, 2000.-528 б.

2) Абдулаев М.И. Теория государства и права: Учебник.-СПб.: Питер, 2003. -397 с.

3) Теория государства и права: Учебник.Под ред. В.М.Корельского и В.Д. Перевалова.-М.: Норма - Инфра, 1998. -570с.

4) Марченко М.Н.. Теория государства и права. Учебник. Изд. втор. перераб. и допол. М.,: “Проспект”, 2004. 640-ст.

5) Проблемы общей теории права и государства. Учебник Под редакцией проф. В.С.Нерсисянца. М.: Норма-Инфра М. 2004. - 832 с.

6) Саидов А.Х., Тожиҳонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2 ж. Давлат назарияси. 1- ж. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Т.: 2001. - 336 б.

7) Саидов А.Х., У.Тожиҳонов. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2ж. Ҳуқуқ назарияси. 2 - ж. Т.2002. -560 б.

O`QUV QO`LLANMALAR

1. Аҳмедшаева М., Нажимов М. Ҳуқуқ нима? Т.: ТДЮИ, 2003.-35 б.

2. Аҳмедшаева М., Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Кирилл ва лотин алифбосида. Ўқув қўлланма Т.:2005 - 66б.

3. Сабуров Н. Қонунга итоаткор шахс (шахсий ва ижтимоий-ҳуқуқий фазилатлари). Т.:ТДЮИ,2003.-60б.

4. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-томли. Т.1. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – 316 б.

5. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-томли. Т.2. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – 447 б.

6. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. (Давлат назарияси). –Т.: Адолат, 2000. –272 б.

7. Эргешова Д.Қ., Нажимов М.К. “Юридик конфликтология”. Ўқув қўлланма. Т.: ТДЮИ. 2005. – 128б.
8. Исламов З. Общество. Государство. Право. – Т.: Адолат, 2001. 695б.
9. Исломов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Т.:ТДЮИ, 2004. –138б.
10. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқнинг умумназарий муаммолари: ҳуқуқни тушуниш, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқ ижодкорлиги. Т.: ТДЮИ, 2005. –187 б.
11. Холмўминов Қ.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси.-Т.: 2000. -116 б
12. Нажимов М. Давлат ва унинг экологик функцияси. –Т.: Янги аср авлоди, 2002. -34 б.
13. Григонис Э.П. Теория государства и права: Курс лекций.-СПб.: Питер, 2002. -320 с.
14. Проблемы теории государства и права. Учебное пособие. (под ред. М.Н. Марченко). М.: “Проспект”,2004.
15. Общая теория государства и права: Академический курс в 2-х томах. Под ред. М.Н. Марченко. Том 2. Теория права. -М.: Зерцало, 1998. –640 с.
18. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси./ Мас. муҳ. академик, ю.ф.н. проф. Ҳ.Раҳмонкулов, ю.ф.д. проф. Ҳ.Бобоев. Т.: Адолат, 2007, 916-б.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Агзамходжаев А. Правовые основы государственной независимости Республики Узбекистан. / Отв.ред. А.Х.Саидов. -Т.: Ўзбекистон, 1993. -93 с.
2. Бобоев Ҳ.Б., Қаҳҳоров А. Демократик конституциянинг ижтимоий-ҳуқуқий қирралари. -Т.: Ўзбекистон, 2000. -77 б.
3. Болтаев А.Р., Юлдашева З.А. Концепция разделения властей и ее воздействие на реформирование высших органов власти Узбекистана. – Т.: ТГЮИ, 2002. –32 с.
4. Джумабоев К.Н. Теория разделения властей: история и современность. –Т.: Академия МВД, 1997.
5. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. -Т.: Шарқ, 1998. -143 б.
6. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Т.: “Ўзбекистон” 2005. 262 б.

7. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. –Т.: ТДЮИ, 2002, -87 б.
8. Исламов З.М. Проблемы власти: ее понимание, назначение, социальная ценность.-Т.: ТГЮИ, 2003. –244 с
9. Каримова Л.А. Ўзбекистон Республикасининг давлат рамзлари. Ўзбекистон Республикаси – мустақил давлат / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 1995. –232 б.
10. Конституция ва қонунларнинг устунлиги- Ўзбекистон, тараққиётининг қафолати (илмий-амалий конференция материаллари). –Т.: Адолат, 2000.
11. Мухамедов Х. Ўзбекистон давлатчилигининг ҳуқуқий асослари. –Т.: Адолат, 1999. –52 б.
12. Мирхамидов М. Государственный суверенитет и становление современной узбекской национальной правовой государственности. – Т.: Фан, 1994, -44 с.
13. Одилқориев Х., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси,Т.,2005. –344 б.
14. Одилқориев Х. Ҳокимиятлар тақсимланиши назарияси ва Ўзбекистон давлат органлари тизимининг такомиллашуви. Ўзбекистон Республикаси – мустақил давлат. -Т.: Адолат, 1995. –232 б.
15. Одилқориев Х.Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни. -Т.: Ўзбекистон, 1995. –208 б.
16. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. –Т.: Шарқ, 2002.-320 б.
17. Право XX века: Идеи и ценности: Сб. обзоров и рефератов. РАН. ИНИОН. Отв. ред. Пивоваров Ю.С.-М., 2001. –328 с.
18. Правовое государство, личность, законность. Кол. авторов.-М., 1997. –138 с.
19. Ражабова М. Ҳуқуқий давлатчилик сари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
20. Саидов А. Общепризнанные права человека. – М.: МЗ Пресс, 2002. -267 с.
21. Саидов А.Х. Кўчимов Ш.Н. Қонунчилик техникаси асослари.-Т.: Адолат, 2001. –279 б
22. Саидов А.Х., Таджиханов У., Тошқулов Ж.Ў. Мустақиллик ва ҳуқуқий мафкура. –Т.: 1995. -117 б.
23. Уразаев Ш.З. Модель закона: Какой ей быть? – Т.: Фан, 1990.-48 с.
24. Уразаев Ш.З. Власть и закон. –Т.: Фан, 1992. -52 с.

25. Ўразаев Ш.З. Мустақил Ўзбекистон Конституцияси. -Т.: Адолат, 1994. –112 б.
26. Файзиев М.М. Законодательство Республики Узбекистан в человеческом измерении. –Т..Фан, 1996.
27. Файзиев М.М. Ўзбекистон Конституцияси – мустақиллик қомуси.– Т.: 1995.
28. Файзиев М.М. Мустақиллик нима? –Т.: Адолат, 1992. –60 б.
29. Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар.-Т.: Ўзбекистон, 2001. –384 б.
30. Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгинг ўрни. Правосознание в структуре общественной жизни. -Т.: Ўзбекистон, 1997. – 48 б.
31. Ўзбекистон: фуқаролик жамияти сари. Узбекистан на пути к гражданскому обществу. Отв. ред. Р.Алимов. –Т.: Шарқ, 2003. -304 с.
32. Ўзбекистон Республикаси Парламенти: бугуни ва истикболи, халқаро илмий-амалий анжуман конференция материаллари. –Т.: 2002. -215 б.
33. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-давлат ва жамият ислохотининг ҳуқуқий асоси. Илмий-амалий конференция материаллари. –Т.: ТДЮИ, -328 б.
34. Қонун ижодкорлигида жамоатчилик фикридан фойдаланиш. I фасл. -Т.: Адолат, 1998. –28 б.
35. Одилқориев Х.Т., Ш.Ғ.Ғоибназаров. Сиёсий маданият. Тошкент. 2004. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 304б.
36. Одилқориев Х.Т. Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. – Т.: ”O’qituvchi”. НМИУ. 2008. 344б.
37. Общая теория права. Под общ. ред. А.С.Пиголкина. -М., МГТУ, 1995. –384
38. Матузов Н.И. Правовые отношения Теория государства и права. Курс лекций. Саратов, 1995.
39. Марченко М.Н. Проблема теория государства и права. М.Проспект. 2004. С. 640.
40. М.Н.Марченко. Теория государства и права. Изд. втор. перераб. и допол. – М.: “Проспект”, 2004.
41. Теория государства и права. Курс лекций. Под. ред. Н.И. Матузова, А.В.Малько. – М.: Юристъ, 1999. -672 с.
42. Чашин А.Н. Теория государства и права: учебник. –М.: Дело и Сервис, 2008. -688 с.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-Mavzu: “Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari” maxsus kursining predmeti va metodlari.....	8
2-Mavzu: Davlatning mohiyati va uni tushunish muammolari.....	25
3-Mavzu: Davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmi muammolari.....	51
4-Mavzu: Davlatning shakli va funksiyalari muammolari.....	79
5-Mavzu: Huquqning tushunchasi, mohiyati va qiymati.....	106
6-Mavzu: Ijtimoiy tartibga solish tizimida huquq.....	135
7-Mavzu: Inson huquqlari mohiyati, tushunchasi va normativ shakli.....	157
8-Mavzu: Pozitiv huquq tizimi va kategoriyalari.....	175
9-Mavzu: Huquq harakati jarayoni va huquqni amalga oshirish shakllari.....	203
10-Mavzu: Qonuniylik va huquqiy tartibot muammolari.....	224
11-Mavzu: Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik.....	244
12-Mavzu: Huquq samaradorligi muammolari.....	261
13-Mavzu: Yuridik konfliktologiya.....	272
14-Mavzu: Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati: shakllanish tarixi va hozirgi zamon.....	283
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	304

HOZIRGI ZAMON DAVLATI VA HUQUQI NAZARIYASI MUAMMOLARI

O`QUV QO`LLANMA

Texnik muharrir:
Kompyuterda sahifalovchi:
Dizayner:

Bosishga ruxsat etildi: ----- 2009 y.
Bosma tabog`i: 19,5. Adadi: 1000 nusxa. Buyurtma: № ---

Narxi shartnoma asosida

«-----» bosmaxonasida chop etildi.
100047 Toshkent shahri